

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

Ro‘yxatga olindi

№ _____

« _____ » 2022 yil



TASDIQLAYMAN

O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor

O.Zaripov

2022 yil « 29 » 06

Kafedra: “Axborot texnologiyalari”

**“Iqtisodiyotda axborot-kommunikatsion texnologiyalar
va tizimlar”**

FANIDAN

O‘QUV-USLUBIY MAJMUA

Bilim sohasi: 200 000 – Ijtimoiy soha. Iqtisod va huquq

Ta‘lim sohasi: 230 000 – Iqtisod

**Ta‘lim yo‘nalishi 5231900 – Korporativ boshqaruv
5230100-Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar
bo‘yicha)
5230200-Menejment (tarmoqlar va sohalar
bo‘yicha)**

Toshkent-2022

O'quv-uslubiy majmua Toshkent davlat texnika universiteti № _____ raqam bilan ro'yhatga olingan va 2022 yil "___" _____ da _____ sonli buyruq bilan tasdiqlangan fan dasturi asosida tuzilgan.

Tuzuvchilar: **Kadirov M.M.** – Toshkent davlat texnika universiteti «Axborot texnologiyalari» kafedrasida dosenti;

To'laganov Z.Ya. - Toshkent davlat texnika universiteti «Axborot texnologiyalari» kafedrasida katta o'qituvchisi.

Elmurodov T. D. - Toshkent davlat texnika universiteti «Axborot texnologiyalari» kafedrasida katta o'qituvchisi.

Rihsiboyeva F.B. - Toshkent davlat texnika universiteti «Axborot texnologiyalari» kafedrasida

O'quv-uslubiy majmua Elektronika va avtomatika fakultetining «Axborot texnologiyalari» kafedrasida majlisida (2022 yil 24.02 1-son bayonnoma) muhokama etildi va fakultetning o'quv-uslubiy kengashiga tavsiya etildi.

Kafedra mudiri



Sagatov M.V.

Kotib



Akbarova Sh.A.

O'quv-uslubiy majmua Muhandislik texnologiyalari fakultetining o'quv-uslubiy kengashida ko'rib chiqildi (2022 yil "___" _____ - son bayonnoma) va universitetning Ilmiy-uslubiy kengashiga tasdiqlashga topshirildi.

O'quv-uslubiy kengash raisi _____

Kotib _____

O'quv-uslubiy majmua universitetning Ilmiy-uslubiy kengashida ko'rib chiqildi va tasdiqlandi (2022 yil 29.04 12-son majlis bayonnomasi).

Ilmiy-uslubiy kengash kotibi



N.Mambetov

MUNDARIJA

Bet

1. Ma'ruzalar mavzulari (fan dasturiga muvofiq modullar tarkibida berilishi mumkin).....	5
Mavzu bo'yicha reja, tayanch so'z va iboralar, asosiy matn, illyustrativ materiallar, xorijiy adabiyotlarga xavolalar.....	6
Amaliy mashg'ulotlar mavzulari, asosiy matn, topshiriqlar, variantlari, masala va misollar, ko'rsatmalar.....	117
Laboratoriya ishlarini mavzulari, asosiy matn, zarur asbob-uskunalar, xorijiy adabiyotlarga xavolalar.....	177
Mustaqil ta'lim mashg'ulotlari, mavzulari, shakli, ko'rsatmalar, variantlar, tushuntirishlar, boshqa ma'lumotlar.....	203
2. Glossariy	205
3. Ilovalar:	213
- fan dasturi	214
- ishchi fan dasturi.....	220
- tarqatma materiallar.....	220
- testlar	229
- baholash mezonlari.....	241
-qo'shimcha materiallar.....	243
- O'UM elektron varianti.....	
4. Foydalanilgan adabiyotlar.....	304

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI



**“Iqtisodiyotda axborot-kommunikatsion texnologiyalar
va tizimlar”**

fanidan

MA‘RUZA MASHG‘ULOTLARI

Маъруза машғулоти.
1-modul. Axborot-kommunikatsion texnologiyalari

- 1-mavzu. “Iqtisodiyotda axborot-kommunikatsion texnologiyalar va tizimlar” faniga kirish.**
- 2-mavzu. Tarmoq axborot texnologiyalari. Iqtisodiyotda tarqatilgan axborotni qayta ishlash tizimlaridan foydalanish.**
- 3-mavzu. Iqtisodiyot va biznes sohasidagi axborot texnologiyalari.**
- 4-mavzu Ma’lumotlar bazalarini boshqarish tizimlaridan (MBBT).**
- 5-mavzu. Iqtisodiy muammolarni hal qilishni tashkil etish va avtomatlashgan buxgalteriya hisob jarayonlarini o’rganish.**
- 6-mavzu. Iqtisodiyotda avtomatlashtirilgan axborot tizimlarini loyixalash.**
- 7-mavzu Tarmoq texnologiyalari va Internet xizmatlari.**
- 8-mavzu. Iqtisodiy axborot tizimidagi intellektual axborot texnologiyalari**
- 9-mavzu. Iqtisodiy axborot tizimlarida telekommunikatsiya texnologiyalari**
- 10-mavzu. Kiberxavfsizlik tushunchasi. Iqtisodiy tizimlarda axborotlarni himoyalash usullari**
- 11-mavzu. KIAT (korporativ iqtisodiy axborot tizimlari)da axborot xavfsizligini tashkil etish..**
- 12-mavzu. Elektron xukumat.**
- 13-mavzu. Soliq axborot tizimi**
- 14-mavzu. Bank axborot tizimi.**
- 15-mavzu. Elektron biznes va Mobil-tijorat.**

1-ma'ruza. "Iqtisodiyotda axborot-kommunikatsion texnologiyalar va tizimlar" faniga kirish.

Reja:

1. Jamiyatda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining asosiy masalalari va yo'nalishlari.
2. O'zbekiston respublikasida AKT sohasidagi Davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari. AKTning rivojlanishi bo'yicha ijrodagi qonunlar, buyruqlar va qarorlar.
3. Texnik sohalarda va boshqaruvda AKTning roli.

Tayanch so'z va iboralar: axborot, axborot texnologiyalari, axborot texnik tizimlar, dasturiy ta'minot, apparat ta'minot adekvatlilik, axborotlashgan jamiyat, axborot tizimlari, konfiguratsiya, interfeys

1.Jamiyatda AKTni rivojlantirishning vazifa va yo'nalishlari.

XXI asr boshi jamiyatning barcha hayot sohaslarini axborotlashtirish, globalashtirish va texnikalashtirish bilan xarakterlanadi, bu esa o'z navbatida fan, ta'lim, ishlab chiqarish va boshqaruvning jahon miqyosidagi keyingi rivojlanish tamoyillarini belgilab beradi. Barcha davlatlarda iqtisodning rivojlanishi, turli sohalardagi kompaniyalarning ish faoliyatining kengayishi, axborotlarning yig'ish, uzatish, himoyalash kabi tizimlarini takomillashtirish talabi, ishlab chiqarishning samarasini oshirish harakatlari – bularning hammasi har bir davlatda turli sohalarni axborotlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash jarayonlarini bajarish talabani belgilovchi faktorlardir.

Ma'lumki, texnik sivilizatsiyaning rivojlanish masalasini hal etishda axborotlashtirishni kompyuter va kommunikatsiya texnologiyalari asosida olib borishdan boshqa alternativ yo'l yo'q bo'lsa kerak. Axborot eng muhim va bebaho resurs bo'lgan axborotlashgan jamiyatda mamlakatning rivojlanish darajasi uni axborotlashtirish darajasi bilan baholanmoqda. Shuni ta'kidlash mumkinki, hozirgi kunda axborot yurituvchi kuchning asosiy mahsuloti sifatida qaraladi, axborot texnologiyalari esa jamiyatning axborot resurslarini aktivlashtirish va samarali foydalanishning muhim vositasidir. Shuning uchun AKTni jadal rivojlantirish va takomillashtirish masalasi hozirgi kunda mamlakat va jahon miqyosida strategik jihatdan muhim masalaga aylandi.

Hozirgi sharoitda har bir jamiyat va uning institutlarining zamonaviy AKT vositalari yordamida axborotni yig'ish, ishlov berish, tahlil qilish, tizimlashtirish kabi qobiliyati ijtimoiy va texnologik progresning muhim dalilidir. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiya vositalaridan faol foydalanish natijasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari tushunchasi ishlatilmoqda.

Axborot texnologiyalari deb — biror ob'yekt holati haqidagi yangi, sifatli axborotga ega bo'lish uchun, birlamchi axborotni yig'ish, qayta ishlash va uzatish vositalari yig'indisidan foydalanish jarayoniga aytiladi.

AKT deganda axborot texnologiyalari, telekommunikatsiya va internet kompaniyalarning yaxlit bir butun texnik tizimini tushunish kerak, ular axborot mahsulotlarini yaratish, ishlov berish, saqlash, tarqatish, ifodalash va foydalanish amallarining tizimli tashkil etilgan ketma-ketligini ifodalaydi.

AKT vositalari deganda dasturiy, dasturiy-apparat va texnik vosita va qurilmalar tushuniladi, bu vositalar mikroprotssesorli hisoblash texnikasi, hamda axborotni o'girish, qayta ishlash, yig'ish, saqlash, almashtirish amallarini bajaruvchi zamonaviy vositalari bazasida ishlaydi.

AKTning tarkibi va mohiyatini tushunish uchun uning strukturasi ko'rib chiqamiz. Olimlar AKT sohasining bir nechta segmentlar sinflarini ajratadilar, lekin bunda umumiy yondashuv belgilanmagan.

AKTning ta'rifini tahlil qilinganda uning 3ta asosiy segmentini ajratish mumkin:

1. Axborot texnologiyalari sohasi.
2. Telekommunikatsiya sohasi.
3. Internet-kompaniyalar.

Axborot texnologiyalari sohasi.Yunesko tomonidan tasdiqlangan ta'rifga ko'ra Axborot texnologiyalari o'zaro bog'langan ilmiy, texnologik, muhanislik fanlarining kompleksini ifodalaydi. Bu kompleks axborotga ishlov berish, insonlarning hisoblash texnikasi bilan muloqot qilish, amaliy

qo'llash, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy aspektlarini o'rganishning usullarini o'rganadi. Axborot texnologiyalari sohasi intellectual va vositachi bo'lgan electron xizmatlarni ifodalaydi. Ular apparat ta'minot, dasturiy ta'minot, AT-xizmatlari sohasi, apparat va dasturiy ta'minlash sohaslarini o'z ichiga oladi.

Apparat ta'minoti. Xisoblash tizimining apparat ta'minotiga apparat konfiguratsiyasini tashqil qiluvchi qurilmalar kiradi. Zamonaviy kompyuterlar va xisoblash komplekslari modul blokli konstruksiyaga ega, ya'ni apparatli konstruksiyaga ularni tayyor tugunlar va bloklardan yigish mumkin.

Dasturiy ta'minot. Dastur – bu buyruqlar kema-ketligidir. Har qanday kompyuter dasturining maqsadi apparat vositalarini boshqarishdir. Kompyuterning dasturiy va apparat ta'minoti bir-biri bilan uzviy bog'langan holda ishlaydi. Hisoblash tizimining dasturiy ta'minoti tarkibi dasturiy **konfiguratsiya** deb ataladi. Ko'pgina dasturlar boshqa pastroq darajadagi dasturlarga suyanadi, bunday hol **dasturiy interfeys** deb ataladi. Bunday interfeysning borligi, texnik sharoitning borligiga va protokollarning uzviy bog'ligligiga asoslangan bo'lib amalda o'zaro ta'sir etuvchi bir nechta satxlarga dasturiy ta'minotni bo'lib beradi. Dasturiy ta'minotning satxlari piramida konstruksiyasiga ega. Bu soha quyidagilardan iborat:

-birinchi, tizim dasturiy ta'minot barcha apparat ta'minoti vositalarini va mavjud dasturlarni uzviy bog'lash funktsiyasini bajaradi va axborotni qayta ishlashni ta'minlaydi. Asosiy komponentasini bu erda operatsion tizim dasturlari tashkil qiladi.

-ikkinchidan, uskunaviy(instrumental) dasturiy ta'minot bolib dasturlarni loyihalash, ishlab chiqish va kuzatishga mo'ljallangan. Bunga dasturiy tizimlar, ma'lumotlar omborini boshqarish tizimlarini va boshqalar kiradi. Uskunaviy(instrumental) dasturiy ta'minot yordamida amaliy dasturlar yaratiladi va foydalanuvchilarga taqdim etiladi.

-uchinchi, amaliy dasturiy ta'minot bu foydalanuvchilarning masalalarini echishga qaratilgan vositalar to'plamidir. Natijada avtomatlashtirilgan ish jo'rlar tashkil qilinadi.

Axborot texnologiyalarini xizmat sohasi – axborot maxsulotlarini to'plami bo'lib foydalanuvchilarga taqdim etiladi. Sohaning asosiy segmentlari:

1. Loyihalashga qaratilgan xizmat.(loyiha ko'rinishida faoliyat faoliyat bo'lib, foyda olishga yordam beradi. Bu xizmatga quyidagilar kiradi
 - konsalting(loyihalashga qaratilgan faoliyat bo'lib, biznes jarayonlarni qo'llab-quvvatlab mustaqil axborot texnologiyalarini effektiv ekspert baholashga mo'ljallangan.
 - tizimli integratsiya (bu faoliyat amaliyot tizimlarini, ma'lumotlar ombori tizimlari, muloqot vositalari, berilganlarni sozlash, Internetga ulanish ularni o'rnatish va sozlash)
 - buyurtma dasturiy ta'minotni ishlab chiqish.
2. Outsorsing- yonaltirilgan xizmat - ish yurituvchiga ichki va tashqi servislarni buyuruvchi tomonidan uzatish. Ular infrastrukturani elementlarini qo'llaydi, dasturiy va texnika vositalaridan foydalaniladi. Bu xizmatning asosiy elementi AT-outsorsingdir.
3. Quvvatlash va treningga qaratilgan xizmatlar-faol AT o'qitish usullari, bilimlar, ko'nikmalarni rivojlantirish.

Uskunalarni ishlatish va dasturiy ta'minlash sohasi – global ulgurji savdo tarmog'i bo'lib, dasturiyva apparat ta'minotni tarqatish bilan bog'liq. Buning asosiy maqsadi AKT texnologiyalari har bir insonning ajralmas xossasiga aylanishidir.

Axborot texnologiyalari sohasi kompyuter texnikasi, kommunikatsiya vositalarini, dasturiy ta'minotni to'plami bo'lib, axborot jarayonidagi masalalarni effektiv tashkil qilishdir.

Telekommunikatsiya sohasi. Telekommunikatsiya sohasi telekommunikatsiyaning operatorlar-muassasalari yig'indisini ifodalab, ular o'zaro bog'langan va umumiy ishlab chiqarish jarayoniga kiritilgan texnologik strukturalarga ega. Ushbu soha telekommunikatsion xizmatlar va telekommunikatsion qurilmalar sohasini o'z ichiga oladi.

Telekommunikatsion xizmatlar sohasi telekommunikatsiya sohasida ehtiylarni ta'minlovchi operatorlar va provayderlar faoliyatini birlashtiradi. U o'zining tarkibiga quyidagilarni olgan:

– simli aloqa xizmatlari – o'tkazish liniyalari orqali axborotni uzatish va olish jarayonlarini bajaruvchi xizmatlar;

– simsiz aloqa xizmatlari – radiotexnologiyalarni qo'llovchi elektraloqani ta'minlashga qaratilgan faoliyat;

– axborotlarni uzatish xizmatlari – telekommunikatsiya tarmoqlari yoramiya axborotni uzatish faoliyati;

– telematik xizmatlar – ijrochi tizimlar parametrlarini boshqarish va o'lchashga qaratilgan axborotlarga kirish va qayta ishlash xizmatlaridir.

Telekommunikatsion uskunalar sohasi – sohalar to'plami bo'lib audio/video va boshqa axborotni uzatishni ta'minlab, har hil toifadagi qurilmalar bilan aloqani o'rnatish vasifasini bajaradi. Bu uskuna telekommunikatsiyaning apparat ta'minotiga kiradi.

Telekommunikatsiya sohasi sanoat ishlab chiqarish sohasini, xizmat sohasini va foydalanuvchilarni bog'lovchi qismdir.

Zamonaviy telekommunikatsiya vasitalari ijtimoiy birlik va madaniy rivojlanishni kerakli sharti bo'lib qolmoqda.

3. Internet kompaniyalar – bular Internet orqali o'z faoliyatini amalga oshiradigan firmalar bo'lib, ular mahsulotlarni tarmoq orqali tarqatish va sotish bilan shug'ullanadilar. Ular tarmoq orqali turli xizmatlarni bajaradilar, masalan, izlash, axborot, reklama, savdo va boshqalar. Bu kompaniyalarning ishlashi bevosita axborot texnologiyalari bilan bog'liq.

2. Davlat siyosatining AKT sohasini rivojlantirish bo'yicha asosiy yo'nalishlari. Ijrodagi qonun, farmon va buyruqlar.

Zamonaviy axborot-kommunikatsiyalarni qo'llash har bir mamlakatning rivojlanishida muhim shartlaridan biridir. Bundan O'zbekiston ham istisno emas.

AKTni rivojlantirish iqtisodning barcha sohalarini va davlatni boshqarish sohalarini qamrab oluvchi intensivlashtirish va diversifikatsiyaga qaratilgan maqsadli tendensiyaga ega.

Oxirgi yillar hodisalari AKTning ahamiyatini tasdiqlovchi bir qancha dalillarni ko'rsatib berdi.

Davlat rahbariyati AKTning o'zi O'zbekistonda rivojlanishining juda ko'p masalalarini hal etishning asosiy vositasi emasligini tushunadi. Lekin, oxirgi yillarda qabul qilingan qarorlar, shuni ko'rsatadiki, axborot strukturalarini rivojlantirish va ta'limni qo'llab-quvvatlash, bilimlarni va axborotlarni qo'llashga qaratilgan huquqiy va regulyativ muhitni yaratish mamlakat rivojlanishiga katta xissa qo'sha oladi. Bu ma'noda AKT ni qo'llash rivojlanishning yurgizuvchi faktori bo'lib hisoblanadi, bu esa 2000-2004 yillardagi PROON va O'zbekiston tomonidan tasdiqlangan qaydnomada qabul qilingan.

AKTni rivojlantirish aholining turmushini yaxshilash va iqtisodiy darajasini ko'tarishning asosiy faktori bo'lib, O'zbekiston davlati siyosatining asosiy ustivor yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Ahamiyatli izlanishlar ikki hil tendensiyani ko'rsatdi:

- yakkalanish natijasida davlatlar yangi toifa "bilim jamiyatining" masalalariga e'tibor bermaydi.

- yangi siyosatni yani, AKTni qo'llab va foydalanishni qabul qilgan davlatlar rivojlanishda ahamiyatli o'ringa egadirlar. O'zbekistonning rivojlanayotgan dunyo iqtisodiyotida integratsiya tezligi sotsializmdan qolgan merosdan qutulish siyosat institutlarini va boshqarish mexanizmlarini tezda modernizatsiyalashga bog'liq. Bu rejada AKT yangilash reformalarini asosiy yonaltirilgan kuch bo'lib, davlatimizning iqtisodiy rivojlanishiga yangi katta imkoniyatlarni taqdim etadi. AKTning rivojlanishi kop o'lchamli kompensasiya bo'lib, bir-biri bilan bog'liq bo'lgan komponentarga dasturiy yondashishni talab etadi. Davlatlar aro va donor jamiyatlarning harakatlarini muvofiqlashtirish, moliya resurslarni qo'llash, yangi hamkorlik munosabatlarni rivojlantirish yaxshi natijalarga erishishni ta'minlaydi. Taqdim etilgan yechimlar milliy strategiya va prioritetlarga mos kelib, davlat tomonidan qo'llab – quvvatlanishi lozim. Umuman olganda faqat AKT sohasidagi masalalar davlat tomonidan yechiladigan muammolarni xal qilmaydi. Ammo, qabul qilingan barcha huquqiy - qonuniy aktlar yordamida axborot infrastrukturallari rivojlanishiga bilimlar va axborotni qo'llanilishiga va natijada davlatning umumiy rivojini ta'minlaydi.

1-jadvalda AKT sohasidagi qonunlar va normative hujjatlar keltirilgan.

№	Qabul qilingan sanasi	Hujjat nomi
1.	30.05.2002 yil.	Prezident farmoni № 3080, «Kompyuterlashtirishni rivojlantirish va AKTni takomillashtirish»
2.	12.12.2002 yil.	Qonun № 439-II, «Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari»
3.	06.06.2002 yil.	Qaror № 200 «Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot – kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»
4.	27.09.2002 yil.	Qaror № 336 «Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish to'g'risida»
5.	11.12.2003 yil.	Qonun № 560-II «Axborotlashtirish»
6.	11.12.2003 yil.	Qonun № 562-II «Elektron raqamli imzo»
7.	29.04.2004 yil.	Qonun № 611-II «Elektron hujjat almashinuvi»
8.	29.04.2004 yil.	Qonun № 613-II «Elektron tijorat»
9.	2.06.2005 yil.	Qaror № 91 «Axborot tizimlari muhitida kadrlar tayyorlashni takomillashtirish»
10.	05.09.2005 yil.	Qaror № 167 «Milliy axborot tizimlarida kompyuter muhofazasini ta'minlashda qo'shimcha choralar»
11.	28.09.2005 yil.	Qaror № 191 «O'zbekiston respublikasining jamiyat ta'lim axborot tarmoqni yaratish to'grisida».
12.	22.11.2005 yil.	Qaror № 256 «Axborotlashtirish sohasida normativ huquqiy bazani takomillashtirish to'g'risida»
13.	28.12.2005 yil.	Qaror № 282 «ZiyoNET Axborot tarmog'ini yanada rivojlantirish to'g'risida».
14.	03.04.2007 yil.	Qaror № 614 «O'zbekiston respublikasida axborotni kriptografik muhofazasini tashkil etish choralari to'grisida»
15.	17.12.2007 yil.	Qaror № 259 «Internet tarmog'ida O'zbekiston respublikasining Hukumat portalining yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida».
16.	03.12.2015 yil.	Qonun №49 «Elektron hukumat to'g'risida»

3. Texnik sohalarda va boshqaruvda AKTning roli

2013 yilda bo'lib o'tgan respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yakunlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi majlisida mamlakat oldida milliy axborot texnologiyalarini tizimlarini rivojlantirishning kompleks dasturida belgilangan choralarni o'z vaqtida bajarish yahshi samaralarga olib keladi. Respublikada kompyuterlashtirish va axborot kommunikatsiya texnologiya-larini rivojlantirishga doir muayyan vazifalar "Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to'g'risida"gi Farmonida belgilab berilgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2002 yil 6 iyun 200-sonli "Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorida o'z aksini topgan. Axborotlashtirishning milliy tizimini shakllantirish, iqtisodiyot va jamiyat hayotining barcha sohalarida zamo-naviy axborot texnologiyalarini, kompyuter texnikasi va telekommunikatsiya vositalarini ommaviy ravishda joriy etish, hamda ulardan foydalanish. Shuningdek, fuqarolarning axborotga ortib borayotgan talab va ehtiyojlarini yanada to'liqroq qondirish, jahon axborot hamjamiyatiga kirish, hamda jahon axborot resurslaridan bahramand bo'lishni kengaytirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan bo'lib, Farmonda kompyuterlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish va ularning zamonaviy tizimlarini joriy etish birinchi galdagi eng muhim vazifalar sifatida e'tirof etilgan. Axborot tizimi jamiyat va har bir tashkilot uchun quyidagilarni bajarishi lozim:

1. Axborot tizimining tuzilmasi va uning qo'llanilish maqsadi, jamiyat va korxonada turgan vazifa bilan to'g'ri kelishi kerak. Masalan; tijorat firmasida – foydali biznes, davlat korxonasida ijtimoiy va siyosiy vazifalarni bajarishi kerak.

2. Axborot tizimi inson tomonidan boshqarilishi va ijtimoiy etika printsiplari asosida foyda keltirishi kerak.

3. To'g'ri, kafolatli va o'z vaqtida axborotlarni mijoz yoki tizimlarga etkazishi lozim

Nazorat savollari:

1. Axborot texnologiyalari deganda nimani tushunasiz?

2. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari deganda nimani tushunasiz?

3. Zamonaviy jamiyatda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o'rni?

4. AKTni qo'llash mumkin bo'lgan sohalarni sanab bering?

2-ma'ruza. Tarmoq axborot texnologiyalari. Iqtisodiyotda tarqatilgan axborotni qayta ishlash tizimlaridan foydalanish.

Reja.

1. Tarmoq axborot tizimlarining umumiy ta'rifi;

2. Tarmoq xisobida avtomatlashtirilgan axborotlar texnologiyalari;

3. Yirik korxonalar xisobi masalalarini kompyuterda qayta ishlash texnologiyalari;

4. Kichik va o'rta biznes korxonalarida buxgalteriya xisobini avtomatlashtirish tizimlari.

5. Tarmoq avtomatlashtirilgan axborot tizimlarining axborot, texnik va dasturiy ta'minotini tashkil qilish asoslari

6. Tarmoq tizimining modullari va ular orasidagi xisob-kitobni avtomatlashtirish

7. Tarmoq ma'lumotlar almashinishning xalqaro tizimi SWIFT ning paydo bo'lishi va rivojlanishi haqida tushuncha.

Tayanch iboralar: buxgalteriya xisobi, moliyaviy xisob, ish xaqi va meqnat xisobi, statistik xosobotlar, provodkalar, dalolatnoma, balans, ichki auditor, banklardagi nazorat, balansli schyot, kredit, depozit, debet, debitor qarzdorlik, kreditor qarzdorlik, bank boshqaruv tuzilmasi, departamentlar, bank korrespondent schyotlari, SWIFT, valyuta-konversiya operatsiyalari, fors-major.

Adabiyotlar: «Бухгалтерга электрон мадад» («БЭМ») миллий дастурий махсулотидан фойдаланувчилари учун ўқув қўлланма. Т.: 2010; Фуломов С.С., Бегалов Б.А. Иқтисодий информатика/ Тошкент, «Ўзбекистон»: 2010 й.

1. Buxgalteriya xisobi axborot tizimlarining umumiy ta'rifi

Iqtisodiyotni boshqarishdagi o'zgarishlar, bozor munosabatlariga o'tish, buxgalteriya xisobining xalqaro tizimlariga o'tishi va informatsion texnologiyalarning barcha soqalarda keng miqyosda tadbiq etilishi ta'sirida buxgalteriya xisobining axborot tizimi va uni kompyuterda ishlab chiqishni tashkil qilishning an'anaviy shakllari katta o'zgarishlarga uchragan. Xozirgi paytda xisobchidan korxonada moliyaviy xolatining ob'ektiv xolatini bilish, moliyaviy taqtil usullarini qo'llay olish, qimmatli qoqozlar bilan ishlashni bilish, investitsiyalarni tushunish xamda ularni asoslay olish va boshqalar talab qilinadi. Shuning uchun xam hozirgi paytda xisobchini «xisobchi-taqlilchi» yoki «moliyaviy menejer» deb atash xam mumkin. Boshqaruv vazifalariga ishlab chiqarishni tayyorlash, rivojlantirish, moddiy-texnik ta'minot, sotuvga tayyorlanish (marketing), buxgalteriya xisobini olib borish va buxgalteriya faoliyatini amalga oshirish, tayyor maqsulotlarni sotish xamda kadrlar masalasini xal qilish kiradi. Boshqaruv jarayonida buxgalteriya xisobi katta rol uynaydi va bu erda barcha axborotlarning 60% ga yaqini jamlangan.

Buxgalteriya xisobining axborotli tizimlari an'anaviy ravishda vazifalarning quyidagi majmualarini o'z ichiga qamrab oladi:

- Asosiy vositalar xisobi
- Moddiy boyliklar xisobi
- Meqnat va ish xaqi xisobi
- Tayyor maqsulotlar xisobi

- Moliyaviy qisoblash operatsiyalarining xisobi
- Ishlab chiqarish xarajatlari xisobi
- Yiqma xisob va xisobotlar tuzish

Buxgalteriya xisobining avtomatlashtirilgan axborot tizimi sharoitida faoliyat ko'rsatishi quyidagicha ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

- Boshqaruv ob'ektiga yoki korxonaning xo'jalik faoliyatiga moslashuv, korxonada ish faoliyatining maqsadini bilish.
- Boshqariladigan ob'ekt xolati qaqidagi boshlanqich ma'lumotlarni yiqish, ma'lumotlar bazasini tuzish, ma'lumotlarni saralash va ruyqatdan o'tkazish
- Xisob axborotini qayta ishlash, saqlash va xisobotlarni shakllantirish
- Xisob axborotini foydalanuvchilarga va talabgorlarga uzatish
- Xisob axboroti taqilili, korxonada raqbariyatining oldiga qo'yilgan maqsadiga muvofiq, boshqaruv ob'ektiga boshqaruvchanlik ta'sirini ishlab chiqish

Xisob vazifalari majmuasining uch pallasini farqlash mumkin:

- Birlamchi xisob, birlamchi xujjatlarni tuzish, ularni ishlab chiqish va xisobning xar bir uchastkasi bo'yicha taqililiy xisobning qaydnomalari tuzilishini amalga oshirish.
- Provodkalarini tuzish, ularni taqililiy va sintetik xisobning turli xil registrlari, schyotlarning tartib raqamlari bo'yicha qayd daftari orderlariga joylashtirish. Kompyuter yordamida bu ishni amalga oshirish xar bir uchastka yechimi tugashi bilan provodkani shakllantirib, bu jarayonlarni to'liq avtomatlashtirishga imkon beradi.
- Yiqma sintetik xisobni tuzishdan iborat bo'ladi, ya'ni, asosiy kitobning schyotlari bo'yicha xisobot saldo qaydnomalari va moliyaviy xisobotning shakllarini tuzish bo'lib, bu «Provodka – Asosiy kitob – Balans» mashina dasturining asosiy moduli tomonidan ta'minlanadi.

Buxgalteriya xisobining tashqi tashkilotlar bilan axborotli aloqasiga aloqida to'xtalish zarur. Asosan bu aloqalar me'yoriy va uslubiy materiallarni olish, yiqma moliyaviy xisobotlarni manfaatdor tashkilotlar - yuqori ma'muriy idoralar, soliq qo'mitasi, statistika idoralari, moliyaviy tashkilotlar va boshqalarga berishdan iboratdir. Buxgalteriya xisobotlarining yuqori tashkilotlarga takdim etish shakllari va muddatlari qonunlashtirilgan.

2. Buxgalteriya xisobida avtomatlashtirilgan axborot texnologiyalari

Buxgalteriya vazifalarini yechishni avtomatlashtirilgan axborot texnologiyalari asosida tashkil qilish birlamchi buxgalteriya xujjatlarini tuzish paytidan boshlab yakuniy moliyaviy xisobotlarni tuzish bilan yakunlanuvchi barcha operatsiyalarning yiqindisidir. Bu jarayon quyidagi asosiy bosqichlardan iboratdir:

Boshlanqich bosqich – birlamchi xujjatlarni yiqish va ruyqatga olish bilan boqliq. Xujjatlarni avtomatlashtirilgan usulda shakllantirish «Xujjatlar» menyusining tegishli blokiga murojaat qilish yo'li bilan sodir bo'ladi. Natijada materiallarning omborga kelishi va xarajati bo'yicha xujjatlar shakllanadi. Birlamchi xujjatlarni kiritish dasturi quyidagi vazifalarni bajaradi:

- Kiritilgan xujjatlarga noyob raqam berish, ko'chirmaning reestrini tuzish.
- Xujjatga ma'lumotnomaviy va shartli-doimiy alomatlar (etkazib beruvchilar, narx va boshqalar)ni avtomatik ravishda kiritish.
- Xo'jalik operatsiyalarining qayd etish daftarida buxgalteriya yozuvlarini avtomatik ravishda bajarish.
- Noto'qri xujjatlarni chiqarib tashlash.
- Noto'qri xujjatlarni nazorat qilish va tuzatishlar kiritish.
- Birlamchi xujjatlari bosib chiqarish.

Boshlanqich bosqich xujjatlarning ma'lumotlarini bazaviy axborotlar to'plamiga joylashtirish bilan tugaydi.

Asosiy bosqich ishning tugallovchi bosqichi bo'ladi va xar xil xisobot shakllarini olish bilan boqliq. Uni bajarish uchun «Xisobotlar» menyusining tegishli modulidan foydalaniladi. Asosiy bosqichning bajarilishini ta'minlashda ma'lumotlar bazasida xisobot tuzish uchun foydalaniladigan xar xil kombinatsiyali (ishchi) axborot to'plamlarini mashina tomonidan olinishi ta'minlanadi. Natijada xisobot ma'lumoti shakllanadi va u bosib chiqarishga topshiriladi. Buxgalteriya dasturiy maqsulotlarini

ishlab chiqish ko'p sonli firmalar tomonidan olib boriladi, ulardan eng mashqurlari **1C: Buxgalteriya, Parus, Intellekt-Servis, Infsoft, Xakers-Dizayn** lardir. Ko'pgina firmalar dasturlarni ikki variantda: maxalliy va tarmoqli ishlab chiqaradilar. Tarmoqli variantlar ancha murakkab va qimmatga tushadi. Chunki buning uchun maxsus «mijoz-server» texnologiyalari, maxsus uskunalari va operatsion tizimlar, qisoblash tarmoqiga xizmat ko'rsatuvchi mutaxassislar talab qilinadi. Kichik korxonalar uchun mo'ljallangan va «Buxgalteriya yozuvi-Asosiy kitob-Balans» umumiy nomi bilan atalib, kichik biznesga mo'ljallangan dasturlar asosan sintetik va murakkab bo'lmagan taqliliy xisobni olib borish vazifalarini bajaradilar. Bu guruqqa mansub eng mashqur dasturlar 1C: Buxgalteriya, Turbo Buxgalteriya, Folio va boshqalardir. Bunday kichik xisobxonalar dasturlari o'zlashtirish va ishlatishda sodda, kasb egasi bo'lmagan foydalanuvchilarga mo'ljallangan. «Mujassamlangan buxgalteriya tizimi»ga mansub dasturlar kichik va o'rta biznes uchun mo'ljallangan. Ularda xisobning keng yoyilgan taqliliy xisobi olib boriluvchi ba'zi bir uchastkalari bo'yicha modullar qurilgan. Masalan, xisobning ish xaqi, materiallar, asosiy vositalar, xazina, bank, shartnomalar, yetkazib beruvchilar va boshqalar kabi uchastkalari bo'yicha taqliliy xisob mustaqil ravishda amalga oshiriladi, ammo keyinchalik ularni yakuniy buxgalteriya xisoboti tuzilishi ta'minlanadigan «Provodka-Asosiy kitob-Balans» moduliga mujassamlashuvi sodir bo'ladi. Bu sinfga mansub eng yaxshi dasturlar **Parus, Kompex+, BEMBI+, Buxkompleks, Supermenejer** lardir.

3.Yirik korxonalar xisobi masalalarini kompyuterda qayta ishlash texnologiyalari

Yirik korxonalarda buxgalteriya xisobini avtomatlashtirish muammosi hozirgi zamonning eng muqim vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda. Bu xammadan avval katta xajmdagi axborotlarni yiqish, qayta ishlab chiqish, ularni taqlil qilish va ulardan boshqaruv qarorlarini qabul qilishda ratsional foydalanishdan iborat. Yirik korxonalaridagi buxgalteriya xisobini avtomatlashtirish tizimlari quyidagilarni ta'minlashi lozim:

- Buxgalteriya xisobi, rejalashtirish, korxonalar moliyaviy-xo'jalik faoliyatining taqlili xamda ichki audit vazifalarining butun majmuasini avtomatlashtirilgan xolda amalga oshirish.
- Korxonadagi ishlarning joriy xolati qaqida tezkor, doimo o'zgarib turuvchi axborotlar olishni ta'minlash. Bunda asosiy e'tibor tezkor taqliliy xisoblarni va kiritilgan moliyaviy resurslardan foydalanish bo'yicha tegishli ma'lumotlarni olishga qaratilishi kerak.
- Birlashtirilgan xolda xam boshqarish, xam umumlashtirilgan moliyaviy xisobotlarni olish imkoniyatiga ega bo'lish. Shuning uchun bunday tizimlarda markazdan turib tezkor boshqarish uchun ma'lumotlar almashinishini amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lgan masofaviy ish joylarining mavjudligi juda muqimdir.

Yirik korxonalaridagi buxgalteriya xisobining avtomatlashtirilgan tizimlarida xisobning bosqichlari bo'yicha o'zaro aloqalari va taqsimlanishi:

1-Daraja

Birlamchi xisob

Moddiy boyliklar xisobini olib boruvchi avtomatlashtirilgan ish joylari (AIJ)

Tabel xisobini olib boruvchi xodimlarning AIJ lari

Tayyor maqsulotlar xisobini olib boruvchi xodimlarning AIJ lari

2- Daraja

Boshqaruv xisobi

Arzon va tez eskiruvchan tovarlar xisobini olib boruvchi AIJ lar

Asosiy vositalar, nomoddiy aktivlarning xisobini olib boruvchi AIJ lar

Meqnat va ish xaqi xisobini olib boruvchi AIJ lar

Moliyaviy-qisoblash operatsiyalari bo'yicha xisoblarni olib boruvchi AIJ lar

Tayyor maqsulotlar va ularning sotilishining xisobini olib boruvchi AIJ lar

Ishlab chiqarish xarajatlarining xisobini olib boruvchi AIJ lar

3-Daraja

Moliyaviy xisob

Yiqma taqliliy va sintetik xisobni xamda xisobotni shakllantirishni olib boruvchi AIJ lar

Moliyaviy taqlil va rejalashtirishni amalga oshiruvchi AIJ lar

Yig'ma xisobning AIJ yordamida pastki bosqichlardan aloqa kanallari orqali kelib tushuvchi taqliliy va sintetik xisob ma'lumotlari asosida Asosiy kitob, buxgalteriya balansi, moliyaviy natijalar qaqidagi xisobot va sintetik taqliliy xisobning boshqa xisob qaydnomalari shakllanadi. Moliyaviy taqlil va rejalashtirish AIJ lari qarorlar qabul qilish uchun taqliliy axborotlarni shakllantirish xamda raqbariyatga tezkor axborotlar berishga imkon beruvchi moliyaviy taqlil va rejalashtirishni ta'minlaydi. Bunday axborotlarga tannarx, foyda ko'rsatgichlari, xisob-kitoblar va boshqa buxgalteriya yozuvlarining xolati, debitorlik va kreditorlik qarzdorliklari, turli xildagi iqtisodiy ko'rsatgichlar, taqlilning natijalari, bashoratlar, xodimlar qaqidagi ma'lumotlar kiradi. Bu barcha ma'lumotlarni istalغان vaqtda so'rov bo'yicha olish mumkin. Ichki auditorning AIJ buxgalteriya andozalaridagi o'zgarishlarni kuzatishga, xo'jalik vaziyatlari va qonunchilikni taqlil qilishga, xisob siyosati, xarajatlarni tartibga solish va investitsion siyosatni ratsional qurish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish, soliqlarni rejalashtirishni amalga oshirishga imkon beradi. Umuman aytganda, moliyaviy xisobning ma'lumotlaridan korxonalar iqtisodiyotini rejalashtirish va bashorat qilishda, moliyaviy menejmentda, korxonaning barcha axborotlarining iqtisodiy taqlilida foydalaniladi. Yirik korxonalaridagi buxgalteriya xisobini avtomatlashtirish tizimlarining optimal faoliyat yuritishi natijasida raqbariyatga qarorlar qabul qilish uchun zarur bo'lgan ob'ektiv va tezkor ma'lumotlar shakllanadi. Bu qarorlar moliyaviy muvozanatni saqlashga, bozor sharoitlarida barqaror foyda va yuqori rentabellikka erishish uchun ishlab chiqarish va tijorat faoliyatining eng samarali yo'nalishlarini tanlashga imkon beradi.


4. Kichik va o'rta biznes korxonalarida buxgalteriya xisobini avtomatlashtirish tizimlari

Kichik korxonalarda buxgalteriya xisobini avtomatlashtirish tizimlarini yaratish xisobchining ish joyida axborotlarni ishlab chiqish, saqlash va uzatish bo'yicha barcha ishlarni avtomatlashtirishga imkon beradi. Bunday buxgalteriya xisobini avtomatlashtirish tizimlarini yaratishda bir necha yondoshuvlardan foydalanish mumkin.

Birinchi yondoshuvda faqat moliyaviy xisobni avtomatlashtiruvchi tizim yaratiladi. Bunday buxgalteriya xisobini avtomatlashtirish tizimlari mini xisobxonalar toifasiga kiradi. qoidaga ko'ra, bunday tizimda buxgalteriya xisobi bitta odam – xisobchi tomonidan olib boriladi.

Ikkinchi yondoshuvda moliyaviy xisobdan tashqari, boshqaruv tizimi xam xar tomonlama avtomatlashtiriladi. Bu xolda buxgalteriya xisobini ikkita odam: xisobchi va uning yordamchisi bitta ish joyida yoki ikkita ish joylarida olib boradilar.

Uchinchi yondoshuvda moliyaviy va boshqaruv xisobini zamonaviy kompyuter texnologiyalari asosida avtomatlashtirish amalga oshiriladi. Bunday tizimda ishlab chiqarilayotgan axborotlarning katta xajmlarida ko'p martalab foydalanuvchanlik usulidan foydalaniladi. Unda bir necha kompyuterlar maxalliy tarmoqqa birlashtiriladi. Kompyuterlarning xar biri esa xisobchining aloqida ish joyi sifatida ko'rib chiqiladi. Yuqorida keltirilgan yondoshuvlardan birini tanlash korxonaning turiga va uning kattaligiga boqliq bo'ladi. Yirik korxonalaridan farqli ravishda, kichik korxonalarda asosiy e'tibor moliyaviy xisobning olib borilishiga qaratiladi. Chunki u ko'p meqnat talab qilishi xamda aqamiyati bo'yicha asosiy o'rinni egallaydi. quyida kichik va o'rta korxonalarda buxgalteriya xisobini avtomatlashtirish dasturiy majmasining tarkibiy tuzilishi keltirilgan:



Tovar moddiy boyliklar xisobini qayd etish daftari	Xisobning bo'limlari		Yakuniy va taqliliy sintetik xisob
Birlamchi xujjatlarni ruyqatga olish daftari	Asosiy vositalar va nomoddiy materiallar		Yakuniy xisobning registrlari
	Materiallar		Asosiy kitob
	Arzon va tez eskiruvchan mollar		Aylanma qaydnomalar
	Tayyor maqsulotlar (tovarlar)		Balans
	To'lov xujjatlari		
	Ish xaqi		

Dastlabki axborot bazasiga birlamchi xujjatlar kiritiladi. Avtomatlashtirish uchun xisob bo'yicha quyidagi andozaviy birlamchi xujjatlardan foydalaniladi:

- Moddiy boyliklarning xarakati (kirish orderi, qabul qilish dalolatnomasi, yuk xati, ruyqatdan chiqarish dalolatnomasi, talab, limit kartasi)
- Moliyaviy-qisoblash operatsiyalari (to'lov topshiriqnomasi, to'lov talabnomasi-topshiriqnomasi, kirish va chiqish kassa orderlari va boshqalar)
- Asosiy vositalar (asosiy vositalar xisobining yo'qlama qilish varaqasi, qabul qilish-topshirish dalolatnomasi, asosiy vositalarni tugatish dalolatnomasi, ichki siljishi bo'yicha yuk xati)
- Meqnat va ish xaqi (ish vaqtining tabeli, soatbay ishga naryad, ishlab chiqishlar qaqida bildirgich)
- Tayyor maqsulotlar (tovarlar) – dalolatnomasi, kirim orderi, buyruq-yuk xati, qabul qilish-topshirish yuk xati, omborxonada xisobining varaqchasi, yetkazib berish shartnomasi va boshqa xujjatlar.

Birlamchi xujjatlarning axborotlari asosida tezkor axborotlarning fayllari shakllantiriladi, ularga tegishli ma'lumotlarning kattaligi avtomatlashtirilgin usulda kiritiladi. Ma'lumotlardan bunday foydalanish axborotlarni ma'lumotlar bazasiga kiritishni tezlashtiradi, ularning aniqligi va ishonchliligini oshiradi.

Bank avtomatlashtirilgan axborot tizimlarining xususiyatlari

Banklardagi xisob va nazoratni amalga oshirish operatsion va buxgalteriya xisoblaridan iborat bo'lib, ular bir-biri bilan yaqindan aloqada, chunki taqliliy daraja bank xisobida shaxsiy schetlar bilan aks ettirilgan, xar bir shaxsiy schet esa belgilangan balansli schetning ostida turadi.

Taqlil bank boshqaruvining xam tashqarisida, xam ichkarisida vujudga keladigan iqtisodiy vaziyatlarni bilib olishga imkon beradigan vazifalardan iborat bo'ladi. Yirik banklarda ikki mustaqil bo'limlar mavjudki, ulardan biri bankning ichki xolati taqlilini ta'minlaydi, ikkinchisi esa tashqi muqitni taqlil qiladi.

Rejalashtirish taqlilning ma'lumotlariga asoslanib, vujudga kelgan vaziyatdan chiqish va qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun eqtimol bo'lgan yechimlarni tayyorlaydi. Bunda tashqi o'zaro xamkorlikni rejalashtirish va bankning ichki xolatini rejalashtirish amallari o'zaro uzviy boqliqdir. Ammo ular tarkibiy bo'linganlar va qisman marketing jarayonida (marketing va bankni rivojlantirish departamentida), qisman rejalashtirish bo'limida (iqtisodiy boshqarish departamentida) amalga oshiriladi. Rejalashtirish bosqichida tayyorlangan yechimlarni tartibga solish vazifasi doirasida boshqaruv amalga oshiriladi.

Boshqaruvda strategik va taktik maqsadlarni amalga oshirishni ko'zda tutish lozim. Bank soqasi uchun maqsadlarni boshqaruv pallalarining davriyligi bo'yicha tezkor (bir ish kuni), joriy (oy, chorak) va istiqbolli (yil) davrlariga bo'lish mumkin. Shunday qilib, tezkor, joriy, strategik xisob va rejalashtirish taqlili qaqida gapirish mumkin. Taqlil tizimning xaqiqiy xolatini aks ettiruvchi xisob ma'lumotlariga

asoslanadi. Bankda boshqaruv ob'ekti bo'lib, aloqida bo'linma yoki bitta xisobchining faoliyati yoki bir qator texnologik bosqichlardan iborat bo'lgan aloqida bank operatsiyasi xizmat qilishi mumkin.

Bankning boshqaruv tuzilmasi turli xil usullarda tashkil qilingan bo'lishi mumkin. Bu ko'proq bankning kattaligi, ko'rsatilayotgan xizmatlar turlari, mijozlarning va bank tomonidan bajarilayotgan operatsiyalarning soniga bo'liq. Boshqaruvning eng oddiy tuzilmasi to'g'ri chiziqdadir, bunda bank boshqaruviga bo'limlar bevosita buysunadilar. Bu boshqaruv usuli bankni samarali va to'g'ridan-to'g'ri boshqarishning muqarrar, yaqqol va ko'zga ko'rinadigan tuzilishini beradi. Bunda boshqaruv vazifalari boshqarma va bo'linmalar raqbarlari orasida taqsimlanadi.

Boshqaruvni shtabli usulda tashkil qilish murakkabroq bo'ladi, bunda boshqaruvda bajarilayotgan boshqaruv vazifalarining bir turligi tamoili bo'yicha bo'limlar ularni birlashtiruvchi departamentlarga buysunadilar. Masalan, marketing departamenti, valyuta operatsiyalari departamenti va boshqalar. Shtablar o'rtasidagi boshqaruv vazifalarining taqsimlanishi yuqori bosqichda sodir bo'ladi. Boshqaruvni bunday tashkil qilishda bir tomondan, boshqaruv muammolarini ko'p sonli mutaxassislar orasida taqsimlashga, boshqa tomondan xodimlarning ixtisoslashuvini chuqurlashtirishga imkon yaratiladi va natijada boshqaruv sifati ancha oshadi.

To'g'ri chizikli shtabli boshqaruv tuzilmasi yanada murakkabroq bo'ladi. Bunda depozit, kredit, investitsion va boshqa operatsiyalarning bajarilishini ta'minlovchi bo'limlar yuridik va jismoniy shaxslarning xar xil guruqlariga xizmat ko'rsatuvchi oraliq bosqichdagi boshqaruvga buysunadilar. Ular o'zlarining maxalliy maqsadlarini belgilashdan tashqari, bankning global boshqaruv maqsadlariga xam buysunadilar. Masalan, yo'l qo'yiladigan xavf-xatarda eng katta foydani olish, likvidlikni oshirish va boshqalar. Bunday boshqaruv usuli murakkab va qimmat bo'ladi, ammo boshqaruv sifati ancha yuqori bo'ladi. Misol sifatida tijorat bankining boshqaruv tuzilmasini keltirish mumkin:

<i>BOSHQARUV</i>		<i>QO'MITALAR</i>		
<i>Rivojlanish va marketing departamenti</i>	<i>Iqtisodiy boshqaruv departamenti</i>	<i>Kredit-depozit operatsiyalar departamenti</i>	<i>Operatsion hisob-kitoblar departamenti</i>	<i>Ma'muriy va boshqaruv departamenti</i>
↓	↓	↓	↓	↓
<i>Rivojlanish bo'limi</i>	<i>Likvidlikni boshqarish bo'limi</i>	<i>Kredit bo'limi</i>	<i>Shaxsiy schyotlarni olib boorish bo'limi</i>	<i>Yuridik bo'lim</i>
<i>Marketing bo'limi</i>	<i>Reja-tahlil bo'limi</i>	<i>Depozit bo'limi</i>	<i>Banklararo operatsiyalar bo'limi</i>	<i>Xodimlar bo'limi</i>
		<i>Fond bo'limi</i>	<i>Buxgalteriya va hisobot bo'limi</i>	<i>Taftish bo'limi</i>
				<i>Axborot texnologiyasi bo'limi</i>

2. Bank avtomatlashtirilgan axborot tizimlarining axborot, texnik va dasturiy ta'minotini tashkil qilish asoslari

Banklarda «Mijoz-server» avtomatlashtirilgan texnologiyasining amalga oshirilish variantlaridan biri - uning uch bosqichli arxitekturasidir. Bunda tarmoqda kamida uchta kompyuter bo'lishi kerak:


Mijoz qismi (ishchi stantsiya) – mijoz bilan o'zaro xamkorlik (foydalanish interfeysi) tashkil qilinadi.

Qo'llanishlar serveri – mijoz qismi uchun biznes tadbirlarini amalga oshiradi.


Ma'lumotlar bazasining serveri – mijoz rolini bajaruvchi biznes tadbirlarga xizmat ko'rsatadi. Bunday arxitekturaning qulayligi uning moslashuvchanligida va dasturiy resurslarni osonlik bilan almashinishidadir. Texnik yechimlarning ishonchliligini va samaradorligini oshirish uchun bank avtomatlashtirilgan axborot texnologiyalarni tashkil qilishda serverlarni guruqlarga (klasterlarga)

birlashtirish usuli qo'llaniladi. Bunda mablaqlar va ishlar serverlar orasida taqsimlanadi, foydalanuvchi qaysi server bilan ishlayotganini aniq bilmaydi, texnik vositalardan foydalanish esa samaraliroq bo'ladi.

Bankning telekommunikatsion arxitekturasini quyidagicha ifodalash mumkin:



Integrallashgan bank avtomatlashtirilgan axborot tizimining tarkibiy qismlarini quyidagicha ifodalash mumkin:



.Bank tizimining modullari va ular orasidagi xisob-kitobni avtomatlashtirish

Avtomatlashtirilgan bank tizimlarining asosiy xizmat modullari quyidagilardan iborat:

- Yuridik shaxslarga qisoblash-kassa xizmatlarini ko'rsatish
- Bank korrespondentlari schyotlari bo'yicha xizmat ko'rsatish
- Kredit, depozit va valyuta operatsiyalari
- Xususiy shaxslar qo'yilmalarining xar qanday turlari bo'yicha operatsiyalar
- Fond operatsiyalari

- Plastik kartochkalar bo'yicha xisob-kitoblar
- Buxgalteriya vazifalari
- Taqlil, qaror qabul qilish, menejment, marketing va boshqalar

Bank operatsion kuni modullarining tarkibi va o'zaro boqliqligini quyidagi chizmadan ko'rish mumkin:



4. Bank avtomatlashtirilgan axborot tizimlarida axborotlarni ximoyalash vositalari

Banklarning amaliy faoliyatida axborotlarni ximoyalash tadbirlari va usullarini qo'llash quyidagi mustaqil yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

- Axborotlarga ruxsatsiz kirishdan ximoyalash - foydalanuvchilarni ruyqatga va xisobga olish tizimi orqali amalga oshiriladi
- Axborotlarni aloqa tizimlarida ximoyalash – kriptografiya, shifrlash va maxsus axborot protokollarini qo'llash orqali amalga oshiriladi
- Elektron xujjatlarning yuridik aqamiyatini ximoyalash – buyruqlar, to'lov topshiriqnomalari, moliyaviy xujjatlar, shartnoma va farmoyishlarning uzatish va qabul qilishda raqamli imzolar va kriptografik usullardan foydalanish orqali amalga oshiriladi
- Maqfiy axborotlarni qo'shimcha elektromagnitli nurlanishlar va uzatish kanallaridan chikib ketishdan ximoyalash – axborotli elektromagnit signallarni qo'riqlanayotgan xudud tashqarisiga chiqib ketish imkoniyatini bartaraf qilish orqali amalga oshiriladi
- Axborotlarni kompyuter viruslari va taxdid dasturlarni tarqatish kanallaridan ximoyalash – maxsus rezident dasturlar va texnik ximoya vositalarini qo'llash orqali amalga oshiriladi
- Dastur va qimmatli kompyuter axborotlarini ruxsatsiz nusxa ko'chirish va tarqatilishidan ximoyalash – bankda ximoyalash vositalari va bo'linmalarining aniq xamda samarali ishlashi orqali amalga oshiriladi

Ushbu xar bir yo'nalish bo'yicha asosiy maqsad va vazifalar aniqlanadi.

Axborotlarga ruxsatsiz kirishdan ximoyalash bo'yicha talablar ximoyalananayotgan axborotlarning uchta asosiy xususiyatlariga erishishni ko'zda tutadi:

- Maqfiylilik (confidentiality) – axborotlardan faqat unga tegishli bo'lgan kishilargina foydalanishlari mumkin.
- Yaxlitlilik (integrity) – axborotlar ishonchli va aniq bo'lishi kerak xamda qarazli maqsadlar bilan buzilish imkoniyatlaridan ximoyalangan bo'lishi shart.
- Tayyorlilik (availability) – axborotlar va tegishli axborot xizmatlari ularga zarurat tuqilgan paytda, xamma vaqt xizmat ko'rsatishga tayyor bo'lishlari kerak.

5. Banklararo ma'lumot almashinishlarning xalqaro tizimi SWIFT ning paydo bo'lishi va bu tizim qaqida tushuncha.

Zamonaviy banklarning faoliyati uning barcha ishlarini avtomatlashtirishsiz amalga oshmaydi. Bank muvaffaqiyatli ish yuritishi uchun undagi ishlar xajmini va xizmatlar turlarini doimiy ravishda ko'paytirish talab qilinadi. Avtomatlashtirish bank ishi samaradorligini sezilarli darajada oshiradi, xujjatlarni qayta ishlashda xatolarga yo'l qo'yilmasligini ta'minlaydi, ishonchlilikni oshiradi va istalgan paytda bank faoliyati qaqidagi operativ ma'lumotlarni olishga imkon beradi. Avtomatlashtirish bulardan tashqari, banklarning telekommunikatsion aloqasini amalga oshirib berishi va bu orqali turli xildagi moliyaviy ma'lumotlar almashinishini ta'minlab berishi kerak. Ushbu masalani jaqon miqyosida banklararo telekommunikatsiyani amalga oshirib beradigan xamjamiyat – SWIFT (Society for World-Wide Interbank Financial Telecommunications) xal qilib beradi. Bu tizimning asosiy maqsadi - uning a'zolari bo'lmish moliyaviy tashkilotlar va banklar orasida masofaviy aloqani ta'minlash, konfidentsial moliyaviy ma'lumotlarni uzatish, qabul qilish va qayta ishlashni ta'minlash xamda bu vazifalar bilan boqliq bo'lgan ilmiy va amaliy izlanishlar olib borishdir. 1950-yillarning oxirida xalqaro savdo xajmining keskin oshishi natijasida bank operatsiyalarining xajmi xam ancha oshib ketdi. U paytdagi an'anaviy aloqa vositalari (pochta va telegraf) juda ko'p miqdordagi bank operatsiyalari xajmini uzatishga ojizlik qilib qoldi. Shuning uchun xam xujjatlarni qoqozsiz telekommunikatsiya vositalari orqali uzatish va qayta ishlash texnologiyasini rivojlantirish masalasi kun tartibiga qo'yildi. Banklardagi ish samaradorligini oshirish masalasini muqokama qilish uchun 1960 yillarda 60 ta Amerika va Yevropa banklari yiqilib, avtomatlashtirish, telekommunikatsiya va standartlashtirish masalalarini muqokama qildilar. Bu anjumanda kompyuterlarni va telekommunikatsiya vositalarini ishlatgan xolda bank ma'lumotlarini tez, ishonchli va xavfsiz xolda uzatish texnologiyasini yaratish kerakligi qaqida qaror qabul qilindi. 1973 yilning 3 may kuni Bryusselda Yevropa va Shimoliy amerikaning 239 banki mutaxassislari yiqilib, SWIFT konsortsiumiga asos soldilar va uni ruyqatdan o'tkazdilar. Bu jamiyat dunyoviy miqyosda banklararo moliyaviy telekommunikatsiyani amalga oshirib, xalqaro moliyaviy ma'lumotlarni barcha a'zolar orasida uzatish va taqsimlashni amalga oshiradi. 1990 yillarga kelib, SWIFT tizimida jami 70 mamlakatdan 4000 dan ortiq banklar ishtirok qila boshladilar. Kelayotgan ma'lumotlarni avtomatik ravishda qayta ishlash imkoniyatini yaratish uchun banklar orasida ma'lumot almashinishning standart tili yaratilgan. SWIFT ning asosini Bryussel, Amsterdam va AqSh ning Virdjiniya shtatida joylashgan uch taqsimlash markazlari tashkil qiladi. SWIFT ning a'zosi bo'lgan xar bir mamlakat o'zining milliy tugun punktiga ega bo'lib, u ma'lumotlar kontsentratori bo'lib xizmat qiladi. Ushbu kontsentrator telefon kanallari orqali taqsimlash markazlari bilan ulanadi. SWIFT ning a'zolari bo'lgan banklar esa kontsentratorlarga o'z mamlakatlarining aloqa kanallari orqali ulanadilar. SWIFT tashkiloti Bryusselda ruyqatdan o'tgan kooperativ jamiyat xisoblanadi. U to'la ravishda SWIFT a'zolari bo'lgan banklarga tegishli va uning aktsiyalari a'zo banklar orasida ularning SWIFT orqali uzatadigan telegraf ma'lumotlari xajmiga proporsional ravishda taqsimlangan. Regional protsessorga ulanish uchun 190 ming belgiya franki xajmida xaq to'lanadi. Texnik vositalar bilan ta'minlash va o'qitish uchun 700 ming belgiya franki to'lanadi. SWIFT ning xizmatlari uchun uning a'zolaridan to'lov xar kvartalida olinadi. 325 simvoldan kam bo'lgan oddiy telegraf ma'lumotni uzatish (ma'lumotni yetkazish vaqti 20 minut) 18 belgiya franki turadi. Agar ma'lumot tez uzatilishi kerak bo'lsa (1 minutda) uning narxi 2 marta katta bo'ladi. SWIFT tarmoqi 1977 yil 9 maydan boshlab ishga tushdi va xozirgi paytda uning a'zolari 7407 ta bank va moliyaviy tashkilotlar bo'lib, ular yil davomida 365 kun uzluksiz ma'lumot almashinish imkoniyatiga egadirlar. SWIFT yordamida bir kunda 7,9 mln moliyaviy ma'lumotlar uzatilib, ularning umumiy summasi 6,5 trillion AqSh dollarini tashkil qiladi.

SWIFT ning xalqaro amaliyotda ishlatilishi va uning a'zolari.

Xozirgi kundagi amalga oshirilayotgan barcha bank operatsiyalari tizimlari bank ma'lumotlari tizimlari va xisob-kitoblar tizimlariga bo'linadi. Ular orasidagi farq shundan iborat: bank ma'lumotlari tizimiga ma'lumotlar xamda xisob-kitoblarni operativ jo'natish kirsa, xisob-kitoblar tizimlariga SWIFT a'zolari orasidagi o'zaro talablarni va majburiyatlarni bajarish kiradi. Birinchi guruqqa AqSh banklarining xususiy elektron tarmoqlari SWIFT va BankWire lar kirsa, ikkinchisiga AqSh federal rezerv tizimi tarmoqi FedWire, Nyu York Xalqaro to'lov tizimi xisob-kitob palatasi CHIPS va London avtomatlashtirilgan to'lov tizimi CHAPS kiradi. Angliya banki bilan birgalikda 12 ta bankni birlashtiradigan avtomatlashtirilgan Angliya kliring to'lov tizimi CHAPS kreditni bir kun davomida o'tkazib bera oladi. Bunday topshiriqni olgan banklar bir kun ichida mablaqlarni kerakli bankka o'tkazib berishlari kerak. Bu xol moliyaviy tashkilotlar va ishbilarmonlar uchun CHAPS ning samaradorligini

MySQL tizimi tex kompaniyasi tomonidan, ma'lumotlarni tez qayta ishlash uchun korxonamiqiyosida ishlatishga yaratilgan. Keyinchalik ommalashib, saytlarning asosiy bazasi sifatida yoyildi. So'rovlar **SQL** tili orqali amalga oshiriladi. Bu MBBT **relyatsion ma'lumotlar baza** hisoblanadi. Bu degani baza jadvallar, jadvallar esa ustunlardan tashkil topgandir.

MySQL MBBTi 2 xil turdagi litsenziyaga ega. Birinchisi tekin, ya'ni MySQLni ko'chirib olish va ishlatish hech qanday harajat talab qilmaydi va **GPL(GNU Public Licenseb, GNU)** litsenziyasiga asoslanadi. Ikkinchi turi, GPL shartiga ko'ra, agar siz MySQL kodlarini biror dasturingizda ishlatasangiz, bu dasturingiz ham GPL(tekin) bo'lishi kerak. Bu esa dasturchiga to'g'ri kelmaydi. Shuning uchun, bu dasturingizni pullik qilishingiz uchun MySQL pullik litsenziyasini sotib olishingiz kerak.

MySQL logotipi delfin hisoblanadi. Bu delfinni ismi «**Sakila**»dir. Bu logotipni OpenSource tuzuvchilaridan biri **Ambrose Twebaze** ga tegishlidir.

MySQL juda ko'p operatsion tizimlar bilan ishlay oladi. Bularni yozadigan bo'lsam: **AIX, BSDi, FreeBSD, HP-UX, Linux, Mac OS X, NetBSD, OpenBSD, OS/2 Warp, SGI IRIX, Solaris, SunOS, UnixWare, Windows 95, Windows 98, Windows NT, Windows 2000, Windows XP, Windows Server 2000, Windows Vista, Windows 7,...**

MySQL shved korxonasi **MySQL AB** ga tegishli bo'lgan, keyinchalik **SUN** firmasi MySQL ni o'ziniqilib olgan. Bir necha yil oldin esa, gigant korxonalardan biri **Oracle**, **SUN** firmasini sotib oldi va hozirda MySQL Oracle firmasi mahsuloti sifatida chiqib kelmoqda. Bu bir hisobda Microsoft SQL Server ga katta raqobatdosh ekanligini anglatadi.

MySQL bir necha serverlarning bir qismi hisoblanadi. Misol uchun, **WAMP, AppServ, LAMP, Denwer,...** Kliyentlar MySQL serveriga ma'lum bir kutubxonalar orqali ulanadi. MySQL ga quyidagi dasturlash tillari ulanib ishlashi mumkin: **Delphi, C, C++, Java, Perl, Php, Python, Ruby** va boshqalar.

MySQL turlari, versiyasi

MySQL bu — krossplatformali dastur hisoblanadi, ya'ni bir hil tipga ega bo'lgan(ishlash texnologiyasi bir hil), lekin o'rnatiluvchi fayllari biroz boshqachadir. Hozirda mysql **Oracle** firmasi tomonidan ishlab chiqarilmoqda, oldin **Sun** firmasiga tegishli bo'lgan. Shuning uchun **MySQL 4** versiyasi **MySQL 5** versiyasidan farq qiladi. Hozirda(maqola yozilishida) eng so'ngi versiyasi 5.6.14 dir.

Keling enda, versiya nimani anglatishini bilib olamiz. Har bir dastur, ma'lum bir sonlar asosida versiyalarga ajratiladi. Dastur ismi o'zgarmaydi, faqat sonlar o'zgarib, dasturning yangi yoki eskiligini ajratib turadi. Yangi yoki eskiligi, dasturning darajasini belgilaydi, ya'ni yangi dastur eskisiga qaraganda yangi qirralari mavjudligini anglatadi. MySQL dasturi ham hamma dasturlar kabi o'z versiyasiga ega(5.6.14). Demak birinchi raqam **asosiy raqam** deyiladi. Bizning holatda bu 5 raqami. Bu raqam kamdan kam o'zgaradi, faqatgina dasturning asosi o'zgarsa o'zgaradi. Keyingi raqam 6, bu raqam asosiy raqamga **yordamchi raqam** hisoblanadi va asosiy raqamga qaraganda tezroq o'zgaradi. Buning o'zgarishi, dasturning ishlash texnologiyasi biroz o'zgarishi natijasida sodir bo'ladi. Keyingi raqam **build** deyiladi. Bizning holatda bu 14 raqam. Dastur ishlashida biror nuqson(bug) paydo bo'lsa, dasturchilar darrov shu nuqson(bug)ni yo'qotishadi va raqamni keyingisiga o'zgartirib qo'yishadi. Bundan ko'rinib turibdiki bu raqam tez o'zgaradi. Bu o'zgartirish dasturchilar tilida **Patch** deyiladi. O'z tajribamdan kelib chiqib fikr bildirsam, har bir yangi chiqqan Patch, eski nuqsonlarni bartaraf etib, yangisini paydo qiladi :).

MySQL asosan 2 turga bo'linadi. Birinchisi, pullik versiya bo'lib, **MySQL Enterprise Server** deyiladi. Bu turidan foydalanganda, har yil ma'lum bir mablag' to'lash talab etiladi.

Ikkinchisi, **MySQL Community Server** deb nomlanib, bepul hisoblanadi.

MySQL Enterprise Serverni **MySQL Community Server**dan farqi, Enterprise tipi o'zida barcha utilitlarni qamrab oladi va chiqayotgan barcha yangi patch va o'zgarishlar dastlab shu tipiga chiqariladi va ancha vaqtdan so'ng Community tipiga chiqadi. Undan tashqari Enterprise tipida **klaster texnologiyasi** ham mavjud. Biz uchun Community tipi ham yetarli hisoblanadi va shu tipini o'rganib boramiz.

MySQL Community tipining ham 2 turi mavjud bo'lib, biri **Essentials**(boshlang'ich) versiyasi, ikkinchisi **Installer** deyiladi. Essential turida faqat server mavjud bo'lib, hech qanday qo'shimcha

komponentlar yo‘q, Installerda esa bir necha qo‘shimcha komponentlar mavjud bo‘lib, hajmi ham kattaroq. Essential versiyasi ziparxivda beriladi, Installer esa **msi** fayli ko‘rinishida bo‘ladi.

Undan tashqari mysql ni ko‘chirib olishda, operatsion tizimning qaysi bitligini ham inobatga olish lozim(operatsion tizim bitlari haqida). Saytda ham, 64 va 32 uchun alohida mysql dasturini fayllari taklif qilinadi.


MySQL ishlashi uchun, hech qanday Apache serveri, hech qanday PHP kerak emas. Faqatgina bazani o‘zini o‘rganmoqchi bo‘lsangiz, Apache PHP larni o‘rnatmang. Bular faqat to‘liq sayt yaratish uchun kerak. To‘g‘ri bularni o‘rnatish ham qiyin emas, lekin ortiqcha narsalar. Bazani mukammal o‘rganganingizdan so‘ng qolgan narsalarni o‘rnatib, sozlovchi fayllar orqali bir birlarini bog‘lab olasiz. Ya‘na bir narsa, ko‘pchilik saytlarda oldin Apache qo‘ying, keyin mysql va oxirida PHP ni o‘rnating degan maqolalarni uchratish mumkin. Umuman olganda ketma-ketlikning umuman farqi yo‘q, birgalikda ishlashsa ham, bular hammasi alohida — alohida dasturlar.

Agar hali ham mysql nimaligini anglay olmagan bo‘lsangiz, oxirgi tushuntirish gaplarini yozaman, bu — ma‘lumotlar bazasini boshqarish tizimi bo‘lib, bu tizimga sinonim tizim qilib, **Oracle, MS SQL SERVER** larni misol qilish mumkin.

3. MySQL ma‘lumotlar bazasini boshqarish tizimini o‘rnatish va sozlash

Sunfirmasini Oracle sotib olgandan so‘ng, MySQL ham butunlay o‘zgarib ketdi va 5 versiya o‘zgacha qiyofaga keldi, ya‘ni mukammallashtirildi. Maqolada **Windows 7 operatsion tizimi** uchun mo‘ljallangan **MySQL 5.6.20** versiyasini o‘rnatishni ko‘rsatib o‘taman.

Dastlab, **MySQL 5.6.20** versiyasini uy sharoitida ishlash uchun mo‘ljallangan **MySQL Community Server** dasturini internetdan ko‘chirib olamiz(nimaga aynan Community Server). Bu dasturning hajmi 248.2 megabaytni tashkil qiladi(32, 64 bitlik tizimlar uchun). Ko‘chirib olgandan so‘ng, «**mysql-installer-community-5.6.20.0**» faylini ishga tushiramiz va quyidagi oynani ko‘ramiz.(2-rasm)




2-rasm

Install MYSQL Products yozuvini bosib, o‘rnatishni davom ettiramiz(3-rasm).




3-rasm

Litsenziyaga oid matnни o‘qib chiqamiz(:)) va barsha shartlarga rozi bo‘lamiz — **I accept the license terms.**(4-rasm)



4-rasm

Dasturni yangilash yo‘llari so‘ralmoqda, bizga yangilashning umuman keragi yo‘q(hozirgi holatda), shuning uchun «Skip the check for updates» ni belgilaymiz.(5-rasm)



5-rasm

O‘rnatilish tiplari so‘ralmoqda, ular quyidagilar:

- **Developer Defaults.** Dasturchilar uchun mo‘ljallangan turi. Bunda MySQL serveri, dasturlash muhitlari, har xil kutubxonalar o‘rnatiladi.
- **Server only.** Faqat server qismi o‘rnatiladi, hech qanday qo‘shimcha narsalar o‘rnatilmaydi. Biz shu tipini o‘rnatamiz.
- **Client only.** Faqat kliyent qismini o‘rnatadi. Tarmoq orqali boshqa kompyuterdagi serverga ulanib ishlanadi.
- **FULL.** Nomidan ma’lumki barcha komponentlarni o‘rnatadi.
- **Custom.** Bu tipi professionallar uchun, ya’ni o‘rnatiladigan barcha komponentlarni o‘zingiz belgilab chiqasiz.

O‘ng tomonda qaysi adresga dasturni o‘rnatish kerakligi ko‘rsatiladi. (6-rasm)**NEXT**



6-rasm

Tanlangan komponentalar ishlashi uchun kerak bo‘ladigan va o‘rnatilishi zarur bo‘ladigan dasturlar ro‘yxati uchun oyna. Bizning holda hech nima kerak emas, o‘rnatishni davom ettirishimiz mumkin(7-rasm). **NEXT**



7-rasm


O‘rnatilayotgan mahsulotlar ro‘yxati va **EXECUTE(8-rasm)**

Product	Status	Progress	Notes
MySQL Server 5.6.20	Install success		

O‘rnatilish hatosiz amalga oshirildi. **NEXT**

Product	Action to be performed	Progress
MySQL Server 5.6.20	Initial Configuration.	

O'rnatilgan MBBTni sozlash jarayonini amalga oshirishni boshlash, **NEXT(9-rasm)**



9-rasm


Config type — Server Machine(server o'rnatilmoqda), **Enable TCP/IP Networking** — tarmoq orqali ishlash mumkin bo'lishi uchun belgilaymiz va port raqamini ko'rsatamiz. **NEXT(10-rasm)**



10-rasm

Asosiy baza foydalanuvchisi «**root**» uchun parol beramiz, agar yana biror foydalanuvchi kerak bo'lsa, «**MySQL User Accounts**» bo'limidan yaratamiz.

Windows Service Name orqali xizmatga nom beramiz, agar kerak bo'lsa, operatsion tizim yuklanganda baza xizmatini avtomat ishga tushirish(**Start the MySQL Server at System Startup**)ni tanlaymiz. Biror foydalanuvchi orqali xizmatni ishga tushirish lozim, buni «**Standart System Account**»ga topshiramiz.(11-rasm)



11-rasm

Sozlashdagi o'zgarishlar qabul qilinadi va sozlash xatosiz amalga oshirilgani haqida xabar beradi va **Finish**.

MySQL tizimida ishlash

Dastlab, MySQL xizmatini ishga tushiramiz. Buning uchun bizga «**Komandnaya stroka**» kerak bo'ladi, **CTRL+R**tugmalarini bosib, «**Выполнит**» oynasini chiqaramiz va «**cmd**» deb yozamiz. Komandalar yozish uchun mo'ljallangan oynaga MySQL xizmatini ishga tushirish komandasini teramiz.

```
1 C:\>net start mysql56
```

mysql56 — MySQL MBBTni berilgan nom(odatda bu nom mysql56 bo'ladi).

Xizmatni o'chirish esa, «**stop**» Orqali amalga oshiriladi.

```
1 C:\>net stop mysql56
```

Xizmatni yoqish va o'chirishni ikkinchi yo'li, «**Service**» bo'limi orqali. «**Выполнит**» oynasini ochamiz va u yerga «**services.msc**» buyrug'ini teramiz. So'ng hosil bo'lgan oynadan «**mysql56**» xizmatini topib, xizmatni o'chiramiz yoki yoqamiz(sichqoncha o'ng tugmasini bosib, «**Ostonovit**» yoki «**Zapustit**»).


Endi, MySQL bazasiga ulanishni ko'rsatib o'taman. Dastlab, «**MySQL Command Line Client**» ni ishga tushiramiz. Bu utiliti, MySQL bilan birga o'rnatilgan bo'lib, barcha kodlar(so'rovlar)ni shu utilita orqali ishlatamiz. **PUS -> VSE PROGRAMMY -> MySQL -> MySQL Server 5.6 -> MySQL 5.6 Command Line Client.** MySQL MBBTni o'rnatgan paytda «**root**» foydalanuvchisi uchun berilgan parolni kiritamiz va ulanishni amalga oshiramiz.

Qaysi foydalanuvchi bilan ulanganini bilish uchun, quyidagi komandadan foydalanamiz.

```
1 mysql>select user();
```

Natija **root@localhost**, bu degani «**root**» foydalanuvchi va host nomi «**localhost**».

MySQL 5.6 Command Line Client utilitasi, «**root**» foydalanuvchisi bilan ishlashga sozlangan. Buni utilita «**Svoystva**»(sidan ko'rish mumkin.(12-rasm)



12-rasm

Agar, boshqa foydalanuvchi bilan ulanmoqchi bo'lsangiz, «**Komandnaya stroka**» orqali MySQL o'rnatilgan papkaga o'tamiz va «**mysql**» utilitasini kalit so'zlar orqali ishga tushiramiz.

Rasmdan ko'rinib turibdiki, ulanish quyidagicha amalga oshirilmoqda:

```
1 mysql -h localhost -u root -p test
```

-h Xost nomi;

-u foydalanuvchi nomi

-p parol. Oxirida ulanayotgan baza nomi(uni bermasa ham bo'ladi, keyinroq tanlab olinadi).


Parol, keyingi qatorda alohida kiritilmoqda. Bu xavfsizlik jihatidan qilinmoqda. Bitta qatorda ham berish mumkin, lekin unda begona odam parolni ko'rib qolishi mumkin, ya'ni

```
mysql -h localhost -u root -pakmal
```

Parol kalit harf»p»ga qo'shib yoziladi.

Ulanishni natijalarini «**status**» buyrug'i orqali bilib olish mumkin.(13-rasm)

```
1 mysql>status
```



13-rasm

Har bir foydalanuvchi ma'lumotlar bazasiga o'zi uchun yaratib berilgan foydalanuvchi nomi va paroli bilan ulanishi lozim, bu orqali u o'zini bazaga tanishtirgan va faqat bu foydalanuvchiga berilgan ruxsatlardan foydalanib, ma'lumotlar bazasidan foydalangan bo'ladi. Demak, ma'lumotlar bazasi

administratori(**root**), iloji boricha har bir ma'lumotlar bazasi foydalanuvchisi uchun, alohida ruxsatlarga ega foydalanuvchi nomi va parolini yaratib berishi lozim.

Bu maqolamiz, MySQL MBBTda foydalanuvchi yaratish va unga ruxsatlar berishga bag'ishlanadi. Yangi foydalanuvchi «**root**» foydalanuvchisi yoki «**GRANT**» xuquqiga ega foydalanuvchi tomonidan yaratilishi mumkin. Demak, MySQLga «**root**» foydalanuvchisi bilan ulanamiz va quyidagi buyruq orqali yangi foydalanuvchi yaratamiz:

```
1 mysql> CREATE USER 'akmx'@'localhost' IDENTIFIED BY 'akmx';
2 mysql> GRANT ALL PRIVILEGES ON *.* TO 'akmx'@'localhost' WITH GRANT OPTION;
```

Dastlabki kodda «**akmx**» nomli foydalanuvchi va bu foydalanuvchiga «**akmx**» nomli parol yaratilmoqda, xost nomi «**localhost**». Undan so'ng, ikkinchi qatorga o'tilmoqda va bu kodda «**akmx**» foydalanuvchiga barcha ruxsatlar(prava) berilmoqda(ruxsatlar haqida). Agar «**localhost**»dan boshqa xostlar uchun ham ulanish kerak bo'lsa, «**%**» belgisi ishlatiladi.

```
1 mysql> GRANT ALL PRIVILEGES ON *.* TO 'monty'@'%' WITH GRANT OPTION;
```

Barcha ruxsatlarni emas, ma'lum birlarini berish ham mumkin. Misol uchun,

```
1 mysql> CREATE USER 'admin'@'localhost';
2 mysql> GRANT RELOAD,PROCESS ON *.* TO 'admin'@'localhost';
```

Parolsiz «**admin**» nomli foydalanuvchi yaratilmoqda va unga «**reload**», «**process**» nomli administrator ruxsatlari berilmoqda, bu foydalanuvchi jadval ustida hech qanday amal bajara olmaydi.

```
1 mysql> CREATE USER 'dummy'@'localhost';
```

Ma'lum bir foydalanuvchiga qanday ruxsatlar berilganini ko'rish uchun, quyidagi buyruqni berish lozim:

```
1 mysql> SHOW GRANTS FOR 'akmx'@'localhost';
```

Agar, ma'lum bir ma'lumotlar bazasi uchun foydalanuvchilarga ruxsat kerak bo'lsa, quyidagicha kod yoziladi.

```
1 mysql> CREATE USER 'test'@'localhost' IDENTIFIED BY 'test11';
2 mysql> GRANT SELECT, INSERT, UPDATE, DELETE, CREATE, DROP ON akmx.* TO 'test'@'localhost';
```

yuqoridagi kodda, «**test**» nomli foydalanuvchi yaratilmoqda va unga parol berilmoqda. Keyin, bu foydalanuvchiga «**select**», «**insert**», «**update**», «**delete**», «**create**» va «**drop**» ruxsatlar berilmoqda, lekin faqat «**akmx**» ma'lumotlar bazasi bilan ishlash uchun.

Berilgan ruxsatlarni olib qo'yish ham mumkin, bunda bizga «**Revoke**» yordam beradi,

```
1 mysql> revoke drop on akmx from test;
```

«**test**» nomli foydalanuvchidan, «**akmx**» jadvalini o'chirish(**drop**) xuquqi olib qo'yilmoqda.

Yaratilgan barcha foydalanuvchi nomlarini ko'rish uchun «**user**» jadvalidan foydalaniladi.

```
1 mysql> use mysql;
2 mysql> select user from user;
```

Yana bir narsa, har safar «**use**» komandasini ishlatmasdan, nuqta(.) orqali kerakli baza jadvaliga o'tish mumkin, yuqoridagi kodni o'zgartiramiz.

```
1 mysql> select user from mysql.user;
```

«**mysql**» baza nomi, «**user**» jadval nomi.

Axborotlar bilan bog'liq bo'lgan ruxsatlar, bevosita ma'lumotlar bazasidagi axborotlar bilan ishlash uchun mo'ljallangan, bu guruhga quyidagi ruxsatlar kiradi.

* **SELECT** — bu ruxsat, ma'lumotlar bazasidagi axborotlarni chiqarib olish uchun beriladigan ruxsaddir, ya'ni jadvallarga «**select**» orqali so'rovni amalga oshirish mumkin.

* **INSERT** — jadvalga yangi ma'lumotlarni kiritishga ruxsat.

* **UPDATE** — jadvaldagi axborotlarni o'zgartirish xuquqini beradigan ruxsat.

* **DELETE** — jadvaldagi axborotlarni o'chirish xuquqini beradi.

* **FILE** — so'rov asosida olingan axborotlarni faylga yozish va fayldan o'qish xuquqini beradi.

Endi, ma'lumotlar bazasi va jadvallar strukturalarini o'zgartirish xuquqini beradigan ruxsatlar bilan tanishib chiqamiz, bu guruhga quyidagilar kiradi:

* **CREATE** — yangi ma'lumotlar bazasi, shu bilan birga bazada yangi jadvallar yaratish xuquqini beradigan ruxsat.

* **ALTER** — jadvalni o'zgartirish xuquqini beradi(jadval nomini o'zgartirish, qatorlarni olib tashlash,...).

- * **INDEX** — jadvalga indekslar yaratish va o‘chirib tashlash xuquqini beradi.
 - * **DROP** — butun boshli bazani yoki jadvalni o‘chirish xuquqi.
 - * **CREATE TEMPORARY TABLES** — vaqtinchalik maqomiga ega jadvallar yaratish xuquqi, bu jadvallar seans tugatilganda o‘chib ketadi.
- Oxirgi guruh ma’lumotlar bazasini ma’murlash(administirovaniye)ga oiddir, bu guruhga quyidagi ruhsatlar kiradi:
- * **GRANT** — yangi foydalanuvchilar yaratish va o‘zida mavjud bo‘lgan(!) ruxsatlarni boshqalarga berish xuquqlariga ega.
 - * **SUPER** — oqimlarni o‘chirish(**kill**) xuquqiga ega, oqimlar boshqa bir foydalanuvchining ma’lumotlar bazasiga ulanishi, ya’ni foydalanuvchi ulanishini uzish xuquqiga ega.
 - * **PROCESS** — **processlist** buyruhini berish xuquqiga ega, bu buyruq barcha ulanishlarni ko‘rish uchun beriladi.
 - * **RELOAD** — jurnal fayllarini ochish va yopish xuquqiga ega.
 - * **SHUTDOWN** — server ishini to‘xtatuvchi komanda(**shutdown**) berish xuquqiga ega.
 - * **SHOW DATABASES** — mavjud bo‘lgan barcha ma’lumotlar bazasini ko‘rish xuquqiga ega.
 - * **LOCK TABLES** — ko‘rsatilgan ulanishlar(oqim) uchun jadvallarni bloklash xuquqi.
 - * **EXECUTE** — har xil protseduralarni ishga tushirishga ruxsat.
 - * **REPLICATION CLIENT, * REPLICATION CLIENT** — server va kliyent joylashgan joyi va jurnallarini ko‘rish xuquqi.

Yuyuqoridagilardan tashqari, quyidagi maxsus resurslarga oid ruxsatlar ham bor:

- * **MAX QUERIES PER HOUR** — bir soatdagi maksimal so‘rovlar sonini belgilash.
- * **MAX UPDATES PER** — ma’lumotlar bazasi yoki jadvallarni o‘zgartirish mumkin bo‘lgan maksimal buyruqlar soni(soatda).
- * **MAX CONNECTIONS PER HOUR** — bir soat mobaynida maksimal ulanishlar soni.

Agar yuqoridagi ruxsatlar qiymati»0« bo‘lsa, resurs cheksiz hisoblanadi.

Har bir so‘z orasi bitta **TAB** tugmasi. Bu faylni saqlaymiz(**D:\load.txt**). Endi shu faylni «**akmx**» jadvaliga yuklaymiz. Uning uchun quyidagi kodni yozamiz:

```
1 mysql> load date infile 'D:\load.txt' into table akmx lines terminated by '\n';
```


Kod manimcha tushunarli, faqat «**lines terminated by**«, bu keyingi qator uchun ma’lumotlar kiritilishi «**\n**» **enter** dan so‘ng amalga oshirilishi kerakligini anglatmoqda. «**\n**» — **enter** tushunchasidir.

Jadvalni tekshiramiz va ma’lumotlar kiritilganini ko‘ramiz.

```
1 select * from akmx;
```

Agar qandaydir ogoxlantiruvchi xabar(**Warnings**) chiqsa, «**show warnings**» orqali xabarni ko‘rishingiz mumkin bo‘ladi(**mysql> show warnings**).

Keling endi **load.txt** faylni o‘zgartiramiz. Har bir ustunga kiritiladigan ma’lumotdan so‘ng **undov(!)** belgisini qo‘yamiz va har bir keyingi qator uchun **yulduzcha(*)** belgisini qo‘yamiz va saqlaymiz.



Endi shu fayldagi ma’lumotlarni jadvalga yuklaymiz, yuqoridagi kodni biroz o‘zgartiramiz.

```
1 mysql> load date infile 'D:\load.txt' into table akmx fields terminated by '! lines terminated by '*';
```

Ko‘rib turganingizdek, ustunlar ‘!’ bilan ajratilgan va u «**fields terminated by**» kalit so‘zi bilan bildirilmoqda, qatorlar esa ‘*’ bilan ajratilib, » **lines terminated by**» nomi bilan bildirilmoqda.

Agar biror fayldagi birinchi qator kerak bo‘lmasa, «**ignore 1 rows**» kalit so‘zi orqali jadvalga kiritmaslik ham mumkin. Bunda birinchi qator tashlab yuboriladi, «**ignore 2 rows**» bo‘lsa, yuqoridan ikkita qator tashlab yuboriladi.

Jadvallarda axborotlarni saqlash

Ma’lumotlar bazasini asosini tashkil qiladigan jadvallar axborotlarni har xil tipda saqlashi mumkin ekan. Jadvalda bajariladigan ishlar asosida kerakli tiplar tanlanadi. Bu maqolamiz, hozirda ishlatiladigan asosiy tiplarga bag‘ishlanadi. Jadval yaratilayotganda bu tiplardan biri tanlanadi, shuning

uchun ma'lumotlar bazasi bilan ishlashdan oldin yaxshilab fikr yuritish kerak bo'ladi(jadvalda nimalar saqlanadi, nima maqsadda saqlanadi, qancha axborot saqlanadi).

Demak, axborotlarni saqlash tiplari bilan tanishishni boshlaymiz:

1. MyISAM. Eng ommabop tiplardan biri, jadvallarga ma'lumotlar qo'shish(**insert**) yoki tanlash operatori(**select**) ishlatilganda katta tezlik bera oladi, ya'ni kiritish va o'qish texnologichsi uchun mo'ljallangan tip.

Shu bilan birga, jadvaldagi axborotlarni o'chirish(**delete**), o'zgartirish(**update**) operatorlari ishlatilganda, juda sekin buyruqlarni bajaradi. Bundan kelib chiqadiki, bu tip tranzaksiyalar uchun mo'ljallanmagan ekan. Asosan doimiy saqlash uchun yig'iladigan axborotlar uchun bu tip foydalaniladi. Delete, Update operatorlarni bajarilishi ketma-ketlikda amalga oshiriladi, biri bajarilayotganda, ikkinchisi kutib turadi, agar katta hajmdagi ma'lumotlar bo'lsa, ancha muammolar keltirib chiqarishi mumkin. Bu tipda, jadvallar quyidagi 3 ta faylda saqlanadi(jadval nomi bilan fayl nomi bir xil).

*.frm — **jadval formati.**

*.myd — **axborotlarni saqlash uchun.**

*.myi — **indekslarni saqlash uchun.**

Axborotlar formati platformaga bog'liq bo'lmagan holda saqlanadi, bu degani istalgan operatsion tizimda foydalanish mumkin. Bulardan tashqari axborotlarni jadval miqyosida bloklaydi, «**count**» buyrug' bilan ham tez ishlaydi, «**faqat o'qish**» rejimida ham ishlashi mumkin, eng yomoni nosozliklar (**sboy**) ga chidamsiz.

2. INNODB. Navbatdagi ommabop tiplardan biri, asosan tranzaksiyali jadvallar uchun mo'ljallangan. Delete, Update buyruqlari berilganda katta tezlikka erishish mumkin va ko'p oqimlilik xususiyatiga ham ega. Odatda axborotlar bitta innodb faylda saqlanadi, lekin foydalanuvchi istagi bilan buni o'zgartirish mumkin. Asosan katta hajmdagi axborotlar bilan ishlash uchun mo'ljallangan.

INNODBda MyISAM tipida mavjud bo'lmagan yana bir narsa tashqi kalit (**foreign keys**)lar bilan ishlay oladi va bloklash qator miqyosida(MyISAM da jadval miqyosida) amalga oshiriladi. Yana bir yaxshi tomoni, buzilishlarga chidamli va qayta tiklash xususiyatiga ega.

3. MEMORY(HEAP). Eng tezkorlikka erishiladigan tip. Bu tipda jadvallar tezkor xotirada saqlanadi va so'rovlar juda tez amalga oshiriladi. Bu tipning asosiy, eng katta kamchiligi server ishdan chiqib qolsa, axborotlar butunlay yo'qotiladi.

Bu tipda asosan, vaqtinchalik ochilgan jadvallar saqlanadi, qaysiki unchalik ahamiyatga ega emas yoki kichik(tez qayta tiklash mumkin bo'lgan). Memory tipida yaratilgan jadval uchun operatsion tizimda bitta «*.frm» kengaytmasida fayl yaratiladi, bu fayl o'zida jadval strukturasi saqlaydi. Server o'chib yoqilganda, axborotlar o'chib ketadi, lekin jadval strukturasi saqlanib qoladi, keyinchalik qayta jadval yaratish uchun foydalanish mumkin bo'ladi.

MySQLda jadval ustunlari tiplari

Ketma-ketlik quyidagicha bo'ladi:

— MySQL xizmatini yoqish;

— MySQLga ulanish;

— MySQL da ma'lumotlar bazasini ochish;

— ma'lumotlar bazasiga oid jadvallar yaratish.

Jadvallar yaratish uchun dastlab, ustun tiplarini bilish lozim. MySQL da quyidagi tiplar mavjud.

— **Butun sonli;**

— **haqiqiy sonlar uchun;**

— **qator(yozuv) ko'rinishidagi axborotlar;**

— **binar(ikkilik tizim uchun);**

— **vaqt va kun;**

YUqoridagi tiplar umumiy hisoblanadi, ular ichiga bir necha tiplar kiradi.

Butun tiplar, «+» va «-» ishorali butun sonlardan tashkil topgan bo'ladi.

Jadval yaratish

Ma'lumotlar bazasi asosi — jadvallarga ham yetib keldik. Jadval yaratish sintaksisini ko'rib chiqamiz. Yaratilayotgan jadvalning parametrlarini bo'lib-bo'lib ko'rsataman(boshqa saytlar kabi hammasini bitta misolda emas). Demak, MySQLni ishga tushiramiz va ulanamiz, kerakli bazani tanlaymiz va boshlaymiz.

Dastlab, oddiy 2 ta ustundan iborat bo'lgan jadval yaratamiz(hech qanday parametrlarsiz).

```
1 mysql> create table test(id int, name varchar(10));
```

test nomli jadval yaratilmoqda, uning ikkita ustuni (**id** va **name**)ni bor, ularning tipi mos ravishda **int**, **varchar**(mysql tiplari). **Name** ustuni faqat 10 ta simvol qabul qila oladi.

Agar bunday nomli jadval bo'lsa, xato beradi. Biz buni «**if not exists**» kalit so'zi orqali ustiga ochamiz(eski jadval o'chadi). Undan tashqari keyingi kodda, vaqtinchalik jadval ekanini ham ko'rsatamiz(**temporary**). Vaqtinchalik jadval deganda, faqat shu seans uchun yaratilgan jadval tushuniladi. Seans tugatilsa, jadval ham o'chadi.

```
1 mysql> create temporary table if not exists test(id int, name varchar(12));
```

Keyingilar, ma'lum bir ustunlar bilan bog'liq bo'ladi. Agar jadvaldagi ma'lum bir ustun hech qachon bo'sh bo'lmasligi lozim bo'lsa, «**NOT NULL**» kalit so'zidan foydalanish kerak, bu berilmasa, odatda bu ustun bo'sh qiymatlarni ham qabul qilaveradi. Agar bu ustun bo'sh qoldirilsa, xatolik beradi va ustun to'latilishi lozimligini eslatadi.

Agar, biror ustunga hech qanday axborot kiritilmasa, uni odatiy biror belgi bilan to'ldirib qo'yish xususiyatiga ham mysql ega, «**default**» so'zi yordamida. Bunda ustun bo'sh qolmaydi, foydalanuvchi bo'sh qoldirsa, u odatiy(yaratilishda berib qo'yilgan) belgi bilan to'latiladi.

Ko'p hollarda, jadvallar ro'yxat sifatida foydalaniladi va dastlabki ustun nomerlanishi kerak bo'ladi. Buni MySQL ning «**auto_increment**» kalit so'zi amalga oshirib beradi. Bu kalit so'z shu ustunga takrorlanmas qiymatlar beradi. Odatda bu ustun asosiy kalit(**primary key**) bo'ladi. Primary key jadvalda bitta bo'ladi va jadvaldagi axborotlarni identifikatsiya qilish uchun kerak bo'ladi, undan tashqari boshqa jadvaldagi **foreign key** bilan bog'lanadi. YUqoridagilarga misol ko'ramiz.

«**Foreign key**», boshqa jadvaldagi «**primary key**» ulanadigan ustunga o'rnatiladi, shunda ikkita kalitlar bir-biri bilan bog'lanadi va jadvallar ham mos holda ulanadi.

Yana bir qiziq parametr «**check**». Bu orqali jadvalga kiritilayotgan axborotga shart qo'yish mumkin bo'ladi. Misol,

```
1 mysql> create table akmx1(id int(10), name varchar(10) unique, primary key(id));
2 mysql> create table akmx2(nomer int(10), son int(10), check(son>0), foreign key(nomer) references
akmx1(id));
```

2 ta jadval yaratilmoqda, birinchi jadval «**id**» ustuni primary key va «**name**» ustuni takrorlanmas(unikal) qiymatlar uchun, ikkinchi jadvalda «**nomer**» ustuni foreign key va u birinchi jadvalning «**id**» ustuni bilan ulanmoqda va «**son**» ustuni «**check**» orqali musbat bo'lishi tekshirilmoqda. Navbatdagi parametrlar butun jadvalga oiddir:

Type — jadval tipi: **MyISAM**, **InnoDB**(jadval tiplari haqida).

Comment — jadval uchun kommentariya qo'shish(60 ta simvol).

MAX_ROWS — jadvalda saqlash mumkin bo'lgan maksimal qator soni.

MIN_ROWS — jadvalda saqlash mumkin bo'lgan minimal qator soni.

```
1 mysql> create table test(id int(10), name varchar(10)) engine=myisam comment='ole' max_rows=20;
```

Eng asosiy va kerakli parametrlar shulardan iborat, lekin boshqa parametrlar ham mavjud. YUqoridagilardan foydalanib, kerakli jadval yaratib olishingiz mumkin, barcha parametrlarni ishlatish **SHART EMAS**. Jadval qanday yaratilganini quyidagi kod orqali bilib olishingiz mumkin.

```
1 mysql> show create table test;
```

Nazorat savollari:

1. Ma'lumotlar bazasi nima?
2. MB ni yaratishda qanday shartlarni hisobga olish mumkin?
3. MB yozuv tushunchasi va uning tarkibi?
4. Ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimi nima?
5. MB modellarining qanday turlari mavjud?
6. MBBT qanday modullardan tashkil topgan?

7. .MySql tizimini sozlash uchun qanday operatsion tizimlar o'rnatilgan bo'lishi kerak?

5-ma'ruza. Iqtisodiy muammolarni hal qilishni tashkil etish va avtomatlashgan buxgalteriya hisob jarayonlarini o'rganish.

Reja:

1. So'rov obyektining vazifasi
2. So'rov tili.
3. So'rov tili buyruqlari

Tayanch so'zlar: So'rov, Insert, Selekt buyrug'I,

So'rov obyektining vazifasi


So'rovlar har qanday ma'lumotlar bazasi dasturining ajralmas qismidir. So'rovlar foydalanuvchilarga bir necha jadvaldagi ma'lumotlardan ajratib olish, yoki foydali yo'l bilan birlashtirish mumkin yoki boshqa shakllarda taqdim qilish imkonini beradi. Jadvalda ma'lumotlar erkin holatda tasvirlangani uchun foydali hisoblanmaydi shu bilan birga muhim axborot turli jadvallarda berilishi mumkin. So'rovlar barcha tarqoq axborotni birlashtirishi mumkin va bu ma'lumotlar bilan foydalanuvchilar bemaol ishlashlari mumkin.

Bundan tashqari, etarlicha normalashgan bazada, muhim ma'lumotlar bir necha turli jadvallar o'rtasida taqsimlanadi. Foydalanuvchilar ma'lumotlar bilan qulay ishlashlari uchun, so'rovlar bir-biri bilan o'zaro ulangan turli manbalardan va birlashgan ma'lumotlar bazasiga yuborilib taqdim etilishi kerak. Endi siz so'rovlarni qanday qilib yaratish va kengaytirishlarni bilib olasiz. Savdo (tblSales), mijozlar (tblCustomers), kontaktlar (tbl Kontaktlar), sotish o'rni (tblSalesLineItems), toifalari (tblCategories) va mahsulotlar (tblProducts) kabi jadvallar misolida siz "CollectibleMiniCars" misol bazasidagi ma'lumotlar uchun necha turdagi so'rovlarni qanday yaratilishini kuzatasiz. Access tomonidan qaygan so'rov ma'lumotlari ko'p hollarda shakllar va hisobotlarni to'ldirish uchun ishlatiladi¹.

Shuni yodda tutish kerakki, ma'lumotlarga kiritilgan o'zgarishlar qaytish so'rovlari texnik tabsif, biror shakl yoki hisobotda qo'llaniladimi yo'qmi aniqlashni taqozo etadi. So'rovlarning asosiy tamoyillaridan so'rov yordamida bajarilayotgan amallar, so'rovlar qanday ishlatilayotganligiga bog'liq emas, deb hisoblanadi. Ko'p hollarda bu holat bir ariza yoki hisobotda quyidagi bosqichlarni amalga oshirish, o'zgartirish, kombinatsiyalar va so'rov sifatida saralash kabi mantiqiy xulosalarga asoslanadi. Asosiy masala bu ma'lumotlarni bazasida maqsadli saqlash va kerak vaqtda olish hisoblanadi. Ma'lumotlar darhol yoki bir necha kun, hafta, hattoki yildan so'ng olinishi mumkin. Albatta, ma'lumotlar bazasi jadvalidan ma'lumotlar olish ma'lumotlar bazasini qanday yaratilganligi haqidagi bilimlarni talab qiladi. Misol uchun, an'anaviy fayl kabinetida saqlanayotgan qachon tayyorlanganligini bildiruvchi, yani sana va tartib raqami bilan ko'rsatilgan bosma hisobotlarni korib chiqaylik. Aniq bir hisobotni topish uchun, siz yili va tartib raqamini bilishingiz kerak. Rivojlangan fayl tizimlarida ma'lum bir hisobot topishga yordam beradigan siz yordam uchun kitob havolalarga ega bo'lishingiz mumkin. Bu kitob ehtimol turi va sana alifbo tartibida barcha hisobotlarni o'zida jamlagan bo'lishi mumkin. Bu kitob hisoboti va taxminiy sana mavzusini bilsangiz foydali bo'lishi mumkin, lekin siz kerakli ma'lumotni topish uchun kitobning barcha bo'limlari orqali qidirishingizga to'g'ri keladi. Qo'l ishi fayl tizimidan farqli o'laroq, Microsoft Access ma'lumotlar bazasi tez va osonlik bilan deyarli har qanday talablarga javob berishi bilan ajralib turadi. Bu ma'lumotlar bazasining haqiqiy kuchidir – unda sizning tasavvur ortiq yo'l bilan ma'lumotlarni ko'rib chiqish imkoniyati tug'iladi. So'rovlar, odatda saqlanayotgan ma'lumotlar haqida ma'lumotlar bazasiga murojaat qiladi. Ko'p hollarda so'rovlar bazada mavjud bo'lgan formalar, hisobotlar va grafik taqdimotlarni boshqarish uchun ishlatiladi. "So'rov" so'zi lotin tilidagi "quaerere" olingan bo'lib, "so'rang yoki topish uchun" kabi ma'nolarni bildiradi. Ko'p yillar davomida, so'rov so'zi viktorina, chaqiruv, savol so'zlari bilan sinonim bo'lib kelgan. Microsoft Access so'rov funksiyasi deb, Access jadvallarida saqlangan ma'lumotlar haqida bilish uchun yo'llangan savolga aytiladi. Siz Access vositalari bilan so'rovlarni qursangiz uni albatta

¹John Walkenbach. Bible Office 2010. USA 2010. P-1245. (1029-1049)

Access ma'lumotlar bazasida yangi ob'ektlar sifatida saqlab qo'ying. Sizning so'rovingiz bitta jadvaldagi ma'lumotlar uchun oddiy savol bo'lishi mumkin, yoki bir necha jadvallarda saqlangan ma'lumotlar uchun qiyin savol bo'lishi mumkin. Savol yuborgahdan so'ng, Microsoft Access sizga talab qilingan ma'lumotni qaytaradi. Agar quyida ko'rsatilgan ma'lumotlar bazasini (masalan, CollectibleMiniCars) kiritishingiz uchun so'rovlardan foydalanib, sizga 2012 yilda sotilgan yuk avtomobillari turlarini ko'rish uchun, 2012 yilda sotilgan faqat yuk mashinalari ko'rsatish uchun, quyidagi uch jadvaldagi ma'lumotlarni olish uchun zarur: tblSales, tblSalesLineItems va tblProducts. 19-rasm mana shunday qiyin tuyulishi mumkin bo'gan, aslida oddiy va tushunish oson Access So'rovlar konstruksiyasini ko'rsatadi. So'rov yaratilib ishga tushirishilgandan so'ng, Microsoft Access texnik tafsif sifatida kerakli ma'lumotni chiqarib ko'rsatadi. So'rovlar tomonidan sodir yozuvlar, qayttish so'rovlari "recordset" (ro'yxatdan o'tishingiz) deyiladi. Texnik tavsifi esa ko'p qatorlar va ma'lumotlar yozuvlar ustunlar bilan elektron jadval ko'rinishida bo'ladi. Texnik passportlar yozuvlari to'plamini ta'minlasi bir vaqtning o'zida bir nechta yozuvlarni ko'rish imkoniyatini beradi².



14 - rasm. So'rovlarni tipik jadvali.

Siz osonlik bilan ma'lumotni izlashingiz va filtrlashingiz hamda sahifa ko'rinishida jadval sifatida ko'rishingiz mumkin. "View Texnicheskiy pasport" tugmasini bosish orqali 14 rasmda ko'rsatilgandek tasmada so'rov amali bajariladi va yozuvlar qaytadi. Access so'rovlar konstruktorini ishlatish orqali so'rovlarni osongina loyihalashtirish mumkin. Bu oddiy so'rov dvigatel quvvatini namoyish qiluvchi bir necha o'lchovlarning yozuvlar natijasida majmuini saralash, bu maydonlar xolatida yoki kompleks foydalanilgan bir necha elementlardan iborat. Siz Access So'rovlar "Designer"dan foydalanib juda murakkab so'rovlarni yaratishingiz mumkin. Misol uchun, siz o'tgan yili bir necha mahsulot oldingi barcha xaridorlarga bildirishnoma yuborishingiz mumkin.

Company	Address	Products_Bought	Category
Carmen's Collectibles	15 Hatter Drive		3 Cars
Fun Zone	105 S Dubuque Street		5 Cars
Grandma's Closet	986 Buckingham St		4 Cars
Paul's Best Toys	54 Plains Rd		2 Cars
Rockin And Rollin	60 Newbury Rd		3 Cars
Too Many Toys	54 E Center Street		3 Cars
Your Favorite Things	75 Main Street		2 Cars
Zoomy Collectibles	55 West North Street		5 Cars

15 rasm. So'rov natijasi.

So'rovning bunday turi iste'molchilar jadvali, savdo, vaziyat va TBL mahsulotlar: kabi to'rt jadvaldagi ma'lumotlarni talab qiladi. Malumotni katta qismi mijozga va TBL Mahsulotlar uchun zarur. Bu holda, siz so'rovlar ("2012 yilda olingan bir necha mahsulotlar") mezonlarini barcha mijozlar nomlari va manzillari texnik tavsifi ko'rsatilgan ma'lumotga kirish kirish huquqiga ega bo'lishni hohlaysiz. Bu holda, Access tblCustomers dan mijozlar nomlarini va shaharlarni oladi, keyin tblProducts

²John Walkenbach. Bible Office 2010. USA 2010. P-1245. (1029-1049)

jadvalidan mahsulot soni va tblSales dan sotilgan yilini chiqaradi. Access integratsiya, mezonlar haqida ma'lumot oladi va bir texnik tavsifda ko'rsatadi. Bu texnik tavsif tblCustomers, tblSales, tblSalesLineItems va tblProducts lardan olinadi va yuborilgan so'rovning samarasidir. Ma'lumotlar bazasiga so'rovnoma siz uchun barcha ma'lumotlar yig'ish bo'yicha ishlar amalga oshiradi. 15-rasmda natijaviy texnik passport ko'satilgan. Ko'p hollarda, foydalanuvchilar ularga ma'lumotlar qaysi ilovadan kelayotganligini bilmaydi va o'ylab ham o'tirmaydi. Bu holda, siz ma'lumotlarni to'rtta jadvaldan olinayotganligini bilasiz, lekin so'rovlar murakkabligi foydalanuvchi uchun maxfiylashtirilgandir. Access foydalanuvchilarning ma'lumotlar ulanishi uchun ajoyib imkoniyat yaratadi va buni so'rov misolida ko'rishimi mumkin. So'rovlar turlari. Access asosiy oltita toifaga birlashgan har xil turdagi so'rovlarni qo'llab-quvvatlaydi³:

1. Tanlov. So'rovning eng keng tarqalgan turi hisoblanadi. Nomidan ham ko'rinib turibdiki, tanlov so'rovi yozuvlar majmuini yaratish, bir yoki bir necha jadvaldagi ma'lumotlarni tanlaydi. Umuman olganda, namuna ustida so'rovlar tomonidan sodir ma'lumotlar yangilanadi va tez-tez shakllar va hisobotlarni to'ldirish uchun ishlatiladi.

2. Natijaviy. So'rovning umumiy talabi so'rovning alohida turidir. Jami so'rovlar yozuvlardan summani yoki hisobni (masalan, soni) tanlov uchun qaytish so'rovlari orqali taqdim etadi. So'rovlar bu turini "Общаястрока" tugmasi jami so'rov uchun, masalan (QBE) to'rida qo'shadi.

3. Harakat. Harakatlar so'rovlari (Make Table, Delete, Update ili Append) yangi jadvallar yaratish yoki mavjud jadvaldagi ma'lumotlarni o'zgartirish imkonini beradi. So'rov harakat bitta operatsiya sifatida ko'p yozuvlarga bir amal sifatida ta'sir qiladi.

4. Qiyosiy. Qiyosiy so'rovi qidiruv jadvalda sohalarda asoslangan qatorlar va ustunlar bo'limlardagi bilan elektron jadvallar kabi aks ettiradi va bunda tutash-jadval shaklida qisqacha ma'lumotlarni ko'rishimiz mumkin. Alohida katakchalarning yozuvlari hisob-kitob qilindi yoki tayanch jadvallar hisoblab chiqiladi.

So'rovlarning boshqa turlarini keltirish mumkin.

1. Ixtisoslashgan so'rovlar. So'rovlarni uyushgan, muloqot va ma'lumotlar aniqlovchi kabi uch turi bor. Bu so'rovlarlar SQL Server yoki Oracle mijoz / server bilan ishlash kabi ma'lumotlar bazasi ilg'or manipulyatsiyasi uchun SQL ma'lumotlar bazasi hisoblanadi ishlatiladi. Siz ma'lumotlar bazasi serveri uchun maxsus ta'riflar bo'lgan SQL yozib iboralar bu so'rovlarni yaratasisiz.

2. Top so'rovlari so'rovning har qanday turini olishni istasangiz raqam yoki yozuvlar foizini belgilash (umumiy va boshqalar tanlash) imkonini beradi.

So'rovlar qanday amallar bajarishi mumkin?

So'rovlar moslashuvchan bo'ladi. Ular siz tasavvur qilgan deyarli har qanday ma'lumotlarni siz istagan tarzda beradi. Ko'pgina ma'lumotlar tizim bazalari doimo rivojlanib va vaqt davomida o'zgarib turadi. Ko'p hollarda ma'lumotlarni asl bazasi ayni vaqtda foydalanib turilganidan juda farq qiladi. Quyida Access so'rovlari bilan nima qila olish mumkinligiga bir necha misol:

Jadvallar tanlash. Siz bitta yoki bir necha umumiy ma'lumotlar orqali bog'langan bir necha jadvaldagi ma'lumotlarni olish mumkin. Har bir mijoz tomonidan sotib unsurlar bilan birga, mijoz nomidan manfaatdor deydik. Bir necha jadvallar foydalanganda, Access yozuvlar bir qator ichiga ma'lumotlarni birlashtiradi.

Maydonlarni tanlash. Har bir jadvalni maydonlarini qaysi yozuvlarni ko'rmoqchi ekanligingizni ko'rsating. Misol uchun, siz bir mijoz nomi, pochta kodi, sotish sana va TBL va TBL Mijozlar savdo faktura raqamini tanlashingiz mumkin.

Belgilangan shartlarga ko'ra. Tanlash mezonlari asosida yozilgan tanlash. Masalan, ma'lum bir mahsulot turkumida faqat yozuvlarni ko'rish mumkin.

Saralash yozuvlar. Agar ma'lum bir tartibda yozuvlarni tartiblashtirish mumkin. Misol uchun, sizga nomi va familiyasi mavjud mijozlar bilan aloqalarni ko'rish uchun kerak bo'lishi mumkin.

Xisob-kitobni amalga oshirish. Bunda o'rtacha va umumiy ma'lumotlar yoki amalga oshirish yozuvlarni hisoblash uchun so'rovlardan foydalanish.

Jadval yaratish. So'rovlar tomonidan sodir ma'lumotlar asosida butunlay yangi jadval yaratish⁴.

³John Walkenbach. Bible Office 2010. USA 2010. P-1245. (1029-1049)

⁴John Walkenbach. Bible Office 2010. USA 2010. P-1245. (1029-1049)

Axborot so'rov shakllari va hisobotlarni ko'rsatish. Yozuvlar so'rovdan hosil qilinadi va faqat to'g'ri maydon, yozuv yoki forma uchun zarur ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin. Bir so'rov yoki hisobot asosida hisobot chop etish yoki forma ochish uchun har safar, siz jadvaldan mavjud eng tegishli ma'lumotlarni ko'rishingiz kerak.

So'rovlardan boshqa talablar (Sub so'rov) uchun ma'lumotlar manbai sifatida foydalanish. Siz boshqa so'rovlardan yozuvlar asosida so'rovlarni yaratishingiz mumkin. Bu sizga mezonlar ba'zi kichik o'zgartirishlar qayta-qilishingiz mumkin, surishtiruv bajarish uchun juda foydalidir. Bu holda, ikkinchi so'rovlar birinchi so'rov natijalarini filtrlaydi.

Jadvallarda ma'lumotlarni o'zgartirish. Harakat so'rovlari bitta operatsiya sifatida asosiy jadvalda bir necha satrlarni o'zgartirishi mumkin. Harakat so'rovlari ko'pincha, ma'lumotlarni saqlash, oldingi yozuvlarni arxivlash yoki eskirgan ma'lumotlarni o'chirish uchun ishlatiladi.


Qaysi so'rovlar qaytadi? Access yozish uchun ruxsat so'roviga eg va ijro paytida, buni jadval sifatida ko'rsatadi. So'rovlar tomonidan sodir yozuvlar yig'indisi odatda qaytish so'rovlari (g'alati bo'lsa-da) deyiladi. Agar siz bu yozuvlar jadvali qurish uchun ruxsat yuborgan bo'lsa yozuv o'rnatiladi. Harakat so'rovlar foydalanilganda so'rov tugaganda yozuvlar yo'qoladi. Harakat so'rovlari talab tuzilishi tasvirlangan harakat yozuvlarni amalga oshirish uchun, hech qanday yozuvlar bir ariza yoki hisobotda aks ettirish uchun etarlidir. Agar so'rovlar saqlansa, faqat qaytmagan yozuvlar so'rovlar tuzilishi saqlanib qoladi. Qiyida yozuvlar jismoniy jadvalda saqlanmagan hol uchun ko'ramiz:

- Xotira qurilmasi (odatda qattiq disk) hajmi etarli emas.
- So'rovlar yozuvlarning yangilangan versiyasidan foydalanadi.

Har safar so'rovlar ijrosi bajarilganda, u yangi baza jadvallarni o'qiydi va yozuvlar majmuini yaratadi. Hatto real vaqtda, ko'p foydalanuvchi holatida ham yozuvlar saqlanmaydi va avtomatik ravishda oxirgi so'rov qilingan asosiy jadvaldan yoki har qanday o'zgarishlar uchun javob beradi. Ehtiyojlariga qarab, talab yozuvlar bir texnik tavsif yoki hisobot shaklida qaralishi mumkin. Shakl yoki hisobotlar so'rovlar asosida asoslangan bo'lsa va u ochilgan vaqtda so'rov yozuvlari shakl yoki hisobotlar qayta shakllantiriladi.

So'rovlar yaratish.

Keling endi so'rovlar berib ko'ramiz, dastur versiyasi va vaqtni chiqaramiz(**version()** va **current_date()**funksiyalaridan foydalanamiz).



```
mysql> select version(), current_date();
+-----+-----+
| version() | current_date() |
+-----+-----+
| 5.6.20    | 2014-09-02    |
+-----+-----+
1 row in set (0.00 sec)

mysql> _
```

Vaqt ham kerak bo'lsa, **NOW()** funksiyasini ishlatamiz.



```
mysql> select now();
+-----+
| now() |
+-----+
| 2014-09-02 14:47:36 |
+-----+
1 row in set (0.00 sec)

mysql>
```

Barcha so'rovlar **nuqta-vergul(;) bilan tugashi shart, bu orqali dastur buyruq tugaganini biladi.**

So‘rov yozishda, kalit so‘zlardan foydalanganda registrning ahamiyati yo‘q(katta, kichik harflarni farqi yo‘q), ya‘ni quyidagilar bir xil ma‘noga ega.

```
1 mysql> SELECT VERSION(), CURRENT_DATE;
2 mysql> select version(), current_date;
3 mysql> SeLeCt vErSiOn(), current_DATE;
```

So‘rovlar yozishda, ko‘p uchraladigan quyidagi belgilar mavjud:

mysql> — Yangi buyruqni kutish.

-> — Ko‘p qatorli so‘rovlarni, keyingi qator buyruqlarini kutish(ko‘p hollarda bu belgi buyruq oxirida «;» belgisini yozish esdan chiqib qolganda sodir bo‘ladi).

‘> — bittalik qo‘shirnoq ochilib, qaytib yopilasa, shu xabar ekranga chiqadi.

«> — ikkitalik qo‘shirnoq ochilib, qaytib yopilasa, shu xabar ekranga chiqadi.

```
mysql>
mysql> select NOW<>
->
```

Agar, so‘rov ishga tushmasdan oldin xato yozilgani maxlum bo‘lib qolsa, «\c» orqali boshlang‘ich holga qaytib kelish mumkin.

```
mysql>
mysql> select Current_dataa
-> \c
mysql>
```

Sql da bir necha jadvallar bilan ishlash

Jadvallarni jamlashtirish.

Jamlashtirish relyasion ma‘lumotlar bazasi operatsmyalaridan biri bo‘lib, jadvallar orasidagi aloqani belgilaydi va ulardan ma‘lumotni bitta komanda yordamida ajratishga imkon beradi. Xar xil jadvallarda bir xil nomli ustunlar bo‘lishi mumkin bo‘lgani uchun, kerakli ustun uchun jadval nomii prefiksi ishlatiladi.

Jamlashda jadvallar FROM ifodasidan so‘ng ro‘yxat sifatida tasvirlanadi. So‘rov predikati ixtiyoriy jadval ixtiyoriy ustuniga tegishli bo‘lishi mumkin. Jamlash eng soddasi bu dekart ko‘paytmasi, uni quyidagicha bajarish mumkin:

```
SELECT Customers.*, Salepeople.*
FROM Salepeople, Customers; *
```

Lekin bu erda xosil bo‘lgan jadval keraksiz ma‘lumotlarga ega. Keraksiz satrlarni olibtashlash uchun WHERE jumlasidan foydalaniladi.

Masalan: beritlgan shaxardagi sotuvchilar va buyurtmachilar ixtiyoriy kombinatsiyasini ko‘rish uchun quyidagini kiritish lozim:

```
SELECT Customers.CName, Salepeople.SName, Salepeople.City
FROM Salepeople, Customers
WHERE Salepeople.City = Customers.City;
```

Jamlashda SQL bir necha jadval satrlari kombinatsiyasini predikatlar buyicha solishtirishdir. Asosoan ma‘lumotlar ilovali yaxlitlik asosida tekshirilib, ajratib olinadi.

Misol: xar bir sotuvchiga mos keluvchi buyurtmachilar ro‘yxati:

```
SELECT Customers.CName, Salepeople.SName
FROM Customers, Salepeople
WHERE Salepeople.SNum = Customers.SNum;
```

Tenglikka asoslangan predikatlardan foydalanuvchi jamlanmalar, tenglik bo‘yicha jamlanma deb atalib, jamlanmalarining eng umuiy ko‘rinishidir. SHu Bilan birga ixtiyoriy relyasion operatoridan foydalanish mumkin.

Ichki va tashqi jamlashlar

Jamlashlar bir jadval satriga ikkinchi jadval satrlarini mos qo‘yishga imkon beradi. Jamlashlar asosiy turi bu ichki jamlashdir. Jadvallarni ichki jamlash ikki jadval usutunlarini tenglashtirishga asoslangandir:

```
SELECT book, title, author, name
FROM author, book
WHERE book, author = author, id
```

MySQL jamlashning kuchliroq tipi ya‘ni chap tashqi jamlash(yoki tashqi jamlash) dan foydalanishga

imkon beradi.

Jamlash bu turitning ichki jamlashdan farqi shundaki natijaga o'ng jadvalda mos ustunga ega bo'lmagan chap jadval ustunlari qo'shiladi. Agar avtorlar va kitoblar misoliga e'tibor bersangiz atijaga ma'lumotlar bazasida kitoblarga ega bo'lmagan kitoblar kirmagan edi.

Ko'p xollarda o'ng jadvalda mosi bo'lmagan chap jadvaldagi satrlarni chiqarish kerak bo'ladi. Buni tashqi jamlash yordamida amalga oshirish mumkin:

```
SELECT book.title, author.name  
FROM author  
LEFT JOIN book ON book.author = author.id
```

E'tibor bering tashqi jamlanmada WHERE o'rniga ON kalit so'zi ishlatiladi.

MySQL tabiiy tashqi jamlashdan (*natural outer join*)foydalanishga imkon beradi. Tabiiy tashqi jamlash ikki jadval ikki ustuni bir xil nom va bir xil tiga ega bo'lgan xamda shu ustundagi qiymatlar teng bo'lgan satrlarni birlashtirishga imkon beradi:

```
SELECT my_prod.name  
FROM my_prod  
NATURAL LEFT JOIN their_prod
```

Jadvallarni o'zi bilan jamlash.

Jadvallarni o'zi bilan jamlash uchun xar bir satrning o'zi yoki boshqa satrlar bilan kombinatsiyasini xosil qilishingiz mumkin. So'ngra xar bir satr predikat yordamida baxolanadi. Bu turdagi jamlash boshqa turdagi jamlashdan farq qilmaydi, farqi ikki jadval bir xildir. Jadvallarni jamlashda qaytariluvchi ustun noilari oldiga jadval nomi qo'yiladi. Bu usutunlarga so'rovlarda murojaat qilish uchun xar xil nrmlarga ega bo'lishi kerak. Buning uchun vaqtinchalik nomlar ya'ni psevdonimlar qo'llandi. Ular so'rov FROM jumlasida jadval nomidan so'ng bo'shlik qo'yib yoziladi.

Misol: bir xil reytingga ega xamma buyurtmachilar juftlarini topish.

```
SELECT a.CName, b.CName, a.Rating  
FROM Customers a, Customers b  
WHERE a.Rating = b.Rating;
```

Bu xolda SQL a va b jadvallarni jamlagandek ish tutadi. YUqorida keltirilgan misolda ortiqcha satrlar mavjud, xar bir kombinatsiya uchun ikkita qiymat. Birinchi psevdonimdagi A qiymat ikkinchi psevdonimdagi B qiymat bilan kombinatsiyasi olinadi, so'ngra ikkinchi psevdonimdagi A qiymat birinchi psevdonimdagi B qiymat bilan kombinatsiyasi olinadi.

Xar gal satr o'zi bilan solishtiriladi. Buni oldini olish soda usuli ikki qiymatga cheklanish kiritish, toki birinchi qiymat ikkinchisidan kichik bo'lsin yoki alfavit bo'yicha oldin kelsin. Bu predikatni aasimmetrik qiladi, natijada xudi shu qiymatlar teskari tartibda olinmaydi.

Misol:

```
SELECT a.CName, b.CName, a.Rating  
FROM Customers a, Customers b  
WHERE a.Rating = b.Rating  
AND a.CName < b.CName;
```

Bu misolda agar birinchi kombinatsiya ikkinchi shartni qanoatlantirsa u chiqariladi, lekin teskari kombinatsiya bu shartni qanoatlantirmaydi va aksincha. Siz SELECT ifodasida yoki so'rovning FROM jumlasida keltirilgan xar bir psevdonim yoki jadvalni ishlatishingiz shart emas. Siz xar xil jadvallar, xamda bitta jadval xar psevdonimlaridan iborat jmlanma yaratishingiz mumkin.

Sodda joylashtirilgan ostki so'rovlar.

SQL yordamitda so'rovlarni bir birining ichiga joylashtirishingiz mumkin. Odatda ichki so'rov qiymat xosil qiladi va bu qiymat tashqi predikat tomonidan tekshirilib, to'g'ri yoki noto'g'riligi tekshiriladi.

Misol: bizga sotuvchi nomi ma'lum: Motika, lekin bizSNum maydoni qiymatini bilmaymiz va Buyurtmachilar jadvalidan xamma buyurtmalarni ajratib olmoqchimiz. Buni quyidagicha amalga oshirish mumkin:

```
SELECT * FROM Orders  
WHERE SNum =  
( SELECT SNum FROM Salepeople  
WHERE SName = 'Motika' );
```

Avval ichki so'rov bajariladi, so'ngra uning natijasi tashqi so'rovni xosil qilish uchun ishlatiladi

(SNum ostki so'rov natijasi bilan solishtiriladi).

Ostki so'rov bitta ustun tanlashi lozim, bu ustun qiymatlari tipi predikatda solishtiriladigan qiymat tipi bilan bir xil bo'lishi kerak. Siz ba'zi xollarda ostki so'rov bitta qiymat xosil qilishi uchun DISTINCT operatoridan foydalanish mumkin.

Misol: Hoffman (CNum=21) ga xizmat ko'rsatuvchi sotuvchilar xamma buyurtmalarini topish lozim bo'lsin.

SELECT * FROM Orders

**WHERE SNum = (SELECT DISTINCT SNum FROM Orders
WHERE CNum = 21);**

Bu xolda ostki so'rov faqat bitta 11 qiymat chiqaradi, lekin umumiy xolda bir necha qiymatlar bo'lishi mumkin va ular ichidan DISTINCT faqat bittasini tanlaydi.

Ixtiyoriy sondagi satrlar uchun avtomatik ravishda bitta qiymat xosil qiluvchi funksiya turi - agregat funksiya bo'lib, undan ostki so'rovda foydalanish mumkin.

Masalan, siz summasi 4 oktyabrdagi bajarilishi lozim bo'lgan buyurtmalar summasi o'rta qiymatidan yuqori bo'lgan xamma buyurtmalarni ko'rmoqchisiz:

SELECT * FROM Orders

WHERE AMT >

**(SELECT AVG (AMT) FROM Orders
WHERE ODate = '1990/10/04');**

SHuni nazarda tutish kerakki guruxlangan agregat funksiyalar GROUP BY ifodasi terminlarida aniqlangan agregat funksiyalar bo'lsa ko'p qiymatlar xosil qilishi mumkin.

Agar ostki so'rov IN operatoridan foydalanilsa, ixtiyoriy sondagi satrlar xosil qilish mumkin.

Misol: Londondagi sotuvchilar uchun xamma buyurtmalarni ko'rsatish.

SELECT * FROM Orders

WHERE SNum IN

**(SELECT SNum FROM Salepeople
WHERE City = 'London');**

Bu natijani jamlanma orqali xosil qilish mumkin. Lekin odatda ostki surovli surovlar tezrovi bajariladi. Siz ostki so'rov SELECT jumlasida ustunga asoslangan ifodadan foydalanishingiz mumkin. Bu relyasion operatorlar yordamida yoki IN yordamida amalga oshirilishi mumkin. Siz ostki so'rovlarni HAVING ichida ishlatishingiz mumkin. Bu ostki so'rovlar agar ko'p qiymatlar qaytarmasa xususiy agregat funksiyalaridan yoki GROUP BY yoki HAVING operatorlaridan foydalanishi mumkin.

Misol:

SELECT Rating, COUNT (DISTINCT CNum) FROM Customers

GROUP BY Rating

HAVING Rating >

**(SELECT AVG (Rating) FROM Customers
WHERE City = 'San Jose');**

Bu komanda San Jose dagi baxolari o'rtachadan yuqori bo'lgan buyurtmachilarni aniqlaydi.

Korrellangan (mutanosib) joylashtirilgan ostki so'rovlar.

SQL tilida ostki so'rovlardan foydalanilganda tashqi so'rov FROM qismidagi ichki so'rovga mutanosib so'rov yordamida murojaat qilishingiz mumkin. Bu xolda ostki so'rov asosiy so'rov xar bir satri uchun bir martadan bajariladi.

Misol: 3-e oktyabrda buyurtma bergan xamma buyurtmachilarni toping.

SELECT * FROM Customers a

WHERE '1990/10/03' IN

**(SELECT ODate FROM Orders b
WHERE a.CNum = b.CNum);**

Bu misolda tashqi so'rovning Cnum maydoni o'zgargani uchun ichki so'rov tashqi so'rovning xar bir satri uchun bajarilishi kerak. Ichki so'rov bajarilishini talab qiladigan tashqi so'rov satri joriy satr - kandidat deyiladi. Mutanosib ostki so'rov bilan bajariladigan baxolash protsedurasi quyidagicha:

1. Tashqi so'rovda nomlangan jadvaldan satrni tanlash. Bu kelajak satr -kandidat.
2. Tashqi so'rov FROM jumlasida nomlangan psevdonimda bu satr -kandidat qiymatlarini saqlab

qo'yish.

3. Ostki so'rovni bajarish. Tashqi so'rov uchun berilgan psevdonim topilgan xamma joyda joriy satr-kandidat qiymatidan foydalanish. Tashqi so'rov satr-kandidatlari qiymatlaridan foydalanish, tashqi ilova deyiladi.

4. Tashqi so'rov predikatini 3 qadamda bajariluvchi ostki so'rov natijalari asosida baxolash. U chiqarish uchun satr-kandidat tanlanishini belgilaydi.

5. Jadval keyingi satr-kandidatlari uchun protsedurani qaytarish va shu tarzda toki xamma jadval satrlari teshirilib bo'lmaguncha.

YUqoridagi misolda SQL quyidagi protsedurani amalga oshiradi:

1. U buyurtmachilar jadvalidan Hoffman satrini tanlaydi.

2. Bu satrni joriy satr-kandidat sifatida a – psevdonim bilan saqlaydi.

3. So'ngra ostki so'rovni bajaradi. Ostki so'rov CNum maydonning qiymati a.CNum qiymatiga teng satrlarni topish uchun Buyurtmachilar jadvali xamma satrlarini ko'rib chiqadi. Xozir a.CNum qiymati 21 ga ya'ni Hoffman satrining CNum maydoni qiymatiga teng. SHundan so'ng shu satrlarning ODate maydonlari qiymatlari to'plamini xosil qiladi.

4. SHundan so'ng asosiy so'rov predikatida 3 oktyabrdagi qiymat shu to'plamga tegishliligini tekshiradi. Agar bu rost bo'lsa Hoffman satrini chiqarish uchun tanlaydi.

5. SHundan so'ng u butun protsedurani Giovanni satrini satr –kandidat sifatida foydalanib qaytaradi va saqlab qo'yadi, toki YUuyurtmachilar xamma satri tekshirilib bo'lmaguncha.

Ba'zida xatolarni topish uchun maxsus yaratilgan so'rovlardan foydalanish kerak bo'ladi.

Misol: Quyidagi so'rov Buyurtmachilar jadvalini ko'rib chiqib SNum va CNum mos kelishini tekshiradi va mos bo'lmagan satrlarni chiqaradi.

```
SELECT * FROM Orders main  
WHERE NOT SNum =  
( SELECT SNum FROM Customers  
WHERE CNum = main.CNum );
```

Asosiy so'rov asoslangan jadvalga asoslanuvchi mutanosib so'rovdan foydalanishingiz mumkin.

Misol: sotib olishlar buyurtmachilari uchun o'rta qiymatdan yuqori bo'lgan xama yuuyurtmalarni topish.

```
SELECT * FROM Orders a  
WHERE AMT >  
( SELECT AVG (AMT) FROM Orders b  
WHERE b.CNum = a.CNum );
```

HAVING operatoridan ostki so'rovlarda foydalanilganidek mutanosib ostki so'rovlarda xam foydalanigsh mumkin.

HAVING ifodasida mutanosib ostki so'rovdan foydalanganda HAVING o'zida ishlatilishi mumkin bo'lgan pozitsiyalarga tashqi ilovalarni cheklab qo'yishingiz kerak. CHunki HAVING ifodasida faqat agregat SELECT ifodasida ko'rsatilgan funksiyalardan yoki GROUP BY ifodasida ko'rsatilgan maydonlardan foydalanish mumkin. Ulardan siz tashqi ilova sifatida foydalanishingiz mumkin. Buning sababi shuki HAVING tashqi so'rovdagi satrlar uchun emas guruxlar uchun baxolanadi. SHuning uchun ostki so'rov bir marta satr uchun emas gurux uchun bajariladi.

Misol: Buyurtmalar jadvalidagi sotib olishlar summalarini sanalar bo'yicha guruxla summasini xisoblash kerak bo'lsin. SHu bilan birga summa maksimal summadan kamida 2000.00 ga ko'p bo'lmagan sanalarni chiqarib tashlash kerak bo'lsin:

```
SELECT ODate, SUM (AMT) FROM Orders a  
GROUP BY ODate  
HAVING SUM (AMT) >  
( SELECT 2000.00 + MAX (AMT) FROM Orders b  
WHERE a.ODate = b.ODate );
```

Ostki so'rov asosiy so'rovning ko'rilayotgan agregat guruxi sanasiga teng sanaga ega xamma satrlar uchun MAX qiymat xisoblaydi. Bu WHERE ifodasidan foydalanib bajarilishi lozim. Ostki so'rovning o'zi GROUP BY yoki HAVING operatorlarini ishlatmasligi kerak.

EXISTS operatoridan foydalanish.

EXISTS - bu "TRUE" yoki "FALSE" qaytaruvchi operatoridir. Bu shuni bildiradiki, u predikatda avtonom yoki mantiqiy operatorlar AND, OR, va NOT yordamida tuzilgan mantiqiy ifodalar bilan kombinatsiya qilingan xolda ishlatilishi mumkin. U ostki so'rovni "TRUE" deb baxolaydi agar u ixtiyoriy natija xosil qilsa va "FALSE" deb baxolaydi hech qanday natija xosil qilmasa.

Misol: Agar buyurtmachilardan ju da bo'lmasa bittasi San Jose shaxrida yashasa, buyurtmachilar jadvalidagi ma'lumotlarni chiqaring.

```
SELECT CNum, CName, City FROM Customers
```

```
WHERE EXISTS
```

```
( SELECT * FROM Customers  
WHERE City = 'San Jose' );
```

EXISTS ni faqat sodda ostki so'rov bilan emas mutanosib so'rov bilan ishlatish mumkin. Bu holda EXISTS ichki ostki so'rovni tashqining xar bir satri uchun tekshiradi.

ALL, ANY, SOME operatorlaridan foydalanish.

ANY, ALL, va SOME ostki so'rovlarni argument sifatida qabul qiluvchi EXISTS operatorni eslatadi, lekin relyasion operatorlar bilan birga ishlatilishi bilan farq qiladi. Bu tomondan ular ostki so'rovlarga qo'llaniluvchi IN operatorini eslatadi, lekin undan farqli faqat ostki so'rovlar bilan ishlashadi. SOME va ANY operatorlari o'zaro almashinuvchan.

Misol: bir shaxarda joylashgan sotuvchilar bilan buyurtmachilarni topish uchun ANY operatoridan foydalanish.

```
SELECT * FROM Salepeople
```

```
WHERE City = ANY ( SELECT City FROM Customers );
```

Operator ANY ostkiso'rov chiqargan xamma qiymatlarni oladi, (bu misol uchun – Buyurtmachilar jadvalidagi xamma City qiymatlari), i va rost deb baxolaydi agar ularning ixtiyoriysi (ANY) tashqi so'rov satridagi shaxar qiymatiga tengbo'lsa. ANY operatori o'rniga IN yoki EXISTS ishlatish mumkin, lekin ANY " = " operatoridan boshqa relyasionn operatorlarni ishlatishi mumkin. Misol: Xamma sotuvchilarni alfavit bo'yicha kelgan buyurtmachilari bilan birga topish.

```
SELECT * FROM Salepeople
```

```
WHERE SName < ANY ( SELECT CName FROM Customers );
```

ANY to'la bir qiymatli emas. Misol: Rimdagi buyurtmachilarga ko'ra yuqori reytinga ega buyurtmachilarni topish.

```
SELECT * FROM Customers
```

```
WHERE Rating > ANY ( SELECT Rating FROM Customers
```

```
WHERE City = 'Rome' );
```

Ingliz tilida " ixtiyoriysidan katta (bu erda City = Rome) " baxolash quyidagicha talqin qilinadi, bu baxolash qiymati xar bir City = Rome xoldagi baxolash qiymatidan katta bo'lishi kerak. SQL tilida ANY operatoridan foydalanilganda bunday emas. ANY to'g'ri deb baxolanadi agar ostki so'rov shartga mos keluvchi ixtiyoriy qiymat topsa. YUqorida ko'rilgan misol 300 va 200 baxoli xamma buyurtmachilarni topadi, chunki 300>200 dlya Rimdagi Giovanni uchun va 200>100 Rimdagi Pereira uchun.

Soddaroq aytganda < ANY ifodasi eng katta tanlangan qiymatdan kichik qiymatni, > ANY - eng kichik tanlangan qiymatdan katta qiymatni bildiradi.

ALL yordamida, predikat rost xisoblanadi, ostki so'rov tanlangan xar bir qiymat tashqi so'rov predikatidagi shartga mos kelsa.

Misol: Rimdagi xar bir buyurtmachidan baxolari yuqori bo'lgan buyurtmachilarni chiqaring.

```
SELECT * FROM Customers
```

```
WHERE Rating > ALL (SELECT Rating FROM Customers
```

```
WHERE City = 'Rome' );
```

Bu operator Rimdagi xamma buyurtmachilar baxolari qiymatlarini tekshiradi. SHundan so'ng Rimdagi xamma buyurtmachilardapn baxosi yuqori bo'lgan buyurtmachilarni topadi. Rimda eng yuqori baxo - Giovanni (200). Demak 200 dan yuqori qiymatlar olinadi.

ANY operatori uchun bo'lgani kabi ALL operatori uchun xam IN va EXISTS yordamida alternativ konstruksiyalar yaratish mumkin.

ALL asosan tengsizliklar bilan ishlatiladi, chunki qiymat "xammasi uchun teng " ostki so'rov natijasi bo'lishi mumkin agag xamma natijalar bir xil bo'lsa. SQL da <> ALL ifoda aslida ostki so'rov natijasining " xech qaysisiga teng emas " ma'noni bildiradi. Boshqacha qilib aytganda proedikat rost agar berilgan qiymat ostki so'rov natijalari orasida topilmagan bo'lsa. Agar oldingi misolda tenglik tengsizlikka almashtirilsa, reytingi 300 ga teng bo'lgan xamma buyurtmachilar chiqariladi, chunki ostki so'rov 100 va 200 ga teng reytinglarni topgan.

ALL va ANY – orasidagi asosiy farq, ostki so'rov xech qanday natija qaytarmagan xolatda ko'rinadi. Bu xolda ALL - avtomatik ("TRUE") ga teng, ANY bo'lsa avtomatik ("FALSE") ga teng.

Misol: Buyurtmachilar jadvali xammasini chiqarish

```
SELECT * FROM Customers
WHERE Rating > ALL ( SELECT Rating FROM Customers
WHERE City = 'Boston' );
```

Ko'rsatilgan operatorlar bilan ishlashda NULL qiymatlar ma'lum muammolarni keltirib chiqaradi. SQL predikatda solishtirayotgan qiymatlardan biri bo'sh (NULL) qiymat bo'lsa, natija noaniqdir. Noaniq predikat, noto'g'ri predikatga o'xshash, shuning uchun satr tashlab yuboriladi.

UNION ifodasidan foydalanish.

UNION ifodasi bir yoki bir necha SQL so'rovlarni birlashtirishga imkon beradi.

Misol: Londonga joylashgan xamma sotuvchilar va buyurtmachilarni bitta jadvalda chiqaring.

```
SELECT SNum, SName FROM Salepeople
WHERE City = 'London'
```

UNION

```
SELECT CNum, CName FROM Customers
WHERE City = 'London';
```

Misol: O'z shaxarlarida buyurtmachilarga ega yoki ega emasligini ko'rsatgan xolda xamma sotuvchilarni chiqarish.

```
SELECT Salepeople.SNum, SName, CName, Comm FROM Salepeople, Customers
WHERE Salepeople.City = Customers.City
```

UNION

```
SELECT SNum, SName, 'NO MATCH', Comm FROM Salepeople
WHERE NOT City = ANY ( SELECT City FROM Customers )
```

ORDER BY 2 DESC;

Xar gal bir necha so'rovlarni jamlaganda yumaloq qavslar yordamida baxolash mezonini ko'rsatishingiz mumkin. YA'ni

```
query X UNION query Y UNION query Z;
```

o'rniga, yoki

```
( query X UNION query Y )UNION query Z;
```

yoki

```
query X UNION ( query Y UNION query Z );
```

ko'rsatishingiz mumkin. CHunki UNION bitta dublikatlarni yo'qotib boshqasini qoldirishi mumkin.

Quyidagi ikki ifoda

```
( query X UNION ALL query Y )UNION query Z;
```

```
query X UNION ALL( query Y UNION query Z );
```

bir xil natija qaytarishi shart emas, agar ikkilangan satrlar unda o'chirilgan bo'lsa.

1	INSERT INTO Pul_birlik (Pul_birlik) VALUES ('rubl');	Bitta maydonga qo'shish
2	INSERT INTO Mijoz (Ism, telefon, manzil) Values ('Dilshod' , '987-98-98', 'Yunusobod');	Uchta maydonga qo'shish
3	SELECT nomi, turi FROM dori;	Ikkita ustunni ajratish
4	SELECT TOP 5 id, Ism,Telefon,manzil FROM mijoz;	5 ta qator
5	DELETE FROM Dori	Y'chirish
6		Poroshoklarni o'chirish

	DELETE FROM dori WHERE turi= 'poroshok'	
7	UPDATE Mijoz SET ism = 'MASUDA' WHERE ism='Masuda';	«Masuda» ni 'MASUDA' ga yangilash
8	UPDATE Mijoz SET manzil = 'YUNUSOBOD';	Manzilni xammasini 'YUNUSOBOD' ga o'zgartirdi
9	UPDATE mijoz SET ism = 'DILSHOD', Telefon = '333-00-00' WHERE ism = 'Dilshod';	'Dilshod' so'zini yangiladi
10	SELECT nomi, soni*1.2, pul_birlik FROM dori;	Matematik amal
11	SELECT id, nomi, turi, soni-10, pul_birlik FROM dori WHERE (soni>=50 And soni<=200);	Mantiqiy «va»
12	SELECT nomi, vaqti FROM Online_zakaz WHERE Not (holat=0);	Mantiqiy inkor
13	SELECT id, nomi, turi, soni-10, pul_birlik FROM dori WHERE (soni>=50 or soni<=200) and nomi='analgin';	And,or -
14	SELECT DISTINCT nomi FROM online_zakaz;	Ustundagi bir xil qiymatlarni birlashtiradi
15	SELECT DISTINCT pul_birlik FROM dori;	
16	SELECT nomi, soni, pul_birlik FROM dori WHERE soni between 10 and 30;	Oraliqni ko'rsatish
17	SELECT nomi, soni, pul_birlik FROM dori WHERE soni Not In (10,50,200,800);	To'plamga tegishli emas
18	SELECT Ism, telefon FROM Mijoz WHERE Ism Like 'S*';	S xarfidan boshlanadigan ismlar
19	SELECT Ism, telefon FROM Mijoz WHERE Ism Like '*a';	a xarfi bilan tugagan
20	SELECT Ism, telefon FROM Mijoz WHERE Ism Like '*S*';	So'zda S xarfi ixtiyoriy joyda

Nazorat savollari

1. So'rov obyektining vazifasi.
2. SQL tilining qanday buyruqlarini bilasiz?

6-ma'ruza. . Iqtisodiyotda avtomatlashtirilgan axborot tizimlarini loyixalash

Reja:

1. Loyihalshning avtomatlashtirilgan tizimi va uning vazifalari.
2. Loyixalashni avtomatlashtirish jarayonining asosiy bosqichlari.
3. Loyihalshning avtomatlashtirilgan tizimi. Ularning turlari va modellari.

Tayanch iboralar:

Loyixalash, CAE, CAD, CAM, CASE texnologiya, CALS texnologiya

1. Modellashtirishning avtomatlashtirilgan tizimi va uning vazifalari.

Hozirgi kunda - avtomatlashtirilgan loyihalash tizimlari (ALT) tushunchasi odatda, CAD/CAE/CAM tizimlariga nisbatan qo'llanilib, unda kompyuter yordamida loyihalash, ishlab - chiqarish va muxandislik ma'lumotlarini boshqarish masalalarini amalga oshiruvchi dasturlar to'plamiga nisbatan qo'llaniladi. Birinchi CAD – tizimlari 60-yillarda paydo bo'lgan. Aynan shu vaqtda General Motors kompaniyasida, mahsulotni ishlab chiqarishga tayyorlashning interaktiv grafik tizimi yaratilgan edi.

Zamonaviy qurilmalar va ularning tashkil etuvchilarining ish xarakteristikalariga bo'lgan talablar yildan yilga murakkablashib bormoqda, bu esa ularning konstruktiv o'zgarishiga olib keladi. O'z navbatida konstruktiv o'zgarishlar loyihalash, tajriba ishlarini murakkablashuviga olib keladi.

Hozirgi kunda bir qator keng tarqalgan CAD/CAE/CAM tizimlari mavjud, xususan, CATIA, Solid Works, AutoCAD, NX Nastran, MSC ADAMS, Inventor and mechanical Desktop, Pro/Engineer, Parasolid, Solid Edge, KOMPAS, 3ds Max va h. k.

CAD/CAE/CAM tizimlarini ko'rib chiqamiz:


CAD - loyihalashni avtomatlashtirish vositasi bo'lib 2 o'lchamli va 3 o'lchamli geometrik loyihalash yoki texnologik hujjatlarni tayyorlash dasturi hisoblanadi. Bundan :

CADD - loyihalashda chizmalarni bunyod qilish;

CAGD - geometrik modellashtirish;

CAE - muhandislik hisoblashlarni avtomatlashtirish vositasi, fizik jarayonlarni foydalanishni tahlil qilish, dinamik modellashtirish, buyumlarni optimallashtirish va tekshirish.

CAM - buyum ishlab chiqarishda texnologik tayyorgarlik vositasi, avtomatlashtirishni dasturlash.



3- rasm. CAD/CAE/CAM tizimlari yordamida modelashtirish

2.Loyixalashni avtomatlashtirish jarayonining asosiy bosqichlari.

Loyihalash bosqichlari- vaqt o'tishi bilan rivojlanib boradigan jarayon kabi loyihalashning katta bo'lagidir. Umumiy holda bosqichlar ilmiy-tadqiqot ishlari, loyiha eskizi yoki tajriba-konstruktorli ishlari, texnik, ishchi loyiha, tajriba namunalarini sinab ko'rish kabi bosqichlarga bo'linadi. Ilmiy-tadqiqot ishlari bosqichi ayrim holda loyiha oldi tadqiqoti yoki texnik takliflar bosqichi deb ham ataladi. Bir bosqichdan ikkinchisiga o'tish jarayonida loyihani ishlab chiqishdagi aniqlik va puxtalik darajalari o'sib boradi, va ishchi loyiha tajriba namunalarini tayyorlash uchun yetarli darajaga keltiriladi.

Har qanday murakkab tizim kabi ALT(avtomatlashtirilgan loyihalash tizimlari) ham tizimostidan tashkil topadi(1-rasm).Loyihalash va xizmat ko'rsatish tizimosti mavjud. Loyihalash tizimostlari bevosita loyihalash proseduralarini bajaradi. Loyihalash tizimostiga misol qilib mexanik obyektlarni geometrik uch o'chovli modellashtirish, konstruktorlik hujjatlarini tayyorlash, sxemotexnik tahlil qilish tizim ostilari kiradi. .

Xizmat ko'rsatuvchi tizimostilar loyihalash tizim ostini ishlashini tashkillashtiradi, ularning birlashmasi ko'pincha ALTning tizim muhiti(yoki qobiq) deb ataladi. Xizmat ko'rsatuvchi tizimostlari

bo'lib loyiha kattaliklarini boshqarish(PDM — Product Data Management), loyihalash jarayonini bosqarish(DesPM — Design Process Management), kompyuter bilan mutaxassis o'rtasida aloqa o'rnatadigan foydalanuvchi interfeysi, ALTning dasturiy ta'minotini ishlab chiquvchi -CASE (Computer Aided Software Engineering) ALTda qo'llaniladigan foydalanuvchi texnologiyasini o'rganuvchi o'quv tizimostlari xizmat qiladi.



4-rasm. ALT tizim ostlari.

3 Loyihalashning avtomatlashtirilgan tizimi. Ularning turlari va modellari.

САПР klassifikatsiyasi ilovalari, maqsadi, ko'lam, ALT yadrosi baza tizimostining xarakteri kabi bir qator belgilari orqali amalga oshiriladi. Quyida ilovalari bo'yicha ko'proq ishonchli va keng qo'llaniluvchi ALT guruhlar keltirilgan:

1. Mashinasozlik sohasida qo'llaniladigan ALT. Uni ko'pincha ALT mashinasozlik bo'yicha yoki MCAD (Mechanical CAD) tizimi deb ataladi.
2. Radioelektronika uchun ALT. Uning nomlari — ECAD (Electronic CAD) yoki EDA (Electronic Design Automation) tizimlar.
3. Arxitektura va qurulish sohasidagi ALT.

Belgilangan maqsad bo'yicha loyihalashni turli jihatlarini ta'minlovchi ALT yoki ALT tizimostlari ajratiladi. Shunday qilib MCAD tarkibida CAE/CAD/CAM tizimlar paydo bo'ladi:

- 1) Funktsional loyihalovchi ALT, boshqacha aytganda ALT-F yoki CAE (Computer Aided Engineering) tizimlari;
- 2) Umumiy mashinasozlikning konstruktorlik SAR — ALT-K, u ko'pincha CAD-tizim deb ataladi;
- 3) Umumiy mashinasozlikning texnologik САПРi — САПР, boshqacha qilib aytganda ishlab chiqarishni texnologik tayyorlashni avtomatlashtirilgan tizimlari yoki CAM (Computer Aided Manufacturing) tizimlari.

Qo'llanilish ko'lam bo'yicha ALTning alohida dasturiy-uslubiy komplekslari mavjud. Masalan, so'nggi elementlar usuli bilan mos ravishda mexanik buyumlarning chidamlilik tahlili kompleksi yoki elektron sxemalar tahlili kompleksi, dasturiy/software) va texnik(hardware) ta'minotning noyob arxitektura tizimlari kompleksi.

Baza tizimosti xarakteri bo'yicha ALTning quyidagi ko'rinishlari mavjud:

1. Mashina grafikasi va geometrik modellashtirish подсистемыsi bazasidagi ALT. Bu ALT konstruktorlash loyihalashning asosiy proseduralari hisoblangan ilovalarga yo'naltirilgandir. Konstruktorlash jarayoni bu fazoviy forma va ob'ektlarni o'zaro joylanishini aniqlashdir. Shuning uchun bu guruhga mashinasozlik sohasidagi ALTning ko'pgina grafik yadrolari kiradi.

2. MMBT bazasidagi ALT. Ular qiyin bo'lmagan matematik hisoblashlar orqali ko'p miqdordagi kattaliklarni qayta ishlovchi ilovalarga mo'ljallangan. Bunday ALT iqtisodiy-texnik ilovalarda ko'proq uchraydi. Masalan, biznes-rejalarni loyihalashda. sintez va analiz qilish komplekslari kiradi. Ko'pincha bunday ALT CAE tizimiga kiradi.

3. Kompleks (integrallashgan) ALT-avvalgi turdagi подсистемlarni birlashmasidan tashki topgan. Kompleks ALTga mashinasozlikdagi CAE/CAD/CAM-tizimlari yoki ALT BIS kiradi. ALT BIS MMBT va prinsipial, mantiqiy va funktsional sxemalar, kristallar topologiyasi, mahsulotni yaroqliligini tekshirish testlari komponentalarini loyihalash tizimostlaridan tashkil topgan. Bunday murakkab tizimlarni boshqarish uchun ixtisoslashtirilgan tizimli muhitlar ishlatiladi.

CAE/CAD/CAM-tizimlarning vazifalari, xarakteristikasi va unga misollar

Mashinasozlikda CAD-tizim vazufasi ikki o'lchamli(2D) va uch o'lchamli(3D) loyihalashdan iborat. 2D loyihalashga chizmachilik, konstruktorlik hujjatlarini rasmiylashtirish, 3D loyihalashga uch o'lchamli modellarni olish, metrik hisoblashlar, real vizuallashtirish, 2D va 3D modellarini o'zaro o'zgartirish funksiyalari kiradi.ñ

CAD-tizimlari “engil” va “ogir” tizimlarga bo'linadi. Engil tizimlar 2D grafikaga yo'naltirilgan bo'lib, arzon va hisoblash resurslariga nisbatan talab kamroq. Ogir tizimlar 3D geometrik modellashtirishga yo'naltirilgan bo'lib, yniversal, qimmat hisoblanadi. Ularda chizma hujjatlarni rasmiylashtirish uch o'lchamli geometrik modellarni qayta ishlash orqali amalga oshiriladi.

CAM-tizimning asosiy vazifasi texnologik jarayonlarni ishlab chiqish, sonli boshqaruv dasturli texnologik qurilmalar uchun boshqaruvchi dasturlar sintezi, qayta ishlash jarayonlarini modellashtirish, shu bilan birga asbobni nisbiy harakat trayektoriyasi qurish, ishlov berish jarayonini tayyorlash, ishlov vaqti normalarini hisoblashdan iborat

CAE-tizim vazifalari turli-tumandir. Sababi ular tahlil proseduralarini loyihalsh, modellashtirish, loyiha qarorlarini optimallashtirish bilan bog'liqdir. Mashinasozlik CAE tizimi tarkibiga quyidagi proseduralar uchun tuzilgan dasturlar kiradi:

- chidamlilik tahlili kabi fizik kattalik maydonlarini modellashtirish;
- makro darajada o'tish jarayonlari va holatini hisoblash;
- ommaviy xizmat ko'rsatish modellari asosida murakkab ishlab chiqarish tizimlarini imitasion modellashtirish.

ALTni aniq takliflarga bo'lgan ehtiyojini qulay moslashtirish, uni rivojlantirish uchun ALT tarkibida moslashtirish asboblari vositasi bo'lish maqsadga muvofiqdir. Bu vositalar kengaytirish tillarini qo'shgan holda u yoki bu CASE-texnologiyalarida taqdim etilgan. Ayrim ALTlarda original asboblarda muhiti ishlatiladi.

CALS-texnologiyalari tushunchasi.

CALS-texnologiya — bu sanoat ishlab chiqarishini kompleks kompyuterlashtirishdir. Uning maqsadi sanoat mahsulotini uning faoliyat davri barcha bosqichlarida o'ziga xos xususiyatlarini standartlashtirish va unifikatsiyalshdir. Asosiy o'ziga xos xususiyatlar loyiha, texnologik, ishlab chiqarish, marketing, ekspluatasiya hujjatlarida taqdim etilgan. CALS-tizimlarda kompyuter muhitida ma'lumotlarni saqlash, qayta ishlash va uzatish ko'zda tutilgan. Avtomatlashtirishning mos tizimlari avtomatlashtirilgan mantiqiy tizimlar yoki CALS(Computer Aided Logistic Systems) deb nomlangan. Sababi mantiqiy deganda odatda zahiralarni boshqarish va ta'minlashga qaratilgan masalalar tushuniladi, CALS vazifalari esa kengroq bo'lib, sanoat mahsulotlari faoliyat davrining barcha bosqichlari bilan bog'liqdir. Bularni e'tiborga olgan holda CALS ni quyidagicha shifrdan chiqarish mumkin CALS — Computer Acquisition and LifeCycle Support.

Sanoatda loyihalsh va boshqarish uchun ochiq taqsimlangan avtomatlashtirilgan tizimni qurish zamonaviy CALS-texnologiyasining asosini tashkil qiladi. Ularni qurishdagi asosiy muammo global mashtabga ega bo'lgan umumiy tizimda joy va vaqtdan qat'iy nazar kattaliklar interpretatsiyasini va ularni bir hilda tavsiflashni ta'minlashdir. Loyiha, texnologik va ekspluatasion hujjatlar tuzilmasi hamda uni tasvirlash tillari standartlashgan bo'lishi kerak. U holda turli CAE/CAD/CAM tizimlarni ishlatadigan, vaqt va fazoda bo'lingan turli kollektivlarning umumiy loyihasi ustida olib borilayotgan ishning muvoffaqiyatli bo'lishi muqarrardir. Bitta konstruktorlik hujjati turli loyuhalarda ko'p marotaba ishlatilishi mumkin. Texnologik hujjat esa turli ishlab chiqarish talablariga moslashgan. Bu esa loyihalash va ishlab chiqarish umumiy davrini qisqartirish va arzonlashtirishga olib keladi. Bundan tashqari tizim ekspluatasiyasi soddalashadi.

Nazorat savollari:

1. Loyihalashni avtomatlashtirilgan tizimi nima?
2. Loyihalashning qanday bosqichlarini bilasiz?
3. ALT turlari va modellari?
4. Ilmiy ishlarni avtomatlashtirishning qandau vositalarini bilasiz?

7-ma'ruza. Tarmoq texnologiyalari va Internet xizmatlari.

Reja:

1. Kompyuter tarmoqlari tushunchasi va uning turlari.
2. Lokal tarmoq topologiyasi.
3. Tarmoq arxitekturasi.
4. Tarmoqning adresatsiyasi.
5. Web sayt yaratish asoslari
6. HTML teglari
7. HTML teglari orqali Web sayt yaratish

Tayanch so'zlar: Tarmoq, kompyuter tarmoqlari, topologiya, shinasimon topologiya, yulduzsimon topologiya, local, global, mintaqaviy, Web sayt, HTML, teg, Web xujjat, brauzer Explorer, Opera, gipertext, Web hujjat

Kompyuterlarning o'zaro turli ma'lumotlar, programmalar, texnik, axborot va tashkiliy resurslarini almashish maqsadida birlashtirilishi **kompyuter tarmoqlari** deyiladi.

Kompyuter tarmoqlari tugunlar (kompyuterlar va tarmoq qurilmalari) va ularni bog'lash yo'llari (aloqakanallari)ni ifodalaydi. Tarmoq yo'llari – bu ikkita tugunni birlashtiruvchi yo'ldir. Quyidagi tugunlar ajratilgan: oxirgi tugun – bitta tarmoq yo'lida joylashgan tugun; oraliq tugun – bittadan ortiq tarmoq yo'li oxirida joylashgan tugunlar; aralash tugun – kamida bitta yo'l bilan bog'langan, lekin boshqa tugunga ega bo'lmagan tugunga aytiladi.

Kompyuterlar turli usullar bilan bog'lanishi mumkin.

Kompyuter tarmoqlarining yaratilishi bir-biridan ma'lum masofada joylashgan foydalanuvchilar o'rtasida bir xil axborotlardan amaliy foydalanish ehtiyojidan kelib chiqadi. Tarmoqlar foydalanuvchilarga nafaqat axborot almashuvini tezlashtirish, balki birgalikda printerlar va boshqa periferiya qurilmalardan va hattoki hujjatlarni qayta ishlash imkonini beradi.

Kompyuter tarmoqlarini bir nechta belgilarga ko'ra sinflash mumkin:

- Hududiy tarqatilishiga ko'ra;
- Ma'lum tashkilotga tegishliligiga ko'ra;
- Axborotni uzatish tezligiga ko'ra;
- Uzatish muhitiga ko'ra.

Hududiy tarqatilishiga ko'ra tarmoqlar local, mintaqaviy va global tarmoqlarga bo'linadi.

Ma'lum tashkilotga tegishliligiga ko'ra tarmoqlar tashkilot va davlat tarmoqlariga ajratiladi.

Axborotni uzatish tezligiga ko'ra – quyi, o'rta va yuqori tezlikdagi tarmoqlarga bo'linadi.

Uzatish muhitiga ko'ra - koaksial, o'rama juftlik, optik tolali, radiokanallari va infrastruktura diapazonlardagi turlarga bo'linadi.

Lokal kompyuter tarmog'i kompyuterlar bir xona (sinf xonasi), bino, tashkilot yoki bir qancha filiallardan iborat bo'lgan tashkilot doirasida tashkil qilinadi. Shuning uchun ham ba'zan 500 metrgacha bo'lgan masofada birlashtirilgan kompyuterlar lokal kompyuter tarmog'i deb ataladi. Ba'zan uzoqroq masofada joylashgan kompyuterlar ham lokal tarmoqqa birlashtirilishi mumkin.

Lokal tarmoq maxsus simlar bilan birlashtirilgan kompyuter, kommunikatsiya, periferiya (tashqi ulanadigan) qurilmalarining birgalikda foydalanish maqsadida birlashtirilishidir.

Lokal tarmoq yaratishdan maqsad - tashkilotlar, oliy o'quv yurtlarida mavjud kompyuter parki va uning resurslar (printer, skaner, katalog, fayllar) idan unumli, tejimli foydalanishdir.

Sim sifatida: qalin koaksial, ingichka koaksial, o'ralgan juftlik (toking ring-«vitaya para») deb ataluvchi, optik tola (tola) simlari ishlatilishi mumkin. Odatda qalin koaksial simlar tarmoqning uzoqroqdagi qismida, ma'lumotlarni uzatish qobiliyatini yuqori bo'lishini ta'minlash maqsadida ishlatiladi.

Mintaqaviy kompyuter tarmog'i.

Lokal tarmoqlar turli shaharlarda joylashgan kompyuterlarni birlashtira olmaydi. Bunda bitta hudud (shahar, rayon, davlat) da joylashgan kompyuterlarni birlashtiruvchi mintaqaviy tarmoq yordamga keladi.

Korporativ tarmoqlar.

Ko'pchilik tashkilotlar, sanksiyalashmagan kirishlardan himoyalash maqsadida o'zlarining individual korporativ tarmoqlarini yaratadilar (harbiy, bank va boshqa sohalarda). Korporativ tarmoqlar minglab turli davlatlarda joylashgan kompyuterlarni bog'lashi mumkin, masalan, Microsoft, MSN korporativ tarmoqlari.

Global tarmoq Internet

ARPANET (1969- *Advanced Research Projects Agency Network*). AQShning mudofaa ministrligi tomonidan tashkil qilingan eng eski KTLari hisoblanadi. Uning afzalligi, tarkibida turli turdagi kompyuterlar bor tarmoq bilan ishlash qobiliyatiga egaligidir. U keyinchalik boshqa KTLari bilan birlashtirilib, Internetning qismi sifatida ishlatila boshlandi. Hozirda u MILNET-Military NET (harbiy tarmoq), CSNET-(Computer Science NETWORK) (kompyuter fanlari tarmog'i), NSFNET (National Science Foundation NETWORK) (milliy fan fondi tarmog'i) tarmoqlar sifatida Internetda ishlatiladi. Hozirgi vaqtda o'n millionlab Internerga ulangan kompyuterlarda axborotlarning juda katta hajmi saqlanadi (millionlab fayllar, hujjatlar va h.k.) va millionlab foydalanuvchilar global tarmoq xizmatlaridan foydaladilar.

Internet – global kompyuter tarmog'I bo'lib u ko'pgina lokal, mintaqaviy va korporativ tarmoqlarni birlashtiradi.

Har bir lokal yoki korporativ tarmoqda yuqori o'tkazuvchanlik hossasiga ega bo'lgan aloqa liniyalari yordamida Interga ulangan kamida bitta kompyuter bo'ladi.

Global tarmoqning ishlashining ishonchiligi aloqa kanallarining ko'pligi bilan ta'milanadi: odatda serverlar ikkitadan ortiq aloqa liniyalariga ega bo'lib, ular Internet bilan bog'laydilar.

Internet karkasining asosini doimiy ravishda Internetga ulangan 100 millondan ortiq serverlar tashkil qiladi.

Internet serverlariga lokal tarmoqlar yoki telefon liniyalari orqali millionlab foydalanuvchilar ulanishi mumkin.

2. Lokal tarmoq topologiyasi.


Kompyuterlarning mantiqiy va fizik bog'lanish usullari tarmoq topologiyasi deyiladi. Topologiya tarmoq o'lchamoga bog'liq bo'lmagan tarmoq xossalari xarakterlaydi. Bunda bu ob'yektlarning unumdorligi va ishlash printsiolari, toifalari, kanallar uzunligi hisobga olinmaydi.

Tarmoq topologiyalarining quyidagi turlari keng tarqalgan:

1. **Chiziqli tarmoq.** Bu tarmoq ikkita tugasj tuguniga ega, ikkita ixtiyoriq tugun o'rtasida bitta ulash yo'li mavjud.



2. **Aylnasimon tarmoq.** Bu tarmoqda har bir tugunga ikkita yo'l ulangan bo'ladi.




Daraxtsimon tarmoq. Bu tarmoq ikkita ko'p tugash tuguni mavjud bo'lib, ikkita tugun o'rtasida faqat bitta yo'l bor.



3. **Yulduzsimon tarmoq.** Faqat bitta oraliq tuguniga ega bo'lgan tarmoq.



4. **Yacheykali tarmoq.** Bu tarmoq kamida ikkita tugunga ega bo'lib, ular ikkita va undan ortiq yo'lga ega bo'lishi mumkin.



5. **To'liq bog'lanma tarmoq.** Bunda ixtiyoriy ikkita tugun o'rtasida ulanish yo'li mavjud bo'ladi.

3. Tarmoq arxitekturasi.

Kompyuter tarmog'ining asosiy xarakteristikalaridan biri uning arxitekturasi.

Tarmoq arxitekturasi – bu ma'lumotlarni uzatish strukturasi bo'lib, u tarmoq topologiyasini, qurilmalar tarkibini va o'zaro aloqadorlik tartiblarini belgilaydi. Arxitektura doirasida axborotni kodlashtirish, adreslash va uzatish, xatolarni nazorat qilash va avariya holatlarida va xarakteristikalarining zaiflashida tarmoq ishini analiz qilish masalalari ko'riladi.

Quyidagi keng tarqalgan arxitekturalar mavjud:

- **Ethernet** (inglizcha ether — efir) — kengqamrovli tarmoq, yani barcha stantsiyalar hamma xabarlarini qabul qiladi. Topologiya – chiziqli va aylanasimon. Uzatishtezligi 10 yoki 100 Mbit/sek.

- **Arcnet** (Attached Resource Computer Network - o'zarobog'langan resurslar tarmog'i) - kengqamrovli tarmoq. Topologiya- daraxtsimon. Uzatishtezligi 2,5 Mbit/sek.

- **Token Ring** (estefetali aylanasimon tarmoq) – aylanasimon tarmoq bo'lib, unda ma'lumotlarni uzatish quyidagi printsip asosida bajariladi:

har bir tugun oldingi aralash tugundan keladigan bitlarning – markerlarning qisqa unikal ketma-ketligini kutadi. Markerlarning kelishi axborotni oqim bo'yicha uzatishni davom ettirishni anglatadi. Mbit/sek. Uzatishtezligi 4 yoki 16 Mbit/sek.

- **FDDI** (Fiber Distributed Data Interface) — optik tolali liniyalardan yuqori tezlikda uzata oladigan tarmoq arxitekturasi ifodalaydi. Optik tolali aloqa – simli aloqa turi bo'lib, u axborot signali yurituvchisi bo'lib optik diapazonning elektromagnit nurlanishi olinadi, yo'llantiruvchi tizimlar sifatida – optik tolali kabellar ishlatiladi. Yuqori chastota va multiplekslashning keng imkoniyatlariga ko'ra optik tolali liniyalarning o'tkazuvchanlik xususiyati barcha aloqa tizimlarining o'tkazuvchanlik xususiyatini ko'p marotaba oshiradi va sekundiga terabitlar bilan o'lchanadi. Optik tolalarda yorug'likni kam miqdorda so'nishiga ko'ra kuchaytirgichsiz uzoq masofada uzatishni amalga oshirish mumkin. Optik tolali aloqa elektromagnit shovqinlardan ozoddir va sanksiyalashmagan foydalanish qiyin bo'ladi, optik kabledan kelayotgan signalni bildirmasdan o'g'irlash texnik tomondan juda qiyin. Uzatishtezligi 100 Mbit/sek. Topologiyasi – ikkallangan aylanasimon yoki aralash tarmoq (yulduzsimon yoki daraxtsimon tarmoqostilarini ham qo'shishi mumkin). Tarmoqdagi stantsiyalarning maksimal soni – 1000 tagacha. Qurilmalarning narhi juda baland.

- **ATM** (Asynchronous Transfer Mode) – perspektiv tarmoq bo'lib, hali ancha qimmat arxitektura hisoblanadi, bitta liniyada raqamli, video va tovushli ma'lumotlarni uzatishni ta'minlab beradi. Uzatish tezligi 2,5 Gbit/sek gacha bo'lishi mumkin. Uzatish liniyalari optikdir.

Internetga ulanishning uchta turi mavjud:

1. Assimmetrik raqamli abonent liniyasi.
2. Dial Up .
3. Wi-Fi (Wireless Fidelity).

Wi-Fi Wi-Fi Alliancingen tovar belgisi hisoblanib, u IEEE simsiz tarmoqlarning 802.11 oilasidagi bir nechta qaydnomalaridan birini ifodalaydi, jumladan 802.11a, 802.11b, 802.11g, 802.11n va 802.11ac. LAN – lokal tarmoqning qaydnomalaridan farqli ravishda Wi-Fi ma'lumot paketlarini Wi-Fi sohasida boshqarish va nazorat qilishni qo'llaydi.

Boshqaruv paketlari radio muhitidagi ba'zi hatoliklarni kompensatsiyalash uchun ishlatiladi, masalan, to'qnashuvlarni aniqlash funksiyasining mavjud bo'lmagan holatlarni. Radioqaydnomalarni nazorat va boshqaruv qilishni kiritish Wi-Fi qatlamlarida muhim ahamiyatga ega, IP qatlam Wi-Fi LAN bilan Ethernetda bo'lgani kabi o'zaro aloqani davom ettirishi mumkin. Wi-Fi Ethernet bilan LAN mantiqiy sathda o'zaro aloqa qilishi mumkin. Wi-Fi MAC (fizik) adreslar bir xil o'lchamga ega – 48 bit. Ular nomlarning bitta sohasini bo'lishadi: bit xil adresli Ethernet va Wi-Fi interfeysini ko'rish mumkin emas. Natijada ma'lumotlar paketi Ethernet va Wi-Fi o'rtasida yoqish bilan yo'llantirish mumkin; Ethernet LANga biriktirilgan Internetga Wi-Fi kirish ko'p jihatdan kengaytirilgan lokal tarmoqqa o'xshab ketadi. Odatda Wi-Fi ISM 2,4 Ggsni ishlatadi, aslida 802.11a 5 Ggs diapazonini ishlatadi. 5 Ggs polosasi devollarni buzib kirish mohiyatini susaytiradi, bu esa uzoqqa uzatish effektini kamaytiradi (balki ofislar yoki ko'pqavatli uylarda bu yaxshi bo'lishi mumkin). Wi-Fi – radiochastotali spektr bo'lib, odatda, u litsensiyalashmagandir, yani ma'lumotlarni uzatishda maxsus ruhsat olish talab etilmaydi, bu esa o'z navbatida boshqa foydalanuvchilar ham bir vaqtning o'zida bitta polosadan foydalanishga urinadilar, 5 Ggs polosada litsensiyalashmagan kanallarning ko'payishi rivojlanmoqda.

Wi-Fi yaratuvchilari turli uslublar yordamida uning o'tkazuvchanlik xossasini yaxshilashlari mumkin, jumladan:

- radio modulyatsiyasining usullarini yaxshilash;
- xatoliklarni korreksiya kodlarini yaxshilash;
- simvollar o'rtasidagi himoyalash intervallarini kamaytirish;
- kanal kengligini oshirish;
- bir nechta antennalar orqali bir qancha fazoviy oqimlarni o'tkazish.

4. Tarmoqning adresatsiyasi.

Internet yoki har qanday boshqa TCP/IP li tarmoqlarga ulangan har bir kompyuter bir –birini «tushunadigan» bo'lishi kerak. Ushbu holat bo'lmasa, tarmoq xabarlarini sizning kompyuteringizda qanday yuborishni bilmaydi.

Internetdagi biron bir kompyuter bilan bog'lanish uchun unikal Internet-adresini bilishingiz lozim. Adreslarning ikki xil formatlari mavjud, ular :IP-adres va DNS-adreslardir.

Agar bir va bir nechta kompyuterda bir xil identifikator bo'lsa, tarmoq xabarni yubora olmaydi. Internetda kompyuter tarmoqlari (KT) Internet manzili yoki aniqrog'i IP-manzilini belgilash bilan aniqlanadi. IP manzili 32 bit uzunlikda va har biri 8 bitdan iborat to'rt qismdan tashkil topgan va har bir qismi 0 dan 255 gacha bo'lgan qiymatlarni qabul qiladi. Qismlar bir-biridan nuqta orqali ajratiladi. Masalan, 232.25.234.456 yoki 147. 120. 3. 28 lar IP da ikkita har xil manzilni belgilaydi. Internet tarmoq manzili haqida gap ketganda, odatda IP manzili tushuniladi. Agar IP - manzilida barcha 32 bit ham foydalanilsa, u holda to'rt milliarddan ko'p mumkin bo'lgan manzillar paydo bo'lar edi. Lekin ba'zi bir manzillar birlashmalarning maxsus maqsadlari uchun zaxiraga olib qo'yiladi. IP manzili ikki qismdan iborat bo'ladi: tarmoq manzili va uning xost manzili. IP manzilning ushbu tuzilishiga asosan har xil tarmoqlardagi kompyuter nomerlari bir xil bo'ladi. Shuni aytish joizki, manzillarni sonli belgilash kompyuter uchun tushunarli bo'lsada, foydalanuvchi uchun aniq ma'lumotni bermaydi. Shuning uchun ham kundalik hayotda odatda adreslashning **domen** usuli foydalaniladi.

Agar siz DNS – adres kiritsangiz, u avval nomlar serveriga yuboriladi, bu server ushbu adresni mashina angliq olishi uchun 32 bitli IP – adresga o'giradi.

DNS nomlar odatda uchta tashkil etuvchilardan tashkil topadi (ularning soni ko'proq bo'lishi ham mumkin). Domen tizimi ierarxik strukturaga egadir: yuqori sath domenlari, ikkinchi sath va h.k. sath domenlari. Yuqori sath domenlari ikki xil bo'ladi: geografik (ikkita harfli - har bir davlat o'zining kodiga ega) va administrative (uchta harfli).

Xost kompyuterlar Internetning server xizmatini bajaruvchi kompyuterlardir.

Xost sistema (kompyuter) Internet bilan bog'langan aloqa xabarlarini oluvchi va uni mos aloqa bo'limlariga jo'natuvchi kompyuterdir. Ko'p hollarda xost kompyuter lokal tarmog'idagi oddiy kompyuterga o'xshagan bir kompyuterdir. Umumiy holda u Internet provayderi vazifasini bajaruvchi tashkilot modemi orqali ulangan kompyuterdir. Xost kompyuterlarni nomlash oddiydir. Misol uchun maripov@tash-su.silk.org elektron pochta adresida silk.org tarmog'iga mansub domen bo'lsa, tashsu esa elektron pochta xost sistemasining programmalari bajariladigan kompyuter nomidir. Domenning eng yuqori sathidagi so'z (bizning misolimizda org) uning sinfini aniqlaydi. U xizmat turi yoki geografik joylashganiga qarab belgilanadi. Masalan:

edu (education)	ta'limmuassasalari;
com (comertial)	tijoratmuassasalari;
org (organization)	savdo-sotiq bilan bog'liq bo'lmagan (davlat) muassasalari;
gov (goverment)	hukumat muassasalari;
Net (network)	Telekommunikastion va ma'lumot xizmatlarini ko'rsatadigan muassasalar;
int (international)	xalqaromuassasalar;
mil (military)	harbiy muassasalarga oid ma'lu-motlarni bildiradi.

quyidagilar (yuqori domenlar) geografik belgilar bo'yicha tuzilganligini bildiradi

Uz	O'zbekiston
Ru	Rossiya
Uk	Buyuk Britaniya
Ca	Kanada

va hokazo.

Internet xost kompyuterlari domen nomi (domain name) orqali topiladi. Domen nomi xost kompyuterni tashkilot nomini aniqlovchi (topuvchi)dan tashkil topgan bo'lib, xost kompyuterda ular o'ngdan chapga qarab yuqori domen hisoblanadi. Xost kompyuter nomida domenning barcha qismlari ko'rsatilgan bo'ladi.

Masalan: www.lpmm.univ_metz.fr/euromech, yozuv Internet-ning www xizmatga oid lpmm xost kompyuteri Franstiyaning (fr) Mest universitetida (univ_metz) joylashganligini, euromech esa shu kompyuterda joylashgan katalog nomini, **www.ams.org** esa notijorat Amerika matematik jamiyati (ams) Internetning **www** xizmatidagi xost kompyuterni bildiradi.

IP manzil Internetda kerakli kompyuterni topish uchun ishlatiluvchi sonli manzildir. Internet programmalari avtomatik ravishda xost kompyuterlar domen manzillarini IP manzilga o'zi o'tkazadi. Xost kompyuterlar IP manzil orqali ma'lumotlar bilan almashadi.

DNS – domen nomlar tizimi, IPv4sputnik tizimining muhim qaydnomalaridandir. DNS foydalanuvchilarga raqamli adreslarni eslab qolish qiyinchilik tug'dirgani uchun ularga qulaylik yaratadi, masalan, 162.216.18.28 adres o'rniga intronetworks.cs.luc.edu adresini kiritadi va DNS shu nom bo'yicha kerekli adresni izlab topisgni o'z zimmasiga oladi. DNs shu bilan birga bir server xizmatlarini boshqa IP adresli boshqa serverga oson o'tkazishni ta'minlaydi, chunki foydalanuvchilar xizmatlarni IP adres bilan emas balki DNS nom bilan topadilar. Ishchi stantsiyalar TCP/IP qaydnomalarini DNSsiz ishlatgan bir vaqtda, foydlanuvchilar biron bir narsa topa olmaydilar, suning uchun Internetga ulangan ishchi stantsiyalarning asosiy konfiguratsiyasi IP adresiga o'zining DNS-serverini qo'shadi.

Hozirda ko'pchilik DNSlar – TCP variantlar bo'lishiga qaramay, UDP orqali bo'lgan trafikdir. DNS taqsimlangandir, yani har bir domen domen nomlarni IP-adreslarga o'giriish uchun o'zining DNS-serverlarini qo'llab-quvvatlaydi.

intronetworks.cs.luc.edu ierarxik ko'rinishdagi nomda quyidagi sathlar belgilangan:

- Edu: AQShning ta'lim muassasalari uchun yuqori sath domeni (TLD);
- Luc: Chikagodagi Loyola Universiteti;

- CS: Loyola Universitetining ilmiy bo'limi;
- intronetworks: muayyan IP-adres bilan bog'langan xost nomi.

DNS nomlarning ierarxiyasi daraxtsimon ko'rinishda bo'lib, u nafaqat alohida tugunlarni ifodalaydi. Yuqorida berilgan nomda luc.edu va cs.luc.edu xostning asl nomlari bo'lishi mumkin. Avvalda davlat domenlari ikkiharfli(ikkisathli) bo'lgan, masalan, .us, .ca, .mx va .com, .net, .org, .int, .edu, .gov i .mil tashkilot domenlari bo'lgan. Hozirgi vaqtda davlat nomisiz bir qancha yuqori sathli domenlar mavjud.

DNS nomlarining va prefikslarning to'liq daraxt strukturasi zonalaga admanastrativ tartibda taqsimlanaadi: zona – daraxtosti bo'lib, har bir zona o'zining negiz DNS nomiga ega, bunda prefiks DNSning zonadagi nomini ifodalaydi. Masalan, luc.edu zonasi Loyolaning bir qancha DNS nomlarini o'z ichiga oladi, lekin cs.luc.edu alohida zonaga ajratilgandir. Zona ikkita o'zaro bog'lanmagan daraxtostilarini birlashtirmaydi. Har bir zona avtoritetli zonalar uchun o'zining serverlariga ega bo'lib, ularga shu zonlardagi barcha yozuvlarni saqlash yuklatilgan. Har bir zona kamida ikkita serverga ega bo'lishi lozim. IPv4-adreslar yozuvlar A ko'rinishida saqlanadi, zonaostilari haqidagi ma'lumot NS yozuvlari ko'rinishida saqlanadi.

Nomlarga javobgar server albatta tashkilotning bir qismi bo'lishi shart emas, bitta server minglab bog'lanmagan zonalar uchun javobgar server bo'lishi mumkin.

Negiz serverlar faqat barcha zonaosti serverlarini identifikatsiyasi bo'lgan NS yozuvlarini saqlaydilar. Yuqori sathli domen o'zining zonaosti domenlarini birlashtiradi. Negiz serverlarning IP-adreslari keng tarqalgan bo'lib, ularning DNS nomlari m.root-servers.net. orqali a.root.servers.net serverlardir. Bu nomlar hozirgi kunda nafaqat alohida mashinalarga, shu bilan birga serverlarning yuzlab klasterlariga ham mos keladi.

Endi biz DNSni izlashning birinchi algoritmini yig'shimiz mumkin: intronetworks. cs.luc.edu IP-adresini topish uchun

DNS qaydnomasi doirasida izlanayotgan DNS-so'rov rekursiv va rekursiv bo'lmagan turlarga bo'linadi. Agar A Bga rekursiv so'rov yuborsa, B to'liq javob topmaguncha o'z ishini davom ettiradi. Agar so'rov rekursiv bo'lmasa, B uzilish haqida axborot uzatadi yoki keying bosqichga o'tish haqidagi zonaostidagi NS yozuvlarini uzatadi.

Ilovalar deyarli har doim DNSlarga murojaat kutubxonalari orqali murojaat qiladi. Kutubxona yuborilgan murojjatni anglovchi modulga so'rov yuboradi.

Internet adreslarining yana bir turi URL adreslardir.

URL (Uniform Resource Locator) – resurslarni unifisatsiyalashgan aniqlovchisi. Bu adres Internetdagi ma'lum turdagi axborotlarning adresi bo'lib, u quyidagi formatga ega:

resurs turi://tugun adresi/boshqa turdagi axborot

Ommaviylashgan resurslarga quyidagilar kiradi:

ftp:// ftp – server;

gopher:// - gopher tavsiyanomasi;

http:// - WWW dagi adres;

mailto:// - elektorn pochta adresi;

news:// - UseNet – yangiliklar guruhi;

telnet:// - telnet xizmatidan foydalanib ro'yhatdan o'tish mumkin bo'lgan kompyuter.

URLning resurs qismi har doim “:” va ikkita yoki uchta “/” bilan tugallanadi, so'ngra tugunning aniq adresi, siz kirishni hohlagan, yoziladi. Odatda shuning o'zi kifoya. Lekin agar tugundagi aniq bir hujjatni ko'rmoqchi bo'lsangiz va uning adresini aniq bilsangiz, bu adresni URL adresiga qo'shib yozishingiz mumkin. Quyida bir nechta URL adreslar keltirilgan:

<http://www.klyaksa.net/index.php> - Klyaks@.net axborot-ta'lim portalining bosh sahifasi;

<ftp://ftp.microsoft.com/dirmap.txt> - Microsoft kompaniyasining ftp serveridagi dirmap.txt fayl nomi.

Shunday qilib, Internetda adreslarning quyidagi turlari mavjud:

IP adres; DNS – adres; E-mail – adres; URL –adres.

Web-hujjatlar. Web-hujjatlar HTML (Hyper Text Markup Language) gipertext hujjatlari yordamida yaratiladi.Oddiy matn hujjatiga boshqarish belgilari qo'yiladi, HTML-teglar,brauzerlarda

(Internet Explorer, Opera va x.k) Web-hujjatni ko'rinishini aniqlab ko'rmoqchi bo'lganda. Web-hujjatning asosiy afzalliklari:

- kichkina axborot hajmi;
- turli amaliyot tizimlarida ko'rish imkoni.

Web-hujjatlar yaratishda oddiy matn redaktorlari ishlatiladi, ushbu redaktordagi yaratilgan hujjatlarda formatlangan boshqarish simvollarini ishlatilmaydi. Windowsda ushbu redaktor sifatida Bloknot standart ilovasidan foydalansak bo'ladi. HTML-teglari yordamida Web-hujjatlar yaratishda katta kuch, vaqt va sintaksis til bilimlari talab qilinadi. Maxsus instrumental dasturiy vositalarning ishlatilishi (Web-redaktorlar), Web-saytlar yaratishni oson va samarali qiladi. Web-redaktorlarda jarayon yaratilishi va varaqlarni tahrirlash WYSIWYG rejimida ishlab chiqarilganligi uchun juda yahshi ko'rinadi, (anglizchadan. "What You See Is What You Get" - "Nimani ko'rsang, shuni olasan").

Web-saytlar. Odatda aniq mavzu materialini va muammodan tashkil topgan, butunjahon o'rgimchakdagi nashrlari Web-saytlar formasida ishlab chiqariladi. Davlat tuzilmalari va tashkilotlari (hukumat, дума, maktab va xokazo) odatda o'zining tashkilotining rasmiylashtirilgan Web-saytlarini yaratishadi, u erda o'zining faoliyati haqidagi axborotni joylashtirishadi. Tijorat firmalari o'zining Web-saytlarida reklama tovarlarini va xizmatlarini joylashtirishadi, Internet-magazinnlardan ega bo'lishga taklif etishadi. Internetning hohlagan foydalanuvchisi o'zining tematik saytini yaratishi mumkin, u erda o'zining ishlab chiqarishlari va qiziqishlari va xokazolar haqida axborotlar joylashtirishi mumkin. Jurnal pechatlangan varaqlardan iborat bo'lganidek, Web-sayt ham kompyuter Web-varaqlaridan iborat. Sayt giperssilka tizimidan tashkil topgan, foydalanuvchiga Web-varaqlar bo'yicha joylashishi mumkin. Internet serverida Web-saytida joylashtirishdan oldin uni yaxshilab testdan o'tkazish zarur, chunki bu saytning kiruvchilari Internetning o'n millionlab foydalanuvchilari bo'ladi.

Web-sayt nashri uchun Internet serverida mos o'rin topish kerak. Ko'pchilik provayderlar o'z mijozlariga Web-saytlarni o'z serverlarida tekina joylashtirish (tekin xosting) imkonini beradi.

HTML-kod varag'i konteyner ichiga joylashtiriladi. <HTML></HTML>. Bu teglarsiz brauzer hujjat formatini aniqlashga va uni to'g'ri anglashga imkonsiz. Web-varaq ikki logik bo'limga bo'linadi: sarlavha va brauzer mazmunini ifodalaydi.

Web-varaq sarlavhasi konteynerda tugallanadi <HEAD></HEAD> va hujjat nomini va varaq haqida axborotdan tashkil topgan. (masalan, kodlash tipi), to'g'ri ko'rsatish uchun brauzerda ishlatiladi. Teglar uchburchak qavslar ichiga olinadi, ular bittalik yoki ikkitalik bo'lishi mumkin. Ikkitalik teglar ochilgan va yopilgan teglardan tashkil topgan (bunday juft teglar konteyner deyiladi). Yopilgan teg belgilashdan oldin to'g'ri slashga (/) ega. Teglar bosh harfli, kichik harfli yozilishi mumkin. Varaq nomi konteynerga joylashtiriladi.

<TITLE></TITLE> va brauzerning oynasining yuqori qatorida ko'rinib turadi.

Brauzerda ko'rinuvchi varaq mazmuni konteynerga joylashtiriladi.

```
<BODY></BODY>
```

```
<HTML>
```

```
<HEAD>
```

```
<TITLE>Kompyuter</TITLE>
```


```
</HEAD>
```

```
<BODY>
```

```
Kompyuter i PO
```

```
</BODY>
```

```
</HTML>
```



Rasm 75. Brauzer oynasi.

Web-varaq tayorlanishi.

Yaratilgan Web-varaqni fayl ko'rishida index.htm ko'rishida saqlash lozim. V kachestve rasshireniya fayla Web-varaq fayli kengaytmasi sifatida .html ishlatish mumkin. Saytni joylashtirish uchun maxsus papka yaratish va ushbu papkada ishlab chiqarilgan hamma fayllarni saqlash tavsiya etiladi. index.htm fayl nomini farqlash lozim, fayl tizimida saqlanuvchi Web-varaq, va nomi Web-varaqlar (masalan, "Kompyuter"), brauzer oynasining yuqori qatorida ko'rinib turadi. Web-varaq nomi uning ma'nosiga to'g'ri kelishi kerak, chunki u birinchi navbatda qidiruv tizimlari orqali tekshiriladi.

Web-hujjat aniqlash va asosiy teglar (jadvallar, varaqning grafik tasvirlari, shrifltlar bilan ishlash). Web hujjat-bu web-varaq, unga shrifltlar jadvallar, grafik tasvirlar kiradi*.html i *.mht.da saqlanadi.



```

<html>
<head>
</head>
<body>
<head>
<title>Moy pervyy shag </title>
</head>
<body>
Zdravstvuyte, eto moya pervaya stranitsa.
<br>
Dobro pojalovat! :)
</body>
</html>

```

</html>

Shrift teglari:

Teg - ko'pfunksional. Aniq hujjat qismida nafaqat matn rangi, shrift razmeri va shrift turi beriladi.

 Polujirnyy tekst

<i> Naklonnyy tekst (kursiv) </i>

<u> Podcherknutyuy tekst </u>

Teglar yordamida paragraflar kiritiladi:

<p></p>

Teglar yordamida matnlarni markazlashtirishimiz mumkin:

<p align="center">tekst</p>

Paragraf yordamida biz matnni chap tarafdin tekislashimiz mumkin:

<p align="left">tekst</p>

Hujjatning o'ng tarafdin:

<p align="right">tekst</p>

Sarlavha teglari:

<H1> tekst </H1>

<H2> tekst </H2>

<H3> tekst </H3>

<H4> tekst </H4>

<H5> tekst </H5>

<H6>tekst</H6>

Jadval teglar orqali beriladi:

```
<table></table>
```

Jadval qator va ustundan iborat(yacheyka), shuning uchun ularni ko'rsatish kerak.

```
<tr></tr>
```

 - jadval qatori

```
<td></td>
```

 - ustun (yacheyka) jadvali.

Misol 1.

```
<HTML>
```

```
<HEAD>
```

```
<TITLE>Nazvaniedokumenta</TITLE>
```

```
</HEAD>
```

```
<BODY bgcolor="teal" text="aqua">
```

Bu erda Web-hujjat joylashgan.

```
<CENTER><H1><font color="yellow">Vsemprivet!</H1></CENTER></font><P>
```

```
<CENTER><font color="red" size=4>Zdravstvuy, mir!</CENTER></font>
```

```
</BODY>
```

```
</HTML>
```

Bu erda size=4 atributishrift razmerini beradi.

Misol 2.

```
<a href="altavist.HTM">ALTAVIST.HTM</a>,</font><P>
```

```
<a href="EXCITE.HTM">EXCITE.HTM</a>,</font>
```

```
<a href="YAHOO.HTM">YAHOO.HTM</a>!
```

```
<hr color="red">
```

```
1.<IMG SRC="altavist.gif">
```

```
2.<IMG SRC="yahoo.gif">
```

```
3.<IMG SRC="excite.gif">
```

```
4.<IMG SRC="lycos.gif"><P>
```

```
5.<IMG SRC="infoseek.gif">
```

```
6.<IMG SRC="rambler.gif"><hr color="lime">
```

```
<tt><big><U><font color="aqua">Ispolzuyte poiskovye sistemy dlya  
poiska informatsii v Internete!</tt></big></U></font>
```

```
</BODY>
```

```
</HTML>
```


Yaratilgan taqdimotni shu effektlar bilan taminlangan kross-plattformen format:

Flash +

HTML5.

iSpring Suite 8 dasturi PowerPoint barcha effektlarni quvatlaydi va sifatli barcha effektlarni tasvilaydi RowerRoint, dasturidagi murakkab animasiya kiritilgan yo'lakka o'tish .

Zarur bo'lgan taqdimotni skanerlash va kross-plattformenniy format: Flash + HTML5. Slaytlarga qo'llanilgan barcha effektlar kompterda va ixtiyoriy mobil aloqa vositalarida nomoyon bo'ladi.



a)Animatsiya

Konvertansiyadanso'ngformat Flash yoki HTML5

bachayaratilgananimatsiyalarsaqlanibfoydalanuvchininganimatsiyadagiso'zlarialoxidahariflarnito'riaksettirishgaiSpringSuite 8 dasturningimkoniyatlarimavjud.

Effektlarga o'tish

PowerPoint, dasturi hamma ko'rinishdagi o'tishlarni iSpring Suite 8 qo'llaydi shu qatorda 3D-ham. O'tish effektlari veb formatdagi murakkab taqdimotlarda puxtallik bilan saqlanib qoladi.

Multimediya qo'yish

O'zingizni yaratilgan taqdimotingizni qiziqarli esda qoladigan qo'shimcha media-fayllar bilan to'ldiring. Barcha kanallardan unimli foydalaning : iSpring Suite 8 avdio –videolardagi fayllarni hech qanday yoqotishsiz sifatli saqlaydi.

Shrift uslubi va SmartArt obektlari

PowerPoint o' taqdimotlarida kata kolleksiyadagi tayyor usublarni va tayyor mavzularni taqdim etadi. Ulardan ixtiyoriylaridan foydalanish mumkin. Flash iv HTML5-versiyadagi proektlar ni hatosiz qatetadan ishlab chiqadi. Suningdek tanlangan SmartArt shrifltlar va obektlar.

Matn bo'lakli web-varaq yaratish.

Web-varaqcha kodi:

```
<html>
<head>
<title>Moypervyushag</title>
</head>
<body text="#336699" bgcolor="#000000">
<center>
<H3>Zdravstvuyte, etomoyapervayastranitsa.</H3>
<br>
<font color="#CC0000"> Dobropojalovat!Nemnogoostatistike</font> :) </center>
<p align="justify"><b>
Dunyo tillariga 6 til kiradi.Bu ingliz,rus,xitoy, fransuz, portugal va arab. Dunyoda 3 kosmik buyuk
davlatlar bor: Rossiya, SShAiKitay. Aholi soni bo'yicha Xitoy va Indiya oldinda.
</b>
</p>
</body>
</html>
```

HTML xujjatda jadval yarating.

Veb-varaqcha:

```
<html>
<head>
<title>Moypervyushag</title>
</head>
<body>
<table>
<tr>
<td height="35" width="50" bgcolor="#FFCC33"> <center> 1x1 </center> </td>
<td width="50" bgcolor="#336699"> <center> 1x2 </center> </td>
<td width="50" bgcolor="#FFCC33"> <center>1x3 </center> </td>
</tr>
<tr>
<td height="35" width="50" bgcolor="#336699"> <center> 2x1 </center> </td>
<td width="50" bgcolor="#FFCC33"> <center> 2x2 </center> </td>
<td width="50" bgcolor="#336699"> <center> 2x3 </center> </td>
</tr>
</table>
</body>
</html>
```

HTML hujjatga tasvir qo'ying.

Veb-varaq kodi.

```
<html>
<head>
<title>Мойпервыйshag</title>
</head>
<body text="#336699" bgcolor="#000000">
<center>
<H3>Zdravstvuyte, etomoyapervayastranitsa.</H3>
<br>
<font color="#CC0000"> Dobropojalovat!Nemnogoostatistike</font> :) </center>
<p align="justify"><b>
```

Nazorat savollari:

1. Internet nima?
2. Internet tashkil etildi qachon va kim tomonidan?
3. Internet protokollarini maqsadi nima?
4. Internet xizmatlari, ba'zi nima?
5. 3G-modemturli qanday ko'rinishlari uchun ishlatiladi?
6. Qaysi teglar HTML- hujjatlarda bo'lishi kerak ?
7. Web-varaqning mantiqiy tuzilishi qanday?
8. Shrifltlar uchun qaysi teglarni bilasiz ?
9. Qanday qilib html hujjatga jadval qo'yiladi?

8-ma'ruza. Iqtisodiy axborot tizimidagi intellektual axborot texnologiyalari

Reja:

1. Aqlli tizimlar.
2. Ekspert tizimlari va sun'iy intellekt

Tayanch iboralar: aqlli tizim (IntS), aqlli boshqaruv tizimi (IntSU)

"Aqlli tizim" tushunchasi turli tadqiqotchilar tomonidan har xil talqin etiladi. Keling, ularning asosiylarini ko'rib chiqaylik, shu bilan birga tushuntirishlar. Aqlli tizim operatorning (qaror qabul qiluvchi - qaror qabul qiluvchi) ishtirokisiz muammolarni hal qilishda intellektual yordamga ega bo'lgan axborot-hisoblash tizimi. Aqlli tizim operator - qaror qabul qiluvchi ishtirokida muammolarni hal qilishda aqlli yordamga ega bo'lgan axborot hisoblash tizimi. Boshqaruv tizimlarini yaratish uchun asosiy aqlli texnologiyalar, shu jumladan sun'iy neyron tarmoqlari (ANN), genetik algoritmlar, loyqa mantiqdan samarali foydalanish mumkin. Shu bilan birga, ulardan foydalanishning maqsadga muvofiqligi hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun taqsimlangan sxemalarni amalga oshirish qobiliyati bilan belgilanadi, bu esa kerakli hisoblashlarning murakkabligini sezilarli darajada oshirmasdan qidiruv maydonini kengaytirishga imkon beradi; tabiiy jarayonlarga yaqin bo'lgan "oddiy" til yordamida boshqarish jarayonlarini tasvirlash qobiliyati; nohiziq boshqarish ob'ektlarini analitik bo'lmagan tarzda namoyish qilish va noaniqlik va ko'p sonli maxsus vaziyatlar bilan tavsiflangan jarayonlarni tavsiflash imkoniyati; yomon rasmiylashtirilmagan muammolarning echimlarini bo'shliqda tezda qidirish qobiliyati. Aqlli tizimlar ular bilimga asoslangan tizimlardir. Kompyuterda ishlov berilganda ma'lumot ma'lumotlarga o'xshash tarzda o'zgartiriladi: 1) fikrlash natijasida inson xotirasidagi bilim. 2) bilimlarning moddiy tashuvchilari (darsliklar, o'quv qo'llanmalari). 3) bilim sohasi - bu predmet sohasining asosiy ob'ektlari, ularning atributlari va ularni bog'laydigan naqshlarining shartli tavsifi. 4) har qanday model (ishlab chiqarish, semantik, ramka yoki boshqa) asosida bilimlarni aks ettirish. Ishlab chiqarish yoki qoidalarga asoslangan model bilimlarni jumalalar kabi ifodalashga imkon beradi "Agar a, keyin ". Semantik tarmoq - bu yo'naltirilgan grafik, uning tepalari tushunchalar, yo'ylar esa ular o'rtasidagi munosabatlardir. Kadr - bu ba'zi bir kontseptual ob'ektni ifodalash uchun ma'lumotlar tuzilishi. 5) kompyuter tashuvchilaridagi bilimlar bazasi. Ishlab chiqarish modelidan foydalanishda

bilimlar bazasi bir qator qoidalaridan iborat. Qoidalar sanab chiqilishini boshqaruvchi dastur xulosa chiqaruvchi vosita (mulohaza yuritish mexanizmi, xulosa mexanizmi, deduktiv dvigatel, tarjimon, qoida tarjimoni, hal qiluvchi) deb nomlanadi. Lyuk mashinasi tsikl bilan ishlaydi. Har bir tsiklda u mavjud bo'lgan dalillarni ishchi xotiradan (ma'lumotlar bazasidan) va bilimlar bazasidagi qoidalarni ko'rib chiqadi, so'ngra ularga mos keladi. Tanlangan qoidalar to'plami to'qnashuvlar to'plamini tashkil etadi (ya'ni muayyan vaziyatda birdaniga bir nechta qoidalar qo'llanilishi mumkin). Mojaroni hal qilish uchun xulosa dvigateli bitta mezonga ega bo'lib, u bitta qoidani tanlaydi, shundan so'ng u ishga tushiriladi. Bu qoidaning xulosasini tashkil etuvchi dalillarni (tavsiya etilgan harakatlar) ishchi xotiraga kiritishda yoki qarama-qarshi qoidalarni tanlash mezonini o'zgartirishda ifodalanadi. Agar qoida harakat nomi bilan tugasa, u ishlaydi. Xulosa chiqarish mashinasi modus ponens printsipiga asoslanadi, u quyidagicha talqin etiladi: "Agar A bayonoti haqiqat ekanligi ma'lum bo'lsa va" agar A, keyin B bo'lsa "shaklidagi qoida mavjud bo'lsa, u holda B bayonoti haqiqatdir." Ostida aqlli tizimlar maqsadga muvofiq xulq-atvorni o'tkazish qobiliyatini namoyish etadigan har qanday biologik, sun'iy yoki rasmiy tizimlarni tushunish. Ikkinchisiga aloqa, bilimlarni to'plash, qaror qabul qilish, o'rganish, moslashish xususiyatlari (namoyon bo'lishi) kiradi. Sun'iy intellekt bo'yicha tadqiqotlar bilimga asoslangan yondashuvga asoslangan. Bilimga tayanish - bu sun'iy intellektning asosiy paradigmasi. Ishda bilimlarni talqin qilish to'rt guruhga (yoki darajalarga) birlashtirilgan: psixologik, intellektual, rasmiy-mantiqiy va axborot-texnologik. Bilimlarni psixologik talqini - aqliy obrazlar, aqliy modellar. Bilimlarning intellektual talqini - bu ma'lum bir predmet sohasi to'g'risidagi ma'lumotlar to'plami, shu jumladan berilgan predmet sohasi ob'ektlari haqidagi faktlar, ushbu ob'ektlarning xususiyatlari va ularni bog'laydigan munosabatlar, ushbu mavzudagi sodir bo'layotgan jarayonlarning tavsiflari, shuningdek, odatdagi muammolarni hal qilish usullari. Rasmiy-mantiqiy talqin - maxsus protseduralar yordamida ushbu fan sohasi to'g'risida yangi bilimlarni olish (chiqarish) uchun ishlatiladigan ma'lum bir predmet sohasi to'g'risida rasmiylashtirilgan ma'lumotlar. Axborot texnologiyalari talqini - kompyuter xotirasida saqlanadigan va intellektual dasturlar ishlashida ishlatiladigan tarkibiy ma'lumotlar. D.A.ning asarlarida. Pospelova va uning hamkasblari quyidagilarni ta'rifladilar bilimning kontseptual xususiyatlari: ichki talqin qilish, har bir ma'lumotni aniqlaydigan noyob nomlarning mavjudligi sifatida tushuniladi; tuzilmaviylik, alohida axborot birliklarini bir-biriga rekursiv tarzda joylashtirish imkoniyatini qaysi shartlar; tashqi ulanish, axborot birliklari o'rtasida funktsional, tasodifiy va boshqa turdagi aloqalarni o'rnatish imkoniyatini belgilash; o'lchaklenebilirlik, axborot birliklarining miqdoriy, tartibli va boshqa nisbatlarini aniqlash uchun turli xil ko'rsatkichlarni kiritish imkoniyatlarini tavsiflash; faoliyat, yangi ma'lumotlar paydo bo'lganda ba'zi oqilona harakatlarning bajarilishini boshlash qobiliyatini aks ettiradi. Aqlli axborot tizimi (yoki bilimga asoslangan tizim) foydalanuvchilarning o'ziga xos axborot ehtiyojlariga qarab turli sinflarning amaliy muammolarini hal qilish variantlarini yaratish uchun bilimlar bazasidan foydalanish kontseptsiyasiga asoslanadi. Bunday tizimlarni qurishdan asosiy maqsad amaliyotda yuzaga keladigan murakkab muammolarni hal qilish uchun yuqori malakali mutaxassislarning bilimlarini aniqlash, tadqiq etish va qo'llashdir. Bilimga asoslangan tizimlarni qurishda mutaxassislar tomonidan ma'lum muammolarni hal qilish uchun aniq qoidalar shaklida to'plangan bilimlardan foydalaniladi. Ushbu yo'nalish tizimli bo'lmagan va yarim tuzilgan muammolarni tahlil qilishda insoniyat san'atiga taqlid qilishga qaratilgan.

Ekspert tizimlari va sun'iy intellekt

Zamonaviy jamiyatda tobora o'sib borayotgan axborot oqimi, axborot texnologiyalarining turli-tumanligi, kompyuterda yechiladigan masalalarning murakkablashuvi ushbu texnologiyalardan foydalanuvchining oldiga bir qator vazifalarni qo'ydi. Kerakli variantlarni tanlash va qaror qabul qilish ishlarini insondan EHMga o'tkazish masalasi yuzaga keladi. Bu vazifani yechish yo'llardan biri – bu ekspert tizimlarini yaratish va foydalanish sanaladi. Ekspert o'zidan kelib chiqib sharoitni tahlil etadi va nisbatan foydali axborotni aniqlab oladi, chorasiz yo'llardan voz kechgan holda qaror qabul qilishning eng maqbul yo'llarini vujudga keltiradi.

Ekspert tizimida ma'lum bir predmet sohasini ifodalaydigan bilimlar bazasidan foydalaniladi.

Ekspert tizimi – bu ayrim mavzu sohalarida bilimlarni to'plash va qo'llash, uyushtirish usullari hamda vositalari majmuidir. Ekspert tizimi mutaxassislarning yuqori sifatli tajribasiga suyangan holda qarorni tanlash chog'ida muqobil variantlar ko'pligi uchun yanada yuqori samaraga erishadi. Strategiyani tuzish paytida yangi omillarni baholab, ularning ta'sirini tahlil etadi.

Ekspert tizimlari sun'iy intellektdan foydalanishga asoslangan.

Sun'iy intellekt aqliy xatti-harakatlarga nisbatan kompyuter tizimining qobiliyati tushuniladi. Ko'pincha bunda inson fikrlashi bilan bog'liq qobiliyat anglanadi.

Ekspert tizimlarini axborot tizimlari sinfi sifatida ko'rib chiqish mumkin. U foydalanuvchining roziligidan qat'iy nazar ma'lumotlarni tahlil va tahrir eta oluvchi, qarorni tahlil etib qabul qiladigan, tahliliy-tasnifiy vazifalarni bajara oladigan ma'lumotlar va bilimlar bazasiga ega. Jumladan, ekspert tizimlari keladigan axborotlarni guruhlariga bo'lib tashlay oladi, xulosa chiqaradi, identifikatsiyalaydi, tashxis qo'yadi, bashoratlashga o'rgatadi, sharhlab beradi va hokazo.

Intellektual axborot tizimlarining tasnifi

Intellektual axborot tizimlari bilimlarga asoslanadi va quyidagi turlarga bo'linadi:

- 1). Amaliy dasturlarning intellektual paketlari (ADP) yoki vazifalarni yechuvchilar (EUREKA) paketi.
- 2). Avtomatlashtirilgan o'qitish tizimlari.
- 3). Ekspert tizimlari.

Intellektual ADP ilmiy va iqtisodiy faoliyat bilan bog'liq sohalarga keng tarqalgan. Bu tizimlarda ma'lumotlar bilan ishlash jarayonlari ko'proq darajada soddalashtirilgan, ya'ni intellektualashtirilgan, masalan, EUREKA dasturlash g'oyasini dasturchisiz amalga oshirishga imkon beradi. Bu paketda vazifa shartlarini yozish matematika qoidalari bo'yicha qurilgan muharrir vositalari bilan amalga oshiriladi. Bu guruhga yana elektron jadvallardan iborat bo'lgan jadvalli protsessorlar ham kiradilar. Ularda har bir "katakcha"ning mazmuni ma'lumotlarning istalgan turi bo'lishi mumkin. Lotus 1-2-3, Super Calc, Master, Framework paketlar misol bo'la oladi. Bu jadvallar tomonidan aks ettirilganlarga ko'ra amaliy vaziyatlarning ikki modelini qurishga va uning "...agar, nima ro'y beradi..." turidagi tahlilini o'tkazishga imkon beradi. Masalan, narx, qarz foizining belgilangan dastlabki miqdorlari o'z miqdorini o'zgartirsa, ba'zi bir o'zgaruvchilar qanday miqdorni qabul qiladilar.

Avtomatlashtirilgan o'qitish tizimlari (AUT) - bu bilimlarga asoslanuvchi va SHEHM bozorini rivojlanishi va paydo bo'lishi bilan keng tarqalgan intellekt tizimining maxsus turidir. AUT, qoidaga ko'ra, harakatlar va o'qitish tizimini faoliyat yuritishi uchun foydalaniladigan tuzilmarni bayon qiluvchi bir yoki bir necha tillardir. AUT foydalanuvchilarning ikkita guruhi bilan ishlashga mo'ljallangan. Birinchi guruh - AUTning mualliflarining o'zlari. Ikkinchi guruh - ushbu tizim yordamida ukivotganlar. Mualliflarning vazifasiga bilimlar bazasi, vazifalarni, o'quv materialining turi va tuzilishini ishlab chiqish, ularni tahrir qilish va kompyuterning xotirasida saqlash kiradi.

Ekspert tizimlari - mutaxassislarining aniq predmetli sohalardagi bilimlarini jamlovchi va bu empirik tajribani kamroq malakali foydalanuvchilarga maslahat berish uchun nusxa ko'payturuvchi murakkab dasturiy majmualardir.

Ekspertli tizimlar sohasidagi ishlamalarning hozirgi holatini iqtisodchilar, moliyachilar, o'qituvchilar, muhandislar, tibbiyotchilar, ruhshunoslar, dasturchilar, tilshunoslarning keng tabaqalari orasidagi bergan sari o'sib boruvchi qiziqishning bosqichi sifatida ta'riflash mumkin. Afsuski bu qiziqish hali kuchsiz moliyaviy mustahkamlanishga - darsliklar va maxsus adabiyotlarni yaqqol yetishmasligi, simvulli protsessorlar va sun'iy intellektning ishchi stansiyalarini yo'qligi, bu sohadagi tadqiqotlarga cheklangan mablag'lar ajratilishi, ekspert tizimlarini ishlab chiqish uchun dasturiy mahsulotlarning kuchsiz mamlakat bozoriga ega.

Shuning uchun ekspert tizim ostidagi "Yasamalar" ko'p sonli muloqotli tizimlar va intellektual amaliy dasturlar paketlari ko'rinishida tarqatiladi. Ekspertli tizimni yaratish jarayoni sun'iy intellekt sohasidagi yuqori malakali mutaxassislarni ishtirok etishlarini talab qiladi.

Zamonaviy ekspert tizimlari yetakchi mutaxassislarining amalda iqtisodiyotning barcha sohasidagi tajriba va bilimlaridan nusxa ko'chirish uchun keng foydalanadi. An'anaviy bilimlar ikki turda - jamoa tajribasi va shaxsiy tajribada mavjud.

Agar predmetli sohada katta qism jamoa tajribasi (masalan, oliy matematika) ko'rinishida taqdim etilgan bo'lsa, unda predmetli soha ekspert tizimlariga muhtoj emas.

Agar predmetli sohada bilimlarning katta qismi yuqori darajadagi mutaxassislar (ekspertlar)ning shaxsiy tajribasi bo'lsa, agar bu bilimlar qandaydir sabablarga ko'ra kuchsiz tarkiblashtirilgan bo'lsa, bunday predmetli soha ko'proq ekspert tizimiga muhtoj bo'ladi.

10-ma'ruza. Kiberxavfsizlik tushunchasi. Iqtisodiy tizimlarda axborotlarni himoyalash usullari

Reja:

1. Axborot xavfsizligi muammosi
2. Axborot xavfsizligini ta'minlash usullari va yo'nalishlari
3. Kompyuter viruslaridan ximoyalanish usullari va vositalari
4. Iqtisodiy axborot xavfsizligini ta'minlash bo'yicha amaliy tavsiyalar
5. Internetdagi tarmoq xavfsizligi programmaviy vositalari

Tayanch iboralar: Axborot xavfsizligi, viruslar, shlyuzlar, tarmoq xavfsizligi, confidential, authentication server, ximoya klasslari, kriptografiya, shifrlash, elektron raqamli imzo, revizorlar, immunizator, xaker, Branmauer

Adabiyotlar: «Buxgalterga elektron madad» («BEM») milliy dasturiy mahsulotidan foydalanuvchilari uchun o'quv qo'llanma. T.: 2010;

Fulomov S.S., Begalov B.A. Iqtisodiy informatika/ Toshkent, "O'zbekiston": 2010 y.;

Xodiev B.R., Begalov B. A. Axborot tizimlari va texnologiyalari/ Toshkent, 2010 y.

1. Axborot xavfsizligi muammosi

Kompyuter tarmoqlari va internet texnologiyalarining yaratilishi turli manba'lardan ma'lumotlarni tez va osonlik bilan olish imkoniyatlarini paydo qildi. Davlat tashkilotlari, fan-ta'lim muassasalari, tijorat korxonalarini va aloqida shaxslar axborotlarni elektron shaklda yaratadilar va saqlaydilar. Bu muqit axborotlarni fizikaviy saqlashga nisbatan katta qulayliklar tuqdiradi: ma'lumot saqlash juda ixcham xolda bo'lib, uni uzatish esa bir zumda yuz beradi xamda tarmoq orqali boy ma'lumotlar bazalariga murojaat qilish imkoniyatlari juda keng bo'ladi. Agar axborot ommaviy bo'lsa va barchaning undan foydalanishi mumkin bo'lsa, bu juda ijobiy xol bo'ladi. Ammo pinxoniy (konfidentsial) va maqfiy axborotlar bilan ishlashga to'qri kelsa, bir qancha muammolar kelib chiqadi.

Internet muqitida axborot xavfsizligiga taxdid quyidagilar bo'lishi mumkin:

- Axborot o'qirlash va undan o'z qarazli maqsadlarida foydalanish
- Axborot mazmunini uning egasidan iznsiz o'zgartirish va bundan foydalanib, turli xil firibgarliklarni amalga oshirish
- Tarmoqqa va serverlarga o'qrincha suqilib kirish xamda bundan foydalangan xolda qarazli moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish.
Shuning uchun xam axborot xavfsizligini ta'minlashning quyidagi asosiy tamoillari mavjud:
- Axborotlarning butunligini ta'minlash (Integrity)– ma'lumotlarning yo'qotilishi va o'zgarishiga yo'l qo'yimaslik
- Ma'lumotlarning pinxonaligini (konfidentsiallik-confidentiality)) ta'minlash
- Ma'lumotlarning faqatgina ruxsat berilgan foydalanuvchilar uchun ishlatish mumkin bo'lishini ta'minlash (availability)

AqSh dagi kompyuter xavfsizligi instituti va FBR tomonidan kompyuter jinoyatlari bo'yicha o'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra, so'rovda katnashgan tashkilotlarning 54% Internet bilan ulanish joyi ko'pincha «tajovuzlar qilinadigan joy» deb, 30% ularning tarmoqiga suqilib kirish ruy berganini, 26% esa tajovuz paytida axborotni pinxona o'qirlash solir bo'lganini ma'lum qilishgan. AqSh kompyuter jinoyatlariga qarshi kurash Federal markazi FedSIRS ma'lumotlariga ko'ra, xar yili barcha kompyuter tarmoqlaridan 5-8% miqdori turli xil informatsion tajovuzlarga duchor bo'lishgan. «Kompyuter tajovuzi» deganda begona shaxslar tomonidan kompyuterga beruxsat kirish uchun maxsus dasturni ishga tushirish nazarda tutiladi. Bunday tajovuzlarni tashkil etish usullari quyidagi turlarga bo'linadi:

- Kompyuterga olisdan kirish – bunda Internet yoki intranetga yoki aloqida kompyuterlarga kimligini bildirmay kirishga imkon beruvchi dasturlardan foydalaniladi.
- Kompyuterlarni olisdan turib ishlatmay qo'yish – tarmoq orqali olisdan kompyuterga ulanib, uning ayrim dasturlarining ishlashini to'xtatib qo'yuvchi dasturlar yordamida amalga oshiriladi.

- Tarmoq skanerlari – tarmoqda ishlayotgan kompyuter yoki dasturlardan qaysi biri tajovuzga chidamsizligini aniqlash maqsadida tarmoq qaçida ma'lumot yiquvchi dasturlar vositasida amalga oshiriladi.
- Kompyuterga o'rnatilgan amaliy dasturlarning tajovuzga bo'sh joylarini topishga imkon beruvchi maxsus dasturlar yordamida xujum qilinadi.
- Parollarni ochish – parollarni izlab topuvchi dasturlardan foydalaniladi.
- Tarmoq taqilchilari (snifferlar) – tarmoq trafigining tinglovchi dasturlar vositasida bajariladi. Ular foydalanuvchilarning nomlarini, parollarini, kredit kartochkalarining raqamlarini trafikdan avtomatik tarzda ajratib olishlari mumkin.

Misol sifatida kompyuter tajovuzlarining taqilil keltiramiz:

- 29% tajovuzlar Windows muqitida ruy bergan
- 20% tajovuzlarda tajovuz qilganlar olisdan turib, tarmoq elementlarigacha (marshrutizatorlar, kommutatorlar, xostlar, printer va brandmauerlarga) yetib kelganlar
- 5% tajovuzlar marshrutlovchilar va brandmauerlarga kirishga imkon berganlar
- 4% tajovuzlarda xostlarga zarar yetkazilgan
- 3% tajovuzlar web-saytlarga qarshi uyushtirilgan

2. Axborot xavfsizligini ta'minlash usullari va yo'nalishlari

Axborot xavfsizligini ta'minlashning barcha mavjud bo'lgan usullarini quyidagi asosiy guruqlarga bo'lishimiz mumkin:

1.Fizik ximoya usullari – ma'lumotlarni arxivlash, aloqida nusxalarini saqlashni tashkil qilish (dublirovaniye), rezerv nusxalar tashkil qilish, arxivlashga mutaxassislashgan avtomatik serverlardan foydalanish (masalan, Storage Express System avtomat serveri)

2.Programmaviy vositalardan foydalanish – antivirus dasturlari, ma'lumotlardan foydalanish xuquqini taqsimlovchi dasturlar, kompyuterga kirishni nazorat qiluvchi dasturlar

3.Administrativ ximoya usullari – kompyuterli xonaga kirishni nazorat qilish, firma xavfsizligini ta'minlash strategiyalarini ishlab chiqish va boshqalar.

4.Parol + foydalanuvchini shaxsiy «kalit» bo'yicha identifikatsiya qilish usuli – bunda shaxsiy kalit sifatida magnit yoki smart plastik kartalar ishlatilishi mumkin. Bunday plastik kartalarda foydalanuvchi qaqidagi ma'lumotlar yoki uning qaqidagi biometrik ma'lumotlar bo'ladi (barmok izlari, ko'z tomirlari tuzilishi va boshqalar). Bunda serverlar va tarmoq ish stantsiyalari smart kartalarni o'qish qurilmalari va maxsus programmaviy ta'minotiga ega bo'ladi.

Ochiq sistemalarni tajovuzlardan saqlashning dasturiy va apparat tizimiga misol sifatida **Kerberos** tizimini keltirish mumkin. Unga quyidagi uch asosiy tarkibiy qism kiradi:

- Tarmoq resurslari, foydalanuvchilar, parollar, informatsion kalitlar va boshqa ma'lumotlar yozib qo'yilgan ma'lumotlar bazasi
- Tarmoqning u yoki bu xizmatini so'ragan foydalanuvchilarning talablarini bajaradigan avtorizatsion server (authentication server). Foydalanuvchining talabini olgandan so'ng, server ma'lumotlar bazasiga foydalanuvchi bu amallarni qilishga xaqqi bormi yoki yo'qligini aniqlash uchun so'rov yuboradi. Bu so'rovga ijobiy javob olingan taqdirdagina foydalanuvchi talabi bajariladi.
- Ruxsat beruvchi server (ticket-granting server) avtorizatsion serverdan foydalanuvchi ismi, tarmoq adresi, so'rov berilgan vaqt va unikal «kalit» yozilgan «ruxsatnoma» oladi va bu ruxsatnomani tekshirganidan so'ng, tarmoqdagi resurslardan (programmalaridan, apparaturadan yoki tarmoq ma'lumotlaridan) foydalanishga ruxsat beradi.

Agar ma'lumotlarni olisdan turib radio, telegraf yoki kabel aloqa liniyalaridan uzatilishi kerak bo'lsa, u xolda xavfsizlikni ta'minlash uchun ma'lumot paketlari segmentatsiya qilingan xolda jo'natiladi, ya'ni, bunda ma'lumotlar paketi bir necha bo'lakka bo'linadi va ular turli xil aloqa uzatish kanallar orqali bir vaqtda uzatiladilar. Bunda xakerlar ma'lumotlarni bitta kanaldan o'qisalar xam uning qolgan qismini u boshqa kanaldan o'sha vaqtning o'zida uzatilgani uchun o'qiy olmaydilar. Xozirgi paytda tarmoq kompyuterlaridagi ma'lumotlarning xavfsizligini ta'minlash uchun maxsus qurilmalar xam ishlab chiqarilgan. Masalan, AT&T firmasi tomonidan ishlab chiqilgan Remote Port Security Device (RPSD) oddiy modem kattaligidagi ikki blokdan iborat – ulardan biri markaziy ofisda o'rnatiladigan RPSD

Lock (qulf) va foydalanuvchi modemi ga ulanadigan RPSD Key (kalit). Ushbu RPSD Key va RPSD Lock lar kompyuter tizimiga kirishning bir necha darajali ximoyasini va nazoratini amalga oshirishga imkon beradilar va bunda quyidagi usullardan foydalanadilar:

- Aloqa liniyasidan uzatiladigan raqamli kalitlar yordamida ma'lumotlarni shifrlash;
- Xafta kuni yoki sutka vaqtini xisobga olgan xolda tizimga kirishni nazorat qilish.

Kompyuter tajovuzlaridan ximoyalanish vositalariga nisbatan qisoblash texnikasi qurilmalariga 1 dan 7 gacha ximoya klasslari o'rnatilgan, avtomatlashtirilgan boshqaruv sistemalariga nisbatan esa 1A, 1B, 1V, 1G, 1D, 2A, 2B, 3A, 3B to'qqizta ximoya klassi aniqlangan. qisoblash texnikasi qurilmalari uchun eng pastki ximoya 7-klass xisoblansa, avtomatlashtirilgan boshqaruv sistemalari uchun eng past darajadagi ximoya 3B xisoblanadi. Misol sifatida KOBRA deb nomlangan kompyuter tajovuzlaridan ximoyalanish tizimini ko'rib chiqamiz. Ushbu tizim 4-klassga mansub bo'lib, foydalanuvchini identifikatsiya qiladi, uning ma'lumotlarga kirish bo'yicha ruxsatnomalarini tekshiradi, ma'lumotlarni kriptografik yopishni amalga oshiradi, kompyuter yoki tarmoqning viruslar, xatolar, dasturlar va texnik xolatlar bilan boqliq etalon xolatidagi o'zgarishlarini qayd qiladi va operatsion muqitning asosiy komponentlarini avtomatik ravishda tiklaydi. Ma'lumot kompyuterga kirishda mantiqiy disklar darajasida ximoya qilinadi, ya'ni, foydalanuvchi A, B, C, . . . Z disklardan biriga kirishiga ruxsat oladi. Barcha abonentlar 4 ta kategoriyaga mansub bo'ladi:

- Superfoydalanuvchi – sistemadagi barcha ishlarni bajara oladi.
- Administrator – superfoydalanuvchining nomini o'zgartirish, uning stutusiga o'zgartirishlar kiritishdan tashqari, sistemadagi barcha ishlarni qilishi mumkin.
- Programmistlar – shaxsiy parolni o'zgartirishlari mumkin
- Xamkasb – superfoydalanuvchi tomonidan ko'rsatilgan resurslardan foydalanishga xaqqi bo'ladi.

NIST 7498-2 xalqaro standarti xavfsizlikni ta'minlashning quyidagi asosiy yo'nalishlarini belgilab beradi:

- Autentifikatsiya – kompyuter yoki tarmoq foydalanuvchisining shaxsini tekshirish
- Kirishni boshqarish (Access Control) – ishlovchining kompyuter tarmoqidan foydalanishga ruxsati bor yoki yo'qligini tekshirish
- Ma'lumotlar butunligi – ma'lumotlar massivining mazmunini tasodifiy yoki qasddan o'zgartirishlarni tekshirish
- Axborot pinxonaligi – axborot mazmunini iznsiz oshkor bo'lishdan ximoyalash
- Inkori eta olmaslik – ma'lumotlar massivini jo'natuvchi tomonidan jo'natilganligini yoki oluvchi tomonidan olganligini tan olishdan bo'yin tovlashning oldini olish.

Ko'plab qo'shimcha xizmatlar (audit, kirishni ta'minlash) va qo'llab-quvvatlash xizmatlari (kalitlarni boshqarish, xavfsizlikni ta'minlash, tarmoqni boshqarish) asosiy xavfsizlik tizimini to'ldirishga xizmat qiladi. Xavfsizlikni ta'minlovchi vositalar dasturiy maqsulotlar tarkibiga kiritilgan bo'lishi kerak.

3. Kompyuter viruslaridan ximoyalanish usullari va vositalari

Kompyuter viruslari xam iqtisodiy axborotlar xavfsizligiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday viruslardan ximoyalanish uchun quyidagi usullardan foydalaniladi:

- Axborotni ximoyalovchi umumiy vositalar – ular diskarni buzilishdan, noto'qri ishlayotgan programmalardan va foydalanuvchining beixtiyoriy xatolaridan ximoya qiladi.
- Profilaktika ishlari – viruslar o'z ta'sirini o'tkazmaslan turib, amalga oshiriladigan rejali ishlar
- Viruslardan ximoyalovchi maxsus dasturlar – viruslar borligiga ishonch xosil qilinganda va ularning zarari qutilayotganda bunday dasturlardan muntazam ravishda foydalanish darkor.

Maxsus dasturlarga jumlasiga quyidagilar kiradi:

- Detektorlar – viruslar uchun xos bo'lgan baytlar kombinatsiyalarini tekshirish orqali o'ziga ma'lum viruslar bilan zararlangan fayllarni aniqlaydi va ularni ekranda ko'rsatadi. Masalan, Scan Mc Afee Associates va Aidstest dasturlari bir necha ming viruslarni aniqlashga imkon beradi. Ayrim detektor viruslar esa yangi turdagi viruslarga moslasha oladi (Norton Antivirus – AVSP).
- DOKTORLAR – viruslar bilan zararlangan fayllarni aniqlab, ularni davolashni amalga oshiradi.

- REVIZOR – dasturlar ikki bosqichda ishlaydi. Oldin ular programmalarning xolati qaqidagi ma'lumotlarni eslab qoladi, so'ngra o'zgarishlarni xisobga olib, viruslarni aniqlaydi.
- FILTR dasturlar – ular kompyuter operativ xotirasida doimiy ravishda o'rnashib oladilar va viruslar tomonidan qilingan xurujlar qaqida foydalanuvchiga ma'lumot beradilar. Foydalanuvchi esa bu ma'lumotlar asosida tegishli ishlarni amalga oshiradi. Filtr dasturlarning afzallik tomoni shundaki, ular viruslarni o'z vaqtida aniqlashga imkon beradi, ya'ni ular zarar yetkazishga yoki ko'payishga ulgurmasidan yo'q qilinishi mumkin bo'ladi.
- VAKTsINA yoki IMMUNIZATOR antivirus dasturlari programmalar va disklarni shunday o'zgartiradiki, viruslar ularni zararlangan xisoblab, yana qaytadan boshqa zarar yetkazmaydi.

Xozirgi paytda antivirus dasturlarning qo'yidagi turlari mavjud:

- AIDSTEST – detektor va doktor
- DOCTOR WEB – evristik analizatorli detektor-doktor
- AVSP (Anti-Virus Software Protection) – detektor-doktor-revizor-rezident filtr
- Microsoft Anti Virus – detektor-doktor-revizor
- Advanced Diskinfo-Scope – programma-revizor
- ESET NOD 32 Antivirus - detektor-doktor-revizor-rezident

4. Iqtisodiy axborot xavfsizligini ta'minlash bo'yicha amaliy tavsiyalar

Axborot xavfsizligini ta'minlash quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Elektron xujjatlar aylanishi xavfsizligini ta'minlash.
- Maqfiy ma'lumotlar va axborot jarayonlarini xodimlarning qasddan sodir etilgan, malakasiz xatti-xarakatlari natijasida qilingan, shuningdek tabiiy yoki texnogen tusdagi xaloqat xolatlaridan ximoya qilish bo'yicha chora- tadbirlarni amalga oshirish.
- Identifiqator kalitlar, elektron raqamli imzolar, kriptografiya, nutqni, barmoq izlarini aniqlash dasturlari, texnik, dasturiy va boshqa ximoya vositalarini ishlatish yo'li bilan boshqarish va maqfiy axborotga kirish xuquqiga ega bo'lgan shaxslarni ishonchli identifikatsiyalashni ta'minlash.
- Axborotni ximoya qilish vositalarini takomillashtirish, qayta ishlashning ximoyalangan vositalarini qo'llash.
- Xodimlar, menejerlar va texnik xizmatchilar uchun aniq lavozim yo'riqnomalarini yaratish.
- Davlat axborot tizimlari va rusurslaridan foydalanishni nazorat qilish va ularning davlat xizmatchilari tomonidan suiiste'mol qilinishidan ximoya qilish, davlat axborot tizimlari, resurslari va texnologiyalari bilan ishlashda ular ishining monitoringini olib borish va operatsiyalarni xisobga olishning kompleks tizimini tashkil etish asosida ta'minlanadi.

Quyida Intranetni ximoyalash bo'yicha bir qancha amaliy tavsiyalar keltirilgan:

- Xavfsizlik siyosati aniq va lo'nda qo'yilishi kerak. Tarmoqning xavfsizlik tizimi uning eng bo'sh joyi qanchalik kuchli ximoyalangan bo'lsa, shu qadar kuchli bo'ladi.
- Bradmauer (tarmoqlararo ekran, fayevalls) qo'llash lozim. Bu tashkilotning tarmoqqa kiruvchi xamda undan chiquvchi axborot oqimlarini nazorat qiladi, kompyuter tajovuzlarining ko'pchiligini qaytaradi va u eng asosiy ximoya vositasidir. Ximoya vositalarini va serverlarni kompyuter taxdidlariga nisbatan bardoshlilikini testdan o'tkazib turish kerak. Natijalarini esa tizim administratorlari va maxsus maslaqatchilar bilan taqlil qilish kerak.
- Kompyuterdan chikuvchi axborotlarni shifrlashda kriptotizimlardan keng foydalanish lozim. Bulardan foydalanish bir qancha tajovuzlarning oldini oladi.
- Kompyuterlarni xavfsizlik nuqtai-nazaridan puxta konfiguratsiyalash kerak va barcha zarur bo'lmagan tarmoq vositalarini kompyuterdan uzib qo'yish kerak.
- Dasturiy ta'minotga kerakli o'zgartirishlarni o'z vaqtida kiritish. Aks xolda tajovuzkorlar bu xatolardan foydalanib, dasturga va u orqali kompyuterga tajovuzlar uyushtirishlari mumkin.
- Tajovuzlarni payqash vositalaridan foydalanish lozim. Bunday tizimlar turli xil tajovuzlarni operativ ravishda payqab, ularga qarshi choralalar ko'rishga imkon beradilar.

- Turli xil viruslar va «Trojan ot» dasturlarini o'z vaqtida payqashga intilish kerak. Buning uchun muntazam yangilanib turadigan virusga qarshi dasturlar ishlatiladi. Pochta serveriga kelgan elektron xatlar va ularning ilovalarini xam virusga qarshi skanerlashni uyushtirish kerak.
- Skanerlovchi dasturlar yordamida tarmoqning kompyuter tajovuzlariga bo'sh joylarini tekshirish maqsadida skanerlab turish kerak.
- Parol ochuvchilar (Password stackers) ni ishlatib, tarmoqning ularga bardosh berishini tekshirish lozim. Bu amal fayllardagi va kompyuterlardagi ximoyasi bo'sh bo'lgan parollarni aniqlashga imkon beradi.
- Chetdan modem orqali tarmoqqa kirishga yo'l qoldirgan tashkilotlar tajovuzkorlarning tarmoqqa suqulib kirib, jangovar muloqot o'rnatishiga imkon beradilar. Bunga qarshi xam kerakli dasturiy yoki texnik chora-tadbirlarni ko'rish kerak bo'ladi.
- Xavfsizlikka oid tavsiyalar (security advisors) dan o'z vaqtida xabardor bo'lib, ularga qat'iy amal qilish kerak. Bunday tavsiyalarni kompyuter jinoyatlariga qarshi kurash tashkilotlaridan olish mumkin.
- Tashkilotda xavfsizlik bilan boqliq xodisalarni tekshirish guruqi muntazam faoliyat olib borishi kerak.

5.Internetdagi tarmoq xavfsizligi programmaviy vositalari

Xozirgi davrda Internetda 300 millionga yaqin odam ishlaydi va ular orasida yaxshi odamlar xam, xaker va krakerlar xam, firibgar va tovlamachilar xam bor. Ko'pchilik firibgar va mal'un kimsalar Internet yaratib bergan imkoniyatlardan o'z qarazli, shaxsiy va jinoyatkorona maqsadlarida foydalanishga xarakat qiladilar. Xozirgi paytda Internet o'ziga xos informatsion urush maydoni bo'lib, unda juda katta siyosiy va iqtisodiy kuchlar xamda guruqlar bellashayapti. Shuning uchun xam katta tashkilot va firmalar xamda foydalanuvchilar informatsion xujumlardan ximoyalanish maqsadida juda katta mablaqlarni sarf qilishga majbur bo'lmoqdalar.

Internetdan foydalanuvchiga eng katta xavf-xatarlar quyidagilardir:

- Kredit karta yoki boshqa turdagi elektron to'lov vositasini o'qirlash yoki unga bevosita yoki bilvosita tajovuz;
- Servis-provayderga yoki boshqa turdagi resurslarga ko'z olaytirish yoki ularni o'qirlash;
- Parollar va turli xil tizimlarda qayd qilinish nomlarini o'qirlash;
- qattiq diskda saqlanayotgan konfidentsial ma'lumotlarni barchaga bildirish yoki ularni o'qirlash;
- Foydalanuvchi yoki korporativ kompyuter tizimlariga turli xildagi kompyuter viruslarini kiritish;
- Foydalanuvchi xaqidagi ma'lumotlarni undan ruxsat so'ramasdan olish va ularni ma'lumotlar bazasi tarkibida sotish;
- Foydalanuvchiga unga kerak bo'lmagan ma'lumotlarni jo'natish (spam yoki elektron bombardimon qilish);
- qandaydir usullar yordamida foydalanuvchi kompyuteridagi operatsion tizimni vaqtincha ishdan chiqarish va servis-provayder bilan aloqasini uzib qo'yish.

Yuqorida sanab o'tilgan va kompyuter tizimiga xavf-xatar tuqdiradigan faktorlar potentsial ko'rinishga ega bo'lib, ularning biri Sizga qo'qqisdan xujum qilib qolishi mumkin. Masalan, agarda Sizga mobil telefon orqali yuborilgan SMS signalida yoki telefon qabul qiladigan elektron pochta ma'lumotlarida biror xil virus bo'lsa, u telefoningizni yoki kompyuteringizni ishdan chiqarishi mumkin. Siz Internetda qanchalik ko'p vaqt o'tkazsangiz va boshqalar bilan qanchalik ko'p ma'lumotlar almashsangiz, real xujumga duch kelishingiz eqtimolligi xam shunchalik oshaveradi. Tarmoq xurujlarini kompleks ravishda va rejalashtirilgan tartibda tashkil etiladigan profilaktik, texnik va tashkiliy usullar yordamida muvaffaqiyatli ravishda daf qilish mumkin. Internetga ulangan kompyuter qattiq diskiga qanday qilib ruxsatsiz kirishi va unga qandaydir talofat yetkazish mumkin. Masalan, bir qancha tarmoq xizmatlari u yoki bu sababga ko'ra, o'zgalarning qattiq diskka masofadan turib kirishiga imkon beradilar. Bu esa ruxsatsiz kompyuterga kiruvchilar uchun ajoyib sovqadir. Misol uchun, foydalanuvchining Internetga ulangan kompyuteri servis-provayderdan vaqtinchalik IP-adres oladi. Agar kimdir xuddi shu Internetga ulangan kompyuteri servis-provayderdan vaqtinchalik IP-adreslar diapazonini skanirovat qilayotgan bo'lsa, u kompyuterga kirishga real imkoniyat oladi va qattiq diskka

zararli programma yoki ma'lumotlarni yozib, foydalanuvchiga katta talofat yetkazishi mumkin. qattiq diskka masofadan turib kirish orqali fayllarni o'chirib yuborish, diskni formatlashtirish yoki konfidentsial ma'lumotlarni o'qib olish mumkin (masalan, kredit kartochkalar raqami, parollarni bilib olish va xakozolar). Agarda kompyuterga brandmauerlar (firewall) deb ataladigan programmalar o'rnatilsa, ular kompyuter ximoyasini ancha kuchaytiradi. Zone Alarm va NetWatcherPro programmalar kompyuter portlarining skanirovat qilinishini tekshirib turadi va agar xujum alohidi bo'lsa, buni aloqida tovush orqali bildiradi. Agressorning IP-adresi esa kompyuter ekranida ko'rsatiladi.

Kompyuter viruslaridan ximoyalanish uchun quyidagi maslaqatlarga rioya qilish zarur bo'ladi:

- Agar Sizga oldindan aytilmagan bo'lsa, xech qachon elektron pochta bilan birgalikda keluvchi bajariluvchi va boshqa turdagi notanish fayllarni ocha ko'rmang.
- qarochilik yo'li bilan olingan disklardan eqtiyot bo'ling, chunki ularda qandaydir virus yashiringan bo'lishi mumkin.
- Internetning unchalik tanish bo'lmagan saytlaridan noma'lum va sertifikatsiz programmalar kompyuteringizga yuklamang.
- «Tanish»lardan programmalar yozib olmang, chunki ular Sizning kompyuteringiz xavfsizligi uchun mas'ul emaslar. Internetda ishlash uchun xizmatchi programmalar to'qridan-to'qri Internetdan yozib oling.

Bu markerlar operativ xotiraga joylashtiriladi. Bu serverga qaytadan murojaat qilish paytida brouzer unga tegishli markerni ko'rsatadi va u foydalanuvchiga Web-saqifani oxirgi kirilganida qanday bo'lsa, shunday xoldagi ko'rsatilishini amalga oshiradi. Ko'pchilik xollarda cookie markerlarining bunday funktsiyasi ba'zi bir Web-saqifalar uchun zaruriydir (masalan, elektron magazinlarga kirganda). Aks xolda biz qanday tovar tanlaganimizni server faqat joriy saqifadagina bilar edi. Boshqa saqifalarda qilingan xaridlar uning xotirasidan o'chib ketar edi. cookie markerlari vaqtinchalik va doimiy turlariga bo'linadilar. Vaqtinchalari faqatgina operativ xotirada saqlansalar, doimiy brouzer ishini tugallaganda qattiq diskka yozilib qoladilar. Barcha Web-saqifalar doimiy markerlarni unchalik zaruriyat bo'lmasa xam yozib qo'yaveradilar. Bu xolat reklama, banner va shunga o'xshash serverlar uchun juda foydali. Ular o'z aktiv komponentlarini barcha Web-fazoga qo'yishni amalga oshiradilar va biz qaerda bo'lmaylik, ulardan markerlar olaveramiz. Marker qo'yilganidan so'ng, biz qopqonga tushdik, desak xam bo'laveradi. Bizning Web-fazodagi navigatsiyamiz reklama sistemalari egalari uchun endi sir emas va ular bundan o'z maqsadlarida foydalana boshlaydilar. Natijada Internetning xar bir foydalanuvchisi xaqida qimmatli ma'lumotlar to'planadi va bu ma'lumotlarni tijorat maqsadlarida xam bemalol ishlatish mumkin. Masalan, turistik firmalarning saytlarini tez-tez ko'rib turuvchi shaxsga biror bir firmaning reklamasini jo'natish va uni doimiy mijoz qilib olish mumkin yoki turistik firmaga potentsial mijozlar tez-tez kirib turadigan saytlar ruyqatini sotish mumkin. Bunda firma o'z reklamasini qanday qilib foydaliroq qilish yo'llarini topishi mumkin bo'ladi va buning oqibatida katta foyda olishga erishadi. Reklama tizimlari markerlarni taqlil qilish asosida insonlar va firmalarning profillarini tuza olish imkoniyatiga ega. Ko'pgina sofdil insonlar o'zlari to'qrisida aniq ma'lumotlarni berib, bilib-bilmay o'zlariga-o'zlari xavfli dose ochib qo'yadilar. Internet Explorer dagi Servis > Svoystva obozrevatelya > Soderjanie > Profil buyruqi o'zingizga to'liq dose tuzish imkonini beradi va u Profil Polzovatelya deb ataladi. Ko'pchilik foydalanuvchilar uni o'zlariga qulaylik yaratish uchun to'ldiriladi deb o'ylaydilar. Ishonuvchan foydalanuvchilarga Servis > Svoystav obozrevatelya > Dopolnitelno buyruqlarini ochishni tavsiya etamiz. Undagi Zadeystvovat profil bayroqchasining xolatiga aqamiyat bering. U ulanilgan xolatda qo'yilgan, demak, xar qanday server brouzerdan foydalanuvchi profilini so'rashi va uni foydalanuvchidan so'rab o'tirmasdan o'ziga yozib olishi va u bilan istalagan ishini qilishi mumkin. Bu esa foydalanuvchilar uchun o'ta xavfli va ularga zarar yetkazib qo'yishi mumkin. Boshqa serverlar Sizning xaqingizdagi

7. Elektron raqamli imzo.

Elektron hujjatlarni tarmoq orqali almashishda ularni ishlash va saqlash harajatlari kamayadi, qidirish tezlashadi. Ammo, elektron hujjat muallifini va hujjatning o'zini autentifikatsiyalash, ya'ni muallifning haqiqiyiligini va olingan elektron hujjatda o'zgarishlarning yo'qligini aniqlash muammosi paydo bo'ladi.

Elektron hujjatlarni autentifikatsiyalashdan maqsad ularni mumkin bo'lgan jinoyatkorona harakatlardan himoyalashdir. Bunday harakatlarga quyidagilar kiradi:

- **faol ushlab qolish** - tarmoqqa ulangan buzg'unchi hujjatlarni (fayllarni) ushlab qoladi va o'zgartiradi.
- **maskarad**- abonent S hujjatlarni abonent V ga abonent A nomidan yuboradi;
- **renegatlik** - abonent A abonent V ga xabar yuborgan bo'lsada, yubormaganman deydi;
- **almashtirish** - abonent V hujjatni o'zgartiradi, yoki yangisini shakllantiradi va uni abonent A dan olganman deydi;
- **takrorlash** - abonent A abonent V ga yuborgan hujjatni abonent S takrorlaydi.

Jinoyatkorona harakatlarning bu turlari o'z faoliyatida kompyuter axborot texnologiyalaridan foydalanuvchi bank va tijorat tuzilmalariga, davlat korxonasi va tashkilotlariga xususiy shaxslarga ancha-muncha zarar etkazishi mumkin.

Elektron raqamli imzo metodologiyasi xabar yaxlitligini va xabar muallifining haqiqiylikini tekshirish muammosini samarali hal etishga imkon beradi.

Elektron raqamli imzo telekommunikatsiya kanallari orqali uzatiluvchi matnlarni autentifikatsiyalash uchun ishlatiladi.

Raqamli imzo ishlashi bo'yicha oddiy qo'lyozma imzoga o'xshash bo'lib, quyidagi afzalliklarga ega:

- imzo chekilgan matn imzo qo'ygan shaxsga tegishli ekanligini tasdiqlandi;
- bu shaxsga imzo chekilgan matnga bog'liq majburiyatlaridan tonish imkoniyatini bermaydi;
- imzo chekilgan matn yaxlitligini kafolatlaydi.

Elektron raqamli imzo-imzo chekiluvchi matn bilan birga uzatiluvchi qo'shimcha raqamli xabarning nisbatan katta bo'lmagan sonidir.

Elektron raqamli imzo asimmetrik shifrlarning qaytaruvchanligiga hamda habar tarkibi, imzoning o'zi va kalitlar juftining o'zaro bog'liqligiga asoslanadi. Bu elementlarning hatto birining o'zgarishi raqamli imzoning haqiqiylikini tasdiqlashga imkon bermaydi. Elektron raqamli imzo shifrlashning asimmetrik algoritmlari va hesh-funksiyalari yordamida amalga oshiriladi.

1. Konfidentsiallik, yaxlitlik va foydalanuvchanlik tushunchalari

2. Axborot xavfsizligining hayotiy timsollari

3. Kiberxavfsizlikning asosiy tushunchalari

4. Axborot xavfsizligi va kiberxavfsizlik o'rtasidagi farqi


5. Kiberxavfsizlikning bilim sohalari

6. Kiberxavfsizlikda inson omili

1. Konfidentsiallik, yaxlitlik va foydalanuvchanlik tushunchalari.

Axborotni ishlash, uzatish va to'plashning zamonaviy usullarining rivojlanishi foydalanuvchilar axborotini yo'qolishi, buzilishi va oshkor etilishi bilan bog'liq tahdidlarning ortishiga olib kelmoqda. Shu sababli, kompyuter tizimlari va tarmoqlarida axborot xavfsizligini ta'minlash axborot texnologiyalari rivojining yetakchi yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

2. Axborot xavfsizligining hayotiy timsollari. Axborot xavfsizligi hayotda mavjud timsollarga asoslanadi. Hayotda faqat qonuniy faoliyat olib boruvchi shaxslar mavjud, ular 1-rasmda *Alisa* va *Bob* timsolidagi akslantirilgan. Biroq, hayotda qonuniy faoliyat yurituvchi insonlarning faoliyatiga qiziquvchi, ularning ishlariga xalaqit beruvchi bo'lgan insonlar ham mavjud va ular 1-rasmda *Tridi* timsolidagi tasvirlangan. *Tridi* timsoli barcha g'arazli niyatlarni amalga oshiruvchi shaxslarni ifodalaydi.



1-rasm. Axborot xavfsizligining hayotdagi timsollari

O'quv qo'llanmaning keyingi bo'limlarini yoritishda quyidagi hayotiy ssenariyni ko'raylik. Ushbu hayotiy ssenariy *Alisaning onlayn banki (AOB)* deb ataladi. Bunga ko'ra, Alisa onlayn bankning biznes faoliyatini amalga oshiradi.

Mazkur ssenariyda Alisaning xavfsizlik muammosi nima? Alisaning mijozi bo'lgan Bobning xavfsizlik muammosichi? Alisa va Bobning xavfsizlik muammolari bir xilmi? Tridi nuqtai nazaridan qaraganda qanday xavfsizlik muammolari mavjud?

Ushbu savollarga keyingi qismlarda javob berib o'tiladi.

3. Kiberxavfsizlikning asosiy tushunchalari

Kompyuter tizimlari va tarmoqlarida axborotni himoyalash va axborot xavfsizligiga tegishli bo'lgan ayrim tushunchalar bilan tanishib chiqaylik.

Kiberxavfsizlik hozirda yangi kirib kelgan tushunchalardan biri bo'lib, unga berilgan turlicha ta'riflar mavjud. Xususan, CSEC2017 Joint Task Force manbasida kiberxavfsizlikka quyidagicha ta'rif berilgan: *kiberxavfsizlik – hisoblashlarga asoslangan bilim sohasi bo'lib, buzg'unchilar mavjud bo'lgan sharoitda amallarni to'g'ri bajarilishini kafolatlash uchun o'zida texnologiya, inson, axborot va jarayonlarni mujassamlashtiradi. U xavfsiz kompyuter tizimlarini yaratish, amalga oshirish, tahlillash va testlashni o'z ichiga oladi. Kiberxavfsizlik ta'limning mujassamlashgan bilim sohasi bo'lib, qonuniy jihatlarni, siyosatni, inson omilini, etika va risklarni boshqarishni o'z ichiga oladi.*

Tarmoqlar sohasida faoliyat yuritayotgan *Cisco* tashkiloti esa kiberxavfsizlikka quyidagicha ta'rif bergan: *Kiberxavfsizlik – tizim, tarmoq va dasturlarni raqamli hujumlardan himoyalash amaliyoti.* Ushbu kiberxujumlar odatda maxfiy axborotni boshqarish, almashtirish yoki yo'q qilishni; foydalanuvchilardan pul undirishni; normal ish faoliyatini buzishni maqsad qiladi. Hozirgi kunda samarali kiberxavfsizlik choralarini amalga oshirish insonlarga qaraganda qurilmalar soni va turlarining kattaligi va buzg'unchilar salohiyatini ortishi natijasida amaliy tomondan murakkablashib bormoqda.

Kiberxavfsizlik bilim sohasining zaruriyati birinchi meynfreym kompyuterlar ishlab chiqarilgandan boshlab paydo bo'la boshlagan. Bunda mazkur qurilmalarni va ularning vazifalari himoyasi uchun ko'p qatlamli xavfsizlik choralarini amalga oshirilgan. Milliy xavfsizlikni ta'minlash zaruriyatini oshib borishi kompleks va texnologik murakkab ishonchli xavfsizlik choralarini paydo bo'lishiga olib keldi.

Hozirgi kunda axborot texnologiyalari sohasida faoliyat yuritayotgan har bir mutaxassisdan kiberxavfsizlikning fundamental bilimlariga ega bo'lishi talab etiladi. Demak, kiberxavfsizlik fani sohasining tuzilishini quyidagicha tasvirlash mumkin (2-rasm).



2 – rasm. Kiberxavfsizlik fani sohasining tuzilishi

Kiberxavfsizlikni fundamental atamalarini aniqlashga turli yondashuvlar mavjud. Xususan, CSEC2017 JTF manbasida mualliflar kiberxavfsizlikni quyidagi 6 atamasi keltirishgan :

Konfidentsiallik – axborot yoki uni eltuvchining shunday holati bo'lib, undan ruxsatsiz tanishishning yoki nusxalashning oldi olingan bo'ladi. Konfidentsiallik axborotni ruxsatsiz “o'qish”dan himoyalash bilan shug'ullanadi. AOB ssenariysida Bob uchun konfidentsiallik juda muhim. Ya'ni, Bob o'z balansida qancha pul borligini Tridi bilishini istamaydi. Shu sababli Bob uchun balans xususidagi ma'lumotlarning konfidentsialligini ta'minlash muhim hisoblanadi.

Yaxlitlik - axborotning buzilmagan ko'rinishida (axborotning qandaydir qayd etilgan holatiga nisbatan o'zgarmagan shaklda) mavjud bo'lishi ifodalangan xususiyati. Yaxlitlik axborotni ruxsatsiz “yozish”dan (ya'ni, axborotni o'zgartirishdan) himoyalash yoki kamida o'zgartirilganligini aniqlash bilan shug'ullanadi. AOB ssenariysida Alisaning banki qayd yozuvi butunligini Trididan himoyalashi shart. Masalan, Bob akkauntida balansning o'zgarishi yoki Alisa akkauntida balansning oshishidan himoyalashi shart.

Shu o'rinda konfidentsiallik va yaxlitlik bir narsa emasligiga e'tibor berish kerak. Masalan, Tridi biror ma'lumotni o'qiy olmagan taqdirda ham uni sezilmaydigan darajada o'zgartirishi mumkin.

Foydalanuvchanlik - avtorizatsiyalangan mantiqiy obyekt so'rovi bo'yicha uning tayyorlik va foydalanuvchanlik holatida bo'lishi xususiyati. Foydalanuvchanlik axborotni (yoki tizimni) ruxsatsiz “bajarmaslik”dan himoyalash bilan shug'ullanadi. AOB ssenariysida AOB veb saytidan Bobning foydalana olmasligi Alisaning banki va Bob uchun foydalanuvchanlik muammosi hisoblanadi. Sababi, mazkur holda Alisa pul o'tkazmalaridan daromad ola olmaydi va Bob esa o'z biznesini amalga oshira olmaydi. Foydalanuvchanlikni buzishga qaratilgan hujumlardan eng keng tarqalgani – xizmat ko'rsatishdan voz kechishga undovchi hujum (Denial of service, DOS).

Risk – potensial foyda yoki zarar bo'lib, umumiy holda har qanday vaziyatga biror bir hodisani yuzaga kelish ehtimoli qo'shilganida risk paydo bo'ladi. ISO “*risk* – bu noaniqlikning maqsadlarga ta'siri” sifatida ta'rif bergan .

Masalan, universitetga o'qishga kirish jarayonini ko'raylik. Umumiy holda bu jarayonni o'zi risk hisoblanmaydi. Faqatgina abituriyent hujjatlarini va kirish imtihonlarini topshirganda, u o'qishga kirishi yoki kira olmasligi mumkin. Bu o'z navbatida qabul qilinish yoki qabul qilinmaslik riskini yuzaga kelishiga olib keladi.

Kiberxavfsizlik yoki axborot xavfsizligida risklar salbiy ko'rinishda qaraladi.

Hujumchi kabi fikrlash - bo'lishi mumkin bo'lgan xavfni oldini olish uchun qonuniy foydalanuvchini hujumchi kabi fikrlash jarayoni.

Tizimli fikrlash - kafolatlangan amallarni ta'minlash uchun ijtimoiy va texnik cheklovlarning o'zaro ta'sirini hisobga oladigan fikrlash jarayoni.

Bundan tashqari quyidagi tushunchalar ham kiberxavfsizlik sohasini chuqur o'rganishda muhim hisoblanadi.

Axborot xavfsizligi - axborotning holati bo'lib, unga binoan axborotga tasodifan yoki atayin ruxsatsiz ta'sir etishga yoki ruxsatsiz undan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi. Yoki, axborotni texnik vositalar yordamida ishlanishida uning maxfiylik (konfidensiallik), yaxlitlik va foydalanuvchanlik kabi xarakteristikalarini (xususiyatlarini) saqlanishini ta'minlovchi axborotning himoyalani sathi holati.

Axborotni himoyalash – axborot xavfsizligini ta'minlashga yo'naltirilgan choralar kompleksi. Amalda axborotni himoyalash deganda ma'lumotlarni kiritish, saqlash, ishlash va uzatishda uning yaxlitligini, foydalanuvchanligini va agar, kerak bo'lsa, axborot va resurslarning konfidensialligini madadlash tushuniladi.

Aktiv - himoyalalanuvchi axborot yoki resurslar. Yoki, tashkilot uchun qimmatli barcha narsalar.

Tahdid – tizim yoki tashkilotga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan istalmagan hodisa. Yoki, tahdid - axborot xavfsizligini buzuvchi potensial yoki real mavjud xavfni tug'diruvchi sharoit va omillar majmui. Tahdid tashkilotning aktivlariga qaratilgan bo'ladi. Masalan, aktiv sifatida korxonaga tegishli biror bir saqlanuvchi hujjat bo'lsa, u holda ushbu hujjat saqlanadigan xonaga nisbatan tahdid amalga oshirilish mumkin.

Zaiflik – bir yoki bir nechta tahdidlarni amalga oshirishga imkon beruvchi tashkilot aktivi yoki boshqaruv tizimidagi kamchilik hisoblanadi. Masalan, xonada saqlanayotgan tashkilot hujjati qo'g'oz ko'rinishda bo'lganligi sababli, yonib ketishi mumkin.

Boshqarish vositasi – riskni o'zgartiradigan harakatlar bo'lib, boshqarish natijasi zaiflik yoki tahdidlarni o'zgarishiga ta'sir qiladi. Bundan tashqari boshqarish vositasining o'zi turli tahdidlar foydalanishi mumkin bo'lgan zaiflikka ega bo'lishi mumkin. Masalan, tashkilotda saqlanayotgan qog'oz ko'rinishidagi axborotni yong'indan himoyalash uchun o'chirish vositalari boshqarish vositasi sifatida ko'rilishi mumkin. Bundan tashqari, yong'in bo'lganda xodimlarning xattixarakatlari va yong'inni oldini olish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar ham boshqarish vositasi hisoblanishi mumkin. Yong'inga qarshi kurashish tizimining ishlamay qolish holatiga esa boshqarish vositasidagi kamchilik sifatida qarash mumkin.


4. Axborot xavfsizligi va kiberxavfsizlik o'rtasidagi farq.

“Kiberxavfsizlik” va “axborot xavfsizligi” atamalaridan, tez-tez o'rnilar almashingan holatda, foydalaniladi. Ba'zilar kiberxavfsizlikni axborot xavfsizligi, axborot texnologiyalari xavfsizligi va (axborot) risklarni boshqarish tushunchalariga sinonim sifatida foydalanadilar. Ayrimlar esa, xususan, hukumat sohasidagilar kiberxavfsizlikka kompyuter jinoyatchiligi va muhim infratuzilmalar himoyasini o'z ichiga olgan milliy xavfsizlik bilan bog'liq bo'lgan texnik tushuncha sifatida qaraydilar. Turli soha xodimlari tomonidan o'z maqsadlariga moslashtirish holatlari mavjud bo'lsada, axborot xavfsizligi va kiberxavfsizlik tushunchalari orasida ba'zi muhim farqlar mavjud.

Axborot xavfsizligi sohasi axborotning ifodalanishidan qat'iy nazar – qog'oz ko'rinishdagi, elektron va insonlar fikrlashida, og'zaki va vizual aloqada intellektual huquqlarini himoyalash bilan shug'ullanadi. *Kiberxavfsizlik* esa elektron shakldagi axborotni (barcha holatlardagi, tarmoqdan to qurilmagacha bo'lgan, o'zaro birga ishlovchi tizimlarda saqlanayotgan, uzatilayotgan va ishlanayotgan axborotni) himoyalash bilan shug'ullanadi. Bundan tashqari, hukumatlar tomonidan moliyalashtirilgan hujumlar va rivojlangan doimiy tahidlar (Advanced persistent threats, APT) ham aynan kiberxavfsizlikka tegishlidir. Qisqacha aytganda, kiberxavfsizlikni axborot xavfsizligining bir yo'nalishi deb tushunish uni to'g'ri anglashga yordam beradi.

5. Kiberxavfsizlikning bilim sohalari

CSEC2017 JTF manbasiga ko'ra kiberxavfsizlik 8 ta bilim sohasiga bo'lingan bo'lib, o'z o'rnida ularning har biri qismsohalarga bo'linadi (3-rasm) .



3-rasm. Kiberxavfsizlikning bilim sohalari

“Ma'lumotlar xavfsizligi” bilim sohasi ma'lumotlarni saqlash, ishlash va uzatishda himoyani ta'minlashni maqsad qiladi. Mazkur bilim sohasida himoyani to'liq amalga oshirish uchun matematik va analitik algoritmlardan foydalaniladi.

“Dasturiy ta'minot xavfsizligi” bilim sohasi foydalanilayotgan tizim yoki axborot xavfsizligini ta'minlovchi dasturiy ta'minotlarni ishlab chiqish va foydalanish jarayoniga e'tibor qaratadi.

“Tashkil etuvchilar xavfsizligi” bilim sohasi katta tizimlarda integrallashgan tashkil etuvchilarni loyihalashga, sotib olishga, testlashga, tahlillashga va texnik xizmat ko'rsatishga e'tibor qaratadi. Tizim xavfsizligi gohida tashkil etuvchilar xavfsizligidan farq qiladi. Tashkil etuvchilar xavfsizligi ularning qanday loyihalanganligiga, yaratilganligiga, sotib olinganligiga, boshqa tarkibiy qismlar bilan bog'langanligiga, qanday ishlayotganligiga va saqlanayotganligiga bog'liq bo'ladi.

“Aloqa xavfsizligi” bilim sohasi tashkil etuvchilar o'rtasidagi aloqani himoyalashga etibor qaratib, o'zida fizik va mantiqiy ulanishni mujassamlashtiradi.

“Tizim xavfsizligi” bilim sohasi tashkil etuvchilar, ulanishlar va dasturiy ta'minotdan iborat bo'lgan tizim xavfsizligining jihatlariga e'tibor qaratadi. Tizim xavfsizligini tushunish uchun nafaqat, uning tarkibiy qismlari va ularning bog'lanishini tushunish, balki yaxlitlikni hisobga olish talab etiladi. Ya'ni, tizimni to'liqligicha ko'rib chiqish talab etiladi. Mazkur bilim sohasi “Tashkil etuvchilar xavfsizligi” va “Aloqa xavfsizligi” bilim sohalari bilan bir qatorda, tashkil etuvchilar bog'lanishining xavfsizligi va undan yuqori tizimlarda foydalanish masalasini hal qiladi.

“Inson xavfsizligi” bilim sohasi kiberxavfsizlik bilan bog'liq inson hatti harakatlarini o'rganishdan tashqari, tashkilotlar (masalan, xodim) va shaxsiy hayot sharoitida ma'lumotlarni va shaxsiylikni himoya qilishga e'tibor qaratadi.

“Tashkilot xavfsizligi” bilim sohasi tashkilotni kiberxavfsizlik tahdidlaridan himoyalash va tashkilot vazifasini muvaffaqiyatli bajarishini madadlash uchun risklarni boshqarishga e'tibor qaratadi.

“Ijtimoiy xavfsizlik” bilim sohasi jamiyatda u yoki bu darajadagi ta'sir ko'rsatuvchi kiberxavfsizlik omillariga e'tibor qaratadi. Kiberjinoatchilik, qonunlar, axloqiy munosabatlar, siyosat, shaxsiy hayot va ularning bir-biri bilan munosabatlari ushbu bilim sohasidagi asosiy tushunchalar hisoblanadi.

Demak, aytish mumkinki, kiberxavfsizlik sohasi axborot texnologiyalari mutaxassisleri uchun zarur soha hisoblanadi.

6. Kiberxavfsizlikda inson omili

Foydalanuvchilar tomonidan har qanday yuqori darajadagi xavfsizlik ham buzilishi mumkin. Masalan, Bob amazon.com onlayn do'konidan biror narsani sotib olmoqchi, deylik. Buning uchun Bob turli kriptografik usullarga tayanadigan SSL (Secure Sockets Layer) protokoli yordamida Amazon bilan ishonchli bog'lanish uchun veb-brauzerdan foydalanishi mumkin. Ushbu protokol barcha zarur amallar to'g'ri bajarilganida kafolatli xavfsizlikni ta'minlaydi. Biroq, ushbu protokolga qaratilgan ba'zi hujum turlari (O'rtada turgan odam hujumi, Man-in-the-middle attack) mavjudki, ularni amalga oshirish uchun foydalanuvchi “ishtirok”i talab etiladi (4-rasm). 4-rasmda agar foydalanuvchi xavfsiz holatni tanlasa (Вернуться к безопасной странице) hujum amalga oshmaydi. Biroq, foydalanuvchi tomonidan

xavfsiz bo'lmagan tanlov (*Перейти на сайт (небезопасно)*) amalga oshirilganida hujum muvaffaqiyatli tugaydi. Boshqacha aytganda, yuqori xavfsizlik darajasiga ega protokoldan foydalanilganda ham foydalanuvchining noto'g'ri harakati sababli xavfsizlik buzilishi mumkin. Endi parolga asoslangan autentifikatsiya usulini ko'rib chiqaylik. Odatda foydalanuvchilar esda saqlash oson bo'lgan parollardan foydalanishga harakat qiladilar. Biroq, bunday yo'l tutish buzg'unchi uchun parollarni taxminlab topish imkoniyatini oshiradi. Boshqa tomondan esa, murakkab parollardan foydalanish va ularni turli eltuvchilarda saqlash (masalan, qog'ozda qayd etish) esa, ushbu muammoni yanada oshirib yuboradi.

Bu misollar inson omil tufayli turli joylar va holatlarda xavfsizlik muammolari kelib chiqishi mumkinligini ko'rsatadi. Inson omili tufayli yuzaga keladigan xavfsizlik muammolariga ko'plab misollar keltirish mumkin. Biroq, keltirilgan holatlardagi eng muhim jixat shundaki, xavfsizlik nuqtai nazaridan "tenglamadan" inson omilini olib tashlash zarur. Boshqacha aytganda, inson omili ishtirok etmagan tizimlar ishtirok etgan tizimlarga nisbatan xavfsizroq bo'ladi.



Подключение не защищено

Злоумышленники могут пытаться похитить ваши данные с сайта [redacted] (например, пароли, сообщения или номера банковских карт). [Подробнее...](#)
NET::ERR_CERT_AUTHORITY_INVALID

Отправлять в Google URL и контент некоторых посещенных страниц, а также ограниченную информацию о системе для повышения безопасности Chrome. [Политика конфиденциальности](#)

Скрыть подробности

Вернуться к безопасной странице

Не удалось подтвердить, что это сервер [redacted]. Операционная система компьютера не доверяет его сертификату безопасности. Возможно, сервер настроен неправильно или кто-то пытается перехватить ваши данные.

[Перейти на сайт \[redacted\] \(небезопасно\)](#)

4-rasm. SSL protokolidagi xavfsizlik ogohlantirishi

Nazorat savollari .

- 1.Axborot xavfsizligining xayotiy timsollari va ularning vazifalari nimalardan iborat?
- 2.Kiberxavfsizlik tushunchasiga izoh bering?
- 3.Kiberxavfsizlik fan sifatida qanday tuzilishga ega?
- 4.Kiberxavfsizlikning asosiy tushunchalarini aytib bering?
- 5.Axborotni konfidensialligini ta'minlash deganda nimani tushunasiz?
- 6.Axborotni yaxlitligini ta'minlash deganda nimani tushunasiz?
- 7.Axborot uchun foydalanuvchanlikning muhimligi?
- 8.Risk nima va uning kiberxavfsizlikdagi o'rni?
- 9.Hujumchi kabi fikrlash nima uchun zarur?
- 10.Tizimli fikrlash nima va u nima uchun zarur?
- 11.Axborot xavfsizligi va axborotni himoyalash tushunchalarini birbiridan farqi?
- 12.Aktiv nima?
- 13.Tahdid va zaiflik tushunchalariga izoh bering.

11-ma'ruza. KIAT (korporativ iqtisodiy axborot tizimlari)da axborot xavfsizligini tashkil etish..

Reja:

1. Axborotni himoyalash tizimlari.
2. Axborotni himoyalashning kriptografik usullari.Shifrlash.
3. Elektron raqamli imzo.

Tayanch iboralar:

Maxfiylik, Konfidentsiallik, Yaxlitlik, Apellyatsiya, Raqamli imzo, Biometriya, Kriptografiya

Zamonaviy axborot jamiyatida axborot xavfsizligi.

Mamlakatimiz milliy iqtisodining hech bir tarmog'ini samarali va mo'tadil tashkil qilingan axborot infratuzilmasisiz faoliyat ko'rsatishi mumkin emas. Hozirgi kunda milliy axborot resurslari har bir davlatning iqtisodiy va harbiy salohiyatini tashkil

qiluvchi omillaridan biri bo'lib xizmat qilmoqda. Ushbu resursdan samarali foydalanish mamlakat xavfsizligini va demokratik axborotlashgan jamiyatni muvaffaqiyatli shakllantirishni ta'minlaydi. Bunday jamiyatda axborot almashuvi tezligi yuksaladi, axborotni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish bo'yicha ilg'or axborot-kommunikatsiyalar texnologiyalarini qo'llash kengayadi.

Hozirgi kunda xavfsizlikning bir qancha yo'nalishlarini qayd etish mumkin.

Maxfiy va qimmatbaho axborotga ruxsatsiz kirishdan himoyalash eng muhim vazifalardan biri sanaladi. Kompyuter egalari va foydalanuvchilarning mulkiy huquqlarini himoyalash — bu ishlab chiqarilayotgan axborotni jiddiy iqtisodiy va boshqa moddiy hamda nomoddiy zararlar keltirishi mumkin bo'lgan turli kirishlar va o'g'irlashlardan himoyalashdir.

Axborot xavfsizligi deb ma'lumotlarni yo'qotish va o'zgartirishga yo'naltirilgan tabiiy yoki sun'iy xossali tasodifiy va qasddan ta'sirlardan har qanday tashuvchilarda axborotning himoyalanganligiga aytiladi.

Ilgarigi xavf faqatgina konfidentsial (maxfiy) xabarlar va hujjatlarni o'g'irlash yoki nusxa olishdan iborat bo'lsa, hozirgi paytdagi xavf esa kompyuter ma'lumotlari to'plami, elektron ma'lumotlar, elektron massivlardan ularning egasidan ruxsatolmasdan foydalanishdir. Bulardan tashqari, bu harakatlardan moddiy foyda olishgaintilish ham rivojlandi.

Axborotning himoyasi deb boshqarish va ishlab chiqarish faoliyatining axborot xavfsizligini ta'minlovchi va tashkilot axborot zaxiralarining yaxlitligi, ishonchliligi, foydalanish osonligi va maxfiyligini ta'minlovchi qat'iy reglamentlangan dinamik texnologik jarayonga aytiladi.

Axborotning egasiga, foydalanuvchisiga va boshqa shaxsga zarar etkazmoqchibo'lgan nohuquqiy muomaladan har qanday hujjatlashtirilgan, ya'ni identifikatsiya qilish imkonini beruvchi rekvizitlari qo'yilgan holda moddiy jismda qayd etilgan axborot himoyalaniishi kerak.

Axborot xavfsizligi nuqtai nazaridan axborotni quyidagicha turkumlash mumkin:

- **maxfiylik** — aniq bir axborotga faqat tegishli shaxslar doirasigina kirishi mumkinligi, ya'ni foydalanilishi qonuniy xujjatlarga muvofiq cheklab qo'yilib, hujjatlashtirilganligi kafolati. Bu bandning buzilishi o'g'irlik yoki axborotni oshkor qilish, deyiladi;
- **konfidentsiallik** — ishonchliligi, tarqatilishi mumkin emasligi, maxfiyligi kafolati;
- **yaxlitlik** — axborot boshlang'ich ko'rinishda ekanligi, ya'ni uni saqlash va uzatishda ruxsat etilmagan o'zgarishlar qilinmaganligi kafolati. Bu bandning buzilishi axborotni soxtalashtirish deyiladi;
- **avtentifikatsiya** — axborot zaxirasi egasi deb e'lon qilingan shaxs haqiqatan ham axborotning egasi ekanligiga beriladigan kafolat. Bu bandning buzilishi xabar muallifini soxtalashtirish deyiladi;
- **apellyatsiya qilishlik** — etarlicha murakkab kategoriya, lekin elektron biznesda keng ko'llaniladi. Kerak bo'lganda xabarning muallifi kimligini isbotlash mumkinligi kafolati.

Yuqoridagidek, axborot tizimiga nisbatan quyidagicha tasnifni keltirish mumkin:

- ishonchlilik — tizim me'yoriy va g'ayri tabiiy hollarda rejalashtiriganidek o'zini tutishlik kafolati;
- aniqlik — hamma buyruqlarni aniq va to'liq bajarish kafolati;
- tizimga kirishni nazorat qilish — turli shaxs guruhlari axborot manbalariga har xil kirishga egaligi va bunday kirishga cheklashlar doim bajarilishlik kafolati;
- nazorat qilinishi — istalgan paytda dastur majmuasining xohlagan qismini to'liq tekshirish mumkinligi kafolati;
- identifikatsiyalashni nazorat qilish — hozir tizimga ulangan mijoz aniq o'zini kim deb atagan bo'lsa, aniq o'sha ekanligining kafolati;
- qasddan buzilishlarga to'sqinlik — oldindan kelishilgan me'yorlar chegarasida qasddan xato kiritilgan ma'lumotlarga nisbatan tizimning oldindan kelishilgan holda o'zini tutishi.

Axborotni himoyalashning maqsadlari quyidagilardan iborat:

- axborotning kelishuvsiz chiqib ketishi, o'g'irlanishi, yo'qotilishi, o'zgartirilishi, soxtalashtirilishlarning oldini olish;
- shaxs, jamiyat, davlat xavfsizligiga bo'lgan xavf-xatarning oldini olish;
- axborotni yo'q qilish, o'zgartirish, soxtalashtirish, nusxa ko'chirish, to'siqlash bo'yicha ruxsat etilmagan harakatlarning oldini olish;
- xujjatlashtirilgan axborotning miqdori sifatida huquqiy tartibini ta'minlovchi, axborot zaxirasi va axborot tizimiga har qanday noqonuniy aralashuvlarning ko'rinishlarining oldini olish;
- axborot tizimida mavjud bo'lgan shaxsiy ma'lumotlarning shaxsiy maxfiylikni va konfidentsialligini saqlovchi fuqarolarning konstitutsion xuquqlarini himoyalash;
- davlat sirini, qonunchilikka mos hujjatlashtirilgan axborotning konfidentsialligini saqlash;
- axborot tizimlari, texnologiyalari va ularni ta'minlovchi vositalarni yaratish, ishlab chiqish va qo'llashda sub'ektlarning huquqlarini ta'minlash.

Ilmiy va amaliy tekshirishlar natijalarini umumlashtirish natijasida axborotga nisbatan xavf-xatarlarni quyidagicha tasniflash mumkin (1-rasm).



Axborotga bo'lgan xavf-xatarlar tavsifi

2. Axborotni himoyalash tizimlari.

Axborot-kommunikatsiyalar texnologiyalarining ommaviy ravishda qog'ozsizavtomatlashtirilgan asosda boshqarilishi sababli axborot xavfsizligini ta'minlashmurakkablashib va muhimlashib bormoqda. SHuning uchun ham avtomatlashtirilganaxborot tizimlarida axborotni himoyalashning yangi zamonaviy texnologiyasi paydobo'lmoqda, DataQuest kompaniyasining ma'lumotiga ko'ra, 1996-2000 yillardaaxborot himoyasi vositalarining sotuvdagi hajmi 13 mlrd. AQSH dollariga teng bo'lgan.

Axborotning zaif tomonlarini kamaytiruvchi va axborotga ruxsat etilmagan kirishga, uning chiqib ketishiga va yuqolishiga to'sqinlik qiluvchi tashkiliy, texnik, dasturiy, texnologik va boshqa vosita, usul va choralarning kompleksi — axborotni himoyalash tizimi deyiladi.

Axborot egalari hamda vakolatli davlat organlari shaxsan axborotning qimmatliligi, uning yo'qotilishidan keladigan zarar va himoyalash mexanizmining narxidan kelib chiqqan holda axborotni himoyalashning zaruriy darajasi hamda tizimning turini, himoyalash usullar va vositalarini aniqlashlari zarur. Axborotning qimmatliligi va talab qilinadigan himoyaning ishonchliligi bir-biri bilan bevosita bog'liq.

Himoyalash tizimi uzluksiz, rejali, markazlashtirilgan, maqsadli, aniq,ishonchli, kompleksli, oson mukammallashtiriladigan va ko'rinishi tez o'zgartiriladigan bo'lishi kerak. U odatda barcha ekstremal sharoitlarda samarali bo'lishi zarur.

Axborot hajmi kichik bo'lgan tashkilotlarda axborotni himoyalashda oddiy usullarni qo'llash maqsadga muvofiq va samaralidir. Masalan, o'qiladigan qimmatbaho qog'ozlarni va elektron hujjatlarni alohida guruhlariga ajratish va niqoblash, ushbu hujjatlar bilan ishlaydigan xodimni tayinlash va o'rgatish, binoni qo'riqlashni tashkil etish, xizmatchilarga qimmatli axborotni tarqatmaslik majburiyatini yuklash, tashqaridan keluvchilar ustidan nazorat qilish, kompyuterni himoyalashning eng oddiy usullarini qo'llash va hokazo. Odatda, himoyalashning eng oddiy usullarini qo'llash sezilarli samara beradi.

Murakkab tarkibli, ko'p sonli avtomatlashtirilgan axborot tizimi va axborot hajmi katta bo'lgan tashkilotlarda axborotni himoyalash uchun himoyalashning majmualii tizimi tashkil qilinadi. Lekin ushbu usul hamda himoyalashning oddiyusullari xizmatchilarning ishiga haddan tashqari xalaqit bermasligi kerak.


Himoya tizimining kompleksliligiga unda huquqiy,tashkiliy, muhandis-texnik va dasturiy-matematik elementlarning mavjudligi bilan erishiladi. Aniq tizimni ko'p turli elementlardan iborat, deb tasavvur qilish mumkin.Tizim elementlarining mazmuni nafaqat uning o'ziga xosligini, balki axborotning qimmatliligini va tizimning qiymatini hisobga olgan holda belgilangan himoya darajasini aniqlaydi. Axborotni xuquqiy himoyalash elementi himoyalash choralarining haqli ekanligi ma'nosida tashkilot va davlatlarning o'zaro munosabatlarini yuridik mustahkamlash hamda personalning tashkilot qimmatli axborotini himoyalash tartibiga rioya qilishi va ushbu tartibning buzilishida javobgarligi tasavvur qilinadi. Himoyalash texnologiyasi personalni tashkilotning qimmatli axborotini himoyalash qoidalariga rioya qilishga undovchi boshqarish va cheklash xarakteriga ega bo'lgan chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi.

Tashkiliy himoyalash elementi boshqa barcha elementlarni yagona tizimga bog'lovchi omil bo'lib hisoblanadi. Ko'pchilik mutaxassislarining fikricha, axborotni himoyalash tizimlari tarkibida tashkiliy himoyalash 50-60 % ni tashkil qiladi. Bu hol ko'p omillarga bog'liq, jumladan, axborotni tashkiliy himoyalashning asosiy tomoni amalda himoyalashning printsipi va usullarini bajaruvchi personalni tanlash, joylashtirish va o'rgatish hisoblanadi.

Axborotni himoyalashning tashkiliy chora-tadbirlari tashkilot xavfsizligi xizmatining me'yoriy uslubiy hujjatlarida o'z aksini topadi. SHu munosabat bilan ko'p hollarla yuqorida ko'rilgan tizim elementlarining yagona nomi — axborotni tashkiliy-huquqiy himoyalash elementini ishlatadilar. Axborotni texnik himoyalash elementi — texnik vositalar kompleksi yordamida hudud, bino va qurilmalarniqo'riqlashni tashkil qilish hamda texnik tekshirish vositalariga qarshi sust va faol kurash uchun mo'ljallangan. Texnik himoyalash vositalarining narxi baland bo'lsada, axborot tizimini himoyalashda bu element muxim ahamiyatga ega.

Kompyuter tizimi (tarmog'i)ga ziyon etkazishi mumkin bo'lgan sharoit, harakat va jarayonlar kompyuter tizimi (tarmog'i) uchun xavf-xatarlar, deb hisoblanadi. Avtomatlashtirilgan axborot tizimlariga tasodifiy ta'sir ko'rsatish sabablari tarkibiga quyidagilar kiradi (84-rasm).

Avtomatlashtirilgan axborot tizimlariga tasodifiy na'sirko'rsatish



Avtomatlashtirilgan axborot tizimlariga tasodifiy ta'sir ko'rsatish sabablari

Ma'lumki, kompyuter tizim (tarmog')ining asosiy komponentlari — texnik vositalar, dasturiy-matematik ta'minot va ma'lumotlardir.

Nazariy tomondan bu komponentlarga nisbatan to'rt turdagi xavflar mavjud, ya'ni uzilish, tutib qolish, o'zgartirish va soxtalashtirish. Avtomatlashtirilgan axborot tizimlariga tasodifiy ta'sir ko'rsatish sabablari:

Uzilish — tashqi harakatlar (ishlar, jarayonlar)ni bajarish uchun hozirgi ishlarni vaqtincha markaziy protsessor qurilmasi yordamida to'xtatish, ularni bajargandan so'ng protsessor oldingi holatga qaytadi va to'xtatib qo'yilgan ishni davom ettiradi. Har bir uzilish tartib raqamiga ega, unga asosan markaziy protsessor qurilmasi qayta ishlash uchun qism-dasturni qidirib topadi. Protsessorlar ikki turdagi uzilishlar bilan ishlashni vujudga keltirishi mumkin: dasturiy va texnik. Biror qurilma favqulodda xizmat ko'rsatilishiga muhtoj bo'lsa, unda texnik uzilish paydo bo'ladi. Odatda bunday uzilish markaziy protsessor uchun kutilmagan hodisadir. Dasturiy uzilishlar asosiy dasturlar ichida protsessorning maxsus buyruqlari yordamida bajariladi. Dasturiy uzilishda dastur o'z-o'zini vaqtincha to'xtatib, uzilishga taalluqli jarayonni bajaradi.

Tutib olish – bu jarayon oqibatida g'arazli shaxslar dasturiy vositalar va axborotning turli magnitli tashuvchilariga kirishni yo'lga qo'yadi. Dastur vama'lumotlardan noqonuniy nusxa olish, kompyuter tarmoqlari aloqa kanallaridan ruxsatsiz o'qishlar va hokazo harakatlar tutib olish jarayonlariga misol bo'la oladi.

O'zgartirish — ushbu jarayon yovuz niyatli shaxs nafaqat kompyuter tizimi komponentlariga (ma'lumotlar to'plamlari, dasturlar, texnik elementlari) kirishni yo'lga qo'yadi, balki ular tarkibini (ko'rinishini) o'zgartiradi. Masalan, o'zgartirish sifatida g'arazli shaxsning ma'lumotlar to'plamidagi ma'lumotlarni o'zgartirishi, yoki umuman kompyuter tizimi fayllarini o'zgartirishi, yoki qandaydir qo'shimcha noqonuniy qayta ishlashni amalga oshirish maqsadida foydalanilayotgan dasturning kodini o'zgartirishi tushuniladi.

Soxtalashtirish — bu jarayon yordamida g'arazli shaxslar tizimda hisobga olinmagan vaziyatlarni o'rganib, undagi kamchiliklarni aniqlab, keyinchalik o'ziga kerakli harakatlarni bajarish maqsadida tizimga qandaydir soxta jarayonni yoki tizim va boshqa foydalanuvchilarga soxta yozuvlarni yuboradi.

3. Kompyuter viruslari va ularning turlari.

Kompyuter virusining kup ta'riflari mavjud. Birinchi ta'rifni 1984 yili Fred Koen bergan: “**Kompyuter virusi** - boshka dasturlarni, ularga uzini yoki uzgartirilgan nusxasini kiritish orkali, ularni modifikatsiyalash bilan zaharlovchi dastur. Bunda kiritilgan dastur keyingi kupayish kobilyatini saqlaydi”

Hozirgi kunda kompyuter viruslari g'arazli maqsadlarda ishlatiluvchi turli xildasturlarni olib kelib tatbiq etishda eng samarali vositalardan biri hisoblanadi.


Kompyuter viruslarini dasturli viruslar deb atash to'g'riroq bo'ladi.

Virus deganda avtonom ravishda ishlash, boshqa dastur tarkibiga o'z-o'zidan qo'shilish, kompyuter tarmoqlari va alohida kompyuterlarda zararli jarayonlarni vujudga keltirish maqsadida tuzilgan dastur tushuniladi. Ushbu dasturlar o'z-o'zidan nusxa olish xususiyatiga ega.

Viruslar bilan zararlangan dasturlar virus tashuvchi yoki zararlangan dasturlar deyiladi (85-rasm).

Zararlangan disk — bu ishga tushirish sektorida virus dastur joylashib olgan diskdir.

Hozirgi paytda kompyuterlar uchun ko'pgina noqulayliklar tug'dirayotgan harxil turlardagi kompyuter viruslari keng tarqalgan. SHuning uchun ham ulardan saqlanish usullarini ishlab chiqish muxim masalalardan biri hisoblanadi. Viruslarning katta guruhini kompyuterning ish bajarish tartibini buzmaydigan, ya'ni «ta'sirchan bo'lmagan» viruslar guruhi tashkil etadi.



37-rasm. Viruslarning ta'siri bo'yicha tasnifi

Viruslarning boshqa guruhiga kompyuterning ish tartibini buzuvchi viruslar kiradi. Bu viruslarni quyidagi turlarga bo'lish mumkin: xavfsiz viruslar (fayllar tarkibini buzmaydigan), xavfli viruslar (fayllar tarkibini buzuvchi) hamda juda xavfli viruslar (kompyuter qurilmalarini buzuvchi va operator sog'lig'iga ta'sir etuvchi). Bu kabi viruslar odatda professional dasturchilar tomonidan tuziladi.

Kompyuter virusi — bu maxsus yozilgan dastur bo'lib, boshqa dasturlar tarkibiga yoziladi, ya'ni zararlaydi va kompyuterlarda o'zining g'arazli maqsadlarini amalga oshiradi. Kompyuter virusi orqali zararlanish oqibatida kompyuterlarda quyidagi o'zgarishlar paydo bo'ladi:

- ayrim dasturlar ishlamaydi yoki xato ishlay boshlaydi;
- bajariluvchi faylning hajmi va uning yaratilgan vaqti o'zgaradi;
- ekranda anglab bo'lmaydigan belgilar, turli xil tasvir va tovushlar paydo bo'ladi;
- kompyuterning ishlashi sekinlashadi va tezkor xotiradagi bo'sh joy hajmi kamayadi;
- disk yoki diskdagi bir necha fayllar zararlanadi (ba'zi hollarda disk va fayllarni tiklab bo'lmaydi);
- vinchester orqali kompyuterning ishga tushishi yo'qoladi.

Viruslar asosan disklarning yuklanuvchi sektorlarini va exe, som, sys va bat kengaytmali fayllarni zararlaydi. Hozirgi kunda bular qatoriga ofis dasturlarini o'rnatuvchi fayllarni ham kiritish mumkin. Oddiy matnli fayllarni zararlaydigan viruslar kamdan-kam uchraydi.

Kompyuterning viruslar bilan zararlanish yo'llari quyidagilardir:

- USB flesh orqali;
- kompyuter tarmoqlari orqali.

Shuni aytib o'tish lozimki, hozirgi paytda har-xil turdagi axborot vadasturlarni o'g'irlab olish niyatida kompyuter viruslaridan foydalanish eng samarali usullardan biri hisoblanadi.

Dasturli viruslar kompyuter tizimlarining xavfsizligiga tahdid solishning eng samarali vositalaridan biridir. SHuning uchun ham dasturli viruslarning imkoniyatlarini tahlil qilish masalasi hamda bu viruslarga qarshi kurashish hozirgi paytning dolzarb masalalaridan biri bo'lib qoldi.

Viruslardan tashqari fayllar tarkibini buzuvchi «troyan» dasturlari mavjud. Virus ko'pincha kompyuterga sezdirmasdan kiradi. Foydachanuvchining o'zi «troyan» dasturini foydali dastur sifatida diskka yozadi. Ma'lum bir vaqt o'tgandan keyin dastur o'z ta'sirini ko'rsata boshlaydi.

O'z-o'zidan paydo bo'ladigan viruslar mavjud emas. Virus dasturlari inson tomonidan kompyuterning dasturiy ta'minotini, uning qurilmalarini zararlash va boshqa maqsadlar uchun yoziladi. Viruslarning hajmi bir necha baytdan to o'nlab kilobaytgacha bo'lishi mumkin.

«Troyan» dasturlari foydalanuvchiga zarar keltiruvchi bo'lib, ular buyruqlar(modullar) ketma-ketligidan tashkil topgan, omma orasida juda keng tarqalgandasturlar (tahrirlovchilar, o'yinlar, translyatorlar) ichiga o'rnatilgan bo'lib, bir qancha amallar bajarilishi bilan ishga tushadigan «mantiqiy bomba» deb ataladigan dasturdir. O'z navbatida, «mantiqiy bomba» ning turli ko'rinishlaridan biri «soat mexanizmlil bomba» hisoblanadi.

Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, «troyan» dasturlari o'z-o'zidan ko'paymasdan, kompyuter tizimi bo'yicha dasturlovchilar tomonidan tarqatiladi. Troyan dasturlardan viruslarning farqi shundaki, viruslar kompyuter tizimlari bo'ylab tarqatilganda, ular mustaqil ravishda hosil bo'lib, o'z ish faoliyatida dasturlarga o'z matnlarini yozgan holda ularga zarar ko'rsatadi.

Zararlangan dasturda dastur bajarilmasdan oldin virus o'zining buyruqlari bajarilishiga imkoniyat yaratib beradi. SHuning uchun ham virus dasturning bosh qismida joylashadi yoki dasturning birinchi buyrug'i unga yozilgan virus dasturigashartsiz o'tish bo'lib xizmat qiladi. Ishga tushgan virus boshqa dasturlarni zararlaydi va shundan so'ng virus tashuvchi dasturga ishni topshiradi.

Virus hayoti odatda quyidagi davrlarni o'z ichiga oladi: qo'llanilish, inkubatsiya, replikatsiya (o'z-o'zidan ko'payish) va hosil bo'lish. Inkubatsiya davrida virus passiv bo'lib, uni izlab topish va yuqotish qiyin. Hosil bo'lish davrida u o'z funksiyasini bajaradi va qo'yilgan maqsadiga erishadi.

Tarkibi jihatidan virus juda oddiy bo'lib, bosh qism va ba'zi hollarda dumdaniborat. Virusning bosh qismi deb boshqarilishni birinchi bo'lib ta'minlovchi imkoniyatga ega bo'lgan dasturga aytiladi. Virusning dum qismi zararlangan dasturda bo'lib, u bosh qismidan alohida joyda joylashadi.

Kompyuter viruslari xarakterlariga nisbatan norezident, rezident, butli, gibridliva paketli viruslarga ajratiladi.

Faylli norezident viruslar to'liqligicha bajarilayotgan faylda joylashadi, shuninguchun ham u faqat virus tashuvchi dastur faollashgandan so'ng ishga tushadi vabajarilgandan so'ng tezkor xotirada saqlanmaydi.

Rezident virus norezident virusdan farqliroq tezkor xotirada saqlanadi.

Rezident viruslarning yana bir ko'rinishi but viruslar bo'lib, bu virusning vazifasi vincer va egiluvchan magnitli disklarning yuklovchi sektorini ishdan chiqarishdan iborat. But viruslarning boshi diskning yuklovchi but sektorida va dumi disklarning ixtiyoriy boshqa sektorlarida joylashgan bo'ladi.

Paketli virusning bosh qismi paketli faylda joylashgan bo'lib, u operatsion tizimtopshiriqlaridan iborat.

Gibridli viruslarning boshi paketli faylda joylashadi. Bu virus ham faylli, hambut sektorli bo'ladi. Tarmoq viruslar kompyuter tarmoqlarida tarqalishga moslashtirilgan, ya'ni tarmoqli viruslar deb axborot almashishda tarqaladigan viruslarga aytiladi.

Viruslarning turlari:

1. Fayl viruslari.
2. Yuklovchi viruslar.
3. Drayverlarni zararlovchi viruslar.
4. DIR viruslari. G'AT tarkibini zararlaydi.
5. Sstels-viruslari. Bu viruslar o'zining tarkibini o'zgartirib, tasodifiy kod o'zgarishi bo'yicha tarqaladi. Uni aniqlash juda qiyin, chunki fayllarning o'zlari o'zgarmaydi.
6. Windows viruslari. Windows operatsion tizimi fayllarini zararlaydi.

Asoslangan algoritmlar bo'yicha dasturli viruslarni quyidagicha tasniflash mumkin:

- parazitli virus — fayllarning tarkibini va diskning sektorini o'zgartiruvchi virus. Bu virus oddiy viruslar turkumidan bo'dib osonlik bilan aniqlanadi va o'chirib tashlanadi;
- replikatorli virus — «chuvalchang» deb nomlanadi, (kompyuter tarmoqlari bo'yicha tarqalib, kompyuterlarning tarmoqdagi manzilini aniqlaydi va u erda o'zining nusxasini qoldiradi);
- ko'rinmas virus — stels-virus deb nom olib, zararlangan fayllarga va sektorlarga operatsion tizim tomonidan murojaat qilinsa, avtomatik ravishda zararlangan qismlar o'rniga diskning toza qismini takdim etadi. Natijada ushbu viruslarni aniqlash va tozalash juda katta qiyinchiliklarga olib keladi;
- mutant virus — shifrlash va deshifrlash algoritmlaridan iborat bo'lib, natijada virus nusxalari umuman bir-biriga o'xshamaydi.

Ushbu viruslarni aniqlash juda qiyin muammo. SHu bois ham ular o'zlarida mukammallashtirilgan algoritmlarni to'siqsiz bajarib, qo'yilgan maqsaddariga erishishlari mumkin.

4. Virusdan himoyalash dasturiy vositalarining tavsifi. Antiviruslar.

Hozirgi vaqtda viruslarni yo'qotish uchun ko'pgina usullar ishlab chiqilgan vabu usullar bilan ishlaydigan dasturlar **antivirus** dasturlar deb ataladi. Antiviruslarni, qo'llanish usuliga ko'ra, quyidagilarga ajratishimiz mumkin: detektorlar, faglar, vaqtsinalar, privivkalar, revizorlar, monitorlar.

Detektorlar — virusning signaturasi (virusga taalluqli baytlar ketma-ketligi) bo'yicha tezkor xotira va fayllarni ko'rish natijasida ma'lum viruslarni topadi va xabar beradi. Yangi viruslarni aniqlay olmasligi detektorlarning kamchiligi hisoblanadi.

Privivka — fayllarda xuddi virus zararlagandek iz qoldiradi. Buning natijasida viruslar «privivka qilingan» faylga yopishmaydi.

Filtrlar — qo'riqlovchi dasturlar ko'rinishida bo'lib, rezident holatda ishlab turadi va viruslarga xos jarayonlar bajarilganda, bu haqda foydalanuvchiga xabar beradi.

Revizorlar — eng ishonchli himoyalovchi vosita bo'lib, diskning birinchi holatini xotirasida saqlab, undagi keyingi o'zgarishlarni doimiy ravishda nazorat qilib boradi.

Detektor dasturlar kompyuter xotirasidan, fayllardan viruslarni qidiradi va aniqlangan viruslar haqida xabar beradi.

Doktor dasturlari nafaqat virus bilan kasallangan fayllarni topadi, balki ularni davolab, dastlabki holatiga qaytaradi. Bunday dasturlarga Aidstest, DrWeb dasturlarini misol qilib keltirish mumkin. Yangi viruslarning to'xtovsiz paydo bo'lib turishini hisobga olib, doktor dasturlarini ham yangi versiyalari bilan almashtirib turish lozim.

Filtr dasturlar kompyuter ishlash jarayonida viruslarga xos bo'lgan shubhaliharakatlarni topish uchun ishlatiladi.

Bu harakatlar quyidagicha bo'lishi mumkin:

- fayllar atributlarining o'zgarishi;
- disklarga doimiy manzillarda ma'lumotlarni yozish;
- diskning ishga yuklovchi sektorlariga ma'lumotlarni yozib yuborish.

Kompyuterni viruslar bilan zararlanishidan saqlash va axborotni ishonchli saqlash uchun quyidagi qoidalarga amal qilish lozim:

- kompyuterni zamonaviy antivirus dasturlar bilan ta'minlash;
- disketalarni ishlatishdan oldin har doim virusga qarshi tekshirish;
- qimmatli axborotning nusxasini har doim arxiv fayl ko'rinishida saqlash.

Kompyuter viruslariga qarshi kurashning quyidagi turlari mavjud:

- viruslar kompyuterga kirib buzgan fayllarni o'z holiga qaytaruvchi dasturlarning mavjudligi;
- kompyuterga parol bilan kirish, disk yurituvchilarning yopiq turishi;
- disklarni yozishdan himoyalash;
- litsenzion dasturiy ta'minotlardan foydalanish va o'g'irlangan dasturlarni qo'llamaslik;
- kompyuterga kiritilayotgan dasturlarda viruslarning mavjudligini tekshirish;
- antivirus dasturlaridan keng foydalanish;
- davriy ravishda kompyuterlarni antivirus dasturlari yordamida viruslarga qarshi tekshirish.

5. Axborot havfsizligini ta'minlashda biometrik usullardan foydalanish.

Hozirgi vaqtga kelib, kompyuter-kommunikatsiya texnologiyalari kundan-kungatez rivojlanib bormoqda. SHu sababli ham kompyuter texnologiyalari kirib bormagan sohaning o'zi qolmadi, desak

xato bo'lmaydi. Ayniqsa ta'lim, bank, moliya tizimlarida ushbu zamonaviy texnologiyalarni qo'llash yuqori samara bermoqda. SHu bilan birga axborot havfsizligiga bo'lgan tahdid ham tobora kuchayib borayotgani hech kimga sir emas. Demak, hozirgi davrning eng dolzarb muammolardan biri axborot havfsizligini ta'minlashdan iborat.

Hozirga qadar tizimga ruxsatsiz kirishni taqiqlashning eng keng tarqalgan usulisifatida «parol» qo'yish prinsipi hisoblanib kelmoqda. Chunki ushbu usul juda sodda, foydalanish uchun qulay va kam harajat talab etadi. Lekin, hozirga kelib «parol» tizimi to'laqonli o'zini oqlay olmayapti. Ya'ni ushbu usulning bir qator kamchiliklari ko'zga tashlanib qoldi.

Birinchidan, ko'pchilik foydalanuvchilar sodda va tez esga tushadigan parollarni qo'llaydilar. Masalan, foydalanuvchi o'z shaxsiga oid sanalar, nomlardan kelib chiqqan holda parol qo'yadilar. Bunday parollarni buzish esa, foydalanuvchi bilan tanish bo'lgan ixtiyoriy shaxs uchun unchalik qiyinchilik tug'dirmaydi.

Ikkinchidan, foydalanuvchi parolni kiritishi jarayonida, kuzatish orqali ham kiritilayotgan belgilarni ilg'ab olish mumkin.

Uchinchidan, agar foydalanuvchi parol qo'yishda murakkab, uzundan-uzoq belgilardan foydalanadigan bo'lsa, uning o'zi ham ushbu parolni esidan chiqarib qo'yishi extimoldan holi emas.

Va nihoyat, hozirda ixtiyoriy parollarni buzuvchi dasturlarning mavjudligi ko'zga tashlanib qoldi.

Yuqoridagi kamchiliklardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, axborotni himoyalashning parolli printsiptan foydalanish to'la samara bermayapti. Shu sababli ham hozirda axborotlardan ruxsatsiz foydalanishni cheklashning biometric usullarini qo'llash dunyo bo'yicha ommaviylashib bormoqda va ushbu yo'nalish biometriya nomi bilan yuritilmoqda.

Biometriya – bu insonning o'zgaraydigan biologik belgilariga asosan aynano'xshashlikka tekshirishdir (identifikatsiya). Hozirda biometrik tizimlar eng ishonchli himoya vositasi hisoblanadi va turli xil maxfiy ob'ektlarda, muhim tijorat axborotlarini himoyalashda samarali qo'llanilmoqda.

Hozirda biometrik texnologiyalar insonning quyidagi o'zgaraydigan biologik belgilariga asoslangan: barmoqning papilyar chiziqlari, qo'l kaftining tuzilishi, ko'zning kamalak qobig'i chiziqlari, ovoz parametrlari, yuz tuzilishi, yuz termogrammasi (qon tomirlarining joylashishi), yozish formasi va usuli, genetik kodi fragmentlari. Insonning ushbu biologik belgilaridan foydalanish turli xil aniqliklarga erishishga imkon beradi. Biz ushbu maqolada hozirda keng qo'llanilayotgan barmoq izlari va qo'l kaftining tuzilishi bo'yicha insonni tanish masalalariga to'xtalib o'tishni lozim topdik.

Barmoq izlari buyicha insonni identifikatsiyalash hozirda eng keng tarqalgan usul bo'lib, axborotni himoyalash biometrik tizimlarida keng qo'llanilmoqda. Bu usul o'tgan asrlarda ham keng qo'llanilganligi xech kimga yangilik emas. Hozirgi kunga kelib barmoq izlari bo'yicha identifikatsiyalashning uchta asosiy texnologiyasi mavjud. Ularning birinchisi ko'pchilikka ma'lum optik skanerlardan foydalanishdir. Ushbu qurilmadan foydalanish prinsipi odatiy skanerdan foydalanish bilan bir xil. Bu erda asosiy ishni ichki nur manbai, bir nechta prizma va linzalar amalga oshiradi. Optik skanerlarni qo'llashning e'tiborli tomoni uning arzonligidir. Lekin, kamchilik tomonlari bir muncha ko'p.


Barmoq izlari bo'yicha identifikatsiyalashning **ikkinchi texnologiyasi** elektron skanerlarni qo'llashdir. Ushbu qurilmadan foydalanish uchun foydalanuvchi 90 ming kondensator plastinkalaridan tashkil topgan, kremniy moddasi bilan qoplangan mahsus plastinkaga barmog'ini qo'yadi. Bunda o'ziga xos kondensator hosil qilinadi. Kondensator ichidagi elektr maydon potentsiali plastinkalar orasidagi masofaga bog'liq. Ushbu maydon kartasi barmoqning papilyar chizmasini takrorlaydi. Elektron maydon hisoblanadi, olingan ma'lumotlar esa, katta aniqlikka ega sakkiz bitli rastri tasvirga aylantiriladi. Ushbu texnologiyaning e'tiborli tomoni shundaki, foydalanuvchi terisining har qanday holatida ham barmoq izi tasviri yuqori aniqlikda hosil qilinadi. Ushbu tizim foydalanuvchi barmog'i kirlangan taqdirda ham tasvirni aniq oladi. Bundan tashqari qurilma hajmining kichikligi sababli, ushbu qurilmani hamma joyda ishlatish mumkin. Ushbu qurilmaning kamchilik tomonlari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin: 90 ming kondensatorli plastinkani ishlab chiqarish ko'p harajat talab etadi, skanerning asosi bo'lgan kremniy kristali germetik (zich yopiladigan) qobiqni talab etadi. Bu esa, qurilmani ishlatishda turli xil cheklanishlarni yuzaga keltiradi. Nihoyat, kuchli elektromagnit nurlanishi vujudga kelganda elektron sensor ishlamaydi.

Barmoq izi buyicha identifikatsiyalashning **uchinchi texnologiyasi** Who Vision Systems kompaniyasi tomonidan ishlab chiqarilgan Tactile Sense skanerlaridir. Ushbu skanerlarda maxsus polimer material ishlatilgan bo'lib, terining bo'rtib chiqqan chiziqlari va botiqlari orasida hosil bo'lgan elektr maydonni sezish orqali tasvir hosil qilinadi. Umuman olganda ushbu skanerlarning ishlash printsipi elektron skanerlar ishlash printsipi bilan deyarli bir xil. Faqat ushbu qurilmalarning quyidagi afzalliklarini sanab o'tishimiz mumkin: qurilmani ishlab chikarish bir necha yuz barobar kam harajat talab etadi, qurilma avvalgi qurilmadan mustahkam vafoydalanishda hech qanday cheklanishlar yuzaga kelmaydi.

Ushbu keltirilgan shaxsni tanish algoritmi ustida respublikamizdagi bir nechta olimlar guruhi ish olib bormoqdalar va ushbu sohada ijobiy natijalarga erishilmoqda.

6. Axborotni himoyalashning kriptografik usullari.

Axborotning himoyalashning aksariyat mehanizmlari asosini shifrlash tashkil etadi. Axborotni shifrlash deganda ochik axborotni (dastlabki matnni) shifrlangan axborotga o'zgartirish (shifrlash) va aksincha (rasshifrovka qilish) jarayoni tushuniladi.



38-rasm. Shifrlash usullari

Shifrlash usullarining turkumlanishi.


Simmetrik shifrlash axborotni "o'zi uchun", masalan, egasi yo'qligida undan ruhsatsiz foydalanishni oldini olish maqsadida, shifrlashda juda qulay hisoblanadi. Bu tanlangan fayllarni arxivli shifrlash va butun bir mantiqiy yoki fizik disklarni shaffof (avtomatik) shifrlash bo'lishi mumkin.

Simmetrik shifrlashning noqulayligi - axborot almashinuvi boshlanmasdan oldin barcha manzilatlar bilan maxfiy kalitlar bilan ayirboshlash zaruriyatidir. Simmetrik kriptotizimda maxfiy kalitni aloqaning umumfoydalanuvchi kanallari orqali uzatish mumkin emas. Maxfiy kalit jo'natuvchiga va qabul qiluvchiga kalitlar tarqatiluvchi himoyalangan kanallar orqali uzatilishi kerak.

Simmetrik shifrlash algoritmining ma'lumotlarni abonentli shifrlashda, ya'ni shifrlangan axborotni abonentga, masalan, Internet orqali, uzatishda amalga oshirilgan variantlari mavjud. Bunday kriptografik tarmoqning barcha abonentlari uchun bitta kalitning ishlatilishi havfsizlik nuqtai nazaridan nojoizdir.

Asimmetrik shifrlash tizimlarida ikkita kalit ishlatiladi. Axborot ochik kalit yordamida shifrlansa, mahfiy kalit yordamida rasshifrovka kilinadi. Asimmetrik shifrlash tizimlarini ochik kalitli shifrlash tizimlar deb ham yuritiladi.

Heshlash funksiyasi. Heshlash funksiyasi (hesh-funksiyasi) shunday o'zgartirishki, kirish yo'liga uzunligi o'zgaruvchan xabar M berilganida chiqish yo'lida belgilangan uzunlikdagi qator $h(M)$ hosil bo'ladi. Boshqacha aytganda, hesh-funksiya $h(.)$ argument sifatida uzunligi ixtiyoriy xabar (hujjat) M ni qabul qiladi va belgilangan uzunlikdagi hesh-qiyamat (hesh) $H=h(M)$ ni qaytaradi.



Hesh-qiyamat $h(M)$ - habar M ning daydjesti, ya'ni ixtiyoriy uzunlikdagi asosiy xabar M ning xichlantirilgan ikkilik ifodasi. Heshlash funksiyasi o'lchami megabayt va undan katta bo'lgan imzo chekiluvchi hujjat M ni 128 va undan katta bitga (xususan, 128 yoki 256 bit) zichlashtirishga imkon beradi. Ta'kidlash lozimki, hesh-funksiya $h(M)$ qiymatining hujjat M ga bog'liqligi murakkab va hujjat M ning o'zini tiklashga imkon bermaydi.

Heshlash funksiyasidan xabar o'zgarishini payqashda foydalanish mumkin, ya'ni u kriptografik nazorat yig'indisini (o'zgarishlarni payqash kodi yoki xabarni autentifikatsiyalash kodi deb ham yuritiladi) shakllantirishga xizmat qilishi mumkin. Bu sifatda hesh-funksiya xabarning yaxlitligini nazoratlashda, elektron raqamli imzoni shakllantirishda va tekshirishda ishlatiladi.

Hesh-funksiya foydalanuvchini autentifikatsiyalashda ham keng qo'llaniladi. Axborot havfsizligining qator texnologiyalarida shifrlashning o'ziga hos usuli bir tomonlama hesh-funksiya yordamida shifrlash ishlatiladi. Bu shifrlashning o'ziga hosligi shundan iboratki, u mohiyati bo'yicha, bir tomonlamadir, ya'ni teskari muolaja - qabul qiluvchi tomonda rasshifrovka qilish bilan birga olib borilmaydi. Ikkala taraf (jo'natuvchi va qabul qiluvchi) hesh-funksiya asosidagi bir tomonlama shifrlash muolajasidan foydalanadi.

Eng ommabop hesh-funksiyalar - MD2, MD4, MD5 va SHA.

MD2, MD4 va MD5 - R. Rayvest tomonidan ishlab chiqilgan axborot dayjestini hisoblovchi algoritmlar. Ularning har biri 128 bitli hesh-kodni tuzadi. MD2 algoritmi eng sekin ishlaydi, MD4 algoritmi tez ishlaydi. MD5 algoritmi MD4 algoritmining modifikatsiyasi bo'lib, natijada, havfsizlikning oshirilishi evaziga tezlikdan yuz qazilgan. SHA (Secure Hash Algorithm) 160 bitli hesh-kodni tuzuvchi axborot dayjestini hisoblovchi algoritm. Bu algoritm MD4 va MD5 algoritmlariga nisbatan ishonchliroq.

8. Elektron raqamli imzo.

Elektron hujjatlarni tarmoq orqali almashishda ularni ishlash va saqlash harajatlari kamayadi, qidirish tezlashadi. Ammo, elektron hujjat muallifini va hujjatning o'zini autentifikatsiyalash, ya'ni muallifning haqiqiylikini va olingan elektron hujjatda o'zgarishlarning yo'qligini aniqlash muammosi paydo bo'ladi.

Elektron hujjatlarni autentifikatsiyalashdan maqsad ularni mumkin bo'lgan jinoyatkorona harakatlardan himoyalashdir. Bunday harakatlarga quyidagilar kiradi:

- **faol ushlab qolish** - tarmoqqa ulangan buzg'unchi hujjatlarni (fayllarni) ushlab qoladi va o'zgartiradi.
- **maskarad** - abonent S hujjatlarni abonent V ga abonent A nomidan yuboradi;
- **renegatlik** - abonent A abonent V ga xabar yuborgan bo'lsada, yubormaganman deydi;
- **almashtirish** - abonent V hujjatni o'zgartiradi, yoki yangisini shakllantiradi va uni abonent A dan olganman deydi;
- **takrorlash** - abonent A abonent V ga yuborgan hujjatni abonent S takrorlaydi.

Jinoyatkorona harakatlarning bu turlari o'z faoliyatida kompyuter axborot texnologiyalaridan foydalanuvchi bank va tijorat tuzilmalariga, davlat korxonasi va tashkilotlariga xususiy shaxslarga ancha-muncha zarar etkazishi mumkin.

Elektron raqamli imzo metodologiyasi xabar yaxlitligini va xabar muallifining haqiqiylikini tekshirish muammosini samarali hal etishga imkon beradi.

Elektron raqamli imzo telekommunikatsiya kanallari orqali uzatiluvchi matnlarni autentifikatsiyalash uchun ishlatiladi.

Nazorat savollari:

1. Axborot xavfsizligi nima?
2. Qanday turdagi viruslar mavjud?
3. Antivirus dasturlarining vazifalari?
4. Axborot xavfsizligini oshirishning usul va vositalari?

12-mavzu. Elektron hukumat.

Reja:

1. Elektron hukumat tushunchasi, vazifa va prinsiplari.
2. Elektron hukumat joriy etishning jaxon tajribasi
3. Axborot xavfsizligi va uni ta'minlash usullari

Tayanch iboralar: Elektron hukumat, davlat interaktiv xizmatlari, axborot xavfsizligi, kompyuter virusi, identifikatsiya, autentifikatsiya

1. Elektron hukumat tushunchasi, vazifa va prinsiplari

Elektron hukumat davlat organlarining jismoniy va yuridik shaxslarga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash yo'li bilan davlat xizmatlari ko'rsatishga doir faoliyatini, shuningdek idoralararo elektron hamkorlik qilishni ta'minlashga qaratilgan tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar va texnik vositalar tizimidir.

Elektron hukumatning bir qancha ta'riflanishlari mavjud. Keng ma'noda, elektron hukumatning vazifalari va xizmatlar ko'rsatishi hamda faoliyatini rivojlantirish uchun AKTni qo'llash sifatida belgilanishi mumkin.

O'ziga xos ravishda, elektron hukumatni "davlat oganlari ko'rsatayotgan hizmatlarning shaffofligi, samaradorligi va sifatini oshirish maqsadida raqamli texnologiyalardan foydalanish" deb tushunish mumkin. Shuningdek, elektron hukumat AKTni ko'llagan holda davlat organlarining yanada samarali faoliyat ko'rsatishi hamda fuqarolar va tadbirkorlik sub'ektlariga sifatli xizmatlar ko'rsatishidir.

1. Elektron hukumat atamalarini quyidagi to'rtta asosiy qismlari orqali umumlashtirish mumkin. Elektron hukumat quyidagicha tavsiflanadi .

1. AKT dan foydalanish (kompyuter tarmoqlari, internet, faks va telefon).

2. Hukumat faoliyatini qo'llab-quvvatlash (axborot bilan ta'minlash, xizmatlar, mahsulotlar, mamuriy boshqaruv).

3. Fuqarolar bilan hukumat munosabatlarini rivojlantirish (yangi aloqa kanallarini yaratish, siyosiy yoki ma'muriy jarayonlariga fuqarolarni targ'ibot va tashviqotlar orqali jalb qilish)

4. Belgilangan strategiyalarga mos ravishda ishtirokchilarni jarayonlarda qatnashish qiymatini belgilash.

2.

Jadval 1.2

Elektron hukumat ta'riflari

3. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Elektron hukumat fuqarolarga davlat organlari tomonidan axborot va xizmatlarini etkazib berish uchun Internet foydalanish deb ta'riflangan.

Jahon banki Elektron hukumat davlat organlari axborot texnologiyalaridan foydalanib fuqarolar, tadbirkorlik sub'ektlari va boshqa davlat organlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni yaxshilashni nazarda tutadi. Ushbu texnologiyalar turli maqsadlarga xizmat qilishi mumkin: fuqarolarga davlat xizmatlarini yaxshiroq etkazib berish, biznes va ishlab chiqarish bilan o'zaro muloqotni takomillashtirish, kerakli ma'lumotlarni olish orqali fuqaro huquq va imkoniyatlarini kengaytirish, yoki yanada samarali davlat boshqaruvini amalga oshirish.

4. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti Elektron hukumat termini xukumat tomonidan AKTdan foydalanib, bir qator amaliy funksiyalarini to'laqonli bajarishi nazarda tutadi.

Xususan, Internet va tegishli texnologiyalar tomonidan taklif etilgan tarmoq salohiyati tuzilmalari va hukumatning ishlash jarayonini transformatsiyasi tushuniladi.

5.

Elektron hukumatning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- davlat organlari faoliyatining samaradorligini, tezkorligini va shaffofligini ta'minlash, ularning mas'uliyatini va ijro intizomini kuchaytirish, aholi va tadbirkorlik sub'ektlari bilan axborot almashishni ta'minlashning qo'shimcha mexanizmlarini yaratish;

- ariza beruvchilar uchun mamlakatning butun hududida davlat organlari bilan o'zaro munosabatlarni elektron hukumat doirasida amalga oshirish bo'yicha imkoniyatlar yaratish;

- o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalar doirasida davlat organlarining ma'lumotlar bazalarini, Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalini va Elektron davlat xizmatlarining yagona reyestrini shakllantirish;

- aholi va tadbirkorlik sub'ektlari bilan o'zaro munosabatlarni amalga oshirishda elektron hujjat aylanishi, davlat organlarining o'zaro hamkorligi va ularning ma'lumotlar bazalari o'rtasida axborot almashinuvi mexanizmlarini shakllantirish hisobiga davlat boshqaruvi tizimida «bir darcha» prinsipini joriy etish;

- tadbirkorlik sub'ektlarini elektron hujjat aylanishidan foydalanishga, shu jumladan statistika hisobotini taqdim etish, bojxona rasmiylashtiruv, litsenziyalar, ruxsatnomalar, sertifikatlar berish jarayonlarida, shuningdek davlat organlaridan axborot olish jarayonlarida elektron hujjat aylanishidan foydalanishga o'tkazish;

- tadbirkorlik sub'ektlarining elektron tijorat, Internet jahon axborot tarmog'i orqali mahsulotni sotish va xaridlarni amalga oshirish tizimlaridan foydalanishini, shuningdek kommunal xizmatlarni hisobga olishning, nazorat qilishning va ular uchun haq to'lashning avtomatlashtirilgan tizimlarini joriy etishni kengaytirish;

- naqd bo'lmagan elektron to'lovlar, davlat xaridlarini amalga oshirish, masofadan foydalanish tizimlarini va bank-moliya sohasidagi faoliyatning boshqa elektron shakllarini rivojlantirish.

Elektron hukumatning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

- davlat organlari faoliyatining ochiqligi va shaffofligi;
- elektron davlat xizmatlaridan ariza beruvchilarning teng ravishda foydalanishi;
- «bir darcha» prinsipi bo'yicha elektron davlat xizmatlari ko'rsatish;
- davlat organlarining hujjatlarini birxillashtirish;
- elektron hukumatning yagona identifikatorlaridan foydalanish;
- elektron davlat xizmatlari ko'rsatish tartibini muntazam takomillashtirib borish;
- axborot xavfsizligini ta'minlash.

Elektron hukumat imkoniyatlarini amalga oshirish maqsadida ko'pgina davlatlar o'zlarining elektron xukumatni rivojlantirish siyosiy rejalariga kiritishmoqda. Dastlabki e'tibor AKTdan foydalanish orqali davlat ishlari samaradorligini oshirishga berildi. Shu bilan birga, elektron xukumat xizmatlariga davlat tomonidan cheklangan investitsiyalar ta'siri natijasida, 2000 yilning o'rtalarida fuqaroga yo'naltirilgan yondashuv tomon natijalar o'zgardi. Ushbu yondashuv natijasida xukumat xizmatlarini yetkazib berish jarayonida fuqarolarning davlat xizmatlariga turli ehtiyojlarining mosligini ta'minlash birinchi o'ringa qo'yilganligi orqali sezilarli o'zgarishlarga sababchi bo'ldi. Bugungi kunda elektron hukumat nafaqat davlat sektori vazifalarini va jarayonlarini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash uchun bir muhim vosita, balki hukumatni o'zgartirishga va xizmat ishlab chiqish va yetkazib berish uchun yangi yondashuvlarni yaratishda asosiy hisoblanadi.

Umuman olganda, onlayn xizmatlarning ko'payishi, ushbu xizmatlardan yanada kengroq foydalanish, o'z navbatida elektron hukumat tizimining ta'siri katta ekanligidan dalolat beradi. Shunday qilib, elektron hukumat, hukumat shaffofligi va ichki samaradorlikka ta'sir etib barqaror ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun eelektron fuqarolar va elektron biznes ishtirokchilarining muhim ommasi mavjud bo'lishligini talab qiladi. Elektron hukumat xizmatlari foydalanuvchilarining muhim ommasining ko'payishi, ana'naviy xizmat ko'rsatish usulidan voz kechib, elektron hukumat xizmati ko'rsatish usuliga o'tib ketishlari talab etiladi va bu jarayon osonlik bilan amalga oshmaydi. Jahon banki elektron fuqarolar va elektron biznes ishtirokchilariga onlayn xizmatlarni ko'paytirish xamda ulardan foydalanish muhimligi xaqidagi izlanishlarni olib bordi va quyidagini aniqladi: 5-10 yil oldin birinchi marotaba elektron hukumatni joriy etgan ko'pgina davlatlar shunday xulosaga keldilarki jamoaga, elektron hukumat tizimi ushbu sohaga davlat tomonidan taklif etilayotgan sarmoyalar yordamida davlat xizmatlarini Internet tizimida onlayn ko'rinishda taqdim etishiga qaramasdan xizmatlaridan foydalanish darajasi pastligicha qolayotganligini ta'kidladilar.

Elektron hukumat tizimini joriy etish, ishlatishda qachonki ko'pchilik aholining talablari va ular tomonidan qo'llab-quvvatlanishi imkoniyatlari bo'lsagina tizim muvafaqiyatga erishadi. Aholi talablarining bir qismi aholining ushbu tizim haqidagi bilimlarining yetarli bo'lganligi, uning imkoniyatlari xamda davlat xizmatlarini tezda va yahshi xizmat ko'rsatish orqali amalga oshiriladi. Fuqaro va tadbirkorlar e-hukumati tizmatlaridan foydalanishda qiziqishlari yoki motivatsiyalari, aktual, oson olish mumkin bo'lgan raqamli kontent xizmatlarini taqdim etishlari lozim.

Bulardan tashqari davlat jamoaga elektron ko'rinishdagi xizmatlarga bo'lgan ishonchni oshirishini ma'lumotlarni ximoyalash va uning konfidensialligini ta'minlashini nazarda tutishi kerak.

Xususan, quyidagi elektron hukumat xizmatlaridan foydalanish talablari va qo'llab quvvatlash darajasini oshirishda quyidagi ishlar amalga oshirilishi lozim:

- Ko'p kanalli yagona oyna umumiy xizmatlarni yetkazib berish infratuzilmasini, avtonom ravishda jamoaga xizmat ko'rsatish markazi va joylari, jumladan telemarkazlar, chaqiruvlarni qayta ishlash markazlari, veb va mobil portallarini ishlab chiqish;

- AKT ishtirok etgan operatsiyalarni va raqamli muhitdagi barcha o'zaro munosabatlarga jamoa tomonidan ishonch bildiradigan choralarni amalga oshirish;

- Belgilangan talablarni qoniqtiradigan, qulay kontent va xizmatlar, shu jumladan “ilovalar ishlashini tugatuvchi” deb ataluvchi dasturlarni ishlab chiqaruvchilarni moddiy va ma’naviy rag‘batlantirish;
- Elektron xizmatlarning va imkoniyatlarini kengaytirish va takomillashtirishga qaratilgan dasturlarni amalga oshirish.

2. Elektron hukumat joriy etishning jaxon tajribasi

Janubiy Koreya elektron hukumatni rivojlantirishda ulkan muvaffaqiyatga erishgan davlat hisoblanadi. U Birlashgan Millatlar Tashkilotining elektron hukumat institutlarining hamda aholining davlat boshqaruvidagi elektron ishtirokining rivojlanganlik darajasi bo‘yicha reytingida birinchi o‘rinda turadi. Shuning uchun ham uning tajribasi so‘nggi yillarda ko‘plab tadqiqotchilarning diqqat markazida bo‘lib kelmoqda.

Janubiy Koreyada elektron hukumatni shakllantirish bo‘yicha tashabbus 2001-yilda yuridik kuchga ega bo‘ldi. Mamlakatda elektron hukumatni rivojlantirish bo‘yicha ishlab chiqilgan dastur hukumat organlarining ishida samardorlikni oshirishga qaratilgan bo‘lib, u uch bosqichda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan.

Birinchi bosqichda (2001-2003) kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqilgan bo‘lib, ularning natijasida Koreyaning hukumat organlari tashqi dunyo bilan Internet orqali uchta asosiy yo‘nalishda-G2C (davlatdan-fuqaroga), G2B (davlatdan-biznesga) va G2G (davlatdan-davlatga) sxemalari bo‘yicha aloqa qila boshladi.

Bundan tashqari, davlat boshqaruvi tizimida idoralararo elektron aloqalarni ta‘minlashga qaratilgan axborot-texnologik arxitektura ham ishlab chiqilgan. Unda, xususan, elektron hujjat aylanishi, elektron raqamli imzo va boshqa texnologiyalar faol qo‘llanilgan. Umumiy hisobda, birinchi bosqich uchun jami 225 million AQSh dollari miqdorida mablag‘ sarflangan. Natijada, Koreya raqamli imkoniyatlar indeksi bo‘yicha jahonda 4-o‘ringa ko‘tarilib oldi.

Ikkinchi bosqichda (2003-2007) Koreya hukumati o‘z oldiga ancha katta maqsadni qo‘ygan - dunyo davlatlari ichida nisbatan ochiq va shaffof elektron hukumatni shakllantirish. Koreyaning “Elektron hukumat qurishning milliy asoslari va tamoyillari” nomli dasturiga muvofiq to‘rtta sohaga oid loyihalar ishga tushirilgan:

- davlat boshqaruvi organlarining faoliyat ko‘rsatishi
- davlat xizmatlarini ko‘rsatish
- axborot resurslarini boshqarish
- qonun ijodkorligi tizimi

Ushbu loyihalarni amalga oshirish uchun jami 981 million AQSh dollari miqdoridagi mablag‘ sarflangan. Natijalar kutilganidan ham a‘lo darajada bo‘lgan.

2007-yilga kelib Koreyada markaziy boshqaruv organlarining 55 foizida davlat apparatining 96,6 foiz xodimlari axborotlarni qayta ishlashning milliy elektron tizimi- “On-Nara” (koreyscha, onlayn-mamlakat) tizimidan foydalanishga o‘tgan. Buning natijasi o‘laroq, fuqarolarning murojaatlarini ko‘rib chiqish muddati 30-44 kundan 7-13 kungacha qisqargan.

Davlat tuzilmalarida ma‘lumotlarni qayta ishlashning innovatsion tizimi - “On-Nara” 2007-yildan to‘liq ishga tushgan bo‘lib, uning oldiga quyidagi maqsadlar qo‘yilgan:

- ma‘lumotlarni qayta ishlash va almashish doirasida barcha boshqaruv jarayonlarini standartlashtirish;
- davlat organlarining markazlashmagan operatsiyalarini boshqarishni yagona tizimga solish;
- tizim ishtirokchilari o‘rtasida axborotlarni almashish va tarqatishni ta‘minlovchi turli jarayonlarni o‘zaro bog‘lash va bir-biriga integratsiya qilish.

2008-yildan uchinchi bosqich boshlangan. Bu bosqichda asosiy e‘tibor barcha mavjud tizimlar va turli darajadagi elektron hukumatlar o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlash va ularni bir-biriga integratsiyasini ta‘minlashga qaratilgan. Bu fuqarolarga va kompaniyalarga kompleks davlat xizmatlarini taqdim qilish imkonini beradi.

Ushbu bosqichda Koreya Respublikasi boshqa davlatlarga (jumladan, Ekvador, Indoneziya, Bangladesh, Shri-Lanka, Mali) elektron hukumatni shakllantirish uchun texnologik yechimlarni yetkazib berish bo‘yicha shartnoma ham tuzgan. Bungacha, 2004-yildan boshlab Janubiy Koreyada

elektron hukumat uchun ishlab chiqilgan texnologiyalarni import qiluvchi asosiy davlat Yaponiya bo'lgan.

Janubiy Koreya hukumati turli sohalarda axborot texnologiyalarni qo'llash borasida ilg'or davlatlar qatoriga kiradi. Mamlakatda, bir so'z bilan aytganda, bojxona ishidan tortib to intellektual mulk masalalarigacha avtomatlashtirilgan tizimga o'tgan. Shuning uchun ham u hozirda dunyoda elektron hukumatning rivojlanish darajasi bo'yicha birinchi o'rinda turadi.

13-maruza **Soliq axborot tizimlari**

Reja:

1. Soliq xizmati avtomatlashtirilgan informatsion tizimining asosiy xususiyatlari.
2. Soliq xizmati avtomatlashtirilgan informatsion tizimi asosiy ko'rsatgichlari.
3. Soliq xizmatlarida yechiladigan funksional masalalar.
4. Soliq xizmatlarining informatsion ta'minoti.
5. Soliq xizmatida foydalaniladigan dasturiy vositalar.

Tayanch iboralar: soliq turlari, soliq xizmati, byudjet fondlari, revizion faoliyat, yuridik faoliyat, korxonalarining davlat reestri, soliqqa tortish tizimidagi dasturiy vositalar

Adabiyotlar: «Buxgalterga elektron madad» («BEM») milliy dasturiy mahsulotidan foydalanuvchilari uchun o'quv qo'llanma. T.: 2010;
Fulomov S.S., Begalov B.A. Iqtisodiy informatika/ Toshkent, "O'zbekiston": 2010 y.

1. Soliq xizmati avtomatlashtirilgan informatsion tizimining asosiy xususiyatlari

O'zbekiston Respublikasi soliq xizmatini boshqarish tizimining asosiy vazifalari soliq qonunchiligiga rioya qilishni nazorat qilish, soliqlarning to'qri xisoblanishini ta'minlash, soliqlarni qonunlarga binoan tegishli byudjetlarga va xisob raqamlariga o'z vaqtida o'tkazib turishni qat'iy nazorat qilishdir. Soliq tizimining samarador ishlashi zamonaviy kompyuterlarga asoslangan avtomatlashtirilgan axborot texnologiyalaridan foydalanish orqaligina amalga oshirilishi mumkin. Xuddi shu maqsadda davlat soliqqa tortish xizmati organlarida avtomatlashtirilgan informatsion tizim ishga tushirilmokda va u quyidagi masalalarni xal etishni ko'zda tutadi:

- Barcha turdagi soliqlarning to'lovini ta'minlash
- Byudjet va byudjetdan tashqari fondlarga majburiy to'lovlarning to'lanishini nazorat qilish
- Yuridik va jismoniy shaxslarni soliqqa tortish bo'yicha materiallarning kompleks va operativ taqlilini amalga oshirish
- Davlat boshqaruv organlarini soliqqa tortishga tegishli ma'lumotlar bilan ta'minlash
- Soliqqa tortish organlarining barcha bosqichlarini aniq va ishonchli ma'lumotlar bilan ta'minlash
- Elektron usulda soliq xisobotlarini tayyorlash va topshirishni ta'minlash.

Soliq xizmatining avtomatlashtirilgan informatsion tizimini yaratish uchun unga tegishli bo'lgan barcha bosqichlarning funktsiyalarini bilish va ularning orasida qanday aloqalar mavjudligini tushunish kerak bo'ladi. Bunday tizim ierarxik (daraxtsimon) tuzilishga ega bo'lib, quyidagicha ko'rinishda tasvirlanishi mumkin:

Respublika Prezidenti		
Davlat boshqaruvi		
1 Bosqich		
O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo'mitasi		
2-Bosqich		
Viloyat Soliq xizmatlari		Qoraqalpog'iston Avtonom Respublikasi Soliq xizmati
3-Bosqich		

Rayon soliq inspeksiyalari	Shaqar soliq inspeksiyalari	Shaxar rayonlari soliq inspeksiyalari
----------------------------	-----------------------------	---------------------------------------

Bu ierarxik sxemadagi birinchi va ikkinchi bosqichlar pastki bosqichlar ustidan metodologik boshqaruvni amalga oshiradilar, soliq turlari bo'yicha nazorat jarayonini tashkil etadilar va soliq qonunchiligining ijrosi xamda monitoringini doimiy ravishda amalga oshiradilar. Boshqaruv obyekti, ya'ni soliq to'lovchilar (jismoniy shaxslar – aqoli va yuridik shaxslar – korxonalar va muassasalar) bilan to'qridan-to'qri aloqa 3-bosqichda amalga oshiriladi. Bunda asosiy subyektlar sifatida rayon inspeksiyalari, shaqar rayonlari va rayonlarga bo'linmagan shaqarlar faoliyat ko'rsatadilar. Ular quyidagi asosiy funktsiyalarni amalga oshiradilar:

- Soliqlar qaqidagi va byudjetga boshqa majburiy to'lovlar to'qrisidagi qonunlarga amal qilinishini nazorat qilish.
- Soliq to'lovchilarning va byudjetga to'lovlarning tezkor xisob-kitobini olib borish.
- Soliq va to'lovlarning to'qri xisoblanishini ta'minlash va ularning o'z vaqtida davlat byudjetiga kelib tushishini nazorat qilish
- Soliq to'lovchilar tomonidan buxgalteriya xisoboti va turli xil xisob-kitoblarning o'z vaqtida takdim qilinishini xamda ularning to'qriligini nazorat qilish.
- Soliq qonunchiligining to'qri bajarilishini nazorat qilish bo'yicha moliya, kredit, xuquqni muxofaza qilish va davlat boshqaruv organlari bilan muloqot qilish.
- Soliq qonunchiligi buzilgan takdirida qonunchilikda ko'zda tutilgan moliyaviy sanksiyalarni qo'llash va ularning to'qri ishlatilishini ta'minlash.
- Rayon, shaqar va viloyat moliya organlariga byudjetga kelib tushgan soliqlarning turlari bo'yicha ularning umumiy summasi qaqida ma'lumotlar tayyorlab, takdim etish va ularni taqtil qilish.
- Yuqori davlat soliq xizmati organlariga tegishli xisobot va ma'lumotnomalar tayyorlash, taqdim etish va ularni ko'rsatilgan tartibda taqtil qilish.
- Ko'rsatilgan tartibda xujjatlar yuritish va boshqa ishlarni bajarish.

2.Soliq xizmati avtomatlashtirilgan informatsion tizimi asosiy ko'rsatgichlari

Yuqorida ko'rsatilgan barcha vazifalarni amalga oshirish maqsadida yangi informatsion texnologiyalar yordamida davlat soliq xizmati uchun avtomatlashtirilgan informatsion tizim (AIT) yaratilgan. Bu AIT soliqqa tortish bilan boqliq masalalar ko'lamini kengaytirish imkonini yaratadi, qabul qilinayotgan qarorlarning asoslanganligini va o'z vaqtida amalga oshirilishini ta'minlaydi, qo'lda bajariladigan ishlar xajmini ancha kamaytiradi, iqtisodiy-matematik usullarni qo'llagan xolda soliq organlari boshqaruv jarayonining samaradorligini oshiradi, qisoblash texnikasi, aloqa vositalari va informatsion massivlardan foydalanish imkoniyatlarini ancha kengaytiradi.

Soliq tizimining avtomatlashtirilgan informatsion sistemasi asosiy funktsiyalarini va maqsadlarini quyidagicha tarzda ifodalashimiz mumkin:

- qabul qilinayotgan qarorlarning sifati va tezkorligini oshirish tufayli soliqqa tortish tizimining samaradorligini oshirish.
- Soliq inspektorlarining ish unumdorligini va tezkorligini oshirishni ta'minlash.
- Barcha darajalarda faoliyat ko'rsatayotgan soliq inspektorlarini soliq qonunchiligi qaqidagi to'la, doimiy va o'z vaqtidagi ma'lumotlar bilan ta'minlash.
- Soliq to'lovchilar qaqidagi ma'lumotlarning aniqligini oshirish va ular tomonidan soliq qonunchiligiga rioya qilinishini tekshirishning xamda nazoratning samaradorligini oshirish.
- Buxgalteriya xisobining sifati va tezkorligini yanada yaxshilash.
- Soliqlar va byudjetga bo'lgan boshqa to'lovlarning to'lanishi qaqida tezkor ma'lumotlar olish.
- Soliqlar tushishi dinamikasini taqtil qilish va bu asosda soliqlar tushumini bashorat qila olish.
- Turli darajalarga mansub soliq administratsiyasiga soliqlar tushumi va soliq qonunchiligiga rioya qilinishi qaqida ma'lumotlar berish.

- qoqoz ko'rinishidagi xujjatlarni iloji boricha kamaytirish.
- Barcha ishlarni imkoniyat darajasida elektron ko'rinishga o'tkazish.
- Soliqqa tortish bo'yicha ma'lumotlarning xavfsizligini ta'minlash.

Respublikaning zamonaviy davrdagi rivojlanish bosqichida soliq tizimining rivojlanishidagi aksariyat muvaffaqiyatlar avtomatlashtirilgan informatsion sistemaning samaradorligini yanada oshirish bilan bo'liqdir. Soliq tizimining AIT xuddi soliq tizimi kabi ko'p bosqichli tizimdir. Uning xar bir elementi juda ko'p tashqi va ichki aloqalarga ega bo'lib, tizim normal ishlashi uchun xar bir element orasida va tizim orasida doimiy ravishda boshqaruv jarayonini amalga oshirish lozim.

Xar qanday iqtisodiy tizim kabi, soliq xizmati AIT funktsional va ta'minlovchi qismlardan iborat.

Funktsional qism aniq ko'rsatilgan iqtisodiy muammolarni xal qilishga yo'naltirilgan masalalar kompleksidan iborat bo'lib, u boshqaruv funktsiyalarning bajarilishini ta'minlab berishi kerak. Bu masalalar kompleksida turli xil boshlanqich xujjatlardan foydalaniladi va ular asosida xamda tegishli algoritmlar yordamida bir qancha chiqish xujjatlari tayyorlaniladi. qisoblash algoritmlari esa mavjud metodik materiallarga, normativ xujjatlarga va soliq instruktsiyalarga asoslanadi. Xar bir masalalar kompleksiga aloqida masalalar kiradi va ushbu masalalarning yechimlari bir-biriga mantiqiy bo'liq bo'lgan xamda bir xil boshlanqich ma'lumotlar asosida olinadigan chiqish xujjatlarida aks etadi.

Ta'minlovchi qism o'ziga tashkiliy turdagi barcha informatsion tizimlarga xos bo'lgan informatsion, texnik, dasturiy, tashkiliy va boshqa turdagi ta'minotlarni qamrab oladi.

Informatsion ta'minot xujjatlarning barcha ko'rsatgichlarini, klassifikatorlarni, kodlarni, ularni soliq organlarida qo'llash usullarini, mashina tashuvchilaridagi informatsion massivlarni va funktsional masalalarni avtomatik ravishda yechishda ishlatiladigan boshqa ma'lumotlardan iborat bo'ladi.

Texnik ta'minot ma'lumotlarni qayta ishlash uchun xizmat qiladigan texnika vositalari, elektron qurilmalar va turli xil kompyuterlardan iborat bo'lib, ular orasidagi aloqani ma'lumot uzatish vositalari amalga oshiradilar. Aloqa uzatish inspektorlar orasida xam, kompyuterlar orasida xam, avtomatlashgan ish joylari va soliq xizmati sub'ektlari orasida xamda boshqa turdagi iqtisodiy ob'ektlar va sistemalar orasida xam amalga oshirilishi mumkin

Programmaviy ta'minot umumiy va amaliy ko'rinishdagi programma vositalari kompleksidan iborat bo'lib, ular soliq organlari tomonidan turli xil masala va muammolarni xal qilish uchun ishlatiladilar.

Soliq tizimining avtomatlashtirilgan informatsion sistemasi katta tizimlar sirasiga kirib, u bir qancha talablarga javob bera olishi kerak:

- Tizim oldiga qo'yilgan maqsadlarga erisha olish
- Tizimning barcha tashkil etuvchilarining bir-biriga mos kelishi
- Tizimning barcha tashkil etuvchilarining tashqi elementlarga va boshqaruv organlari tizimlariga mos kelishi
- Sistemaviylik va dekompozitsiya printsiplarining amalga oshirilishi
- Sistemaning kelajakdagi o'zgarishlarga moslashuvchan bo'lishi – adaptivlik xususiyati
- Ishlatilish jarayonidagi ishonchliligi yuqori darajada bo'lishi kerak
- Ximoyalanish darajasi yuqori bo'lib, xavfsizlikni ta'minlashi lozim
- Sistema beradigan ma'lumotlar aniq va ishonarli bo'lishi kerak
- Ma'lumotlar bir marta kiritilishi va ko'p marta ishlatilish xususiyatiga ega bo'lishi zarur
- Sistema ko'p funktsional xususiyatga ega bo'lib, turli xil vazifalarni bajara olishi kerak.
- Ma'lumotlar bazasida saqlanadigan ma'lumotlar aktual bo'lishi kerak.
- qo'l meqnatining sarfi minimal bo'lib, olinadigan ma'lumotlar maksimal bo'lishi maqsadga muvofiq
- Soliq xizmatining xar qanday turi, ob'ekti va sub'ekti orasida ma'lumotlar almashinuvini ta'minlashi zarur.

Bunday AIT yaratish uchun barcha soliq xizmatlarini telekommunikatsion tarmoqlar bilan ta'minlash va ular bir-birining informatsion resurslaridan, ma'lumot bazalaridan, programmalaridan foydalanish imkoniyatini xosil qilish kerak.

3. Soliq xizmatlarida yechiladigan funktsional masalalar.

Soliq tizimining xar bir darajasiga mos xolda o'zining funktsional ta'minotini ko'rsatish mumkin. Masalan, birinchi bo'limda keltirilgan diagrammaning **ikkinchi bosqichga** mos bo'lgan qo'yidagi asosiy funktsional masalalarni quyidagicha ifodalash mumkin:

- Xisobot formalari tayyorlash
- Nazorat qilish faoliyati
- Metodik, revizion va yuridik faoliyat
- Davlat soliq inspeksiya analitik faoliyati
- Ichki tashkiliy masalalar

Xisobot formalari tayyorlash statistik ko'rsatkichlarning umumlashgan ko'rinishlarini tayyorlash bilan boqliq bo'lib, soliq organlarining faoliyatini ko'rsatadigan turli xil to'lovlarni aks ettiradi va bu ishlar ustidan nazoratni amalga oshiradi. Nazorat faoliyati eng avvalo korxonalar va jismoniy shaxslarning davlat reestrini yurgizishni anglatadi. Korxonalar davlat reestri o'z ichiga ularning qayd qilinishi qaqidagi ma'lumotlarni oladi, jismoniy shaxslarning reestrlari esa soliq to'lovchilar qaqidagi ma'lumotlarni ko'rsatadi. Nazorat faoliyatiga yana korxonalar xujjatli tekshiruv faoliyati xam kiradi. Metodik, revizion va yuridik faoliyat qonuniy aktlar bilan, qarorlar bilan, ko'rsatmalar va boshqa turdagi davlat xujjatlari bilan xamda Davlat soliq xizmatiga tegishli bo'lgan normativ va metodik ko'rsatmalar bilan ishlashni ta'minlaydi. Bu bo'limda soliq organlarining xududiy (territorial) bo'linmalaridan kelayotgan ma'lumotlarni yiqish, qayta ishlash va taqlil amalga oshiriladi. Davlat soliq inspeksiya analitik faoliyati turli xil kategoriyalarga mansub soliq to'lovchilarning soliq to'lovlari dinamikasini taqlil qilishni, ayrim soliq turlari bo'yicha yiqimlarining qandayligini bashorat qilishni, korxonalar iqtisodiy va statistik taqlil qilishni, territorial soliq inspeksiya faoliyatlarini o'rganishni amalga oshiradi. Ichki tashkiliy masalalar bo'limida soliq inspeksiya faoliyatini ta'minlab beradigan masalalar xal qilinadi. **Uchinchi bosqichga** esa quyidagi funktsional bo'limlar mos keladi:

- Korxonalar ruyqatga olish
- Kameral tekshiruvni amalga oshirish
- Korxonalar shaxsiy kartochkalarni tekshirish
- Korxonalar xolatini taqlil qilish
- xujjatli (dokumental) tekshiruvni amalga oshirish
- Normativ-xuquqiy xujjatlarni yurgizish
- Ichki tashkiliy masalalarni xal qilish
- Jismoniy shaxslarning xujjatlarini qayta ishlash

Kameral tekshiruvni amalga oshirish soliq to'lovchilar tomonidan buxgalteriya xisobotlarini va soliq xisoblarini, boshqa xil xisobotlar va deklaratsiyalarni, byudjetga bo'lgan turli xil to'lovlarni tekshirib turishdan, soliqlar to'qri xisoblanganligini tekshirishdan, formalar aniq to'ldirilganligini nazorat qilishdan iboratdir. Soliq xizmatida kompyuter texnologiyalarini qo'llash korxonalar rivojlanish dinamikasini tushunishga, uning tomonidan soliq qonunchiligiga rioya qilinishini tekshirishga, soliq qonunchiligining buzilishlari xolatlarini aniqlashga, byudjetga to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshirishga va xujjatli tekshiruv zarur bo'lgan korxonalar ruyqatini tayyorlashga va ularni kompyuter yordamida tezkorlik bilan tekshirishga imkon beradi. Soliq xizmatini avtomatlashtirish nazorat, ma'lumotlarni qayta ishlash, soliqlar qisoblash va ularni jamlash, xisobotlar tayyorlash bilan chegaralanmaydi, balki u banklar, bojxona organlari va boshqa tashqi davlat tuzilmalari bilan xam avtomatlashtirilgan aloqalarni amalga oshirishni o'z ichiga qamrab oladi. Bu aloqalarni kompyuter yordamida amalga oshirish soliq to'lovchilarning mablaqlari xarakatlarini operativ ravishda nazorat qilishga va ularning xisob raqamlari bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirishga yordam beradi.

4.Soliq xizmati avtomatlashtirilgan tizimlarining informatsion ta'minoti

Soliq xizmati avtomatlashtirilgan tizimlarining informatsion ta'minoti soliq organlarining informatsion modeli sifatida tashkil qilinadi. Informatsion ta'minotning ko'pchilik masalalari soliq organlari tuzilmalari bajaradigan asosiy funktsiyalarga boqliq bo'ladi. Informatsion ta'minot foydalanuvchilarni ularning o'z professional masalalarini xal qilish uchun kerakli bo'lgan barcha ma'lumotlar bilan ta'minlab turishi kerak. Soliqqa tortishning avtomatlashtirilgan tizimi informatsion ta'minoti mashinaga boqliq bo'lgan va undan tashqarida joylashgan informatsion ta'minot turlariga

bo'linadi. Mashinadan tashqarida bo'lgan informatsion ta'minotga ko'rsatgichlar tizimi majmuasi, ma'lumotlarni klassifikatsiyalash va kodlashtirish tizimi, xujjatlar va xujjat aylanishi tizimi, turli xildagi informatsion oqimlar kiradi. Mashinaga boqliq informatsion ta'minotga ma'lumotlarning turli xil massivlarini, ularni ma'lumot va bilim bazalari ko'rinishida ifodalashni va ular orasidagi informatsion aloqalarni ifodalashni kiritish mumkin. Ko'rsatgichlar tizimiga qayta ishlanib va turli ko'rinishlarda ifodalanib, soliq organlari faoliyatini ta'minlab beradigan boshlanqich, oraliq va natijaviy ko'rsatgichlar kiradi. Xujjatlar va ulardagi ma'lumotlar quyidagicha guruqlarga bo'linishlari mumkin:

A) Soliq inspeksiyasiga kiruvchi va chiquvchi ma'lumotlar – kirish va chiqish ma'lumotlari

B) muddati bo'yicha:

- Reglamentli – bajarilish muddati va topshirilish vaqti aniq ko'rsatilgan xujjatlar. Masalan, «UzbResp byudjetiga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning tushirilish qaqidagi xisobot», «Asosiy turdagi soliqlarning tushishi» va boshqa turdagi statistik xisobotlar.
- Reglamentlanmagan – so'rovlar asosida tuziladigan xujjatlar.

V) soliq inspeksiyasining funksional yo'nalishlari bo'yicha:

- Xuquqiy va normativ xujjatlar (qonunlar, qarorlar, ko'rsatmalar) xamda tashkiliy-uslubiy xujjatlar (buyruqlar, direktivalar, instruktsiyalar, uslublar, soliq inspeksiyasi kollegiyasi qarorlari)
- Soliqlarning xisoblanishi va tushishi qaqidagi ma'lumotlar (soliq to'lovchilarning xisob varaqlari, bank xujjatlari, soliq xisoblari, deklaratsiyalar, soliq inspeksiyasining nazorat faoliyati bilan boqliq (buxgalter xisobotlari, balanslar, tekshiruv aktlari, nazorat ishi jurnallari) xujjatlar)
- Boshqa turdagi xujjatlar.

Avtomatlashtirilgan tizimning mashinadan tashqari bo'lgan informatsion ta'minotining asosiy va muqim tashkil etuvchilaridan biri klassifikatsiya va kodlashtirish tizimidir. Soliq tortish xizmatining avtomatlashtirilgan tizimi quyidagilarga asoslangan klassifikatsiya va kodlashtirish tizimiga ega bo'lishi kerak:

A) umumdavlat klassifikatorlari:

- Jaqon davlatlari (OKSM)
- Iqtisodiy rayonlar (OKER)
- Aqoli punktlari va ma'muriy-territorial bo'lingan ob'ektlar (SOATO)
- Davlat boshqaruv organlari (SOOGU)
- Xalq xo'jaligi tarmoqlari (OKONX)
- Iqtisodiy faoliyat turlari, xizmat va maqsulotlar (OVDP)
- Valyutalar (OKB)
- O'lchov birliklari (SOEY)

B) tarmoqlarning klassifikatorlari:

- Mulk turlari (KFS)
- Ish yurituvchi sub'ektlarning tashkiliy-xuquqiy turlari (KOPF)
- Byudjet daromad va xarajatlari (KDRB)
- Namunaviy bank xisobotlari (KBS)
- Banklar (KB)

V) sistemaviy klassifikatorlar:

- Soliq va to'lovlar (KNP)
- Soliqqa tortish ob'ektlari (KON)
- Soliq afzalliklari (KNL)
- Soliqlar bo'yicha afzallik turlari (KTNL)
- Shtraf sanksiyalari (KShS)
- Soliq to'lovchilarning identifikatsion raqamlari (INN)
- Davlat soliq inspeksiyalarining belgilanish tizimi (SOGNI)

Mashinaga boqliq bo'lgan informatsion ta'minot soliqqa tortish tizimining foydalanuvchilariga ularning talablarini to'liq qondirish uchun kerak bo'lgan informatsion muqitni xosil qiladi va ular ma'lumot massivlari, ma'lumot bazalari va ma'lumot banklari ko'rinishida ifodalanadi. Ushbu informatsion

ta'minot soliq organlarining xaqiqiy xolatini to'qri aks ettirib berishi kerak. Soliqqa oid ma'lumotlar xamda massivlarni o'zgaruvchan va o'zgarmas turlarga bo'lishimiz mumkin. O'zgaruvchan ma'lumot va massivlar yil davomida 20% dan ortiq o'zgarishlari mumkin. Bundan kam o'zgarishlar bo'lgan ma'lumot va massivlar o'zgarmas deb xisoblanadi.

O'zgaruvchan massivlarda quyidagi turdagi ma'lumotlar bo'ladi:

- Operativ nazorat, soliq va yiqimlarning tushishi, to'lov va xisobotlar qaqidagi ma'lumot
- Soliqqa tortish bazasi va soliqlar tushishi, yiqim va boshqacha to'lovlar qaqidagi ma'lumotlar
- Soliq organlarining nazorat ishi natijalari
- Soliq organlarining xuquqiy yo'nalishdagi ishlari bo'yicha ma'lumotlar.

O'zgarmas massivlarda quyidagilar bo'lishi mumkin:

- Soliq kumitasi kollegiyasi qarorlari matni, buyruqlar, ko'rsatmalar va rejalar
- Tashkiliy-metodik xujjatlar matnlari
- Soliq AIT da ishlatiladigan klassifikatorlar, luqatlar va ma'lumotnomalar
- Soliq to'lovchilar qaqidagi ma'lumotlar va korxonalar davlat reestri ma'lumotlari

Soliq organlaridagi professional ma'lumot bazalariga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

- Soliq to'lovlarining boshlanqich va xisobot ma'lumot bazalari
- Soliq tushumlari bo'yicha operativ ma'lumotlar bazalari
- Soliq qonunchiligi bo'yicha xatlar, javoblar va takliflar ma'lumot bazalari
- Xisobot formalari asosida xosil qilinadigan qo'shimcha ma'lumot bazalari
- Ichki qo'llanish uchun foydalaniladigan xujjatlar bazalari

Bunday ma'lumot bazalari bilan ishlash maxsus programmaviy ta'minot orqali amalga oshiriladi. Soliq tizimining informatsion ta'minotida ma'lumot axtarish sistemalari aloqida o'rinni egallaydi va ular uchun quyidagi ma'lumot bazalari yaratiladi:

- Soliqqa tortish qonuniy va normativ aktlari bo'yicha ma'lumot bazasi
- Instrukтив va uslubiy materiallar bo'yicha ma'lumot bazasi
- Umumiy xuquqiy masalalar bo'yicha ma'lumot bazasi

Bu ma'lumot bazalarining xususiyati shundaki, ular soliq inspekiyasining barcha bo'linmalari tomonidan ishlatiladi. Soliq tizimida yangi informatsion texnologiyalarni ishlatishning asosini tarqoq kompyuter texnikasi, «do'stona» programmaviy ta'minot va rivojlangan kommunikatsiya tarmoqi tashkil qiladi. Bunda avtomatlashtirilgan informatsion tizim bir-biriga boqliq AIJ tarmoqlari ko'rinishida amalga oshiriladi. Soliq tizimida AIJ – bir-biri bilan ulangan, tezkor sur'atda ma'lumotlar almashinadigan, zamonaviy programmaviy ta'minot bilan ta'minlangan va yangi informatsion texnologiya usullarini qo'llaydigan texnik modullar kompleksidir. Soliq tizimini avtomatlashtirishning muqim masalalaridan biri kompyuter yordamida nafaqat nazorat ishlarini, soliq to'lashni, ma'lumotlarni qayta ishlashni, soliq qonunchiligi xuquqiy-normativ bazasini yuritishni, xisobotlarni tuzishni amalga oshirishni, balki banklar, bojxona organlari, sud-prokuratura organlari, ichki ishlar va boshqa turdagi tashqi tashkilotlar bilan avtomatlashtirilgan interfeyslar yaratish xamdir.

5.Soliq xizmatida foydalaniladigan dasturiy vositalar.

Xozirgi kunda soliq idoralarida foydalanilib kelinadigan dasturiy vositalar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- **Kadry** – Kadrlar yagona reestri programmasi.
- **Nedoimka** – Korxon va tashkilotlarning byudjed, pensiya, yo'l fondi va maktab jamqarmalari bo'yicha qarzdorligini qisoblash dasturi.
- **1-H** – kunlik byudjet, pensiya, yo'l fondi va maktab jamqarmalari bo'yicha svodkani chiqarish dasturi.
- **Mud_elektr9** – elektr energiyasidan foydalanganlik uchun debitorlik qarzini to'lay olmagan yuridik shaxslardan qarzlarni majburiy tarzda undirish bo'yicha soliq idoralarida tezkor xisobotlar yuritish dasturi.
- **Carn3** – soliq to'lovchi yuridik shaxslar xisob varaqalariini yuritish dasturi.
- **Yer soligi** – yuridik shaxslarning yagona yer soliqi bo'yicha xisobotini yuritish dasturi.

- **Musodara** – davlat daromadiga o'tkaziladigan mol-mulkni xisobga olish, baqolash va sotishdan tushgan pul mablaqlarini to'liq va o'z vaqtida byudjetga tushishini nazorat qilishga imkon beruvchi dastur.
- **BuxSoft** – dasturi soliq xisobi bo'yicha ko'pchilik muammolarni kompleks xal qiladi, soliqlar xisobini yaqqol va aniq-ravshan amalga oshiradi, funktsional filtrlardan foydalanishga yordam beradi, maksimal avtomatlashtirilgan soliq xisobini yuritishga imkon beradi, ma'lumotlar bazasida kerakli o'zgartirishlar qilish mumkin. Dasturning «Filtr» funktsiyasi barcha daromad va xarajatlar tarkibidan aniq tartibda daromadlar va xarajatlarni tanlab olib, qisoblash imkonini beradi.
- **Payroll Mate** - Bu dastur ishchi va xodimlarning daromadlari asosida barcha soliqlar va soliqli to'lovlarni xisoblab beradi
- **Tax Brackets Calculator** – bu dastur daromad oluvchi jismoniy shaxslarning daromadidan soliqni xisoblaydi
- **Profit Loss Report** – Ushbu dastur korxonadagi taxminiy daromadlarni oldindan xisoblab, undan barcha soliqlarni avtomatik ravishda xisoblaydi va bu xaqda raqbarlarni ogoqlantirishga imkon beradi.

Takrorlash uchun savollar:

- 1.Soliq xizmati qanday asosiy bo'qinlardan iborat?
- 2.Soliq xizmatida avtomatlashtirish qanday amalga oshiriladi?
- 3.Soliq xizmati avtomatlashtirilgan tizimida dasturiy ta'minot nimalardan iborat?
4. Soliq xizmati avtomatlashtirilgan tizimidagi axborot ta'minoti qanday tashkil qilinadi?
5. Soliq xizmati avtomatlashtirilgan tizimida qanday funktsional masalalar yechiladi?
6. Soliq xizmati avtomatlashtirilgan tizimining asosiy ko'rsatgichlari nimalardan iborat?

14-ma'ruza **Bank axborot tizimi.**

Reja:

- 1.Bank axborot tizimi tushunchasi
2. Bank axborot tizimining turlari
- 3.Bank avtomatlashtirilgan axborot tizimi
4. Bank avtomatlashtirilgan axborot tizimining hayotiy sikli

Tayanch so'z va iboralar: **axborot tizimi**, elementlar (ob'ektlar), tarmok, tizim, texnik vositalar, moddiy va nomoddiy ne'matlar, boshqaruv tizimi, **kibernetik yondashuv**, boshqaruv apparati, komponent, axborot okimlari (T va A), avtomatlashtirish, sun'iy intellekt usullari, ekspert tizimlari, zamonaviy telekommunikatsiya vositalari, elektron pochta, telekonferentsiyalar, loyixalashtirish, **tashkiliy boshqaruv**, texnologik jarayonlar.

Adabiyotlar: M.Aripov, B.Begalov. "Axborot texnologiyalari." O'quv qo'llanma, 2009.;

M.Kadirov. "Axborot texnologiyalari." O'quv qo'llanma, 2017.;

F.A.Kabiljanova, L.P.Varlamova. "Informatsion texnologiyalarni iqtisodiy masalalarga qo'llash" kursi bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar. O'zMU, 2014.

1.Axborot tizimi tushunchasi

Axborot tizimi tushunchasini kiritishdan oldin tizim (sistema) deganda nimani tushunishimizni aniqlab olaylik. Tizim (sistema) deganda, yagona maqsad yulida bir vaktning uzida xam yaxlit, xam o'zaro bog'langan tarzda faoliyat kursatuvchi elementlar (ob'ektlar) majmuasi tushuniladi. Demak, xar qanday tizim biror-bir aniq maqsad yulida xizmat qiladi. Masalan, sizga ma'lum bo'lgan shaxar telefon tarmoklari tizimi, insondagi yurak qon-tomir tizimi, asab tizimi va boshqalar sun'iy yaratilgan va tabiiy tizimlarga misol bo'la oladi. Ularning xar biri tizimga qo'yiladigan barcha shartlarga javob beradi, ya'ni, xar biri uziga xos yagona maqsad yulida faoliyat ko'rsatadi va tizimni tashkil etuvchi elementlardan iborat.

Quyidagi jadvalda elementlari va asosiy maqsadi kursatilgan xolda tizimlarga yana bir nechta misollar keltirilgan.


Tizim turlari	Tizimning elementlari	Tizimning asosiy maqsadi
Korxonalar	Odamlar, qurilmalar, materiallar, bin ova boshqlar	Mahsulot ishlab chiqarish
Kompyuter	Elektron va elektromexanik uskunalar	Ma'lumotlarni qayta ishlash
Telekommunikatsion tizimlar	Kommunikatsiya vositalari, aloqa kanallari, qurilmalar	Aloqa kanallarini o'zaro bog'lash va ma'lumot almashinuvini ta'minlash
Axborot tizimi	Kompyuterlar, kompyuter tarmoqlari, odamlar, axborot va dasturiy ta'minot	Ma'lumotlarni yaratish, yig'ish, saqlash, qayta ishlash va masofagauzatis

Axborot tizimida «tizim» tushunchasi ko'prok texnik vositalar, asosan, kompyuterlar va murag'kab ob'ektlarni boshqarishga nisbatan ishlatiladi. «Tizim» tushunchasiga «axborot» so'zining qo'shilishi uning belgilangan funktsiyasini va yaratilish maqsadini anik aks ettiradi.

Axborot tizimi — belgilangan maqsadga erishish yulida axborotni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va uzatish uchun qo'llaniladigan usullar, vositalar va shaxslarning o'zaro bog'langan majmuasidir.

Axborot tizimlari jamiyat paydo bo'lgan paytdan boshlab mavjud bo'lgan, chunki rivojlanishining turli bosqichida jamiyat uz boshqaruvi **uchun tizimlashtirilgan**, oldindan tayyorlangan axborotni talab etgan. Bu, ayniqsa, ishlab chiqarish jarayonlari — moddiy va nomoddiy ne'matlarni ishlab chiqarish bilan bog'liq jarayonlarga tegishlidir. Chunki ular jamiyat rivoji uchun xayotiy muhim axamiyatga ega. Aynan ishlab chiqarish jarayonlari tezkor takomillashadi. Ularning rivojlanib borishi bilan boshqarish xam murag'kablashadiki, o'z navbatida, u axborot tizimlarini takomillashtirish va rivojlantirishni rag'batlantiradi. Shu sababli, avvalo, boshqaruv tizimi nima ekanligini bilib olaylik.

Kibernetik yondashuvga muvofik boshqaruv tizimi boshqaruv ob'ekti (masalan, **korxonalar**, tashkilotlar va xokazo) va boshqaruv sub'ekti, boshqaruv apparati yig'indisini uzida namoyon etadi. Boshqaruv apparati deganda maqsadlarni shakllantiruvchi, rejalarni ishlab chiquvchi, qabul kilingan qarorlarga **talablarni moslashtiruvchi**, shuningdek, ularning bajarilishini nazorat qiluvchi xodimlar tushuniladi. Boshqaruv ob'ekti vazifasiga esa boshqaruv apparati ishlab chiqqan rejalarni bajarish kiradi, ya'ni boshqaruv tizimining uzi aynan mana shu ishlarni amalga oshirish uchun tuzilgandir.



Boshqaruv tizimining ikkala komponenti to'g'ri (T) va aks (A) aloqalar bilan bog'langan. TuKri aloqa boshqaruv apparatidan boshqaruv ob'ektiga yunaltiladigan axborot okimida ifodalanadi. Aks aloqa teskari yunalishda yuboriluvchi qabul kilingan qarorlarning bajarilishi haqidagi xisobot axboroti okimida uz aksini topadi.

Axborot okimlari (T va A), **qayta ishlash vositalari**, ma'lumotlarni uzatish va saqlash, shuningdek, ma'lumotlarni qayta ishlash bo'yicha operatsiyalarni bajaruvchi boshqaruv apparati xodimlarining o'zaro aloqasi ob'ektning axborot tizimini tashkil etadi.

Axborot tizimlari nafakat axborotni **qayta ishlash va saqlash**, yozuv-chizuv ishlarini avtomatlashtirish, balki qarorlarni qabul qilish (sun'iy **intellekt usullari**, ekspert tizimlari va xokazolar),

zamonaviy telekommunikatsiya vositalari (**elektron pochta**, telekonferentsiyalar), yalpi va lokal xisoblash tarmoklari va boshqaruvning yangi uslublaridan foydalanish xisobiga boshqaruv ob'ekti faoliyati samaradorligini oshiradi va shu maqsadda keng qo'llaniladi.

2.Axborot tizimining turlari

Axborot tizimlarining avtomatlashtirilgan va avtomatik turlari ma'lum.

Avtomatlashtirilgan axborotlar tizimida boshqarish yoki ma'lumotlarni qayta ishlash funksiyalarining **bir qismi avtomatik ravishda**, qolgani esa inson tomonidan bajariladi.

Avtomatik axborotlar tizimida boshqarish va ma'lumotlarni qayta ishlashning barcha funksiyalari texnik vositalarda, inson ishtirokisiz amalga oshiriladi (masalan, texnologik jarayonlarni avtomatik boshqarish).

Qullanish soxasiga qarab axborot tizimlarini quyidagi sinflarga ajratish mumkin:

- ilmiy tadqiqotlarni avtomatlashtirish va boshqarish;
- loyixalashtirishni **avtomatlashtirish**;
- tashkiliy jarayonlarni boshqarish;
- texnologik jarayonlarni boshqarish.

Ilmiy tadqiqotlarni avtomatlashtirish va boshqarishda axborot tizimlari ilmiy xodimlar faoliyatini avtomatlashtirish, statistik **axborotni taxlil etish**, tajribalarni boshqarish uchun muljallangan.

Loyixalashtirishni avtomatlashtirishda axborot tizimlari yangi texnika (texnologiya) ishlab chiqaruvchilar va muxandis loyixachilar mexnatini avtomatlashtirish uchun muljallangan.

Tashkiliy boshqaruvda axborot tizimlari — shaxslar funksiyalarini avtomatlashtirish uchun muljallangan. Bu sinfga xam sanoat (korxonalar), xam nosanoat ob'ektlari (bank, birja, sukurta kompaniyalari, mexmonxonalar va xokazolar) va ayrim ofislar (ofis tizimlari)ni boshqarishning axborot tizimlari kiradi.

Texnologik jarayonlarni boshqarishda axborot tizimi turli texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish uchun muljallangan (moslashuvchan ishlab chiqarish jarayonlari, **metallurgiya**, energetika va xokazolar).

Dastlabki axborot tizimlari 50-yillarda paydo buldi. Bu yillarda ular maosh xisob-kitoblarini qayta ishlash uchun muljallangan bo'lib, elektromexanik buxgalterlik xisoblash mashinalarida amalga oshirilgan. Bu kog'oz xujjatlarni tayyorlashda mexnat va vakti bir kadar kiskartirishga olib kelgan.

60-yillarda axborot tizimlariga munosabat butunlay uzgardi. Bu tizimlardan olingan axborot davriy xisobot uchun ko'pgina parametrlar bo'yicha kullana boshlandi. Buning uchun tashkilotlarga ko'pgina funksiyalarga ega bo'lgan EHM lar talab etila boshlandi.

70—80-yillarda axborot tizimlari qarorlarni kullab-kuvvatlovchi va tezashtiruvchi jarayonga ega bo'lgan nazorat boshqaruvi vositalari sifatida keng foydalanila boshlandi.

80-yillar oxiridan boshlab, axborot tizimlaridan foydalanish kontseptsiyasi yanada uzgarib bormokda. Ular axborotning strategik manbai bo'lib qolmoqda va istalgan soxada tashkil etishning barcha darajalarida foydalanilmokda. Bu davrning axborot tizimlari axborotni o'z vaqtida berib, tashkilot faoliyatida muvaffakiyatga erishishga yordam bermokda.

3.Avtomatlashtirilgan axborot tizimi

Avtomatlashtirilgan axborot tizimi ta'minlovchi va funksional qismlarga ega. Ta'minlovchi qism axborot, texnik, matematik, dasturiy, tashkiliy, huquqiy va lingvistik ta'minotdan iborat bo'ladi.

Axborot ta'minoti tashkilotda aylanib yuruvchi axborotlarni tashkil etish shakli, joylashtirilish hajmi axborotni tasniflash va kodlashtirish, hujjatlarni unifikatsiyalashgan tizimi, axborot oqimlariningyagona tizimi bo'yicha loyiha qarorlarining, shuningdek, ma'lumotlar bazasi tuzilish uslubining majmuidir. U ko'rsatkichlarni, ma'lumotnomalarni axborotni tasniflovchi hujjat larning unifikatsiyalashgan tizimini, tashuvchi vositalardagi axborotlarni o'z ichiga oladi.

Texnik ta'minot. Texnik ta'minot axborot tizimi ishi uchun mo'ljallangan texnik vositalar kompleksi, shuningdek, ushbu vositalar va texnologik jarayonlarga tegishli hujjatlardir.

Matematik ta'minot. Matematik ta'minot — axborot tizimida vazifalarni hal etishda

foydalaniladigan axborotlarni **qayta ishlash algoritmi**, modellari, matematik uslublari majmui.

Dasturiy ta'minot bu axborot tizimining maqsad va vazifalarini amalga oshirish uchun dasturlar majmui, shuningdek texnik vositalar kompleksining me'yorida ishlab turishi demakdir. Dasturiy ta'minot tarkibiga umumiy tizimli va maxsus dasturli mahsulotlar, shuningdek texnikhujjatlar, jumladan: operatsion tizimlar, dasturlash tizimi, dasturchining asbob-uskuna vositasi, test va

tashxis dasturlari, telekommunikatsiyaning dasturiy vositasi, axborotni himoyalash, funktsionl dasturiy ta'minot (avtomatlashtirilgan ish joylari, ma'lumotlar bazalarini boshqarish tizimi va hokazo) kiradi.

Umumiy tizimli dasturiy ta'minot. Ularga foydalanuvchiga mo'ljallangan va axborotni qaytaishlashning an'anaviy vazifalarini hal etish uchun belgilangan dasturlar kompleksi kiradi.

Ular kompyuterlarning imkoniyatlarini kengaytirish, ma'lumotlarni qayta ishlash jarayonini boshqarish va nazorat qilishga xizmat qiladi.

Maxsus dasturiy ta'minot. Aniq bir dasturiy tizimni yaratishda ishlab chiqilgan dasturlar mamuini ifoda qiladi.

Uning

tarkibiga turli darajada o'xshash ishlab chiqilgan modellar, ma'lum bir obyektning ishlashini aks ettiruvchi amaliy dasturlar paketi kiradi.

Uslubiy ta'minot va tashkiliy ta'minot axborot tizimini ishga tushirish va ishlatish jarayonida axborot tizimi xodimlarining texnik vositalar bilan va o'zaro ta'sirini belgilovchi metodlar, vositalar va hujjatlar majmuidir.

Ergonomik ta'minot (sharoit) ish joylariga, axborot modellariga, xodimning ish faoliyatiga nisbatan turli ergonomik talablardan iborat hujjatlar, ularni amalga oshirish usullari to'plamidir. Maqsad — xodim ishining yuqori samaradorligini ta'minlash.

Huquqiy ta'minot axborot tizimining huquqiy maqomi va uni ishga tushirishni belgilovchi huquqiy me'yorlar majmuidir. Axborotni olish qayta o'zgartirish va foydalanish tartibi belgilab qo'yiladi. Huquqiy ta'minotning asosiy maqsadi qonunchilikni mustahkamlash sanaladi. Huquqiy ta'minot tarkibiga qonunlar, farmoyish, hukumat organlari qarorlari, buyruqlari, yo'riqnomalari va vazirliklar, idoralar, mahalliy hukumat organlarining boshqa me'yoriy hujjatlari kiradi.

Lingvistik ta'minot axborot tizimi xodimlari va texnik, dasturiy va axborot ta'minot xodimlarining muloqot tili majmui (til vositasi), shuningdek, axborot tizimida foydalaniladigan atamalar majmui.

Axborot tizimning funksional qismi axborot tizimining vazifa va topshiriqlari bajarilishini ta'minlaydi. Amalda bu yerda tashkilotni boshqarish tizimining modeli saqlanadi.

Mazkur tizim doirasida boshqaruv maqsadlarining funksiyalarga, funksiyalarning esa axborot tizimi kenja tizimiga o'zgarishi ro'y beradi. Kenja tizimlar vazifalarni amalga oshiradi.

Ular tizimning biror bir belgisiga ko'ra ajratib ko'rsatilgan qismidir. Odatda axborot tizimida funksional qism funksional belgilariga ko'ra kenja tizimlarga bo'linadi: boshqaruv darajasi (oliy, o'rta, quyi); boshqariladigan resurs turi (moddiy, mehnat, moliyaviy va hokazo); qo'llanish sohasi (bank, jamg'arma bozori va hokazo); boshqaruv ishi va davri. Shuni qayd etish lozimki, avtomatlashtirilgan axborot tizimining funksional qismi tarkibi va mazmuni ma'lum bir obyektga bog'liq. Axborot tizimining ta'minlovchi qismi tarkibi va mazmuni turli obyektlar uchun bir xilda bo'ladi.

4. Avtomatlashtirilgan axborot tizimining hayotiy sikli

Avtomatlashtirilgan axborot tizimini yaratish, rivojlantirish mohiyati vaqtga nisbatan «hayotiy sikl» kabi iqtisodiy kategoriyani aks ettiradi. Ya'ni, uning yaratilishi to'xtatishgacha bo'lgan oraliqdagi hayot siklini anglatadi. AAT ning hayot siklida quyidagi bosqichlar ajralib turadi:

Loyiha oldi bosqichi (rejalashtirish va talablar tahliliy-tizimli tahlil). Mavjud boshqaruv tizimini, birinchi galda axborot tizimini tadqiq va tahlil etish, yaratiladigan AAT ga nisbatan qo'yiladigan talablarni belgilash, texnik iqtisodiy asos (TIA) va texnik vazifalarni AAT ishlab chiqishda rasmiylashtirish.

Texnik loyihalashtirish (mantiqiy loyihalashtirish). Ta'riflangan talablarga muvofiq avtomatlashtiriladigan funksiyalar tarkibini (funksional arxitektura) va ta'minlovchi

kenja tizim tarkibini (tizimli arxitektura) **ishlab chiqish**, AAT ning texnik loyihasini rasmiylashtirish.

Qo'llanma loyihalashtirish (jismoniy loyihalashtirish). Dasturlarni ishlab chiqish va tizim, ma'lumotlarni qayta ishlashning texnologik jarayonini ishlab chiqish, xodimlar uchun qo'llanma yo'riqnomalarni yaratish, qo'llanma loyihami rasmiylashtirish.

Tadbiq etish (testlash, tajriba Ekspluatatsiyasi). AAT kenja tizimlarini kompleks tuzatish, xodimni o'qitish, AAT ni **bosqichma-bosqich joriy etish**, Ekspluatatsiyaga topshirish.

Ekspluatatsiya (kuzatib qo'yish, modernizatsiyalashtirish). Kundalik Ekspluatatsiya, dasturiy va texnik vositalar, shuningdek butun loyihami kuzatib borish, AAT ning ishi to'g'risida statistik ma'lumotlar yig'ish, xato va kamchiliklarni to'g'rilash, AATni modernizatsiya alashga nisbatan talablarni rasmiylashtirish va uni bajarish.

Axborot tizimining hayotiy sikli interaktiv mazmun kasb etadi: hayotiy siklning amalga oshirilgan bosqichlari vaqtivaqti bilan yangi talablar va tashqi muhitgacha o'zgarishlarga muvofiq qaytarilib tuziladi. Hayot siklining har bir bosqichi va pallasida navbatdagi qarorlar uchun asos sanaluvchi texnik qarorlar va hujjatlar to'plami shakllanadi.

Avtomatlashtirilgan axborot tizimlari samaradorligi - avtomatlashtirilmagan va avtomatlashtirilgan tizimning afzalliklari va ularning farqlari

Axborot tizimlari boshqaruv xizmatlari xodimlariga axborot xizmat ko'rsatuvchi tizim sifatida axborotlarni jamlash, saqlash, uzatish va ishlab chiqish bo'yicha **texnologik vazifani** bajaradi. U aniq iqtisodiy obyektida qabul qilingan boshqaruv faoliyatining usullari va tuzilishi bilan belgilangan tartibda vujudga keladi, shakllanadi va faoliyat yuritadi.

Jamiyatni axborotlashtirishning zamonaviy darajasi iqtisodiy obyektlarning turli-tuman axborot tizimlarida eng yangi texnik, texnologik, dasturiy vositalardan foydalanishni taqozo qiladi.

Avtomatlashtirilgan axborot tizimi (AAT) – axborotlar, axborotlarni ishlab chiqishda qo'llaniladigan iqtisodiy-matematik usullar va modellar hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilishga mo'ljallangan texnik, dasturiy, texnologik vositalar va mutaxassislarning majmuidir.


AATning tashkil qilinishi iqtisodiy obyektning ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda ko'maklashadi va boshqaruv sifatini ta'minlaydi. Korxonada, firma va barcha sohalarning ish rejalarini muvofiqlashtirishda tezkor qarorlarni ishlab chiqish, moddiy va moliyaviy resurslar bilan aniq harakat qilish orqali AATning eng katta samaradorligiga erishiladi. Shu bois ham AATlarining faoliyat yuritish sharoitlarida boshqaruv jarayonlari obyektning o'ziga xos tarkibiy-dinamik xususiyatlarini ko'proq yoki kamroq adekvat aks ettiruvchi iqtisodiy-tashkiliy modellarga asoslanadi. Modelning o'xshashligi, eng avvalo uning haqiqiy vaziyatga tahlil qiluvchi sharoitlarda xatti-harakati o'xshashligi ma'nosida obyektga mosligini, qo'yilgan vazifa-ning ta'riflari va xususiyatlari uchun muhim qismida modellashtirilgan obyektning holatini bildiradi. Shubhasiz, modelda obyektning xususiyatlari to'liq qaytarilishi mumkin emas, ammo tahlil qilish va boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun muhim bo'lmagan qismlarini e'tiborga olmaslik mumkin. Modellar ehtimoliy va deterministik, vazifaviy va tarkibiyga bo'lingan, o'z shaxsiy tasnifiga ega. Modelning bu xususiyatlari axborot tizimlarining xilma-xil turlarini vujudga keltiradi. Avtomatlashtirilgan axborot tizimlarining asosiy komponentlari 1-rasmda keltirilgan.

AATni tashkil qilish tajribasi, muvofiqlashtirilgan usullarni iqtisodiy ish faoliyatiga tadbiq etish, ishlab chiqarish - xo'jalik jarayonlarining vaziyatlarini shakllantirish, davlat va tijorat tuzilmalarini zamonaviy texnik vositalar bilan jihozlash boshqaruvda axborot jarayonlari texnologiyasini tubdan o'zgartiradi. Hozirda boshqaruv faoliyatining AAT ko'plab tashkil qilinmoqda.

Avtomatlashtirilgan axborot tizimining asosiy tarkibiy komponentlari

Avtomatlashtirish darajasiga ko'ra avtomatlashtirilgan, avtomatik va noavtomatlashtirilgan (an'anaviy) boshqarish tizimlari o'zaro farqlanadi. **Avtomatlashtirilgan tizimlar** kishilar bo'g'inini (operatorlar, ma'muriy apparat) o'zining organik tarkibiy qismiga kiritadi. **Avtomatik tizimlar** esa yig'ish va sozlashdan so'ng inson ishtirokisiz (proflaktik nazorat va ta'mirlashni hisobga olmasa) prinsip

jihtadan ishlashi mumkin va ularni ko'proq texnologiyalarni boshqarishda qo'llashadi, garchi bu o'rinda avtomatlashtirilgan tizimlar afzal ko'rilsa ham. Tashkiliy boshqaruv tizimlariga kelganda, ular bu xususiyatidan kelib chiqib avtomatik bo'lolmaydi. Odamlar bu tizimlarda quyidagi asosiy vazifalarni hal etadi: birinchidan, bu boshqarish maqsadlari va mezonlarining qo'yilishi va tuzatib borilishidir (ular sharoit o'zgariganda o'zgartirib boriladi), ikkinchidan, qo'yilgan maqsadlarga erishishning eng yaxshi yo'llarini izlab topishda ijodiy elementlarni kiritish (qo'llanayotgan texnologiya yoki tashkiliy ishni keskin o'zgartirish), uchinchidan, ishlab chiqilayotgan qarorlar tizimini tugal tanlash va ularga yuridik kuch berish. Nihoyat, to'rtinchi vazifa bo'lishi mumkin, bu tizimni boshlang'ich axborot bilan ta'minlashki, uni to'plashni to'liq avtomatlash mumkin emas yoki norasional hisoblanadi (masalan, kadrlarni hisobga olish ma'lumotlari, ish joyining o'zgarishi ahvoli va hokazolar).



Avtomatlashtirilgan axborot tizimlarining tasnifi

Boshqaruv obyekti faoliyat yuritishining sohasi bo'yicha tizimlarning tasnifi ravshan bo'lgani uchun, quyidagi alomatlarni ko'rib chiqamiz. Boshqaruv jarayonlarining turlari bo'yicha AAT quyidagilarga bo'linadi:

- Texnologik jarayonlarni boshqarishning AAT - bu texnologik qurilmalar, dastgohlar, avtomatik liniyalarni boshqarishni ta'minlovchi «inson-mashina» tizimlaridir;
- Tashkiliy-texnologik jarayonlarni boshqarishning AAT - texnologik jarayonlarni boshqarishning AAT va korxonalarini boshqarishning AATini birlashtiruvchi ko'p darajali tizimdan iborat;
- Tashkiliy boshqaruvning AAT uchun iqtisodiyotni boshqarishning barcha bosqichida amalga oshiriladigan, ishlab chiqarish, ho'jalik, ijtimoiy-iqtisodiy, vazifaviy jarayonlar obyekti bo'lib xizmat qiladi, xususan:
 - a) Bank AAT;
 - b) Fond bozori AAT;
 - c) Moliya AAT;
 - d) Sug'urta AAT;
 - e) Bojxona xizmati AAT;
 - f) Statistika AAT;
 - r) Marketing AAT;
 - i) Buxgalteriya AAT;

i) Sanoat korxonalarini va tashkilotlari AAT va boshqalar;

- Ilmiy tadqiqotlarning AAT - sohalararo hisob-kitoblar va ilmiy tajribalarning yuqori sifati va samaradorligini ta'minlaydi. Iqtisodiy-matematik usullar bunday tizimlarning uslubiy baza, eng turli-tuman hisoblash texnikasi va tajriba ishlari modellashtirilishini o'tkazish uchun texnik vositalar - **texnik bazasi** bo'lib xizmat qiladi. Ham tashkiliy-texnologik tizimlar, ham ilmiy tadqiqotlarning tizimlari o'z konturiga ishlarning loyihalashtirishni avtomatlash-tirilgan tizimlari (LAT)ni olishi mumkin;

- O'qituvchi AATlari ta'lim tizimida mutaxassislarni tayyorlashda, turli soha xodimlarini qayta tayyorlashda va malakalarini oshirishda keng tarqalgan.

Tasnifning informatika va axborot texnologiyalari fani alomatlari bo'yicha uch guruh: **sohaviy**, **hududiy** va **sohalararo** AATlar ajratiladi. Ular bir vaqtning o'zida tashkiliy boshqaruvning, ammo keyinchalik iyerarxiyaning yuqoriroq darajasi tizimlari bo'ladi:

- Sohaviy AATlar sanoat va agrosanoat majmualari tarmoqlarida, qurilishda, transportda faoliyat yuritadi. Bu tizimlar tegishli muassasalarning boshqaruv apparatlariga xizmat qo'rsatish masalasini hal qiladi;

- Hududiy AATlar ma'muriy-hududiy tumanlarni boshqarish uchun mo'ljallangan.

Hududiy tumanlarning faoliyati mintaqada boshqaruv vazifalarini sifatli bajarish, hisobotni shakllantirish, mahalliy davlat va xo'jalik idoralariga tezkor ma'lumotlarni berishga yo'nal-tirilgan;

- Sohalararo AATlar milliy iqtisodiyotni boshqarishning xizmat idoralarining ixtisoslashtirilgan tizimlaridir. O'z tarkibida qudratli hisoblash texnikalari majmualariga ega bo'lgani bois, sohalararo ko'p bosqichli AATlar iqtisodiy va xo'jalik bashoratlari, davlat byudjetini ishlab chiqishni ta'minlaydi, xo'jalikning barcha bo'g'inlari faoliyati natijalarining nazorati va tartibga solinishi, hamda resurslar mavjudligi va taqsimlanishining nazoratini amalga oshiradi.

Iqtisodiyot va boshqaruv faoliyati sohasida axborotlashtirishning zamonaviy rivojlanishi tashkiliy, texnik va texnologik jarayonlarni hal qilishga yagona yondoshishni talab qiladi. AAT va axborotlashtirish jarayonlarining faoliyat yuritishi va tashkil qilinishining natijalarini belgilovchi **asosiy omillar** quyidagilardan iborat:

- Mutaxassisning axborotlarni avtomatlashtirilgan holda ishlab chiqish va qarorlar qabul qilish tizimida faol ishtirok etishi;

- Axborot faoliyatini biznesning turlaridan biri kabi qabul qilish;

- Aniq iqtisodiy obyektida amalga oshirilayotgan jarayonlarning zamonaviy dasturiy - texnik, texnologik platformalarga asoslanganligi;

- Foydalanuvchilarning talablariga muvofiq axborotlashtirish sohasida ilmiy va amaliy ishlanmalarni yaratish va tadqiq etish;

- Tashkiliy va vazifaviy o'zaro hamkorlik, uning matematik modeli, tizimli va dasturiy ta'minlanishini shakllantirish;
- Boshqaruv sohasida samaradorlikning berilgan mezonlarini hisobga olish bilan aniq amaliy vazifalarni qo'yish va hal qilish.


AATni umumiy maqsadga erishish uchun mutaxassislar, hisoblash vositalari va boshqa texnikalar, matematik usullar, modellar, aniq mahsulotlar, ularning bayoni hamda ko'rsatib o'tilgan tarkibiy qismlarning o'zaro hamkorligi usul va tartiblarining tashkil qilingan majmui sifatida belgilab, hozirgi kunga qadar mutaxassis amaliy bo'g'in va boshqaruvchi subyekt bo'lib qolmoqda. Ammo kompyuter muhitida ishlovchi hozirgi mutaxassislar o'ttiz yil oldingi, axborot hisoblash markazlari sharoitida markazlashtirilgan holda ishlab chiqilgan texnologiyalar ustunlik qilgan davrda mehnat qilganlaridan farq qiladi. Eng avvalo hozirgi sharoitda faoliyat yuritayotgan zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalarida, avvalda bo'lganidek, tizimdan foydalanuvchi, iqtisodchi, vazifalarni qo'yuvchi, operator, dasturchi, xizmat ko'rsatuvchi texnik xodimlarning vakillari o'rtasida aniq farqlar yo'q. Bundan tashqari, AAT ishlab chiqaruvchisi va foydalanuvchisi o'rtasida yaqin vazifalarga qadarlik yengib o'tib bo'lmaydigan «devor» qulagan. Hozirda tayyor instrumental dasturiy vositalar mavjudki, ular izohlash usuli bilan shaxsiy dasturiy - yo'naltirilgan mahsulotlar - amaliy dasturlar paketlarini tezda ishlab chiqishga imkon beradi. Buning uchun eng avvalo o'z sohasining yaxshi mutaxassisi bo'lishi kerak. Foydalanuvchiga yordam berish uchun obyektli-yo'naltirilgan yondoshish borgan sari faolroq tadbiiq etilmoqda, u mutaxassisga AAT tadbiiq etilgunga qadar birlamchi hujjatlarning turli-tumanliklari bilan ishlashga imkon beradi.

Avtomatlashtirilgan axborot tizimini tadbiiq etishning samarali yo'llari

AAT ishlab chiqaruvchisi va foydalanuvchisi o'rtasida yaqin vazifalarga qadarlik yengib o'tib bo'lmaydigan «devor» qulagan. Hozirda tayyor instrumental dasturiy vositalar mavjudki, ular izohlash usuli bilan shaxsiy dasturiy - yo'naltirilgan mahsulotlar - amaliy dasturlar paketlarini tezda ishlab chiqishga imkon beradi. Buning uchun eng avvalo o'z sohasining yaxshi mutaxassisi bo'lishi kerak. Foydalanuvchiga yordam berish uchun obyektli-yo'naltirilgan yondoshish borgan sari faolroq tadbiiq etilmoqda, u mutaxassisga AAT tadbiiq etilgunga qadar birlamchi hujjatlarning turli-tumanliklari bilan ishlashga imkon beradi.

Bunday holat SHKlar va boshqa ixcham, nisbatan arzon hisoblash texnikasi vositalarining shiddat bilan tarqalishi tufayli mumkin bo'ldi. AATga kompyuter va texnik vositalardan tashqari, aloqa vositalari va orgtexnika kiradi.

SHKlarni tarmoqqa birlashtirishning imkoniyati paydo bo'ldi, u foydalanuvchiga ishlab chiqish, iqtisodiy va moliyaviy vaziyatlarni tezkor tahlildan o'tkazish uchun sifatli yangi sharoitlarni yaratib beradi, super-EHM bilan birga bu imkoniyatlar amaliy cheklanmagan. Bundan tashqari tuzilishi va foydalanishi jihatdan turli xildagi platformalarni birlashtirish imkoniyatini berdi. Xuddi shunday yondashish asosida pochta bo'limi ishining tashkil qilinganligi quyidagi rasmda keltirilgan.




3 – rasm. Pochta bo'limining AAT asosida tashkil qilinishi

Texnik qarorlarning o'ta muhimligiga qaramay, loyihalashtirish va uni keyinchalik kam-ko'stini tuzatuvchi ishtirokchilar tomonidan ishlab chiqilayotgan aqliy mahsulotlar AATning qimmatligini va

noyobligini tashkil qiladi. Bunda tizim foydalanuvchilari uchun yaxshi yozilgan, majmui AAT hujjatlarini tashkil qiluvchi, foydalanish bo'yicha batafsil yo'riq-nomaning mavjudligi tizimlarning uzoq muddatlilik va barqaror faoliyat yuritishi uchun juda muhim va ba'zan hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. EHM va telekommunikasiya texnikasiga asoslangan turli sinflar va belgilanishlardagi axborot tizimlari ushbu fanning obyekti bo'ladi. Informatika va axborot texnologiyalari ularni ishlab chiqish, loyihalashtirish, yaratish va amalda foydalanishning barcha tomonlarini o'rganadi.

Hozirgi vaqtda AAT juda keng tarqalgan. AAT tasniflanishi bir qator alomatlar bo'yicha amalga oshiriladi, yechilayotgan vazifaga ko'ra tasniflanishning turli xildagi alomatlarini tanlab olish mumkin. Bunda bitta AATning o'zi bitta yoki bir nechta alomatlar bilan ta'riflanishi mumkin. AATni tasniflashning alomatlari sifatida quyidagilardan foydalaniladi: hududni qamrab oluvchi qo'llanish sohasi, axborot jarayonlarini tashkil qilish, faoliyatni yo'naltirish, belgilanish, tuzilma va boshqalar. Faoliyatni yo'naltirish bo'yicha AATni tasniflash 4-rasmda keltirilgan.



4 – rasm. Faoliyat ko'rsatish yo'nalishi bo'yicha AAT tasniflanishi

Faoliyat ko'rsatish sohasi bo'yicha axborot tizimlari quyidagi yo'nalishlarga ajratiladi: sanoat, transport, aloqa, qishloq xo'jaligi va hokazolar.

Qo'llanish sohasi bo'yicha asosiy tasnifiy belgi axborot tizimlari va texnologiyalarini qo'llash sohasi bilan aniqlanadi.

Mamlakat milliy iqtisodiyoti ijtimoiy mahsulotni yaratish, iste'mol qilish yoki taqsimlashda ishtirok etuvchi iqtisodiy-tashkiliy obyektlarni (korxonalar, birlashmalar, konsernlar va hoka-zolar) o'zida aks ettiradiki, ular ham o'z navbatida ishlab chiqarish va iqtisodiy-tashkiliy axborot tizimlariga bo'linadi.

Ishlab chiqarish tizimlarida mahsulotlarni yaratish, loyihani ishlab chiqish, ilmiy qoidalarni tayyorlash amalga oshiriladi. Ishlab chiqarish jarayonlarining me'yorida ishlashini boshqarish tizimi ta'minlanadi, unda ishlab chiqarish sohasida bevosita ishtirok etmaydigan mutaxassislar band bo'ladi. Ular faoliyatining sohasi - ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etish va boshqarish, ular talab etadigan zahiralarni ta'minlashdir.

Ishlab chiqarish tizimlari sinfini mahsulotning turli hayotiy sikli bosqichlariga muvofiq holda kichik sinflarga bo'lish mumkin: ilmiy tadqiqot - loyihalash - ishlab chiqarish – sinovdan o'tkazish.

Ishlab chiqarish jarayonlari uchun axborot-kommunikasiya texnologiyalarini qo'llash tegishlicha mehnat vositalari, texnologik va ishlab chiqarish jarayonlari, ilmiy tadqiqotlar, loyiha ishlari va ishlab chiqarishni texnologik tayyorlashning kompleks avtomatlashtirish tizimlariga olib keladi.

Texnologik jarayonlarni kompleks avtomatlashtirish uchun axborot-kommunikasiya texnologiyalarini qo'llash texnologik jarayonlarni avtomatlashtirilgan boshqarish tizimi, moslashgan ishlab chiqarish tizimlari, transport-omborxonalar tizimlarining yaratilishiga olib keladi. Bunday tizimlarni yaratishdan maqsad - milliy iqtisodiyot tarmoqlarini yuqori ishonchli mehnat vositalarini tadbiq etish hisobiga texnik qayta jihozlashni ta'minlash, ularni avtomatlashgan uchastka va texnologik jarayonlarga komplekslash, ishlab chiqarishga moslashuvchanlik hamda iqtisodiylikni bag'ishlashdir.

Axborot-kommunikasiya texnologiyalarini ilmiy tadqiqot loyihalari, konstruktorlik ishlari, texnologik tayyorlashda qo'llash ilmiy tadqiqotlarning avtomatlashtirilgan tizimi, loyihalash

avtomatlashtirilgan tizimi, ishlab chiqarishni texnologik tayyorlash avtomatlashtirilgan tizimining yaratilishiga olib keladi.

Kompleks ITAT va LAT ilmiy-tadqiqot instruktorlari va loyiha tashkilotlarida fundamental tadqiqotlarni olib borish va texnika, texnologiyalarning yangi avlodlarini yaratish uchun ishlatiladi. Bunday tizimlar tarkibiga sun'iy intellekt komponentlari (ekspert tizimlar, bilimlar bazasi, multimedia vositalari) va ishchi stansiyalari lokal tizimlari hamda tadqiqotchi konstruktorlarning avtomatlashtirilgan ishchi o'rinlari kiradi.

Axborot-kommunikasiya texnologiyalarini ilmiy-tadqiqotlar, loyiha-konstruktorlik ishlari va ishlab chiqarishni texnologik tayyorlashdan asosiy maqsad «tadqiqot-loyihalash-konstruktorlash- ishlab chiqarishga tayyorlash» hayotiy davrining barcha bosqichlarida mahsulot ishlanmalari va texnologiyasini o'tkazish, sifati, foydalanish xarakteristikasi, texnologiyasi, yangi mahsulot ilmiyligi jihatini oshirish, nomenklaturani kengaytirish, tajribaviy ishlab chiqarishni qisqartirishdan iborat.

Sanoat sohasida AAT iyerarxiyasining sohaviy harakati ustunlik qiladi.

Avtomatlashtirilgan axborot tizimini yaratish va rivojlantirishning zamonaviy tendensiyasi va omillari

Milliy iqtisodiyotning bozor sharoitida faoliyat ko'rsatishiga o'tishi, axborot-kommunikasiya texnologiyalari sohasidagi yutuqlar avtomatlashtirilgan axborot tizimlarini yaratish va rivojlantirishga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bular quyidagilarda o'z aksini topmoqda:

1. Ishlab chiqarish uchun SHK va kommunikasiya tarmoqlari samarali va nisbatan arzon hisoblash vositalari ommabop va qulay bo'lib qoldi. Jahon hamjamiyati qo'llab-quvvatlaydigan global axborot tarkibiga kirish imkoni yuzaga keldi. Bozorga turli xil ishga mo'ljallangan texnik vositalar va dasturiy ta'minotlar yetkazib berilmoqda. Ular keng foydalanuvchilar doirasining ta'minotini ancha samarali ta'minlashi mumkin. Shuni takidlash joizki, SHKlar funksional imkoniyatlari quyidagi foydalanuvchilar talablariga ko'proq mos keladi: rahbarlar (turli darajadagi menejerlar), mutaxassislar va texnik xodimlar.

2. Axborot-kommunikasiya texnologiyalar parkini SHKlar va ular bazasida yaratiladigan axborot tarmoqlari hamda tizimlari rivojlanishi ularni qo'llashda bir qator quyidagi asosiy tendensiyalarni ajratib ko'rsatish imkonini beradi:

- Foydalanuvchilarning SHKda ishlashi ularga axborotlarni avtomatik ravishda qayta ishlash tizimida faol ishtirok etish va boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonini beradi. Eng oxiridagi foydalanuvchiga mo'ljallangan SHK o'z-o'zini o'rgatish (o'qitish) vositalari, xatolardan himoyalashning moslashuvchan vositalari, ayniqsa texnik-dasturiy vositalari rivojlanadi;

- Axborotlarni saqlash va qidirish amallarining, turli foydalanuvchilar, tizimlar va boshqaruv darajalari o'rtasida axborot almashish samaradorligiga bo'lgan talab ortadi. Bu esa ma'lumotlar banki va SHK tarmog'idan foydalanish sharoitida axborotlarni qayta ishlashning kompleks texnologiyasini ishlab chiqarishni talab qiladi.

3. Axborot tizimlari faoliyatining maqsadli yo'nalishi yuzaga keldi va o'zgardi. Tashkilot ishlab chiqarish faoliyatining daromadligini kuchaytirishga ko'maklashish darajasi ularning foydaliligi mezoni bo'lib qolmoqda.

4. Tatbiq etilayotgan axborot tizimlarini tegishli texnik vazifalar va foydalanishning aniq shart-sharoitlariga mos ravishda sinab ko'rishga nisbatan qat'iy shartlar va talablar yuzaga keldi. Bunday sinovlar davomida axborot tizimlarining buyurtmachi xodimi nisbatan ko'p va malakali manfaat ko'radi.

5. Boshqaruv faoliyatini avtomatlashtirishning muammo sohasi keskin kengayadi, boshqaruv faoliyatini amalga oshirish darajasi, natijalarning aniqligi, ularni olish tezkorligiga bo'lgan talab ortmoqda. Tashkilot ichidagi turli axborot tizimlarining intergralashuv tendensiyalari va turli tashkilotlar axborot tizimlarining o'zaro foydali kommunikasiya aloqasi barqarorlashmoqda.

6. Ko'pgina faoliyat yurituvchi tashkilotlarda yangi dasturiy ilovalarga bo'lgan ehtiyoj ortmoqda. Yangi dasturiy ilovalarga bo'lgan talab va ularni amalga oshirish o'rtasidagi disbalans to'xtovsiz o'sib bormoqda. Mavjud tizimlarni yangi sharoitlarga moslash yoki texnik vositalar, operasion tizimlar bilan ishlash uchun modifikasiyalash harajatlarining o'sib borishi tufayli ilovalar sonini oshirish oqsayapti. Bunday holatdan chiqib ketish uchun oxiridagi foydalanuvchilarni shaxsiy tizim va ularning ilovalarini yaratishga jalb etish, ularga kuchli asbob-uskuna vositalarini yetkazib berish lozim.

7. Avtomatlashtirilgan axborot tizimidagi asosiy bo'g'in baribir inson bo'lib qolaveradi. Shuni qayd etish lozimki, hozirgi axborot-kommunikasiya texnologiyalari faoliyatida tizimning oxiridagi foydalanuvchi bilan loyihalovchi, operator, dasturchi, xizmat ko'rsatuv xodim o'rtasida aniq tafovut yo'q. Bugungi kunda interpretasiya uslubi orqali o'z dasturiy mo'ljallangan mahsulotni – amaliy dasturlar paketini tezda ishlab chiqish imkonini beruvchi tayyor dastur vositalari mavjud.

8. Texnik qarorlarning butun ahamiyatiga qaramasdan, AATning ahamiyati va qimmatini loyihalashtirish ishtirokchilari ishlab chiqadigan noyob mahsulotlar belgilaydi. Ayni paytda AATning uzoq vaqt va mustahkam ishlashi uchun undan foydalanish bo'yicha batafsil bayon etilgan yo'riqnomaning bo'lishi hal etuvchi ahamiyatga ega bo'ladi.

9. AAT yaratishning asosiy shartlari quyidagilar sanaladi: harajatlarni qoplashni ta'minlovchi samara manbaining mavjudligi; boshqaruv jarayonlari va obyektlarini avtomatlashtirishning talab darajasini ta'minlash; obyektning belgilangan talablarga mos holda AATni yaratishga tayyorligi; AATni yaratish talabiga mos holda tashkiliy, ishlab chiqarish, texnologik tizimlarni qayta qurish va modernizatsiyalash, AATning texnik hujjatlarga mos holda texnik va dasturiy vositalar bilan jamlanish kafolati, AATni talab darajasidagi malakali xodim bilan ta'minlash, AATdan foydalanuvchilarni tayyorlash va qayta tayyorlash. AATni yaratish, ishlash va rivojlanish natijalarini belgilovchi asosiy omillar quyidagicha:

- Xodimning axborotlarni qayta ishlashni avtomatlashtirish tizimida va boshqaruv qarorini qabul qilishda faol ishtirok etishi;
- Axborot faoliyatining axborot biznesi sifatida talqin qilinishi;
- Aniq bir obyektga amalga oshiriladigan dasturiy-texnik, texnologik platformaning mavjudligi;
- Axborot tizimi va texnologiyasi sohasida foydalanuvchilar talablariga muvofiq ilmiy hamda amaliy ishlanmalarni yaratish va tatbiq etish;
- Tashkiliy-funksional o'zaro harakat shartlarining shakllanishi va uning matematik, model, tizim va dasturiy ta'minoti;
- Berilgan samaradorlik mezonlarini hisobga olgan holda boshqaruv sohasida aniq amaliy vazifalarni qo'yish va hal etish.

Takrorlash uchun savollar:

1. Tizim tushunchasiga ta'rif bering.
2. Tizimga misollar keltiring.
3. Quyosh sistemasi haqida nimalarni bilasiz?
4. Axborot tizimiga ta'rif bering.
5. Boshqarish deganda nimani tushunasiz?
6. Boshqaruv tizimi komponentlari va ularning vazifalarini aytib bering.
7. To'g'ri va aks aloqalarni tushuntirib bering.
8. Axborot tizimlarining qanday turlarini bilasiz?

15-ma'ruza

. Elektron biznes va Mobil-tijorat

Reja:

1. ERP tizimlarini qayta ishlash.
2. Tashkilotlardagi boshqaruv va biznes jarayonlarini avtomatlashtirish
3. Billing tizimi
4. Statistika tushunchasi, bo'limlari, vazifalari
5. Statistik faoliyatni rivojlantirish chora-tadbirlari
6. Davlat statistika hisobotlari elektron ko'rinishda ifodalash

Tayanch iboralar: ERP tizimi, kompaniya resurslari, boshqaruv tizimi, yagova axborot makoni, Billing tizimi, portal, integratsiya, statistika, iqtisodiy statistika, ijtimoiy statistika, miqdoriy taxlil, statistik xisobot, iqtisodiyot, eStat tizimi, ijtimoiy-siyosiy barqarorlik, ichki bozor, raqobatbardosh, sifatli mahsulot

Adabiyotlar: «Buxgalterga elektron madad» («BEM») milliy dasturiy mahsulotidan foydalanuvchilari uchun o'quv qo'llanma. T.: 2010;

Fulomov S.S., Begalov B.A. Iqtisodiy informatika/ Toshkent, "O'zbekiston": 2010 y.

1.ERP tizimlarini qayta ishlash.

ERP tizimlari (Enterprise Resource Planning System) – bu kompaniya resurslarini boshqaruv tizimlaridir. Bu tizimlar kompaniyaning barcha bo'linmalarini va uning zarur funksiyalarini yagona kompyuter tizimida birlashtirish uchun joriy etiladi. Bunda u kompaniyaning bo'linmalari joriy ehtiyojlarini qondirishga xizmat ko'rsatadi.

ERP tizimi barcha bo'linmalar va vazifalar bo'yicha yagona axborotlar bazasini yuritadi, shuning uchun axborotdan foydalanish osonlashadi va eng asosiysi bo'linmalarda axborot almashish imkoniyati yaratiladi.

Tashkilotga ERP tizimini joriy etish ma'lumotlarning ishonchlilik darajasining yuqoriligini, zarur axborotni olishda tezkorlikni, barcha bo'linmalarda bir xil ma'lumotdan foydalanish imkoniyatini ta'minlaydi. Shu bilan birga tizimda axborotni ruxsatsiz olish va chiqib ketmasligini ta'minlash ishonchli himoya darajasini qo'llash orqali amalga oshiriladi. ERP tizimida barcha asosiy va yordamchi biznes-jarayonlar avtomatlashtiriladi, shu jumladan moliyaviy hisobot va distributsiya, ishlab chiqarish va logistika, kadrlar bilan ishlash hamda mijozlar bilan o'zaro munosabatni boshqarish kabi jarayonlardir. Yaratilgan boshqaruv tizimi kompaniyaning daromad olish darajasini va uning bozordagi o'rini oshiradi.

ERP tizimi tashkilotga yoki tashkilotlar guruhiga quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- yagona axborot makonini yaratish;
- faoliyatning asosiy ko'rsatkichlarini oshirish;
- boshqaruv tizimini tizimlashtirish va takomillashtirish;
- boshqaruv samaradorligini oshirish;
- o'z faoliyati to'g'risida ma'lumotlarni olishda ishonchlilikni va tezkorlikni oshirish;
- hisobotlarni o'z vaqtida va sifatli olishni takomillashtirish;
- kompaniyaning asosiy biznes-jarayonlarini samaradorligini oshirish.

2.Tashkilotlardagi boshqaruv va biznes jarayonlarini avtomatlashtirish

Katta tashkiliy tuzilmaga ega tashkilot va idoralar uchun UZINFOCOM Markazi tashkilotning ko'p sonli va tarqoq filiallarini yagona axborot muhitiga birlashtirish imkonini beruvchi axborot tizimini yaratishni taklif etadi.

Markaz mutaxassislari MS SharePoint Portal Server platformasida jamoaviy axborot tizimlarini joriy etish bo'yicha loyihalarni amalga oshirib kelmoqdalar. Loyiha o'z ichiga quyidagi bosqichlarni oladi:

- Buyurtmachi-tashkilot talablarini o'rganish va tahlil qilish
- Portalni loyihalashtirish va uning prototipini yaratish
- Dasturiy ta'minotni o'rnatish va sozlash
- Joriy etish va o'rgatish
- Texnik qo'llab-quvvatlash.

Bunday axborot tizimlarini joriy etish natijasida, tashkilotda asosiy ish jarayonlaridagi samaradorlik ortib boradi.

Bugungi kunga kelib Markaz tomonidan qator axborot tizimlari ishlab chiqilgan va joriy etilgan:

“Ctrl” Davomatni nazorat qilish axborot tizimini joriy etish orqali tashkilotingizdagi xodimlarning mexnat intizomi monitoringini yuritib borish va tashkilotingizga ruxsatsiz kirishlarni cheklash kabi keng ko'lamli imkoniyatlarni yaratishingiz mumkin. Mazkur tizim hozirda UZINFOCOM markazida joriy etilgan bo'lib, boshqa tashkilotlarda ham joriy etish maqsadida sinovdan o'tkazilgan.

MS SharePoint asosida jamoaviy portal – u tashkilotda yangi ish muhitini shakllantiradi, natijada axborotni tezkor qabul qilish va qayta ishlash, qo'yilgan vazifalarni ijrosini nazoratga olish, hujjatlarni elektron ko'rinishda kelishish, to'g'ri qarorni qabul qilish uchun kerakli hisobotlarni va tahliliy

ma'lumotlarni olish imkoniyati yaratadi. Portal UZINFOCOM Markazida bir necha yil oldin joriy etilgan va uni boshqa tashkilotlarga ham o'rnatish maqsadida sinovdan o'tkazilgan.

"Aloqa" Axborot tizimlari kompleksi – uning doirasida «Telefon aloqasi», «Pochta aloqasi» va «Aloqa va ma'lumot uzatish tarmoqlarini boshqarish» tizimostilari yaratildi. Mazkur tizimlar yordamida telefon aloqasi, pochta aloqasi va aloqa tarmoqlari hamda ma'lumotlarni uzatish bo'yicha axborotlar jamlanadi va ularni foydalanuvchilarga faoliyat doirasida qo'llash, shu jumladan, bu yo'nalishlar bo'yicha asosiy ko'rsatkichlarni monitoring va tahlilini amalga oshirish imkoniyati yaratilgan. Hozirgi kunda Axborot tizimlari kompleksi «O'zbekiston pochta» OAJning, «O'zbektelekom» AK va O'z TTBRMning barcha bo'linmalarida joriy etilgan.

«Mahalla» axborot tizimlari kompleksi – mahalliy o'z-o'zini boshqarish muassasalari va ular faoliyatlari to'g'risida ma'lumotlarni jamlash, qayta ishlash, tizimlashtirish va saqlash uchun «Fuqarolar yig'ini» axborot tizimi yaratildi.

EMMM axborot tizimi – EMMM markaziy apparati va filiallarida electron hujjat aylanish tizimini joriy etish.

O'zbekiston Respublikasi Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari qo'mitasi axborot tizimini – axborot tizimining asosiy vazifalari bo'lib ishyuritish va hujjat aylanish jarayonlarini hamda o'zaroaloqa shakllarini standartlashtirish va unifikatsiya qilish, takrorlanuvchi jarayonlarni bartaraf etish hisoblandi.

Davlat statistika qo'mitasi axborot tizimi. Bu loyiha doirasida 5 ta tizim ishlab chiqilgan:

- Asosiy ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarning ma'lumotlar bazasini boshqarish bo'yich maxsus dasturlar kompleksi (ONLINE – yechim)
- Internet tarmog'i orqali statistika hisobotlarini yig'ish tizimi (ONLINE – yechim)
- Tashkilotlar va muassasalarining yagona davlat registrini boshqarish va firma nomlarini taqdim etish tizimi (ONLINE – yechim)
- Elektron hujjat aylanish tizimi
- Rasmiy veb-sayt orqali ststistik ma'lumotlarni taqdim etish bo'yicha interaktiv davlat xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha tizim.
- Axborot tizimlarini yaratish bo'yicha shartnoma tuzish yuzasidan quydagi raqamlarga murojaat qilishingiz mumkin: telefon: 238-4228

Axborot xavfsizligi ekspertizasi

Axborot xavfsizligi (AX) ekspertizasi tashkilotlarning kompyuter tizimlarini kamchilik va zaifliklarini aniqlash maqsadida amalga oshiriladi hamda ularning ish samaradorligini baholash va tashkilotning axborot himoyasini tahlilini tashkil etish maqsadida quidagi ishlarni amalga oshiradi:

- tizimning mavjud meyoriy talablarga mosligini baholash;
- xavfsizlik sohasida qabul qilinayotgan barcha yechimlarni asosli va xuquqiyligini aniqlash.

Tizimni samarali va to'g'ri ishlashini baholash axborot xavfsizligi darajasini oshirish maqsadida tashkilotlarning tashabbuslari bilan UZINFOCOM Markazi mutaxassislari tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

Tashkilot o'z faoliyati doirasida konfidensial ma'lumotlar bilan ishlasa (xodimlar yoki mijozlar ma'lumotlari) AX ekspertizasini o'tkazish o'ta muximdir. Bu turdagi ma'lumotlarni tashqi kirishlardan himoyalash shunchaki extiyotkorlik emas, balki tashkilotning asosiy majburiyatlaridan biridir.

UZINFOCOM Markazi mutaxassislari tomonidan o'tkaziladigan AX ekspertizasi ma'lumotlar muximligi darajasi, konfidensial axborotlarni saqlash ob'ektlarining tahlili va ularni saqlash ob'yektlariga kirish yo'llarini aniqlashni; korporativ muhitda yechilayotgan masalalarni tekshirishni; operatsion tizim, tarmoq xizmatlari protokollari va himoya tizimlari analizini o'z ichiga oladi.

O'tkazilgan, tarmoq va tizim axborot xavfsizligini ekspertizasi asosida, UZINFOCOM Markazi mutaxassislari, tashkilotning axborot resurslari himoyasini kerakli darajaga oshirish imkoniyatini beruvchi tavsiyalar beradilar.

AX ekspertizasi quyidagi bosqichlardan iborat:

- ishchi stansiyalarni tashqi nazorati;
- serverlarni tashqi nazorati;
- ishchi stansiyalar va serverlarni local tarmoq doirasida zaifliklar mavjudligiga maxsus dasturiy ta'minot bilan skanerlash;
- mavjud veb-saytlarni zaifliklar mavjudligiga avtomatlashtirilgan dasturiy ta'minot bilan skanerlash va standart qo`losti vositalari yordamida tekshirish;
- o`rganilayotgan axborot tizimi joylashgan hududda mavjud jismoniy himoyaning tahlili;
- mavjud ichki meyoriy hujjatlarning taxlili, xususan axborot himoyasi doirasida;
- tashkilotdagi javobgar shaxslarni so`rovdan o`tkazish;
- ommaviy resurslarni va tarmoqda aylanayotgan ma'lumotlarning tahlili.

Axborot xavfsizligi ekspertizasini o`tkazishga shartnoma tuzish bilan bog`liq savollar bilan UZINFOCOM Markazining quyidagi telefonlariga bog`langan holda javob olishingiz mumkin: 238-42-41, 238-42-42.

«Ctrl» Davomatni nazorat qilish axborot tizimi

Bugungi kunda tashkilotlar o`z xodimlari davomati va intizomini ob`ektiv baholashda bir qator muammolariga duch kelmoqdalar. Yirik tashkilotlarda xodimlarning ish vaqtini kuzatib borishni texnik vositalarsiz amalga oshirishning deyarli iloji yo`q. Bundan tashqari, yirik tashkilotlarda turli xil ob`ektlarga kirish-chiqish huquqi nazoratini axborot-kommunikatsiya texnologilarni joriy etmay turib, qator muammolarni jumladan xavfsizlik bilan bog`liq muammolarni hal etish imkoni yoq. UZINFOCOM Markazi tomonidan yaratilgan «Ctrl» tizimini joriy etish orqali tashkilotingizdagi xodimlarning mehnat intizomi monitoringini yuritib borish va tashkilotingizga ruxsatsiz kirishlarni cheklash kabi keng ko`lamli imkoniyatlarni yaratishingiz mumkin. Shu bilan bir qatorda, mazkur tizim joriy etilgandan so`ng, texnik tomonlama uni qo`llab-quvvatlashga harajatlar minimalligi bilan ajralib turadi. Bundan tashqari, ushbu tizim avtomatlashgan tarzda xodimlarning davomatini juda aniqlik bilan qayd qilib borib, ularni turli ob`ektlarga kirib chiqishini ham nazorat qiladi. Mazkur tizim hozirda UZINFOCOM markazida joriy etilgan bo`lib, boshqa tashkilotlarda ham joriy etish maqsadida sinovdan o`tkazilgan.

«Ctrl» tizimini ishlash tamoyili shundan iboratki, bunda zaruriy joyga nazorat nuqtasi (NN) o`rnatilib, shu nuqtadan ID-kartani (RFID tizimida ishlovchi) o`tkazish yo`li orqali kirish yoki chiqish amalga oshiriladi.

NNlarning funksional ahamiyati qo`yiladigan talablarga ko`ra turlicha bo`lishi mumkin. Bu faqatgina NNdan o`tganlikni qayd etish yoki NNdan o`tganlikni belgilash va nazorat qilish bo`lishi mumkin.

Har bir NNsi orqali qayd etilgan faktlar yagona bazada to`planib boriladi. Keyinchalik xodimlarning kirish-chiqishini ko`rib borish uchun ularni avval ma'lumotlar bazasiga kiritish va ularning ID-kartalarini kirish ruxsati nishoni tarzida belgilab qo`yish kerak.

MS SharePoint asosidagi jamoaviy portal va elektron hujjat aylanishi tizimi

Hozirgi kunda faoliyatni yaxshilash uchun faqatgina ko`p miqdordagi axborotga ega bo`lish kamlik qiladi.

Ko`p miqdordagi turli xil ma'lumotlar (huquqiy hujjatlar, tahlillar, shartnomalar, hisobotlar, ish davomidagi yozishmalar va h.k) mazkur jarayonni faqatgina sekinlashtirishi mumkin. Ma'lumotlarni qayta ishlash jarayoni optimallashtirilmasa, xodimlar kerakli ma'lumotlar bilan ishlashdan ko`ra ularni izlashga ko`p vaqt sarflaydilar.

Bu muammoni yechishda korporativ portal yordam beradi. U web texnologiyasi yordamida yaratiladigan tizim bo`lib, tashkilot faoliyatiga uzviy bog`langan va uning resurslarini boshqarish imkonini beruvchi axborot tizimini aks ettiradi.

Korporativ portalni joriy etish quyidagi vazifalarga yechim topish imkonini beradi:

- Turli axborot manbalariga kirishga ruxsat berish orqali xodimlar mehnati samaradorligini oshirish;
- Tizimga kirishga ruxsatni chegaralash orqali hujjatlar bilan ishlashda hamkorlikni ta'minlash;
- Tashkilotlarning biznes jarayonlarini avtomatlashtirish va turli xil ilovalarini korxonaning yagona axborot muhitiga birlashtirish, Microsoft Office System, biznes-tahlil va loyihalarni boshqarish,

shuningdek mavjud sohaga oid tizimlar, xususan ixtisoslashgan dasturiy ta'minot kabi qator tizimlarga bir nuqtadan kirish imkoniyatini yaratish;

- Tashkilotning axborot xizmatlariga kirishlarini markazlashtirilishi, ularni qo'llab-quvvatlash va modernizatsiyalashning osonlashtirilishi hisobiga kompaniya xarajatlarining kamayishi;
- AT xizmatlarini yanada rivojlanishi va tashkilotlarning biznes jarayonlarini avtomatlashtirish uchun yagona platforma yaratish.

Tashkilotni boshqarishni kompleks avtomatlashtirish bo'yicha UZINFOCOM Markazi ichki korporativ portalni joriy etishni taklif etadi. Ushbu portal tashkilotda yangi ish muhitini shakllantiradi, natijada axborotni tezkor qabul qilish va qayta ishlash, qo'yilgan vazifalarni ijrosini nazoratga olish, hujjatlarni elektron ko'rinishda kelishish, to'g'ri qarorni qabul qilish uchun kerakli hisobotlarni va tahliliy ma'lumotlarni olish imkoniyati yaratadi. Bu tizim doirasida quyidagi asosiy jarayonlarni avtomatlashtirish Mazkur tizim doirasida quyidagi asosiy jarayonlarni avtomatlashtirish amalga oshiriladi:

- EDO ichki elektron hujjat aylanishi tizimi;
- Ijro intizomi monitoringi va boshqaruvi;
- Xodimlar masalalari bo'yicha ish yuritish;
- Barcha yoki alohida bo'lim va bo'linmalar ishini yuritish;
- Buxgalteriya va boshqa statistik hisobotlarni yuritish;
- Tashkilot faoliyati bo'yich ma'lumotlar bazasini va markazlashgan reestreni yuritish (bazasi, hisobot shakllari, turli blankalar, kontaktlarning ma'lumotlar banki, tashkilotlar va xodimlar reestri va h.z)

Mazkur tizim UZINFOCOM Markazida bir nacha yil avval joriy etilgan va to'liq sinovdan o'tkazilgan. Elektron hujjat aylanish tizimi muntazam ravishda yangilanib hamda uning funksional imkoniyatlari kengaytirib borilmoqda.

3. Billing tizimi

Taqdim etilayotgan xizmatlarni iste'mol qilinish hisobini yurituvchi qulay tizim.

Tizimda qulay tarif rejalarini yaratish uchun kerakli asboblar majmuasi taqdim etilgan.

Tizim bo'limlar orasida bitta tizim doirasida vazifalarni taqsimlash imkoniyatini beradi (texnik xizmat, abonent bo'limi, hisob-kitob bo'limi). Foydalanuvchining har bir harakati tizimda batafsil qayd etiladi. Mijozlar o'z shaxsiy kabinetlariga kirish huquqiga egalar. U yerda mijozlar buyurtmalar holatini va hisoblaridan mablag'lar yechilish jarayonini nazorat qilib borishlari mumkin.

Foydalanuvchining shaxsiy kabineti abonent bo'limini taqdim etilayotgan xizmatlar holati bo'yicha ma'lumotnomalar berish vazifasidan ozod qiladi. Foydalanuvchi o'z xizmatlarini o'zi nazorat qilib boradi. Tizimning ochiqligi (barcha narsa foydalanuvchining ko'z o'ngida) Hisobotlarni chiqarishda xilma-xillik (moliyaviy hisobotlar, ko'rsatilgan xizmatlarning xajmi bo'yicha hisobotlar).

ID.uz tizimi bilan integratsiyaga ega ekanligi (ko'rsatiladigan xizmatlar uchun shartnomalar tuzish jarayonini yengillashtirish imkonini beradi).

Pasport ma'lumotlarini verifikatsiya jarayoni ID.uz tizimiga yuklangan (siz faqat foydalanuvchilarning tekshirilgan ro'yxatini olasiz).

To'lov tizimlari bilan integratsiya qilish imkoniyati (to'lovlarni onlayn qabul qilish).

Tizim quyidagi turdagi korxonalar uchun qulay bo'ladi: Internet provayderlar, Xosting provayderlar, kabelli televideniya, shuningdek mijozlar bilan onlayn usulda ishlaydigan istalgan kompaniyalar.

4. Statistika tushunchasi, bo'limlari, vazifalari


Statistika (lot. status — boylik, davlat) — turli hodisalar va jarayonlarni miqdoriy hisoblash, ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish yo'li bilan ijtimoiy hayotning umumiy qonuniyatlarini o'rganadigan ijtimoiy fanlar tarmog'i. Tor ma'noda statistika bironbir hodisa yoki jarayon to'g'risidagi jamlanma ma'lumotlar (ko'rsatkichlar) majmui (to'plami)ni bildiradi. Statistika murakkab va sertarmoq fanlar majmuidan iborat bo'lib, ijtimoiy hayotning xilmaxil hodisalarini o'rganadi va tahlil etadi. Statistikaning asosiy bo'limlari:

- statistikaning umumiy nazariyasi — miqdoriy taxlilning umumiy tamoyillari va usullarini o‘rganadi;
- iqtisodiy statistika — xalq xo‘jaligi ko‘rsatkichlari tizimini, uning tarkibini, nisbatlarini, sektorlararo, tarmoqlararo aloqalar va boshqalarni o‘rganadi);
- iqtisodiyot tarmoqlari statistikasi — sanoat, qishloq xo‘jaligi., qurilish, transport, aloqa statistikasiga bo‘linadi;
- demografik statistika mehnat, aholi bandligi statistikasi;
- ijtimoiy statistika — aholi turmush tarzini tavsiflaydigan ko‘rsatkichlar tizimini va ijtimoiy hayotning turli masalalarini o‘rganadi va h.k.

Ularning asosiy vazifasi xalq xo‘jaligi tarmoqlaridagi, jamiyat hayotining ayrim sohalaridagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni tavsiflaydigan ko‘rsatkichlar tizimini o‘rganish va ishonchli, ilmiy asoslangan ma‘lumotlarni aks ettirishdan iborat. Bu vazifalarni bajarish uchun S. fanida yalpi statistik kuzatish, hodisalarning o‘ziga xos tomonlari, xususiyatlari va ular o‘rtasidagi aloqalarni aks ettiradigan ko‘rsatkichlar tizimlari, statistik guruhlash natijalari bo‘lgan yig‘ma va kombinatsiyalashgan jadvallar kabi vositavosullar ishlab chiqilgan va amaliyotda qo‘llaniladi. S.da o‘rtacha miqdorlar va indekslar kabi umumlashtiruvchi tavsiflar muhim rol o‘ynaydi. S. usullari qo‘llaniladigan bir qator sohalar va shunga mos holda tibbiyot, sud, geol., sport va boshqa S. tarmoklari bor. Mat. va statistik tadqiqotlarning tutash joyida paydo bo‘lgan matematik statistika S. fanining alog‘ida bo‘limini tashkil etadi. Matematik S. statistik tadqiqotlarda statistik ma‘lumotlarni to‘plash, ularni tizimga solish, ishlash hamda ulardan ilmiy va amaliy xulosalar chiqarish usullarini o‘rganadi.

Iqtisodiyotda ma‘muriy buyruqbozlik boshqaruvidan bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o‘tish statistikada ham tub burilish yasadi. Hozirgi davrda O‘zbekistonda iqtisodiyotni xalqaro amaliyotda qabul qilingan hisob va statistikaga o‘tkazish hamda mahalliy sharoitlarga uyg‘unlashgan milliy hisoblar tizimini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish, makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni xorijiy davlatlar ko‘rsatkichlari tizimi bilan taqqoslash va tahlil qilish eng zarur vazifalardan biridir. Shu munosabat bilan O‘zbekiston Respublikasi hukumati 1994 y. 13 sent.da "O‘zbekiston Respublikasini xalqaro amaliyotda qabul qilingan hisob va statistika tizimiga o‘tkazishning davlat dasturi"ni qabul qildi va bu dastur izchil amalga oshirilmogda. O‘zbekiston Respublikasining "Davlat statistikasi to‘g‘risida" qonunida (2002 y. 12 dek.) respublikada statistika ishini tashkil etish va uning huquqiy maqomi belgilab berilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi tizimining tuzilmasi



5.Statistik faoliyatni rivojlantirish chora-tadbirlari

Statistik tizimda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ko‘magida ma‘lumotlar tayyorlash, ularning sifati va ochiqqligini oshirish, statistik hisobotlarni qisqartirish, sohalar statistik ko‘rsatkichlarini takomillashtirish jarayonlarida eski uslublardan voz kechish yaqin kelajakdagi asosiy vazifalardan biridir. Statistika ma‘lumotlarini to‘plash va qayta ishlashni optimallashtirishda axborot texnologiyalaridan yanada samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda elektron shakldagi statistika hisobotlarini to‘plash tizimini modernizatsiya qilish va yanada takomillashtirish ishlari tizimli yo‘lga qo‘yilgan.

– Asosiy e'tibor turli xil ma'lumot va analitik materiallarni olishda foydalanuvchilar uchun qulay imkoniyatlarni ta'minlash, statistik ma'lumotlarni taqdim etish va izohlash mexanizmini yanada takomillashtirishga qaratilmoqda.

– Markaziy apparat va hududiy statistika organlarida axborot-tahliliy bo'linmalarni mustahkamlash orqali tahliliy yo'nalish kuchaytirilmoqda.

O'zbekiston Prezidenti Davlat statistika qo'mitasi faoliyatini takomillashtirish to'g'risidagi qarorida xalqaro statistik axborotlar shaffofligi va ochiqligini ta'minlovchi statistikada keng qo'llaniluvchi statistik tahlil usullari, ko'rsatkichlar, baholash mezonlari va hisobot shakllarini joriy etish bo'yicha choralar ko'zda tutilgan. Qaror bilan 2017–2021 yillarda statistika tashkilotlari faoliyatini tubdan oshirish, statistik axborotlar va tizimlar sifatini yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlar rejasi tasdiqlandi. Davlat statistika qo'mitasi markaziy apparati tuzilmasi qayta ko'rib chiqildi. Boshqaruv qo'mitasida birinchi o'rinbosar, iqtisodiy va ijtimoiy statistika bo'yicha o'rinbosar, shuningdek, AKT va axborot xavfsizligi bo'yicha o'rinbosar ta'sis etildi.

2017–2021 yillarda statistik faoliyatni tashkillashtirish samaradorligini juz'iy oshirish, statistik axborot sifatini va uni tarqatish tizimini yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlar dasturi ma'qullangan. Idoralar zimmasiga statistik hisobotlarni qabul qilishda statistik ma'lumotlarni chuqur tahlil qilish, ulardagi nomutanosibliklarni aniqlash va ularni xo'jalik yurituvchi sub'yektlar birgalikda tezkor barataraf etishning takomillashtirilgan tartibini joriy etish vazifasi yuklatilgan.

Davlat statistika qo'mitasining rasmiy veb saytiga bo'lgan talablar alohida belgilab qo'yilgan. Uni foydalanish osonligi, statistik ma'lumotlarning shaffofligi va ochiqligi yuzasidan qayta ko'rib chiqish talab etiladi. O'sha yerda kerakli ma'lumotlar, tahliliy materiallar, turli kesimlarda ma'lumotlar vizualizatsiyasi, foydalanuvchilar bilan «onlayn maslahatchi» rejimida tezkor muloqot o'tkazish bo'limi o'rin olmog'i kerak. Shuningdek, statistik ma'lumotlar va mamlakatimiz haqidagi boshqa ma'lumotlarni xorijiy nashrlarda joylashtirish uchun yetakchi xalqaro va xorijiy moliyaviy institutlar bilan hamkorlik kengaytiriladi.

“2018 yil uchun davlat statistika hisoboti shakllarini tasdiqlash to'g'risidagi qaror” O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida davlat ro'yxatidan o'tkazildi.

Mazkur qaror bilan xo'jalik yurituvchi sub'yektlar tomonidan 2018 yilda davlat statistika organlariga taqdim etiladigan 103ta davlat statistika hisoboti shakli tasdiqlandi.

Xususan, unga ko'ra “Bozorlarda qishloq xo'jalik mahsulotlari va chorva mollari sotish to'g'risida hisobot” shakli bekor qilindi. “Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyati to'g'risida hisobot”, “Hududiy alohida bo'linmalarga ega bo'lgan yuridik shaxslarning ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi to'g'risida hisobot” va “Erkin iqtisodiy zona, kichik sanoat zona, texnopark, paxtachilik-to'qimachilik klaster tarkibiga kiruvchi tashkilot faoliyati to'g'risida hisobot” shakllari qo'shildi, shuningdek, ikkita hisobot shakli birlashtirildi.

6. Davlat statistika hisobotlarini elektron ko'rishda ifodalash

Hukumat tomonidan mamlakatimizda tadbirkorlikni yuritish uchun har tomonlama qulay bo'lgan biznes va investitsiya muhitini yaratish, shu jumladan huquqiy-me'yoriy bazani takomillashtirish, kichik biznes sub'ektlari hamda xorijiy investorlar uchun yaratilayotgan imtiyoz va yangiliklarning yaxlitligini ta'minlash, tadbirkorlik faoliyatini boshlash va yuritishda yuzaga kelayotgan byurokratik g'ov va to'siqlarga barham berish bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. So'nggi yillarda qabul qilingan qonunlar, farmonlar va qarorlar asosida tadbirkorlik sub'ektlarini ro'yxatga olishning soddalashtirilgan tartibi joriy etildi, tadbirkorlarga nisbatan har qanday sanksiyalar sud qaroriga binoan qo'llanilishi belgilandi, shuningdek, hisobot taqdim etishning shakl va turlari, tadbirkorlar faoliyatiga asossiz aralashuv va tekshirishlar soni keskin qisqartirildi.

Jumladan, O'zbekiston Respublika birinchi Prezidentining 2012 yil 16 iyuldagi «Statistik, soliq, moliyaviy hisobotlarni, litsenziyalanadigan faoliyat turlarini va ruxsat berish tartib-taomillarini tubdan qisqartirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-4453-sonli farmoni qabul qilingan.

Mazkur farmonda statistika hisobotlarini soddalashtirish, ularning shakllarini qisqartirish va taqdim etishning takomillashtirilgan mexanizmini joriy qilish bo'yicha vazifalar belgilab berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasida elektron raqamli imzo (eRI)dan foydalangan holda, elektron ko'rinishdagi statistika hisobotini yig'ish tizimi keng yo'lga qo'yildi. Bugungi kunga kelib barcha turdagi davlat statistika hisobot shakllarini xo'jalik sub'ektlari tomonidan elektron tarzda taqdim etilishi uchun to'liq imkoniyatlar yaratilgan.

Elektron imzodan foydalangan holda davlat statistika hisobotlarini taqdim qilishni internet tizimi orqali jo'natishning asosini «eStat 2.0» dasturiy ta'minoti tashkil etadi.

«eStat 2.0» axborot tizimining funktsional qulayliklari quyidagilardan iborat:

- statistik hisobotlarni topshirishda vaqtning tejalishi;
- davlat statistika organlariga hisobot uchun mas'ul mansabdor shaxslarning shaxsan kelishini bartaraf qilinishi;
- statistik hisobot shakllarining birlamchi shaxs tomonidan to'ldirilishi hisobidan turli xatoliklar sonining tubdan qisqarishi;
- elektron shaklda kiritilgan statistik hisobotlarning nusxasini qog'oz shaklda ham olish imkoniyatining mavjudligi;
- statistik hisobot shakllarining tezkor va o'z vaqtida yangilanib borilishi;
- axborot tarmog'i orqali uzatilayotgan axborotlarning maxfiyligini ta'minlanishi (barcha hisobotlar jo'natishda axborotlarni kriptografik himoyalash vositasidan foydalaniladi).

Korxonalar va tashkilotlar statistik hisobotlarni elektron usulda topshirishlari uchun:

- Internet xalqaro axborot tarmog'iga ulangan va O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi markazi tomonidan berilgan elektron raqamli imzoga ega bo'lishi kerak;
- Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytidan maxsus avtomatlashtirilgan axborot tizimi ko'chirib olib o'ratiladi;
- topshirilishi kerak bo'lgan hisobot shakli tanlab olinib to'ldiriladi va arifmetik, mantiqiy nazoratdan o'tkaziladi hamda hisobot jo'natiladi;
- ushbu tizim mustaqil ravishda flesh xotiradan elektron raqamli imzoni izlaydi va topgandan keyin hisobotni imzolaydi hamda hisobotni Davlat statistika qo'mitasi serveriga jo'natadi;
- statistika organlari xodimlari hisobotlarni maxsus dastur orqali qabul qilib oladi. Ularni tekshiradi, agar xatoliklari bo'lmasa, qabul qiladi, aks holda xatolarini ko'rsatib, hisobotni tuzatish uchun qaytarib yuboradi.

Bularning barchasi yurtimizda iqtisodiyotning, ijtimoiy-siyosiy barqarorlikning muhim tayanchi bo'lgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ravnaq toptirishga, mulkdorlarning o'rta sinfi safini yanada kengaytirishga, ichki bozorni raqobatbardosh va sifatli mahsulotlar bilan to'ldirish, yangi ish o'rinlari yaratish va shu asosda xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. Hisobotlarni elektron taqdim etilishi vaqtning tejalishiga katta yordam beradi.

Takrorlash uchun savollar:

1. ERP tizimining vazifasi nimalardan iborat?
2. Tashkilotlarda boshqaruv jarayonini avtomatlashtirish qanday amalga oshiriladi?
3. Billing tizimining imkoniyatlari.
4. Tashkilotlarda qanday larayonlar avtomatlashtiriladi?
5. Korporativ portalni joriy etish qanday vazifalarni yechim topish imkonini beradi?
6. Statistika tushunchasiga ta'rif bering.
7. Statistik faoliyat qanday jarayon?
8. eStat tizimining vazifasi.
9. «eStat 2.0» axborot tizimi qanday funktsional qulayliklarga ega?

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI



**“Iqtisodiyotda axborot-kommunikatsion texnologiyalar va tizimlar”
fanidan**

AMALIY ISHLAR

1 amaliy mashg'ulot. Zamonaviy kompyuter platformalari va ularning texnik xususiyatlari.

Ishdan maqsad: kompyuter platformalari, kompyuter tizimlari funksiyalari va texnik parametrlari xamda xususiyatlari bilan tanishish.

Topshiriqlar:

1. Nazariy qism bilan tanishib chiqing.
2. Kompyuteringizning texnik xarakteristikasi va xususiyatlariga ta'rif bering.
3. Kompyuterlar turlari, toifalari va ularning texnik xususiylari bayon eting.
4. Kompyuter platformalari IBM va MACINTOSHning bir-biridan asosiy farqini aniqlang.
5. Ona platada jamlangan qurilmalar nomi va funksiyasini tushuntiring.
6. Asosiy qurilmalarning funktsiyalari.

Nazariy qism

Ma'lumki, xozirgi kunda kompyuter platformalarining 2 xil turi mavjud. Bular IBM hamda Macintosh platformalaridir. Ular orasidagi asosiy farq asosiy elementlarning ishlash funktsiyalari, signallar uzatilishining boshqaruvi, signallarni kodlashdagi texnik parametrlardadir.

Kompyuter tizimi malumotlarni saqlashda va ularni qayta ishlashda foydalaniladigan komponentalar yeg'indisi. Har qanday kompyuter tizimi bir necha dasturiy va amaliy taminotdan



Kompyuter tizimining ayrim muxim komponentlarini ko'rib chiqamiz. Ular foydalanishga kiritilgan bo'lishi kerak.

Protessor.

Protessor kompyuter tizimining dastur kodini bajara oladigan qismidir.

Xotira.

Kompyuter xotirasi dastur kodini va ma'lumotlarni vaqtincha saqlab turadigan joyidir. Ma'lumotlar kompyuter manbaadan o'chirilganda yo'qoladi.

Qattiq disk.

Qattiq disklar ma'lumotlarni doimo saqlab turish uchun xizmat qiladi. Qattiq disklar dastur fayllarini, xujjatlarni va ma'lumotlar fayllarini saqlaydi.

Kiritish-chiqarish qurilmalari.

Kompyuter va foydalanuvchi orasidagi aloqani bog'lash uchun qo'llaniladigan qurilmalar. Eng keng tarqalgan kiritish-chiqarish qurilmalari bo'lib ular klaviatura, sichqoncha va ekran xisoblanadi.

1.Jadvalda kompyuter tizimining ayrim muxim qurilmalari ko'rsatilgan.

Jadval 1.

Qurilma	Bayoni
protessor	Dastur kodini bajaruvchi kompyuter tizimining qismi.
Xotira	SHKningo'chirilishigachaaxborotlar, ma'lumotlarvadasturlarvaqtinchasaqlanadiganjoy.
Qattiq disk	Tashki xotira funktsiyalari-doimo dastur fayllarini, ma'lumotlarni xujjatlarni va boshqa fayllarni saqlash joyi.

Kiritish-chiqarish qurilmasi	Kompyuter va foydalanuvchi orasidagi aloqani bog'lash uchun qo'llaniladigan qurilmalar. Kiritish-chiqarish qurilmalari bo'lib klaviatura, sichqoncha va ekran.
------------------------------	--

Protsessor kompyuter dasturi qamrab olgan instruktsiyalarni bajaradi. Shu sababli protsessor dasturning markaziy bloki xisoblanadi.

Ko'p xollarda kompyuterda bir vaqtning o'zida bir qancha ilovalar bajariladi. Shu sababli operatsion tizim uchun bir yoki bir necha protsessorlarda dasturni yoqish va efir vaqtini ajratish masalasi qo'yiladi.

Amaliy dasturlar kompyuter xotirasiga joylanadi. Shu sababli, xotiraning qaysi joyida turli ma'lumotlar saqlanganligini bilsa bo'ladi. Bundan tashqari, xotiraning qaysi qismi ishlatilmoqda va qaysi qismi qulayligini kuzatsa bo'ladi. Kompyuterning xotirasini boshqarish operatsion blokning vazifasidir.

Fayllar qattiq diskda saqlanadi. Operatsion tizim qattiq diskning qaerida joylashganini va diskning qaysi qismi ishlatilmoqda va qaysi qismi ishlatilmayotganligini kuzatib boriladi.

